

88.4  
K 21

V.M. KARIMOVA, Z.T.NISHANOVA,  
X.M.ALIMOV



# ETNOPSIXOLOGIYA VA DIN PSIXOLOGIYASI

TOSHKENT


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

884  
K 21

V.M. KARIMOVA, Z.T.NISHANOVA, X.M.ALIMOV

**ETNOPSIXOLOGIYA VA DIN  
PSIXOLOGIYASI**

*O'zbekiston respublikasi oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining  
buyrug'iga asosan 5210200 – psixologiya (umumiy psixologiya)  
yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*



930403

TOSHKENT – 2020

UO'K: 87.(052)

KBK 88.53

K 25

K 25

V.M. Karimova, Z.T.Nishanova, X.M.Alimov. Etnopsixologiya va din psixologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uy» 280 b.

ISBN 978–9943–6822–2–1

Ushbu darslik oliy o'quv yurtlarining talabalari, stajyor-izlamuvchi-tadqiqotchilari hamda etnopsixologik muammolar bilan qiziqadigan barcha mutaxassislarga mo'ljallangan bo'lib, unda etnopsixologiyaning fan sifatida ijtimoiy psixologiya tarkibida rivojlanish tarixi, etnopsixologik qarashlarning ilmiy manbalari, dastlabki o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va ulardan chiqarilgan xulosalar asosida uning o'z predmetini anglash jarayonlari muxtasar bayon etilgan. Darslikda etnopsixologiya o'rganadigan alohida mavzular, ularni shakllantiruvchi ijtimoiy hamda psixologik omillar, etnik guruhlar o'rtasida tadqiqot olib borishda qo'llaniladigan asosiy metodlar va ularga qo'yiladigan talablar ham tavsiflangan. Jumladan, milliy xarakter, etnik qiyofa, milliy urf-odatlar va an'analar, milliy ta'b, ong va o'zini o'zi anglash jarayonlarida etnosentrizmning hamda etnik stereotiplarning namoyon bo'lishiga oid ilmiy asoslangan ta'riflar, misollar bilan mustahkamlangan tarzda keltirilgan.

\*\*\*

Учебник предназначен для студентов вузов, начинающих исследователей и всех специалистов, интересующихся этнопсихологическими проблемами, в котором описываются история развития этнопсихологии как науки в структуре социальной психологии, научные источники этнопсихологических взглядов, предварительные научные исследования, на основе которых сделаны соответствующие выводы с целью понимания процесса предмета. Учебник также описывает конкретные темы, изучаемые в этнопсихологии, социальные и психологические факторы, которые их формируют, основные методы, используемые в исследованиях между этническими группами, и требования к ним. В частности, подкрепляются научно обоснованные определения и примеры проявления этноцентризма и этнических стереотипов в процессе формирования национального характера, этнического облика, национальных обычаев и традиций, национального вкуса, сознания и самосознания.

\*\*\*

*The textbook is intended for university students, novice researchers and all specialists interested in ethnopsychological problems, which describes the history of the development of ethnopsychology as a science in the structure of social psychology, scientific sources of ethnopsychological views, preliminary studies and conclusions based on the conclusions drawn from them, the processes of understanding the subject. The textbook also describes the specific topics studied in ethnopsychology, the social and psychological factors that shape them, the main methods used in research between ethnic groups, and the requirements for them. In particular, scientifically grounded definitions and examples of manifestation of ethnocentrism and ethnic stereotypes in the process of national character, ethnic appearance, national customs and traditions, national taste, consciousness and self-awareness are supported.*

UO'K: 87.(052)

KBK 88.53

*Ushbu darslik "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli IT3-20170923121 raqamli 2018-2020 - yillarga mo'ljallangan amaliy loyiha doirasida tayyorlandi.*

**Tagrizchilar:**

Sh.X.Abdullayeva – TDSHU dotsenti, psixologiya fanlari doktori;

S.X.Jalilova – TDPU dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

ISBN 978–9943–6822–2–1

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uy», 2020.

## KIRISH

O'tmishni, milliy qadriyatlarni bilish, donishmand xalqimizning asriy an'ana va udumlarini o'rganish ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, udumlari, bebaho qadriyatlari mavjudki, ularni asrab-avaylash, hurmat qilish, kelgusi avlodlarga yetkazish orqali ularda milliy g'urur va iftixor hislarini rivojlantirish, qadriyatlarni ulug'lash bilan bog'liq fazilatlarni shakllantirish har bir davrlarda ham eng dolzarb masalalardan bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil yakunlarida "Eng avvalo yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi", - deb ta'kidlab o'tdi.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularni salomatligini saqlash, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'limni sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.<sup>1</sup>

Yurtboshimizning ziyolilar va millatimiz fidoyilar oldiga qo'ygan bu vazifalari yurtimizda psixologiyaning bir tarmog'i hisoblanmish etnopsixologiyaning rivojlanishi uchun turtki bo'ldi. Mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatdan takomillashtirish muammosi doirasida yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyalari singdirishda etnopsixologik bilimlarning o'rni mavjudligi e'tirof etildi. Pedagog va psixologlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari qatorida madaniyat va san'at, ijtimoiy ish sohalarida kadrlar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga ham "Etnopsixologiya" fani kiritilganligi bu sohaning ahamiyati va nufuzini ko'rsatadi.

<sup>1</sup>Harakatlar strategiyasi . lex.uz

qo'shni xalqlardan ustun qo'yish hollari kuzatilganki, bu tabiiy turli noroziliklarning tug'ilishiga sabab bo'lgan. Shuning bilan birgalikda xalqlarning voqelik va tabiatni idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'ziga xosligini hisobga olmaslik, etnik o'ziga xosligini inkor etish, milliy munosabatlarda hisobga olmaslik mumkin emasligini tan olmas edilar. Shu bois ham etnopsixologiya fan sifatida rivojlanmadi, hattoki, sobiq sho'rolar davrida bu fan psixolog kadrlar tayyorlovchi fakultetlarning o'quv rejasiga ham kiritilmadi. Ijtimoiy psixologiyaning o'rganishi mumkin bo'lgan mavzusi sifatida qisqa ma'ruzalar tarzida psixologiya fakultetlarida nomiga o'qitildi xolos.

**Etnopsixologiya** – bu psixologiyaning shunday tarmog'iki, u ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruhlarni ham o'rganadi. "Etnopsixologiya" atamasi "etnologiya" va "psixologiya" tushunchalarining qo'shilishidan tarkib topgan bo'lib, yunoncha "etnos" - xalq, qabila, "psixologiya"- ruh ilmi, degan ma'nolarni anglatadi. Bu fan ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq-atvorini, zamonaviy tilda ataladigan bo'lsa "mentalitetini" o'rganadi. **"Etnopsixologiya"** - etnologiya va psixologiya fanlarining qo'shilishidan tashkil topgan bo'lib, yunoncha "etnos" xalq, elat, qabila, "psixyu"- qalb, ruh va "logos" ilm, ta'limot, degan ma'nolarni anglatadi. Demak, **etnopsixologiya xalq (etnos) ruhi haqidagi fandır.** Bu fan ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq-atvorining, zamonaviy termin bilan aytib, "mentalitetini" o'rganadi. **Etnik guruhlar etnopsixologiya fanining obyektidir.** Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va did (ta'b), etnik ong va milliy o'zini o'zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o'rganish obyekti hisoblanadi. Etnos va uning vakillarining psixik chizgilari, etnoslararo o'zaro ta'sir va nizolar **etnopsixologiyaning predmetidir.**

## Etnopsixologiya fanining tadqiqot sohasi

"Etnopsixologiya" - etnologiya va psixologiya fanlarining qo'shilishidan tashkil topgan bo'lib, yunoncha "etnos" xalq, qabila, "psixologiya" - ruh ilmi, degan ma'noni anglatadi. Bu fan ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq-atvorining, zamonaviy termin bilan aytganda, "mentalitetini" o'rganadi.

Etnos va uning vakillarini psixik chizgillari, etnoslararo o'zaro ta'sir va nizolar esa etnopsixologiya fanining predmetidir.

**Etnopsixologiya** – xalq (etnos) ruhi haqidagi fandır. Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va did (ta'b), etnik ong va milliy o'zini o'zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o'rganish obyekti hisoblanadi.

**Etnik gurublar (etnoslar) etnopsixologiya fanining obyekti**dir.

Etnos, xususan, millatning psixik qiyofasini o'rganish

Etnik xarakterni o'rganish

Etnopsixologiya fani vazifalari

Psixik qiyofa va xarakter jihatdan etnik gurublar orasidagi farqlarni o'rganish


Etnik xarakter tipologiyasini o'rganish

## Etnopsixologiya oldida turgan vazifalar

1) Xalq madaniyatini o'rganish, uning psixologik mohiyatini ochib berish.

2) Din va etnos psixologiyasi o'rtasidagi mushtaraklikni o'rganish.

Etnik psixologiya "etnik psixikani o'rganuvchi fan. Etnik psixika o'z ichiga etnik guruhning taraqqiyoti davomida o'zlash-tirilgan xususiyatlar, jarayonlar va chizgilarni oladi.



Milliy psixologiya odatda psixologik darsliklar va ayrim lug'atlarda **etnik psixologiya** doirasida va aynan shunday atama vositasida o'rganiladi. Etnik psixologiya yunoncha "etnos" (*ethnos*) – xalq, qabila, so'zlaridan olingan bo'lib, odamlarning u yoki bu millatga yoki etnik uyushmaga aloqadorligidan kelib chiqadigan psixologik xususiyatlari va xulqini o'rganadi. Etnik psixologiyaga aloqador dastlabki yozuvlar qadimgi tarixiy hamda geografik asarlarda qayd etilgan bo'lib, ularda mualliflar qadimiy xalqlarning o'ziga xos spetsifik qirralarini millat qiyofasi sifatida talqin etganlar. Faqat XIX asrga kelibgina etnografiya va antropologiya kabi fanlarning rivojlanishi munosabati bilan etnik psixologiya mazmunliroq bo'lib, tizimli o'rganila boshlandi.

Yuqoridagi muammolar avvalo, ularni empirik jihatdan tadqiq etishni, bunda ishonchli usullardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, milliy psixologiyaning xususiyatlarini o'rganish uchun predmetlararo muvofiqlik va hamkorlikni talab qilardi. Chunki etnik psixologiya shu qadar nozik va murakkab ijtimoiy xulq shakli, uni ayrim olingan bitta fan doirasida mukammal o'rganishning ilojisi yo'qligini olimlar hamisha ta'kidlaydilar. Ya'ni etnopsixologiyaning serqirra muammolarini faqat ijtimoiy psixologiya fani doirasida o'rganish mumkin emas.

Ushbu muammolar hozirda, ya'ni mustaqil O'zbekiston sharoitida, ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtirayotgan masaladir. Chunki davr etnopsixologiyadan shunday empirik ma'lumotlar kutmoqdaki, u faqatgina milliy ongga taalluqli bo'lgan hozirgi va o'tmishdagi holatni emas, balki millatning ertangi kunini, uning ongi qaysi tomonga o'zgarishini, millatlararo sodir bo'ladigan jarayonlarni bashorat qilmog'i lozim. Buning uchun esa unga kuchli etnopsixologik nazariya va ishonchli metodlar kerak. O'zbekiston olimlari oxirgi paytlarda masalaning xuddi ana shu tomoniga katta e'tibor bermoqdalar. Chunki sobiq Ittifoq sharoitining o'zi ana shunday kuchli nazariyaning bo'lishi uchun anchagina to'g'anoq bo'lgan, empirik tadqiqotlar esa, avval ta'kidlanganidek, tor guruhlar doirasidan, avvalo, oilalar doirasidan chiqmagan edi.



## Etnopsixologik tadqiqotlarda ishlatiladigan metodlar va ularga qo'yiladigan metodologik talablar

Millatlararo munosabatlar tobora yaxshilanib borayotgan, OAV orqali dunyoning qaysi chetidan bo'lmasin u yoki bu xalqqa oid ma'lumotlarga ega bo'lish juda oson bo'lib qolgan bir sharoitda turli millat va xalqlarning psixologiyasini o'rganish, millatlararo qiyosiy tajribalar o'tkazish fan manfaatlariga to'g'ri keladi. Shu bois ham olimlar ijtimoiy psixologiyaning qaysi muammosi bo'lmasin, uni u yoki bu ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy muhit nuqtayi nazaridan o'rganishni afzal ko'radilar. Bu etnopsixologik tadqiqotlarda representativ, ishonchli metodlar masalasini dolzarb etadi.

Chet ellarda va mamlakatimizda amalga oshirilgan ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, etnopsixologik tadqiqotlarda xilma-xil uslub va metodlar qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Chunki bunday tadqiqotlarda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi turlicha testlardan tortib, proyektiv metodlar, eksprementlarning turlicha ko'rinishlari, so'roq metodlari - anketa, intervyu, sotsiometriya, shkala metodlari va boshqalar ishlatiladi. Bu metodlar hozirgi kunlarda ham "madaniy muhit va shaxs", guruhlararo munosabatlar hamda qiyosiy tadqiqotlarda qo'llanilmoqda. Bunday ishlarni faqatgina ijtimoiy psixologlar emas, balki umumiy psixologiya bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'tkazmoqdalar. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, etnopsixologik metodlarning tanqisligi kun sayin sezilmoqda. Chunki etnopsixologiya muammosi bilan shug'ullanishni maqsad qilib qo'ygan har bir tadqiqotchi yo mavjud metodikalardan birini qayta o'zgartirishga, yoki bo'lmasa, o'zicha yangi metodni kashf etishga majbur bo'lmoqda. Nihoyat, etnopsixologik metodlarni qo'llashning noqulayligi shundaki, masalan, Amerikada juda yaxshi natija berib, ishonchli ma'lumotlar to'plashga imkon bergan metodika Osiyo mamlakatlari yoki bizning respublikamiz sharoitida umuman hech narsani o'lchamasligi, aniqlamasligi mumkin. Masalan, *Ravning* matrik testi va muhit ta'sirlari daxlsiz, deb hisoblangan *Kettellning* intellekt testi ham baribir, qisman bo'lsa-da, muhit sharoitlarini hisobga olishni talab qiladi. Bundan tashqari, ularni sharhlash, ma'lumotlarni tahlil qilish masalasida alohida ehtiyotkorlik va ziyraklikni talab qiladi. Shuning

uchun ham hozirda butun jahon olimlari har qanday madaniy muhitdan ham yuqori turadigan, universal test yoki metodika yaratish fikrining asossizligi haqida umumiy fikr bildirmoqdalar.

Etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishni maqsad qilib qo'ygan har qanday tadqiqotchi asosiy prinsiplar sifatida madaniy muhit sharoitlarining xilma-xilligi va ularning o'zaro bir - birlariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olmog'i zarur. Bu narsa etnopsixologik tadqiqot dasturini tuzishda albatta hisobga olinishi kerak. Misol uchun, O'zbekiston sharoitida tadqiqot o'tkazilmoqchi bo'linsa, quyidagi narsalarga e'tiborni qaratish lozim:

1) shu hudud sharoitida yashovchi turli millatlarga xos bo'lgan umumiy psixologik omillar va ularni aniqlash usullari;

2) faqat o'zbek millatiga xos bo'lgan psixologik sifatlar va omillarni aniqlash;

3) aniqlangan omillarni yoki psixologik sifatlarini o'lchaydigan yoki eksperimental usulda tekshirishga imkon beradigan metodlarni tanlash va ularni aniq sharoitlarga moslash;

4) tadqiqotchilar guruhini tekshirilayotgan milliy guruh tilini, urf-odatini biladigan xodimlar bilan ta'minlash. Chunki, tadqiqot obykti hisoblangan guruhda o'sha guruh tilida tadqiqot o'tkazish kerak, toki tekshiriluvchilarga qo'yilgan har bir talab, savol va topshiriqlar ular uchun tushunarli bo'lsin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, u yoki bu milliy guruh psixologiyasini, undagi etnik stereotiplarni tekshirishga qaratilgan maxsus metodlar yo'q, shuning uchun ham tadqiqotlar mavjud metodlar orasidan tanlab, saralab olinadi. Keyingi bosqichda esa tanlangan metodlar tekshiruv o'tkaziladigan mahalliy shart-sharoitlarga moslashtiriladi, kerak bo'lsa, u tildan bu tilga tarjima qilish kerak bo'ladi. Masalan, Qoraqalpog'istonda tadqiqot o'tkazishda albatta har bir metodika kamida uch tilda bo'lishi inobatga olinishi lozim: o'zbek, qoraqalpoq hamda zarurat bo'lsa, rus tillarida. Tarjima xususida shuni aytish kerakki, maxsus psixologik testlar yoki metodlarni (anketalar, so'roqlar, shkalalar savollarini) tarjima qilish tarjimondan yuksak bilimdonlik va professional sifatlarini talab qiladi. Aks holda, metodika o'z qimmatini yo'qotishi yoki kerakli sifatni aniqlamasligi yoki o'lchamasligi mumkin. Hattoki, noverbal testlarni turli sharoitlarda

qo'llab, olingan ma'lumotlarni sharhlash bosqichida uning mazmuni yoki maqsadi o'zgarganligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun ham har qanday metodik uslubni qo'llashdan oldin uni kichikroq guruh doirasida sinab ko'rish va natijalarni ekspertlarga berib yoki boshqa yordamchi metodlar yordamida qayta sinovdan o'tkazish yo'li bilan tekshirib olish maqsadga muvofiqdir.

Konkret etnopsixologik tadqiqotlarga qo'yiladigan yana bir talab – tadqiqotni tabiiy sharoitlarda, tekshiruvchilar uchun tanish bo'lgan joylarda qisqa ko'rsatmalar berish yo'li bilan o'tkazishdir. Chunki etnopsixologik tadqiqotlarda ko'pincha turli yosh, kasb va ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar ishtirok etadilar, ishtirokchilar soni oddiy laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan tekshiruvlardan farqli o'laroq, ko'pchilikni, ba'zan minglab nafar respondentlarni nazarda tutadi. Shuning uchun ham ularning barchasi uchun tushunarli, aniq topshiriqlar tizimini tuza olish ham psixologdan qator professional malakalarni talab qiladi.

Bizning nazarimizda, hozirgi paytda etnopsixologik muammolar orasida eng muhimi u yoki bu millat vakillaridagi etnik stereotiplarni tadqiq qilishdir. Bunda qanday metodlardan foydalanish mumkin? Rus tadqiqotchisi *G.U.Ksoyevaning* yozishicha, bu yerda to'rt guruhli metodlarni ko'rsatish mumkin:

1. **Shkalali o'ltrov metodlari** – ular asosan millat vakillaridagi turlicha etnik ustanovkalarni tekshiradi. Masalan, *Bogardusning* mashhur shkalasi: qiyosiy fikrlash yo'li bilan berilgan juftliklar – ustanovkalarni har bir tekshiriluvchi tomonidan aniq baholanishga asoslangan. Yoki *Laykartning* “baholashlar yig'indisi” metodi ham u yoki bu millat vakiliga xos ustanovka – fikrlarga tekshiriluvchining e'tirozi yoki e'tirofini aniqlaydi. Bu metodlar butun jahon miqyosida ko'pgina tadqiqotlarda ishlatilgan va mahalliy sharoitlarga moslashtirish jihatidan rekord qo'ygan desak bo'ladi.

2. **Kuzatish va so'roq metodlari** – bunda o'sha madaniy muhitga xos bo'lgan, uning bevosita boyliklari hisoblangan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, maishiy sharoitlar, odatlar, an'analar va hokazolar tashqaridan o'rganiladi. So'roq metodlari ichida ko'proq anketa usuli qo'llaniladi, bunda ham millat vakilining turmush tarzi, avtobiografik ma'lumotlari aniqlanib, ilmiy xulosalar kontent-analiz qilinadi. Amerikalik olimlar *Katts* va *Breylilar* so'roq metodining

o'ziga xos ko'rinishini etnik stereotiplarni aniqlashda ishlatishgan. Masalan, ular qiziqtirayotgan masala bo'yicha imkoni boricha ko'p javoblar ro'yxatini tekshiriluvchiga berib, undan shu javoblar ichidan "o'zinikini" tanlab belgilashni so'rashgan. Bundan tashqari, 84 xil sifatni o'z ichiga olgan ro'yxatdan o'z millatiga va boshqa millatga xos bo'lgan 5 yetakchi sifatni ajratib berish topshirig'ini berishgan. Shu yo'l bilan etnik stereotiplar aniqlangan.

3. *Proyektiv metodlar* – etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ushbu guruh metodlarga asosan *Rorshaxning* "siyoh dog'lari" testi, tematik appersepshion test (TAT), boshlangan jummalarni tugatish testi, fotosuratlarini baholash testi, *Lovenfel'dning* mozai-kalari testi va boshqalar kiradi. Mavhum berilgan topshiriqlarni bajarish sifati va javoblarning yo'nalishi bo'yicha ham turli millatlarga oid stereotiplar o'rganilgan.

4. *Shaxsning alohida sifatlarini aniqlashga qaratilgan testlar*. Masalan, *G.Deyker* va *N.Friydlarning* milliy xarakter xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan testlari. Ular asosan shaxsning ta'sirchanligi va hissiy reaksiyalarini o'rganadi. Bundan tashqari, shu guruh testlarga alohida intellektni tekshiruvchi, ma'naviy dunyoqarashni o'rganish, adolat hissini aniqlash, badiiy did testlari va boshqa testlar kiradi. Ayniqsa, milliy stereotiplarni aniqlashda millatning tilini barcha tilshunoslik uslublari bilan o'rganib chiqish ham juda qimmatli ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Chunki, til u yoki bu millat vakilining o'zi mansub millatga xos milliy qadriyatlarni, stereotiplarni o'zlashtirishda asosiy vosita rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham etnopsixologik o'z tadqiqotlarini tilshunos, etnograf, etnolog, sotsiolog, tarixchilar hamkorligida o'tkaziladi. Tadqiqotchi avvalo tekshiruv o'tkazayotgan muhitdagi insonlar tilini, til orqali "dili"ni bilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zlarining "O'zbekiston mustaqillik ostonasida" asarlarida ta'kidlaganlaridek, "O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan, uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi"<sup>2</sup>. Shuning uchun

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent, "O'zbekiston", 2011. B. 69.

milliy xarakter, urf-odatlar, qadriyatlarini o'rganishni maqsad qilgan inson shu xalq va millatning tilini avvalo mukammal bilishi lozim.

Yuqorida aytib o'tilgan metodologik va metodik uslublar milliy psixologiyani o'rganishda faqat asosiylari xolos. Chunki millatning ko'p qirralari psixologik holatini o'rganishda yana ko'plab usullardan foydalanish mumkin, bu narsa tadqiqotning maqsadlariga, tadqiqotchining esa uslubiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Nima bo'lganda ham oxirgi yillarda O'zbekistonda o'tkazilayotgan qator ilmiy tadqiqot ishlarida eng avvalo, aynan milliy-madaniy muhitimizga mos keladigan metodikalarni ishlatish, xorijliklar ishlab chiqqan metodikalarni avval milliy muhitimizga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda o'sha test yoki metodik uslub bir necha ming respondentlarda qo'llanib ko'riladi, olingan natijalar yana bir boshqa uslub yordamida olingan ma'lumotlar bilan ekspertlar yordamida validiligi nuqtayi nazaridan o'rganiladi, natijalar solishtiriladi va shunday so'nggina katta auditoriyalarda qo'llash, natijalarni sharhlashga ruxsat beriladi. Bu ijtimoiy-psixologik metodikalarni qo'llashda etika normalariga rioya qilish, demakdir.

## **2. Etnopsixologiya fanining muammolari:**

Odatda, olimlar etnik psixologiyaning asosiy muammolari sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

- 1) insonlar amalga oshiradigan faoliyat tipi bilan ularni qurshagan madaniy muhit va ustuvor madaniyatning o'zaro bog'liqligi;
- 2) etnik uyushmalar (guruhlar) a'zolarining ijtimoiy xulq-atvori va psixikasidagi xususiyatlar, ularning o'zaro bog'liqligi;
- 3) milliy o'zini - o'zi anglash va milliy stereotiplarning tabiati, ular bajaradigan funksiyalar va o'zgarishiga oid qonuniyatlar;
- 4) etnosning psixik tuzilishini o'rganish (xususan-millatning), qanday psixologik qonunlarga bo'ysunishi, rivojlanishi va funksiyalarini aniqlash;
- 5) etnik (milliy) xarakter muammosi;
- 6) etnik guruhlarning psixik tuzilishi va xarakteri o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash.

Etnik xarakter tipologiyasini ochib berish.

Tadqiqotchilar tomonidan etnopsixologiya masalalarini o'rganishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsa ham, lekin uning ko'p muammolari hali o'zining yechimini to'la topgan emas. Shulardan biri – milliylik va baynalmilallik xususiyatlarining o'zaro munosabatidir. Millat, sinflar va turli ijtimoiy guruhlarini o'rganishda faylasuflar, sotsiolog va tarixchilar, asosan, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, tarkibi, ijtimoiy munosabatlariga e'tiborni qaratgan bo'lsalar, psixologlar esa, shaxs psixologiyasini o'rganish bilan cheklanib qolishgan. Ayrim psixologlar esa (S.L.Rubinshteyn) umuman ijtimoiy va etnopsixologiya fanlarining mavjud bo'lishligini shubha ostida olgan.

Etnos iborasi XIX asr oxirlarida ilmiy tushuncha sifatida fanga kiritildi. Biroq etnos tushunchasining mazmuni xususida hozirga qadar olimlar o'rtasida yakdillik mavjud emas:

1. **Etnos** bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odat, marosimlar va an'analari tizimiga ega bo'lgan, o'zining kelib chiqishi birligini tan oluvchi o'ziga xos kishilar guruhi (S.M.Shirokogorov).

2. Etnos til, davlatga tegishlilik, iqtisodiy aloqalar, madaniy turmush, din birligi singari bir qator ijtimoiy aloqalar natijasiga asoslanadigan kishilar jamoasi (S.A.Tokarev).

3. **Etniklik** bu real ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar sharoitida o'zaro tushunarli tilda so'zlashadigan kishilar orasida o'zaro shakllanib boradigan va o'zining ma'lum madaniy xususiyatlarini butun hayoti davomida anglab boradigan har qanday jamoadir (N.N.Chebok-sarov).

**Shunday qilib, etnos** – bu kishilar ijtimoiy guruhlarining tarixiy vujudga kelgan shakllari, jamoa bo'lib yashashning alohida shaklidir.

**Millat** atamasi qadimda va o'rta asrlarda kelib chiqishi bir bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan ma'lum bir guruh kishilariga nisbatan qo'llanilgan. Millatning ilmiy konsepsiyasi asoschisi E.Renanning fikricha, millat ma'lum guruhga taalluqli kishilarning birgalikda yashashi, oldingi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'analarni saqlab qolishga bo'lgan harakati hamda umumiy maqsad yo'lida birlashishidir.

Bir etnos tarkibiga o'nlab millatlar kirishi mumkin. Masalan, millat tarkibidagi etnik diniy guruhlar (bolgarlar orasidagi musulmon va xristianlar, nemislar orasidagi protestantlar); etnik irqiy guruhlar (Amerika millati bunga misol bo'la oladi).

Etnos millatdan kengroq tushuncha bo'lganligi uchun unga millatdan tashqari, irqlar, urug'lar, qabilalar, elatlar kabi miliy guruhlariga xos etnik guruhlar ham kiradi.

#### **Etnoslar quyidagilarga binoan uyushadi:**

1. Etnoslar umumiy biologik ajdodlarga ega, yo shunday afsonalar mavjud. M.: turkiylar xususida shunday afsonalar mavjud.
2. Umumiy hududda rivojlanadi.
3. Umumiy madaniyat va an'analarga ega.
4. Boshqa shunday ijtimoiy guruhlariga o'zlarini qarshi qo'yadi.
5. Taraqqiyotning yuqori darajasida o'z davlatchiligini tashkil etadi.
6. Etnos va millatning umumiy din birligi bo'ladi.
7. Umumiy til.
8. Etnos a'zolari umumiy psixologik xususiyatlarga ega.

### **3. Etnik psixologiyaning kategorial apparati**

**Ijtimoiy guruh** – ba'zi bir umumiy xislatlar va maqsadlar negizida birlashgan ikki yoki undan ortiq odamlar jamoasi.

**Referent guruh** – shaxs uchun muhim ijtimoiy guruh.

**Millat** – minglab va millionlab odamlardan iborat katta ijtimoiy guruh.

**Etnos** – tabiiy tarixiy jarayon natijasida paydo bo'ladigan o'ziga xos ijtimoiy guruh.

**Xalq** – muayyan davlat hududida yashovchi etnosdir. Xalqning etnosga taalluqliligini ongli qabul qilgan qismi – **millat** deb yuritiladi.

Ikki yoki undan ortiq xalqqa taalluqli individlar **metislar** nomini olgan.

**Urug'** – qondosh qarindoshlarning jamoasi bo'lib, umumiy ajdodni bildiradi. Urug'lar esa o'z navbatida qabilalarga birlashadi. Urug'lar dastlabki ibtidoiy jamoa davrida qarindoshlarni

birlashtirgan asosiy jamoat tashkiloti hisoblangan. Ibtidoiy jamoa davrida urug'lar bir necha qarindosh oilalarni birlashtirgan bo'lib ular umumiy xo'jalik yuritishgan<sup>3</sup>.

Urug'ning ta'rifidan ko'rinib turibdiki, undan oldin keladigan tushuncha oila bo'lsa, keyin keladigan tushuncha bu qabiladir.

**Oila** – nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan<sup>4</sup>.

**Qabila** – (arab) - urug'-aymoq, bir ota-onadan tarqalgan bir necha urug' uyushmasi, etnik birlik. Nasl-nasab jihatidan bir xil bo'lgan kishilar toifasi, guruhi. Qabila a'zolari orasidagi qon-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi, urug' va bo'g'inlarga birikishi uning asosiy belgisidir. Qabila ibtidoiy jamoa davridagi etnik umumiylik tipidir. Shuningdek, qabilaning boshqa belgilari ham mavjud bo'lib, bular uning ma'lum bir hududga ega ekanligidan, qabiladoshlarning iqtisodiy birligi, yagona qabilaviy tili va nomi mavjud. O'rxun yozuvlarida mustaqil qabila barpo etish uchun 700 kishi bo'lishi lozimligi aytilgan. Qabilalarning boshqa yerlarga ko'chib o'tishi, ularning o'zaro qo'shilib ketib, yanada yirikroq etnik birlik – elatlarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Etnopsixologik muammolarni tadqiq etuvchi jahon olimlarining juda ko'pchiligi, bu muammolarni o'rganish qiyin ekanligini, bu sohada uchraydigan murakkabliklarni ta'kidlashadi. Chunki etnopsixologik xususiyatlarni empirik tadqiq etish qiyin. Barcha murakkabliklarni qamrab oluvchi metodlar yaratilmagan. Boz ustiga bir mamlakatda, boshqa bir madaniyatni o'rganish uchun yaratilgan metodlar, ikkinchi bir xalqlarni o'rganishda natija bermasligini, hatto, qarama-qarshi ko'rsatkich berishi mumkin. Bu sohadagi muammo yana shundaki, bir etnos ichidagi turli sinflar, sotsial guruhlarda milliy xususiyatlarning namoyon bo'lishi ma'lum darajada bir-biridan farqlandi. Shuning bilan birgalikda, tadqiqotchi etnik psixologiyadagi o'ziga xoslik, boshqa etnik guruhlardan farqli etnopsixologik xususiyatlar qotib qolgan, o'zgarmaydigan narsa emas. Ular ma'lum bir ijtimoiy o'zgarishlar natijasida, ayrim bir

<sup>3</sup> Бандурка А.М., Друзь В.А. Этнопсихология: Учеб. пособие. - Харьков: Изд-во Ун-та внутр. дел. 2000. - 240 с.

<sup>4</sup> Shoumarov G'.B., Rasulova Z.A. Oila ensiklopediyasi. –T.: IIM-ZIYO-ZAKOVAT. 2016. B.233.



xususiyatlarini o'zgartirishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi xislatlarni hosil qilishi mumkin.

Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va did (tab), etnik ong va milliy o'zini o'zi anglashning vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyaning o'rganish predmeti hisoblanadi.

#### 4. Etnopsixologiyaning fanlararo xarakteri

O'z navbatida shuni ta'kidlash o'rinliki, etnopsixologiya ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiy yo'nalishi hisoblanadi. Etnopsixologiyaga yaqin bo'lgan fan tarmog'idan biri – bu etnografiya bo'lib, ayrim alohida olingan madaniyatlarning xususiyatlarini bir-biriga qiyoslab, solishtirib o'rganadi. Etnopsixologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, ya'ni uning eng yaqin hamkori bo'lgan fan – bu ijtimoiy psixologiyadir.

**Ijtimoiy psixologiya** – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fan, shaxs va jamiyat o'zaro bog'liqligida sodir bo'ladigan psixologik hodisalarni ta'bir etuvchi ilmiy yo'nalishdir. Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalariga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish – ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir. Shu kabi umumiy ta'riflardan yana biri - *ijtimoiy psixologiya turli ijtimoiy vaziyatlarda ro'y beradigan ijtimoiy muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fan*dir. Shu ma'noda etnopsixologiya turli etnoslarga mansub kishilar guruhidagi murakkab munosabatlarni o'rganuvchi va ularni tartibga solishga ixtisoslashgan fan tarmog'idir. Shu kabi va boshqa ommaviy psixologik jarayonlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sirini o'rganuvchi ijtimoiy psixologiya va uning xususiy tarmog'i bo'lgan etnopsixologiya ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarni bilishda va ularni boshqarishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, etnopsixologiya bilan ijtimoiy psixologiyani yaqinlashtiruvchi narsa – bu ikkala fanning ham turli ijtimoiy guruhlar bilan, aniqrog‘i, katta ijtimoiy guruhlarning muammolarini o‘rganishi va ularning yechimi bilan shug‘ullanishidir. Ijtimoiy psixologiyada katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o‘z navbatida endi shakllanayotgan – diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog‘onasiga ko‘tarila olgan jamoa turlariga bo‘linadi.

Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko‘pchilikni tashkil etib, ma’lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta’minlaydi. Katta guruhlarni tashkil etuvchilar ko‘p sonli bo‘lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarining o‘ziga xosligi tufayli bo‘lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko‘pincha kichik guruhlarda ish olib borishni afzal ko‘radilar. Lekin katta guruhlar, odamlar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o‘tilganidek, ko‘pchilikni qamrab olishdagi qiyinchiliklar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o‘rganishga qaratilgan metodik ishlar zaxirasining kamligidir.

Katta guruhlarning psixologiyasini o‘rganishga mo‘ljallangan maxsus metodikalar ijtimoiy psixologiyada ham, sotsiologiyada ham kam ishlab chiqilgan. Masalan, ishchilar yoki ziyolilarning psixologiyasi o‘rganilishi kerak, deylik. Avvalo o‘sha ishchilarning soni ko‘p, qolaversa, ishchilarning o‘zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotganligi, turli millatga mansub kishilar ekanligidir. Ijtimoiy psixologiya har bir katta guruhga taalluqli bo‘lgan asosiy, yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o‘rganishni maqsad qiladi. Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo‘lgani uchun ham har qanday guruhni o‘rganishdan oldin, xoh bu uyushgan yoki uyushmagan toifalilar guruhi bo‘lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo‘lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo‘lgan odatlar, udumlar, an’analar

o'rganiladi. Shu o'rinda ijtimoiy psixologiya etnopsixologiya bilan birlashib, etnik guruhlarni o'rganadi.

Etnopsixologiya bir necha fanlar oralig'ida paydo bo'lgan bo'lib, o'z muammolarini ular bilan hamkorlikda hal etadi.

Etnopsixologiya asosan etnologiya (xalq to'g'risidagi ta'limot) va etnografiya (xalqlar to'g'risidagi tavsifiy fan)lar bilan uzviy bog'langan.

Etnopsixologiya quyidagi bo'limlardan iborat:

– Umumiy etnopsixologiya (etnoslarning asosiy belgilarini o'rganadi);

– Maxsus etnopsixologiya (u yoki bu xalqning ruhiy holati va etnogenezi tavsiflaydi. M.: o'zbek, rus, tojik, qozoq, nemis, ingliz va h.)

– Qiyosiy etnopsixologiya (turli xalqlarning psixik xususiyatlarini qiyoslaydi);

– Amaliy etnopsixologiya (etnoslar va etnos ichki hayotining amaliy masalalari – ziddiyatlar, o'z-o'zini himoyalash kabi masalalar bilan shug'ullanadi).

Shunday qilib, etnopsixologiya o'z predmeti, obyekti, vazifalari, metodlari, kategorial apparatiga ega bo'lgan fan bo'lib, jamiyat sohasining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etadi.

## 5. Etnopsixologik tadqiqotlarda “Emic” va “Etic” yondashuvlar

Dastlabki etnopsixologik bilimlar qadimgi mualliflar – faylasuflar va tarixchilarning yozuvlarida tarqalgan: Gerodot, Gippokrat, Tatsit, Strabo. M.: Koulning ta'kidlashicha "... madaniy-tarixiy nazariya Gerodot g'oyasidan kelib chiqqan " [Koul, 1997, 33b.]. Gerodot nafaqat tarixning "otasi", balki etnologiya va etnopsixologiyaning “bobosidir”.

U juda ko'p sayohat qilib, sayohatlar paytida odamlarning e'tiqodlari va diniy marosimlari, san'at va kundalik hayoti haqida gapirib berdi. Gerodotning “Tarix” asarida biz, aslida, hayot tarzini o'rganishda yondashuv bilan duch kelamiz, chunki olim turli xalqlarning madaniyati va xususiyatlarini atrof-muhit bilan bog'lab tushuntirishga va ularni o'zaro taqqoslashga harakat qiladi: “Misrdagi osmon yerdagidan o'zgacha va ularning daryolari boshqa

daryolardan farq qiladi, shuning uchun misrliklarning urf-odatlari va an'analari deyarli har jihatdan boshqa xalqlarning urf-odatlariga ziddir".

Aksincha, bu soxta - **etik yondashuv**, chunki Gerodot har qanday "vahshiy" xalqni o'z vatandoshlari bilan taqqoslaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, Gerodot davrida "vahshiy" so'zi faqat bitta ma'noga ega edi - bu "ellinlar" dan farqli ravishda "boshqa" degan ma'noni anglatgan va o'zga ma'noga ega bo'lmagan. Garchi Gerodot ko'pincha mavjud bo'lgan xalqlar haqida juda xayoliy tasvirlarni taqdim etsa ham, u o'zi echki oyoqlari bo'lgan odamlar yoki yiliga olti oy uxlab yotgan odamlar haqida hikoyalar bilan o'lchamaydi. "... Uning "Tarixi" - bu qiziquvchan odam tomonidan tuzilgan, insoniy tafovutlar katalogi, u nisbatan qattiq baholardan holidir" [Koul, 1997, p. 22].

Gerodot etnografik qarashlarining eng yaxshi namunasi, shaxsiy kuzatishlar asosida tuzilgan skiflarning tavsifi hisoblanadi: unda xudolar, urf-odatlar, egizaklar urf-odatlari va dafn marosimlari haqida hikoya qilinadi, ularning kelib chiqishi haqidagi afsonalar takrorlanadi. Ularning jiddiyliги va shafqatsizligi kabi xarakterli xususiyatlari ta'kidlangan. Gerodot skiflarga berilgan fazilatlarini atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlari (Skifiya o'tloq a boy va to'liqinli daryolar bilan sug'oriladigan tekislik) va skiflarning ko'chmanchi turmush tarzini tushuntirishga harakat qiladi, buning yordamida "ularga o'zlari yo'l qo'ymasa, hech kim ularni bosib o'tolmaydi" [Gerodot, 1972, p. 198].

Qadimgi Yunonistonda nafaqat Gerodot atrof-muhitning psixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sirini qayd etgan. Doktor va tibbiy geografiyaning asoschisi Gippokrat (mil. avv. 460 - mil. avv. 377 yoki 356) ham umumiy nuqtayi nazarni ilgari surgan, unga ko'ra odamlar o'rtasidagi barcha tafovutlar, shu jumladan ularning fe'l-atvori va urf-odatlari geografik joylashuv va ularning yashash joylarining iqlimi bilan bog'liq.

O'rta asrlarda Yevropani dunyoning qolgan qismi bilan aloqalari qadimgi Yunoniston va Rim sivilizatsiyasining voqealariga qaraganda ancha cheklangan edi, ammo o'sha paytda ham savdogarlar va missionerlar yevropaliklarni "vahshiylar" madaniyati va hayoti bilan tanishtirishgan. Echki oyoqli odamlarning

mavjudligiga ishonmagan Gerodotdan farqli o'laroq, XIII - XIV asrlarning venetsiyalik sayohatchisi Marko Polo "haqiqat bilan" Lanbri [Lamouri] qirolligi aholisini "... uzun bo'yli, dumlari bilan" va "... boshlari, tishlari va eshaklari bo'lgan" Ataman [Andaman] orolining aholisini tasvirlaydi [Polo, 1999 , p. 266 - 268].

Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar davrida, yer hayoti va aholisi tabiatidagi tafovutlarga qiziqish sezilarli darajada oshdi, ammo odamlarni ilmiy psixologik kuzatuvlar mavzusiga aylantirishga birinchi urinishlar faqat XVIII asrda amalga oshirildi. Yana, atrof-muhit va iqlim ular orasidagi tafovutlarni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida qabul qilindi. Shunday qilib, intellektdagi farqlarni aniqlab, ularni tashqi (harorat) iqlim sharoitlari bilan izohladilar. O'rta Sharq va G'arbiy Yevropaning mo'tadil iqlimi, "issiqlik insonning harakatlarini bo'g'ib qo'yadigan" tropik mintaqalar iqlimidan ko'ra, aql va sivilizatsiya rivojiga ko'proq hissa qo'shadi.

Ammo nafaqat intellekt o'rganildi, XVIII asr fransuz ma'rifatchilari xalq ruhi tushunchasini kiritdilar va uning shartlilik muammosini geografik omillar bilan hal qilishga harakat qildilar. Fransuz faylasuflari orasida jug'rofiy determinizmning eng yorqin vakili S. Monteskye (1681–1555) bo'lib, u "odamlarni ko'p narsa boshqaradi: iqlim, din, qonunlar, boshqaruv tamoyillari, o'tmish namunalari, odatlar, urf-odatlar; bularning barchasi natijasida odamlarning umumiy ruhi shakllanadi "(Monteskye, 1955, P. 412]. Ammo ko'plab omillar orasida u birinchi navbatda iqlimni ilgari surdi. Masalan, "issiq iqlim xalqlari", uning fikriga ko'ra, "keksa odamlarga o'xshab tortinchoq", dangasa, fe'l-atvorga qodir emas, ammo yorqin tasavvurga ega.

Shimoliy xalqlar "yosh yigitlardek jasur" va lazzatlarga befarq. Shu bilan birga, iqlim odamlarning ruhiyatiga nafaqat bevosita, balki iqlim sharoiti va tuproqqa qarab shakllanadigan urf-odatlar orqali ta'sir qiladi. Monteskye tarix davomida iqlimning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri zaiflashmoqda va boshqa sabablarning ta'siri kuchayib bormoqda, deb hisoblagan. Agar "yovvoyilarga deyarli tabiat va iqlim hukmronlik qilsa", "xitoylarni urf-odatlar, Yaponiyada zolim hokimiyat qonunlar boshqaradi" [o'sha manba, P. 412].

Xalq ruhi g'oyasi XVIII asr tarixining nemis falsafasiga kirib bordi. Uning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, Shiller va

Gyotening do'sti I. Gerder (1741–1803) odamlarning ruhini nomoddiy narsa deb hisoblamagan, u "milliy ruh", "xalq qalbi" va "milliy xarakter" tushunchalarini deyarli ajratmagan. Gerderning ta'kidlashicha, xalq ruhi odamning boshqa belgilari qatorida tilni, xalq og'zaki ijodini, musiqani va boshqalarni o'z ichiga olgan. U psixik tarkibiy qismlarning iqlim va landshaftga, shu bilan birga turmush tarzi va tarbiyasi, ijtimoiy tuzilishi va tarixiga bog'liqligini ta'kidladi.

U yoki bu xalqning psixik xususiyatlarini aniqlash qanchalik qiyinligini anglab yetgan holda, nemis mutafakkiri "... hech bo'lmaganda uning moyilligini his qilish uchun millat bilan bir tuyg'u bilan yashash kerak" [Gerder, 1959, p. 274]. Boshqacha qilib aytganda, u *emik* yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri – madaniyatni ichkaridan o'rganish, unga qo'shib o'rganish zarurligini asosladi.

Gerderning fikricha, xalq ruhini uning his-tuyg'ulari, nutqlari, ishlari orqali tanib olish kerak, ya'ni uning butun hayoti o'rganilishi kerak. Ammo u birinchi o'ringa xalq og'zaki ijodini qo'ydi, aynan xalq o'g'zaki ijodi xalq ruhini to'liq aks ettiradi. Yevropaning birinchi folklorshunoslaridan biri Gerder o'z tadqiqotlari natijalarini Yevropaning ba'zi bir xalqlari ruhiga xos bo'lgan xususiyatlarni tasvirlash uchun qo'llashga harakat qildi. Ammo u psixologik darajaga ko'tarilganda, u ajratgan xususiyatlar folklorning o'ziga xos xususiyatlari bilan deyarli bog'liq emas edi. Shunday qilib, u nemislarni jasoratli, olijanob, mard, haqchil va muhabbatli, halol va rostgo'y odamlar deb ta'riflagan. Shuningdek, Gerder vatandoshlarining "kamchiligi"ni ham topdi: ehtiyotkor, vijdonli, sekin va qo'pol xarakterni aytmalik.

Bizni Gerder nemislarning qo'shnilari – slavyanlarga xos bo'lgan fazilatlar: saxiylik, haddan tashqari mehmondo'stlik, "qishloq ozodligiga" muhabbat. Va shu bilan birga, u slavyanlarni osonlikcha bo'ysunadigan va itoatkor deb hisoblagan [Gerder, 1959, p. 267]:

Gerderning fikrlari yevropalik faylasuflarning milliy xarakter va milliy ruh muammosiga diqqat bilan qarashlarining birgina namunasi. Xalqlarning tabiati haqidagi bilimlarning rivojlanishiga ingliz faylasufi D. Yum va buyuk nemis mutafakkirlari I.

Kant va G.Gegel ham hissa qo'shdilar. Ularning barchasi nafaqat xalqlarning ruhiyatiga ta'sir qiluvchi omillar haqida fikr bildiribgina qolmay, balki ularning ba'zilarining "psixologik portretlarini" taqdim etdilar.

***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:***

1. Etnopsixologiyaning etnologiya va psixologiyadan farqi nimada?
2. Etnopsixologiyaning vazifalarini sanab bering.
3. Etnopsixologik muammolarni o'rganishga qiziqishning ortib borish sabablari nimada?

**Testlar:**

**1. Etnopsixologiya ....**

- A) o'Ichash haqidagi fandir;
- B) jon haqidagi fandir;
- \* C) xalq (etnos) ruhi haqidagi fandir;
- D) shaxslararo munosabatlar haqidagi fandir;

**2. .... etnopsixologiya fanining obyektidir.**

- A) metislar;
- \*B) etnik guruhlar;
- C) sinflar;
- D) uyushmalar.

**3. ....etnopsixologiyaning predmetidir.**

- A) hayotining amaliy masalalari – ziddiyatlar, o'z-o'zini himoyalash;
- B) uyushgan yoki uyushmagan toifalilar guruhi;
- C) har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalariga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalar;
- \*D) Etnos va uning vakillarining psixik chizgilari, etnoslararo o'zaro ta'sir va nizolar.

#### **4. Etnik psixologiyaning kategorial apparati**

- A) sezgi, idrok, xalq, tafakkur, tasavvur;
- B) ishchi, dehqon, ziyoli, etnos, o'qituvchi, o'quvchi;
- \*C) ijtimoiy guruh, referent guruh, millat, etnos, xalq;
- D) o'zbek xalqi, gimn, xarita, kompas, baynalminallik.

#### **5. Etnopsixologiya ..... tatbiqiy yo'nalishi hisoblanadi.**

- \*A) ijtimoiy psixologiyaning;
- B) umumiy psixologiyaning;
- C) differensial psixologiyaning;
- D) etnologiyaning.



## II BOB. ETNOPSIXOLOGIYA FANINING SHAKLLANISH TARIXI

### **Reja:**

1. Yunon faylasuflarining etnopsixologik qarashlari.
2. Sharq mutafakkirlarining etnopsixologiyaga doir qarashlari.
3. Sh.Monteskye tadqiqotlarida geografik determinizm goyasi.
4. Gegel falsafasida “xalq ruhi” g’oyasi.
5. M.Latsarus va G.Shteyntalning xalqlar psixologiyasi haqidagi ta’limoti.
6. V.Vundtning xalq va omma psixologiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo’shgan hissasi.
7. G.Lebonning xalq va omma psixologiyasi to’g’risida konseptual qarashlari.

*Tayanch tushunchalar:* xalq, ruh, omma, geografik determinizm.

### **1. Yunon faylasuflarining etnopsixologik qarashlari**

Boshqa xalqlarga, etnik guruhlariga xos bo’lgan ruhiy xususiyatlarni, qo’shni qabilalarning yashash tarzini o’rganishga bo’lgan qiziqish qadim vaqtlardayoq bir qancha amaliy ehtiyojlar, avvalo iqtisodiy, savdo-sotiq va harbiy maqsadlar natijasida vujudga kelgan.

Antik davrlarda sayyoh va savdogarlar uzoq yurtlarga qilgan safarlardan qaytgach, xorijiy xalqlarniig yashash sharoitlari, urf-odatlari, odamlar o’rtasidagi munosabatlar, ularning kiyinishi, qanday ovqatlar tanovvul qilishi, bu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, hayvonot olami va boshqa narsalar haqida o’z vatandoshlariga ajoyib va g’aroyib narsalardek so’zlab berishgan. Qadimgi dunyo mutafakkirlari Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo’lgan umumiy tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo’lishining

sabablarini tushuntirib berishga harakat qilganlar. Etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishini ular asosan, tabiiy-geografik muhitning ta'siri bilan bog'lab tushuntirganlar. Masalan, qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Gippokrat (miloddan avvalgi 460-375) o'zining "Havo, suv va quruqlik", degan asarida xalqlarning turli ruhiy va jismoniy xususiyatlarni bevosita iqlim sharoiti bilan bog'lagan holda tushuntirib berdi.

Xalqlarning xarakter va temperament xususiyatlarining vujudga kelishini ular iste'mol qilayotgan oziq-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinishlari bo'lgan. Mashhur matematik va faylasuf Pifagorning (miloddan avvalgi 570-500) tushuntirishiga qaraganda, hayvon go'shti va yog'ini ko'p iste'mol qilinishi, xalqlarda qattiqqo'llik va dag'allikni vujudga keltiradi. Aksincha, o'simlik mevalari va sabzavotlarni muttasil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini sustlashtirib, odamlar tabiatini muloyimlashtiradi. Antik dunyoning buyuk aql egasi Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 y), haddan ortiqcha issiq yoki sovuq iqlim sharoitida yashaydigan xalqlar qattiqqo'l, shavqatsiz bo'lishadi, degan fikrga ishongan.

## **2. Sharq mutafakkirlarining etnopsixologiyaga doir qarashlari**

Buyuk bobomiz A.R.Beruniy "Osori boqiya" (Abadiy qadriyatlar) asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniyalar, so'g'dlar, xorazmliklar, xristianlar va dinlar: yahudiylar, musulmonlarning ruhiy xususiyatlari va ularning sabablarini ko'rsatib bergan. U bu xalqlarning ma'lum davrlar ish vaqtlarga to'g'ri kelgan mashhur bayramlari, xotira kunlari hamda bir xalqni ikkinchisidan farqlantiradigan urf-odatlarini, turli xalqlar qo'llayotgan yil hisoblash usullari, oy va yillarning farqi kabi masalalarni bayon qilib bergan.

Turli xalqlarga xos xususiyatlarni o'rganish uchun Beruniy o'ziga xos ilmiy metod yaratadi. Shuning uchun, deb ko'rsatadi u, qadimgi xalqlar rivoyatlarini hamda o'tmish avlodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi lozim. Shuning uchun "Muqaddas kitob"larga amal qiluvchi xalqlar, muayyan aqidalarga rioya etuvchi dinlar, mazhablarga e'tiqod qo'yanlar izidan borishga to'g'ri kelishligini ko'rsatadi. Bunda ularning turli qarashlari asos qilib olinadi va isbot qilish maqsadida keltirilgan so'z, fikrlarni va faktlarni bir-biri bilan

solishtirib ko'rish lozim. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlarni, ularga qo'shib ketgan afsonalardan tozalash kerak bo'ladi, deydi.

Beruniy o'zining mashhur "Hindiston" asarida xalqlarning dini va tafakkur qilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy hayoti bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlarini, ularning xudolarga ishonishlari, materiya va shakl, jonning ko'chib yurishi, do'zax va jannat haqidagi tasavvurlari bayon qilingan.

### **3. Sh.Monteske tadqiqotlarida geografik determinizm g'oyasi**

Xalqlarning psixologik xususiyatlarini iqlim va boshqa tabiiy omillar bilan bog'lab tushuntirish keyingi davrlarda yashab ijod qilgan XVIII va XIX asr mutafakkirlari – Monteske, J.J.Russo, Didro, Gumboldt, shuningdek hozirgi davrdagi ayrim tadqiqotchilar faoliyatida ham uchraydi. Sotsiologiyadagi "geografik determinizm" oqimining asoschilaridan biri - fransuz ma'rifatparvari Sh.Monteske (1689–1755-y) ham xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni asosan, kishilar tanasiga doimiy ta'sir etadigan turli tuman tabiiy iqlim natijasi, deb tushuntiradi. Uning fikricha, iqlim va zamin xalqlarning axloq normalarigagina ta'sir etib qolmasdan, shuning bilan birga davlat siyosatiga, madaniy taraqqiyot darajasiga "psixologik qiyofa"siga ham kuchli ta'sir ko'rsatar ekan. Iqlimning rolini haddan tashqari oshirib yuborish natijasida Monteske sovuq iqlimda yashaydigan xalqlar chidamli, baquvvat, issiq iqlimda yashaydigan xalqlar esa jismoniy jihatdan zaif va ojiz bo'lishadi, degan xulosaga keladi. Iqlim sharoiti ta'sirida inson tanasida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy hodisalar va axloq normalari vujudga kelishi uchun moddiy asos qilib olinishi, biologik va sotsial qonuniyatlarni bir-biri bilan chalkashtirib yuborish hisoblanadi. Bu esa oxir-oqibatda ijtimoiy tarixiy hodisalarni tushuntirib berishda xulosalar qilishga olib keladi. Iqlimiy omillarning rolini oshirib yuborish etnik xususiyatlarni o'zgaraydigan va doimiy bo'lgan hodisa, degan xulosa qilishga olib keladi. Vaholanki, kurrimiz iqlimida keyingi yuz yilda deyarli keskin o'zgarishlar sodir bo'lmagan bo'lmasa ham, odamlar hayotida katta ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar ro'y berdi, bu o'zgarishlar o'z navbatida xalqlarning psixologik qiyofasida ham katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Shuning bilan birgalikda etnopsixologik xususiyatlarning

shakllanishida tabiiy-geografik muhitning rolini ham butunlay inkor etib bo'lmaydi. Geografik joylashish o'rni va iqlim sharoiti xalqning yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit sifatida uning iqtisodiy rivojlanishida, psixologiyasiniig shakllanishida ma'lum rol o'ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik yuritish xususiyatlari va hayot tarzi ko'p jihatdan tabiiy-iqlim sharoitlari bilan belgilanadi. Lekin ijtimoiy tizim va tarixiy o'zgarishlar mamlakatning geografik joylashishiga, tabiiy sharoitlariga bog'liq holda vujudga kelmaydi.

#### 4. Gegel falsafasida "xalq ruhi" g'oyasi

XX asrda Eronda yangi bir g'oya - "xalq ruhi" tushunchasi tarqala boshlandi. Bu g'oyaga ko'ra har bir xalq, etnik guruh avvaldan shartli ravishda berilgan o'z "ruhi"ga ega ekan. Har bir irq, xalq ma'lum anatomik tuzilishiga ega bo'lgani kabi o'z ruhiga ham ega bo'lib, u xalq taqdiri va kelajagini belgilab turadi. Bu ruh xalqning siyosiy tuzumini, e'tiqod va ishonchini, diniy qarashlarini boshqarib turadi. "Xalq ruhi" nazariyasining to'la bayoni, ayniqsa, Gegel falsafasida o'z aksini topdi. Gegel har bir xalqning o'tmishi va kelajagini mantiqiy "Mutloq ruh" bilan bog'lab tushuntiradi. Turli xalqlarning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, hatto irqiy tafovutlarining asosini ham shu "ruh" tashkil etadi, deb ko'rsatadi. Shunga ko'ra u ayrim Osiyo xalqlari to'g'risida bo'lmag'ur fikrlar bayon etgan holda, nemis millatini eng oliy irq tarixiy o'tmishga ega bo'lgan millat, deb davo qilib chiqadi<sup>5</sup>.

Ijtimoiy-psixologik hamda etnopsixologik bilimlar uchun manba rolini o'ynagan birinchi asos *xalqlar psixologiyasi* bo'lib, u XIX asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi va aslida u mohiyatan etnopsixologiyaning fan sifatida yaralishi uchun ibtido rolini ham o'ynagan. Undagi asosiy nazariy fikr shundan iborat ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo'lib, bu ruh o'zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo'ysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitlikning bo'laklari bo'lib, ular aslida shu ruhga bo'ysunadilar. Xalq-

<sup>5</sup> Герел. Соч., Т. 8. М., 1933, С. 131.

lar psixologiyasining tarixiy-mafkuraviy asosi bo'lib *Gegel* falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan, deyish mumkin, chunki *Gegel*-dagi "individdan yuqori turuvchi ruh" g'oyasi xalqlar va millatlar psixologiyasi jonkuyarlari tomonidan to'lig'icha qabul qilindi.

## 5. M.Latsarus va G.Shteyntalning xalqlar psixologiyasi haqidagi ta'limoti

Nemis faylasufi M.Latsarus va tilshunosi G.Shteyntallar 1859-yilda "Xalq psixologiyasi va lingvistikasi" jurnalini chop eta boshladilar va birinchi marta "Xalq psixologiyasi", degan terminni muomalaga kiritib, haqli ravishda etnopsixologiya fanining asoschilari bo'lib qolishdi.

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi tarixidan ma'lumki<sup>6</sup>, "Xalqlar psixologiyasi" iborasi birinchi marta faylasuf *M.Latsarus* (1824–1903) hamda tilshunos *G.Shteyntal* (1833–1893) asarlarida ishlatildi. Ular birgalikda chop etgan "Xalqlar psixologiyasi to'g'risida kirish so'zi" kitobida shunday fikrlarni ilgari suradilar: "Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch – bu xalq yoki shu "yaxlitlikning ruhi" bo'lib, bu ruh san'atda, dinda, tilda, afsonalarda, an'analarda o'z aksini topadi. Individning ongi ushbu yaxlitlikning mahsuli bo'lib, ularning yig'indisi o'z navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o'rganish, xalq ruhiyati qonunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi va yo'qolishini tushuntirib berishdir". O'sha kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarini bayon etadilar: "Odam o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy mavjudot bo'lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq, chunki u o'ziga o'xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta'qibidan qochadi..." Ta'kidlashimiz lozimki, xalqlar psixologiyasining asoschilari o'z izlanishlari va yozib qoldirgan asarlarida faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklandilar, chunki ularda o'z fikrlarini isbot qilish uchun aniq konkret faktlarga asoslangan tadqiqotning natijalari yo'q edi.

<sup>6</sup> Manba: Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2012

Latsarus va Shteyntal konsepsiyasining asosiy mazmuni kelib chiqish va istiqomat muhitining yagonaligi natijasida “bir xalqning barcha individlari qalbi va vujudida o‘z xalqi tabiatining alohida tamg‘asi bosiladi”; bunda “vujudning qalbga ta’siri natijasida barcha individlarda bir xil bo‘lgan ruh xususiyatlari, moyilliklar tug‘ilib, pirovardida ularning barchasi, bir xil xalq ruhiga ega bo‘ladilar” degan mulohazalarida o‘z ifodasini topgan.

“Xalqlar psixologiyasi”ning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan: a) xalq ruhi va uning harakati mohiyatini psixologik jihatdan anglash; b) xalqning turmushdagi, san’atdagi hamda ilmdagi ichki madaniy yoki ideal faoliyat qonuniyatlarini tushunish; v) biron-bir xalq xususiyatlarning paydo bo‘lishi, rivoji va yo‘qolish sabablarini ochish<sup>7</sup>.

«Xalqlar psixologiyasida ikki jihatni farqlash mumkin: birinchidan, umuman xalq ruhining o‘zi, xalqning yashash va faoliyat sharoiti o‘xshashligi tahlil qilinadi hamda uning taraqqiyoti umumiy unsurlari va ularning o‘zaro munosabatlari aniqlanadi; ikkinchidan, xalq ruhi va uning taraqqiyoti xususiy shakllari batafsilroq tadqiq qilinadi. Birinchi jihat etnotarixiy psixologiya, ikkinchisi psixologik etnologiya nomini olgan. Tadqiq qilish jarayonida xalq ruhiyatining mazmunini ochib beradigan tahlilning bevosita obyektlariga afsonalar, tillar axloq, turli madaniyatlarning turmushi va boshqa xususiyatlari kiradi.

## **6.V.Vundtning xalq va omma psixologiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi**

“Psixologiyaning otasi” hisoblangan *Vilgelm Vundt* esa, ilk marotaba o‘zining “Inson va hayvon ruhi haqida ma’ruzalar”i (1863-y) va 1900-yilda bosmadan chiqqan o‘n tomli “Xalqlar psixologiyasi” asarlarida asosan o‘zi to‘plagan empirik ma’lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag‘ishlangan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, Vundt empirik ma’lumotlar to‘plash usullari, to‘plangan manbalarni sharhlash borasida bebaho bilimlar to‘pladi. Uning fikricha, psixologiya fani

<sup>7</sup> Botirov B.M. Etnopsixologiya.-T.: Fan va texnologiya. 2010. B.21

ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o'rganuvchi eksperimental fan bo'lib, oliy psixik jarayonlar – tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsani eksperiment usulida tadqiq etish mumkin. Eksperiment usulida o'rganib bo'lmaydigan barcha qolgan oliy ruh holatlarini xalqlar psixologiyasi o'rganadi, chunki undagi o'rganish usullari o'ziga xosdir. U madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi. Etnopsixologiya rivojiga katta hissa qo'shgan Vilgelm Vundt etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalar asosida tushuntirib berishga harakat qildi. Masalan, u nemis xalqining psixologik xususiyatlarini tahlil qilganda, ular xarakterida tadbirkorlik, hisob-kitob bilan faoliyat yuritish, batartiblik va Vatan haqidagi burchni yaxshi his qilishi kabi ijobiy xislatlar bilan birgalikda boshqalarga ko'r-ko'rona ergashish va taqlid qilishlik ham borligini ko'rsatib o'tadi. Bu kamchilikning vujudga kelishida Germaniyaning siyosiy faoliyatida Yevropadagi boshqa mamlakatlarga qaraganda keyinroq maydonga chiqishi va Germaniyada o'rta asrdayoq diniy mutaasiblik bilan yangi davr o'rtasidagi uzoq yillar mobaynida davom etgan kurash natijasida bo'lib, bu tarixiy jarayon nemislarning psixologik qiyofasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan, deb yozadi.

To'g'ri, *Vundtning* psixologiya fani oldidagi xizmatlari buyuk, uning xalqlar psixologiyasiga oid ma'lumotlari hozirgi kungacha ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Lekin uning yagona kamchiligi shu ediki, uning qarashlari idealistik asosda bo'lgan, ya'ni u individ bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatni idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixni yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o'rnini ko'ra bilmagan. Uning izdoshlari – Rossiyalik *A.Potebni*, nemis olimi *T.Geyger* va boshqalar ham u yo'l qo'ygan mafkuraviy kamchilikni oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o'ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berish lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning va uning tarkibida etnopsixologiya-ni fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'ldi.

## 7. G.Lebonning xalq va omma psixologiyasi to'g'risida konseptual qarashlari

G.Lebon o'zining "Xalqlar va omma psixologiyasi" nomli asarida xalqlar psixologiyasi taraqqiyotini baholashning muhim mezonlarini ajratishga muvaffaq bo'ldi. G.Lebon ta'kidlashicha, har bir xalqning tuyg'ulari, fikrlari, e'tiqodi va san'ati uning anatomik xususiyatlari kabi barqaror, o'ziga xos ruhiy tuzilishga ega. Ushbu holatda G.Lebonning V.Vundt fikriga e'tirozi kishi va uning psixikasi psixofiziologik xususiyatlarini farqlashga qaratilgan. Har bir irq o'zining anatomik tuzilishiga o'xshasha barqaror psixologik tuzilishga ega ekanini G.Lebon bir necha bor qayta takrorlaydi. O'z asarida, G.Lebon u yoki bu xalqning psixologik xususiyatini aniqlash imkonini beradigan, o'rtacha tipni tashkil qiladigan, asosli tarzda mentalitet, deya atagan psixologik xususiyatlarga e'tibor qaratadi. G.Lebon tasodifan olingan minglab fransuz, minglab ingliz, minglab xitoylar, albatta bir-biridan ajralib turishini ta'kidlaydi. Biroq ular irqlarining nasliy kuchiga ko'ra fransuz, ingliz, xitoyliklarning ideal tipini tiklash imkonini beruvchi umumiy xossalarga egadir.

G.Lebon fikrlari biogenetik va psixik taraqqiyotning ma'lum ko'rinishi va unga asoslangan xalqlar psixogenezining ba'zi bir chizgilarini aniqlash mumkinligi bilan bog'liqligini e'tirof etishimiz kerak. Xalqlar psixogenezi va sotsiogenezi baholashning keyingi mezonini umumiy e'tiqodlar, umumiy manfaatlar, vujudga kelayotgan ijtimoiy vaziyatlarning umumiy baholanishi kabi ko'rsatkichlar bilan bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, xalq psixogenezi tashkil topishining muhim ko'rsatkichi bo'lmish ongning turli darajalari haqida fikr yuritishga asos bo'lmoqda. G.Lebon bir-biriga sira o'xshamagan turli g'oya va tuyg'ularga ega bo'lgan kichik elatlardan tashkil topgan fransuz millati umumiy g'oya, e'tiqod, milliy manfaatlarining anglanishi oqibatida yagona fransuz millatiga aylanganini ta'kidlaydi. Pirovardida, alohida shaxsning individual ongi butun xalqning shuuriga singadi, u fransuz millati psixogenezi shakllanishida muhim tarkibiy qism sifatida ishtirok etgan, deydi. G.Lebon.

Shunday qilib, alohida olingan inson ruhiyatini keng ijtimoiy muhit ta'sirida, xalq va millat ongi va ruhiyatning etnik xususiyatlari bilan bog'lab o'rganish an'analari qadim vaqtlarga




borib taqaladi. Bu kabi munosabat, qiziqish, ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatlaro munosabatlar tig'izlashgan, dunyo bozori uchun kurash kuchaygan, hududiy, etnik nizolar va to'qnashuvlarning kuchayib ketayotganligi bois yanada ortdi.

Sanoat ishlab chiqarishning rivojlanib borishi natijasi: tashqi bozorga ehtiyoj va ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan katta o'zgarishlar sotsiologlar, etnograflar va psixologlar oldiga turli xalqlar, sinflar, ijtimoiy qatlamlar psixologiyasini, omma va olomonga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarini atroflicha o'rganish vazifasini qo'ydi. Natijada bu davrga kelib etnopsixologiya muammolarini o'rganish ancha rivojlandi.

**“Aqliy hujum” metodikasini qo‘llashda talabalar javoblarini  
qayd etish uchun jadval**

Aqliy hujum uchun savol	Talabalar variantlari	Umumlashma variantlar
“Etnopsixologiyaning vujudga kelishiga qanday omillar sabab bo‘lgan?”		

## VENN DIAGRAMMASI



### 1-muammoli masala

**1-misol.** Nima uchun 30-yillarning o'rtalariga kelib "Etnopsixologiya", "Milliy psixologiya", "Milliy xarakter", "Milliy psixologik qiyofa" terminlari faqat manfiy ma'noda ishlatiladigan bo'lib qoldi?

**2-misol.** 20–30-yillarda nima uchun etnopsixologiya fani keng jamoatchilik oldida obro'sizlanib, fanning rivojiga soya solindi? Buni qanday izohlash mumkin?

Sizning-cha, mazkur misollarda bayon etilgan holatlar etnopsixologiya rivojidagi qaysi bosqichga tegishli? O'z fikringizni asoslang.

### 2-muammoli vaziyat

Etnopsixologik tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi qachon boshlandi? Mazkur bosqichda etnopsixologik tadqiqotlarga bo'lgan qiziqish sabablari nimalar bilan bog'liq? Fikringizni asoslang.

### 3-muammoli savol

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar nimalar bilan bog'liq deb o'ylaysiz?

### Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Yunon faylasuflarining etnopsixologik qarashlarini izohlang.
2. Sharq mutafakkirlarining etnopsixologiyaga doir qarashlaridagi asosiy g'oyalarni nimalardan iborat?

3. Sh.Monteske tadqiqotlarida geografik determinizm g'oyasini asoslang.

4. Gegel falsafasida "xalq ruhi" g'oyasining mazmunini qisqacha izohlang.

5. M.Latsarus va G.Shteyntalning xalqlar psixologiyasi haqidagi ta'limotining asosiy mazmuni qanday?

6. V.Vundtning xalq va omma psixologiyasi nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

7. G.Lebonning xalq va omma psixologiyasi to'g'risida konseptual qarashlarini aytib bering?

### Test savollari:

1. Yunon faylasuflari etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishini ..... bilan bog'lab tushuntirganlar.

A) pedagogik-psixologik muhitning ta'siri;

B) ijtimoiy-iqtisodiy muhitning ta'siri;

\*C) tabiiy-geografik muhitning ta'siri;

D) moddiy-ma'naviy muhitning ta'siri.

2. A.R.Beruniy qaysi asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniylar, so'g'dlar, xorazmliklar, xristianlar va dinlar: yahudiylar, musulmonlarning ruhiy xususiyatlari va ularning sabablarini ko'rsatib bergan?

A) "Falsafiy savollar va ularga javoblar"

\*B) "Osori boqiya";

C) "Hindiston";

D) "Qutadg'u bilik".

3. Sh.Monteske xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni asosan, kishilar tanasiga doimiy ta'sir etadigan turli-tuman ..... natijasi, deb tushuntiradi?

A) sharoit;

B) sabablar;

C) quyosh nuri;

\*D) tabiiy iqlim.

4. "Xalq ruhi" nazariyasining to'la bayoni, ayniqsa, .... falsafasida o'z aksini topdi?

- \*A) Gegel;
- B) Demokrit;
- C) Pifagor;
- D) Spinoza.

5. Vilgelm Vundt etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishini ..... asosida tushuntirib berishga harakat qildi?

- A) ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, turmush tarzi
- B) pedagogik-psixologik muhitning ta'siri;
- \*C) tarixiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalar;
- D) ijtimoiy-iqtisodiy dunyoqarash, xarakter.

### **III BOB. ETNOPSIXOLOGIYA MUAMMOLARINI O'RGANISH BO'YICHA YAQIN XORIJ MAMLAKATLARIDA O'TKAZILGAN TADQIQOTLAR**

#### **Reja:**

1. Rossiyada o'tkazilgan dastlabki etnopsixologik tadqiqotlar va yangi fan sohasini yaratishga nazariy yondashuvlar.
2. Nadejdinning psixik etnografiyasi va XIX asrning 40-yillarida Rus geografiya jamiyatining faoliyati.
3. G.G.Shpetning etnik psixologiyani barpo etish to'grisidagi qarashlari.
4. Sechenov va Kavelin orasidagi ma'naviy madaniyat mah-sullariga asoslangan holda psixikani o'rganish imkoniyatlari haqidagi bahs-munozaralar.
5. A.R.Luriyaning O'zbekistonda amalga oshirgan tadqi-qotlari.

**Tayanch tushunchalar:** etnik psixologiya, xorijiy mam-lakatlar, psixik etnografiya.

#### **1. Rossiyada o'tkazilgan dastlabki etnopsixologik tadqiqotlar va yangi fan sohasini yaratishga nazariy yondashuvlar**

Etnopsixologiya muammolarni o'rganishda 20–30-yillari birmuncha yondashish bo'lsa ham, lekin bu masalani o'rganishdagi subyektivizm va ayrim fan olimlarining irqchilik va millatchilik nazariyalari bu fanni keng jamoatchilik oldida obro'sizlantirib, fanning rivojiga soya solib qo'ygan edi. Shuning uchun ham 20-asrlarning o'rtalariga kelib "Etnopsixologiya", "Milliy psixologiya", "Milliy xarakter", "Milliy psixologik qiyofa" terminlari faqat ma'rifiy ma'noda ishlatiladigan bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu masalani o'rganishga yaqin davrlargacha yaxshi diqqat-e'tibor berilmasdan kelindi.

Etnopsixologik tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi, asosan, o'tgan asrning 60-yillardan boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lgan katta o'zgarishlar, milliy ongning o'sishi, millatlararo integratsiyaning kuchayishi natijasida etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish birmuncha kuchaydi. Buning natijasi o'laroq, maishiy hayotdagi millatga oid psixologik xususiyatlarni o'rganayotgan olimlarning bir qator ilmiy asoslangan, fan uchun muayyan ahamiyat kasb etgan, qiziqarli va muammoli ilmiy maqolalari, kitoblari nashr yetildi. Bir qator e'tiborli ilmiy jurnallarda millat va uning psixologik xususiyatlari to'g'risida olimlarning bahs-munozaralari tashkil etildi. Ayniqsa, 1966–1970 yillar ichida Rossiyada chop etilgan "Voprosy istorii" jurnalida millat va uning belgilari to'g'risida olimlarning mubohasasi uyushtirildiki, bu mubohasada fanning turli jabhalarida ish olib borayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar faol ishtirok etishdi. Mubohasada bahs asosan millatning psixologik qiyofasi to'g'risida bordi. Bo'lib o'tgan bahs-munozaralar olimlarning etnik psixologiya va milliy psixologik qiyofa masalalariga qiziqib qarayotganliklari ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga mubohasa milliy voqelikdagi hodisalar, milliy psixologik qiyofani tushunishda olimlar o'rtasida turli qarashlar va yondashishlar borligini, hatto terminologik chalkashliklar, noaniqliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Bo'lib o'tgan mubohasa qatnashuvchilarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh qatnashchilari etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy psixologiyaning real voqeligi va millatning belgisi sifatida tan olishdi. Bu guruh olimlarga A.G.Agaev, S.M.Arutyunyan, V.M.Vohidov, A.I.Goryacheva, M.S.Junusov, A.Sobirov va boshqalarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh vakillari esa, etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy voqelik sifatida mavjudligini inkor etadi - bular T.Yu.Burmistrova, S.T.Kaltaxchyan, V.I.Kozlov, P. M. Rogachey, M.A.Sverdlin va boshqalar.

Etnopsixologik xususiyatlar va uning asosiy elementi milliy psixologik qiyofani millat belgisi sifatida o'rganish muxoliflaridan P.M.Ragachev sa M.A.Sverdlinlarniig fikricha, bu tushunchalar milliy munosabatlar tahliliga mujmallik beradi va sotsiologiyadagi asosiy tushuncha - sinfiylik va baynalminalchilikka soya soladi. S.Kaltaxchyan fikriga ko'ra, agar milliy psixologik qiyofani

millatning belgilaridan biri sifatida qabul qilinadigan bo'lsa, u vaqtda millatni ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida emas, tabiiy va doimiy o'zgarmas hodisa sifatida e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mubohasada qatnashgan T.Burmistrova ham millatning ta'rifini berganda milliy psixologik qiyofani uning belgilari qatoriga kiritmaydi. Uning yozishicha, rus va ukrain, gruzin va arman, nemis va fransuz va shunga o'xshash xalqlar psixologiyasidagi farqlarni belgilash umuman mumkin emas. Ayrim xalqlar, millatlar psixologiyasida muhim tavofutlar borligini tasdiqlash, isbotlab bo'lmaydigan, quruq gap xolos va bu irqchilarga muruvvat ko'rsatilib, bir millatni ikkinchi millatga qarshi qo'yish uchun xizmat qiladi. Rus olimi V.Kozlov, bu tushunchalarning ishlatilaverishi jamoatchilik fikrida chalkashliklarni, illyuziyaga o'xshash bir holatni keltirib chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Professor S.Kalgaxchyan fikriga ko'ra esa, katta guruhlar o'rganilganda faqat sinfiy psixologiya o'rganishga loyiq toifadir. Ularning fikricha, etnik xususiyatlar va milliy psixologik qiyofa to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas.

Bu kabi xavotirli xulosalarga sabab bizningcha, o'sha totalitar sovet tuzumi davrida etnopsixologik tadqiqotlarning ayrim natijalari aniq ta'qibga uchrashi, chet ellarda olib borilgan etnik psixologik tadqiqotlar va ulardan olingan natijalarda irqchilik elementlari bo'lishi mumkin edi. Chunki ayrim tadqiqotlarning natijalari va xulosalarida irq, millatlar, etnik guruhlarning ruhiy jihatdan teng emasligi, ba'zi xalqlarning boshqalardan ustun turishligi "ilmiy" jihatdan asoslashga harakat qilindi. Masalan, etnopsixolog R.Linton va A.Kordinerlar anglo-sakslardan bo'lmagan hamma boshqa xalqlar o'zining ruhiy xususiyati bilan yetuk emas, degan noilmiy g'oyani ilgari surishadi. Xuddi shunga o'xshab o'sha davrlarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlarni ruhiy jihatdan yetuk emasligini "isbotlovchi" qator tadqiqotlar o'tkazishgan. Albatta bu xilda qilinayotgan "kashfiyotlar" olimlar o'rtasida tashvish va xavotirlik tug'dirishi tabiiy. Muholiflarning yana bir e'tirozi milliy va sinfiy psixologiya o'rtasidagi munosabat masalasi bo'ldi. Unga ko'ra tipik sinfiy jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlariga qarab sinfiy tabaqalanish mavjud bo'ladi va ular ijtimoiy mavqega, statusiga, g'oyaviy maslagiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi

sinflarning psixologiyasini shakllantiradi. Lekin bir millatning shu ikki ijtimoiy birligida psixologik xususiyatlar va ma'naviy xislatlarning ma'lum bir umumiyligi mavjud. Zero, ma'lum bir milliy muhitda yashayotgan har bir kishida faqat ijtimoiy-sinfiy xislatlar shakllanib qolmasdan, shuningdek etnik xususiyatlar ham shakllangan bo'ladi.

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganuvchi tadqiqotchilarning aksariyat ko'pchiligi, uni ijtimoiy-tarixiy kategoriya ekanligini e'tirof etadilar, uni o'rganish "qiyin obyekt" ekanligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, bu masala tekshirish va o'rganish uchun murakkab va tushunish bilan birga eng dolzarb, kam o'rganilgan muammo hamdir.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar quyidagilardan kelib chiqadi:

a) milliy psixologik qiyofani o'rganuvchi etnopsixologiya fanining boshqa psixologiya tarmoqlariga nisbatan sust rivojlanayotganligi va hanuzgacha uning umumiy masalalarini tadqiq etishning metodologik tamoyillari to'la ishlab chiqilmaganligi;

b) etnik xususiyatlar ko'zga yaqqol tashlanib turgan holda, uni tashkil etuvchi ruhiy xislatlarning yashirin ekanligi, uni bevosita emas, bivosita, ya'ni, ularning mahsullariga qarabgina baho berish mumkinligi;

v) yuqorida zikr qilinganidek, ayrim olimlarning ushbu masalalar borasida bir-biridan farq qiluvchi munosabatlarga ega ekanligi;

g) etnopsixologiyaning fan sifatida uzoq vaqt mobaynida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o'z o'rnini topa olmaganligi.

Lekin shunga qaramay, muayyan qiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruhiy xususiyatlari mavjud ekanligini psixologiya fani, uning tarkibiy qismi bo'lmish ijtimoiy psixologiya o'rganib kelmoqda. Bu sohada muvaffaqiyatli ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini takomillashtirish va qator fan vakillari-faylasuf, tarixchi, etnolog, sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san'atshunoslar hamkorlikda ish olib bormoqdalar.

Milliy masalalar va etnopsixologiya bo'yicha yirik mutaxassis M.Junusovning haqli ravishda ta'kidlashicha, millatning muhim



belgilaridan bo'lgan psixik qiyofani inkor etish nazariy jihatdan asossiz bo'lib, amaliyotda katta xatolarga olib kelishi mumkin.

Bahs tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masalada qator terminologik chalkashliklar ham mavjud ekan. Masalan, ayrim bahs qatnashuvchilari "milliy psixologik qiyofa", "etnik psixologiya", "milliy xarakter" kabi tushunchalarni aynan bir narsa, deb hisoblaydilar. Shuning uchun bu tushunchalarning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatmasdan turib, ularning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

## **2. Nadejdinning psixik etnografiyasi va XIX asrning 40-yillarida Rus geografiya jamiyatining faoliyati**

Mamlakatimizda etnopsixologiyaning paydo bo'lishi rus geografiya jamiyatining faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uning a'zolari psixik etnografiyani etnografiya bo'limlaridan biri deb hisoblashgan. Ushbu atamani ilgari surgan

N. I. Nadejdin (1804–1856) psixik etnografiya inson tabiatining ma'naviy tomonini, aqliy va axloqiy qobiliyatlarini, irodasi va fe'l-atvorini, inson qadr-qimmatini va boshqalarni o'rganishi kerak deb hisoblagan. Xalq psixologiyasining namoyon bo'lishi sifatida xalq og'zaki ijodi – dostonlar, qo'shiqlar, ertaklar, maqollarni ham ko'rib chiqdi.

1847-yilda Rossiya viloyatlarida yashovchi xalqlarning etnografik o'ziga xosligini o'rganish dasturi bo'yicha materiallar yig'ish boshlandi. Nadejdin tomonidan tuzilgan dasturning yetti ming nusxasi mahalliy aholini tavsiflashni taklif qildi va butun mamlakat bo'ylab joylashgan Rossiya Geografiya Jamiyatining bo'limlariga yuborildi. Ko'p yillar davomida har yili Sankt-Peterburgga havaskor kolleksionerlardan - yer egalari, ruhoniylar, o'qituvchilar va mansabdor shaxslarning bir necha yuzta qo'lyozmalari yetkazib berildi.

Dasturga muvofiq, ular Rossiyada yashovchi xalqlarning "axloqiy hayoti", ya'ni ma'naviy madaniyatning barcha hodisalari - oilaviy munosabatlar va ota-onalardan tortib "aqliy va axloqiy qobiliyatlar" va "milliy hayot" to'g'risidagi milliy hayotni kuzatish

materiallari tavsifiga kiritilgan xususiyatlari bir nechta qo‘lyozmalar nashr etildi va psixologik bo‘limlar bo‘yicha ma‘ruzalar tuzildi.

### 3. G.G.Shpetning etnik psixologiyani barpo etish to‘g‘risidagi qarashlari

Rossiyada ushbu nom ostida etnik psixologiyani yaratishga qaratilgan eng jiddiy urinish XX asrning 20-yillarida G. G. Shpet tomonidan amalga oshirilgan (1879–1937). 1920-yilda G. I. Chelpanov bilan Moskva universitetining tarix-filologiya fakultetida "etnik va ijtimoiy psixologiya" kabineti tashkil etiladi. Etnik psixologiya "Til, afsona, e‘tiqod, she‘riy ijod, odob-axloq, san‘at va boshqalar kabi inson ruhiy hayotining ko‘rinishlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi"-deya ta‘kidlaydi u [Rossiyada birinchi etnopsixologik laboratoriya, 1990-yil, p. 159]. Shuningdek, etnopsixologiyani xalqlar psixologiyasi sifatida an‘anaviy tushunchasi aks ettirilgan bo‘lib, uning mavzusi nemis "asoschilari"ning ta‘kidlashicha, ma‘naviy madaniyat mahsuloti hisoblanadi.

1927-yilda Shpet «Etnik psixologiyaga kirish» kitobida o‘z fikrlarini bildirdi [Shpet, 1996]. Ushbu asarda Shpet Lazarus - Shtaynthal va Vundt g‘oyalari batafsil tahlil qiladi va o‘zining etnik psixologiya konsepsiyasini Vundt ta‘kidlaganidek tavsiflovchi fan emas, balki tushuntiruvchi fan sifatida yaratadi.

Afsuski, yangi fanning falsafiy poydevori bo‘lgan kitobning birinchi qismi uning oxirgi asari bo‘lib qoldi: 1935-yilda Gustav Gustavovich Shpet qatag‘on qilindi va 1937-yil 16-noyabrda "NKVD uchligi" buyrug‘i bilan otib tashlandi. U o‘zining dasturiy ta‘minotini qanday amalga oshirmoqchi ekanligini biz hech qachon bilmaymiz, ammo rus faylasufining tahlil qilish uchun taqdim etgan g‘oyalari juda muhimdir.

Vundt bilan bahslashib, ruhiy madaniyatning mahsullari psixologik mahsullar ekanligiga, Shpet xalq hayotining madaniy-tarixiy mazmunida psixologik jihat yo‘qligiga shubha qilmadi. Madaniy mahsulotlarga, madaniy hodisalarning ma‘nosiga bo‘lgan **munosabat** psixologikdir. Shuning uchun etnik psixologiya tilni, afsonalarni, axloqni, dinni, ilmni emas, balki ularga bo‘lgan munosabatni o‘rganishga undaladi, chunki "odamlar psixologiyasi

ularga" yaratilgan "ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatidan ko'ra ko'proq sezilarli ta'sirga ega" [Shpet, 1996, 341b.]. Psixologiyada subyektiv madaniyatni o'rganish zarurligini ta'kidladi.

Etnopsixologiya mavzusini aniqlash uchun Shpet nafaqat munosabat (madaniy mahsulotlarga) atamasidan foydalanadi, balki keng qamrovli tushuncha jamoaviy kechinma tushunchasini kiritadi, ularni faqat hissiyot, yoki faqat bilish deb chegaralamaydi. Bizning fikrimizcha, jamoaviy kechinmaning mazmuni zamonaviy ilm-fanda mentalitet deb ataladigan tushunchaga juda yaqin.

Psixologik tahlilning boshqa darajasida kechinmani tushinishda Shpet g'oyalariga yaqin bo'lgan tajribani L. S. Vigotskiy taklif qilgan (1896–1934), u kechinmani shaxsni muhitda o'rganish birligi deb hisoblagan. Ikki rus mutafakkiri tomonidan kechinma tushunchasiga berilgan ta'riflarning o'xshashidir. Shpetga kelsak, jamoaviy kechinma uning a'zolarining madaniyati mahsulotlari bilan bog'liq, Vigotskiy uchun kechinma "bolaning boshqalarga yoki borliqqa ichki munosabatidir" [Vigotskiy, 1984, 382b.], "... shaxs va atrof-muhit o'rtasida insonning muhitga bo'lgan munosabatini anglatadigan narsa bor". [o'sha manba, 383b.]. Shpetning ta'kidlashicha, etnopsixologiyaning tadqiqot predmeti axloqiy madaniyat elementlarini emas, balki ular to'g'risidagi odamlarning kechinmalarini tadqiq qilish zarur, Vigotskiy ta'kidlashicha, bolalar psixologlari atrof-muhitning mutlaq ko'rsatkichlarini o'rganmasliklari kerak, ammo bola uchun bu nimani anglatadi, bu atrof-muhitning ba'zi jihatlariga munosabatini o'rganishlari kerak.

Vigotskiy va Shpet konsepsiyalari o'rtasidagi farq. Birinchisi, shaxsning atrof-muhitga bo'lgan munosabati bilan qiziqadi, ikkinchisi shaxs va madaniyatning birligini ta'kidlab, guruh tahliliga o'tadi. Shpet ta'kidlashicha, madaniy mahsulotlar o'zlarining egalarida odatiy kechinmalarni keltirib chiqaradi: "... har bir odam qanchalik individual bo'lmasin, odatda ularning ko'zlarida, ongida va yuragida sodir bo'layotgan narsalarga" javob "sifatida odatiy kechinmalar mavjud." Shpet, 1996, p. . 341].

Shaxsni madaniyat dunyosi bilan o'zaro bog'lashga urinib, u bu umumiylikni o'rtacha emas, o'xshashliklar to'plami sifatida emas, balki u yoki boshqa tarixiy birlashmaning "vakili" bo'lgan "tip" sifatida tushunadi (xitoy tipi, savdogar tipi). Rus

mutafakkirining konsepsiyasiga binoan, madaniyat mahsulotlarini tahlil qilganda, etnik psixologiya odatiy kollektiv kechinmalarni aniqlashi kerak, boshqacha qilib aytganda, xalq nimani yoqtiradi, nimadan qo'rqishadi va nimaga sig'inishadi kabi savollarga javob berishlari kerak? Lekin Shpetning nashr etilgan asarlarida biz biron bir xalqning odatiy kollektiv kechinmasidan misollar topolmaymiz.

Lacarus va Steinthal, Cavelin, Wundt, Shpetning g'oyalari ko'p hollarda faqat tushuntirish sxemalari darajasida qoldi va ularning konseptual modellari aniq psixologik izlanishlarda amalga oshirilmadi. Ammo XIX-XX asr boshlarida etnopsixologiya taraqqiyotini shu bilan bog'lash mumkinki, uning ijodkorlari shaxs dunyosini tabiat dunyosi bilan emas, balki madaniyat dunyosi bilan bog'lashga harakat qilishgan. Ammo birinchi etnopsixologlarning g'oyalari, birinchi navbatda V.Vundt g'oyalari boshqa fan - madaniy antropologiya tomonidan qabul qilindi. Germaniyada tug'ilgan va AQSHda madaniy antropologiyaning ajdodiga aylangan F. Boas, madaniyatning insonning ichki dunyosi bilan bog'liqligi haqidagi g'oyalarni Amerikada yanada rivojlantirdi.

#### **4. Sechenov va Kavelin orasidagi ma'naviy madaniyat mahsullariga asoslangan holda psixikani o'rganish imkoniyatlari haqidagi bahs-munozaralar**

XIX asrning 70-yillarida Rossiyada, Germaniyadan keyin, psixologik fanga etnopsixologiyani "birlashtirish" ga urinish bo'ldi. Ushbu g'oyalar 40-yillarda Rossiya Geografiya Jamiyatining etnografik tadqiqotlar dasturini amalga oshirishda ishtirok etgan huquqshunos, tarixchi va faylasuf K. D. Kavelin (1818-1885) tomonidan ilgari surilgan. Xalqlarning "aqliy va axloqiy xususiyatlari"ning subyektiv tavsiflarini to'plash natijalaridan qoniqmagan Kavelin ma'naviy faoliyat mahsuli - madaniy yodgorliklar, urf-odatlar, folklor va e'tiqodlarga asoslangan xalq psixologiyasini o'rganishning "obyektiv" usulini taklif qildi.

Uning fikriga ko'ra, xalqlar psixologiyasining vazifasi turli tarixiy hayotning turli davrlarida turli xil xalqlar va bir xil odamlar o'rtasida bir xil hodisalarni va ma'naviy hayot mahsulotlarini

taqqoslashga asoslangan aqliy hayotning umumiy qonuniyatlarini yaratishdir (Kavelin, 1872).

Rus psixologiyasida tabiiy fanlarning asoschisi I.M.Sechenov (1821–1905) va K. D. Kavelin o'rtasida ilmiy psixologiyada obyektiv usul deb qaraladigan narsa to'g'risida munozara bo'lib, ular ikkalasi uchun ham tayanch bo'lgan.

Ruhij jarayonni tan olgan Sechenov, ruhiy madaniyat mahsulotlariga qarab psixikani o'rganish mumkin emas deb hisobladi. U psixologiyada emik tadqiqot o'tkazish imkoniyatini rad etib, "har qanday psixolog, insonning aqliy faoliyatiga oid har qanday yodgorlikni uchratib, uni tahlil qilish fikriga ega bo'lib, agar kerak bo'lsa, yodgorlik ixtirochisiga o'z kuzatuv o'lchovini va analoglardan foydalanish qobiliyati to'g'risida o'z fikrlarini qo'shishi kerak", deb hisoblaydi. "[Sechenov, 1947, p. 208]. Boshqacha qilib aytganda, emik yo'nalish tadqiqotchilari duch keladigan katta qiyinchiliklarni to'g'ri payqab, u bu qiyinchiliklarni yengib bo'lmas deb hisobladi.

Rossiyada Sechenovning tabiatshunoslik psixologiyasi va Kavelinning gumanitar psixologiyasi tarafdorlari o'rtasidagi tortishuvda Sechenov g'alaba qozondi. Kavelinning mag'lubiyati bilan bir qatorda, psixologik fan doirasida ilmiy etnopsixologiyani yaratishga bo'lgan birinchi urinish muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Ammo bu Rossiyada etnopsixologik g'oyalar umuman rivojlanmagan degani emas. Ularga faqat qiziqish faylasuflar, tarixchilar, tilshunolar tomonidan ko'rsatildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda o'tkazilgan psixologik tadqiqotlarning bir qismi aynan oila sharoitida, oilada saqlanib kelinayotgan udumlar, qadriyatlar, odatlar doirasida o'tkazilgan bo'lib, birinchi ijtimoiy-psixologik hamda etnopsixologik tadqiqot yurtimizda XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillarning boshida I.Yoqubov<sup>8</sup> tomonidan o'tkazilgan. U oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy hamjihatlikning muhim

<sup>8</sup> Якубов Ю.А. О рассогласованности ролевого поведения супругов как фактор дестабилизации брака // Тезисы докл. к 6-му Всесоюз. Съезду Общества психологов.-М., 1983.- С.923-924.

shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

Keyinchalik shu kabi oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik fenomenlarga bag'ishlangan tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar *G'.B.Shoumarov* va uning izdoshlari, shogirdlari ishlarida rivojlantirildi. Masalan, *G'.Shoumarov* va *Ye.A.Morshinalarning* 1986-yilda o'tkazgan tadqiqotlarida oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda ota va ona, er va xotin, ota-ona va farzandlarning o'ziga xos o'zaro munosabatlaridagi an'anaviy milliy va zamonaviy munosabatlarning xususiyatlari ochib berilgan.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri *N.Sog'inovning* o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari, nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv – bu “farzandli bo'lish”, (birinchi o'rinda), ikkinchi o'rinda “jamoatchilikning gap-so'ziga qolmaslik”, uchinchi o'rinda “ota-ona va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish” va hokazolar aniqlandi. *N.Sog'inovning* to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir. Bu kabi izlanishlar keyinchalik *M.Utepbegenev, M.Dushanov, E. Norimbetov* ishlarida davom ettirildi va ularda qoraqalpoq, qozoq hamda qirg'iz oilalarining etnopsixologik o'ziga xosligi oilaviy qadriyatlar nuqtayi nazaridan o'rganildi. Ya'ni, bu kabi izlanishlarda oila va nikoh munosabatlaridagi milliy o'ziga xoslik qoraqalpog'istonliklar, qirg'iz va qozoq oilalari misolida o'rganildi. Bu kabi izlanishlar oxirgi yillarda ham jadal amalga oshirilmoqda.

Etnopsixologik xususiyatlar, milliy psixologik qiyofaning norealligi to'g'risida bir qancha subyektiv fikrlar aytilgan, ba'zi qarashlarda jiddiy ixtiloflar mavjudligiga qaramay, etnopsixologik xususiyatlar real mavjud, deb ta'kidlovchi olimlar ko'pchilikni

tashkil etadi. Darhaqiqat, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik turfa xil tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o'rtasida ma'lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan. Turli xalqlarda oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan munosabatlarning bir xil bo'lmashligi, urf-odat va an'analardagi farqlar, narsa-hodisalarni idrok etishda mavjud bo'lgan turfa xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilangina tushuntirib berish mumkin. Fan mana shu xususiyatlarni o'rganishdan voz kecha olmaydi.

Ma'lumki, jahon fanida xalqlar va millatlar psixologiyasiga bag'ishlangan birinchi ilmiy tadqiqotlarni nemis klassik olimi *Vilgelm Vundt* boshlab bergan edi. Uning tadqiqotlaridagi "xalq" tushunchasi aslida etnik uyushma, millat ma'nosida tushuntirilgan edi. Uning fikricha, etnik guruhlar psixologiyasini o'rganish uchun ularning tilini, odatlarini va ana shu xalqlarda keng tarqalgan afsonalar, aqidalar, fikrlash tarzlari, hayot tarzi hamda boshqa ong tizimlarini o'rganish kerak.

### **5.A.R.Luriyaning O'zbekistonda amalga oshirgan tadqiqotlari**

Shunisi diqqatga sazovorki, Vundtdan keyingi davrda o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri bizning o'lkamizda o'tkazilgan bo'lib, uni psixolog *A.R.Luriya* amalga oshirgan edi. Bu eksperimental tadqiqot bo'lib, uni o'tkazishdan asosiy maqsad *L.S.Vigotskiy*ning madaniy-tarixiy yondashuv g'oyasini tekshirish edi. *Luriya* boshchiligidagi olimlar guruhi revolutsiya bo'lib o'tgan O'zbekiston sharoitida turmush tarzining o'zgarishi bilan o'zbek xalqi psixologiyasining ham o'zgarganligini isbot qilmoqchi bo'lganlar. Asosiy maqsad bilish jarayonlarining o'zgarganligini isbot qilish bo'lsa ham tadqiqotchilar o'z-o'zini anglash va o'z xulq-atvorini tahlil qilish borasida ham uyda o'tiradigan ayollar, endigina savod olish maqsadida savodxonlik kurslarida o'qiyotgan xotin-qizlar hamda pedagogika bilim yurtlarida ta'lim olayotgan qizlar o'rtasida farq bor-yo'qligini tekshirishdi.

Tadqiqot asosan o'z-o'zini analiz qilish metodi yordamida o'tkazilgan bo'lib, tadqiqot mobaynida ayollarga turli savollar orqali o'z shaxsiga xos xususiyatlarni, o'zidagi yetakchi sifatlarni aniqlash va ba'zi psixologik holatlarga baho berish topshirig'i berildi. Lekin

javoblarning sifati, to'liqligi ayollarning bilim saviyasiga va ijtimoiy aloqalar tizimida tutgan o'rniga bog'liq bo'lib chiqdi. Uyda o'tirgan ayollar ko'p hollarda qo'yilgan savolni ham anglamasliklari ma'lum bo'ldi. *Luriya* shu narsaga iqror bo'ldiki, o'zbeklardagi ong, asosan, boshqa odamlar fikriga bog'liq ekanligi, tobelik psixologiyasi kuchliligini aniqladi. Ya'ni, jamoaviylik psixologiyasining mavjudligi tekshiriluvchilarning ijtimoiy xulqini tahlil qilish orqali isbotlandi. Masalan, ayollarga o'zidagi yomon sifatlarni aytish topshirig'i berilganda, ular yomon qo'shnilarni ko'rsatishar va umuman o'z-o'zini baholashdan ko'ra boshqalarni baholash, ularga sifat xarakteristikalari berish ancha yengil tuyulardi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, *A.R.Luriyaning* asosiy maqsadi milliy psixologik xususiyatlarni o'rganishda tarixiylik tamoyiliga tayanish lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda shaxslararo munosabatlari tizimida tutgan o'rniga bevosita bog'liqligini isbot qilish edi. Birinchi dastlabki tadqiqotlar qator metodologik kamchiliklardan holi bo'lmasa-da, uning muayyan ilmiy va amaliy ahamiyati ham bor ediki, unda birinchi marta milliy psixologiyani o'rganishga yordam beruvchi metodlar va metodologik tamoyillar sinovdan o'tkazildi. To'g'ri, bu tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar va ilmiy xulosalar bilan bugungi kungi holatni to'lig'icha ifodalamaydi, qolaversa, bu konsepsiyaning o'zi necha bor qayta ishlovni talab qildi, lekin milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilgan kross, ya'ni qiyosiy tadqiqot sifatida uning baribir etnopsixologiya uchun ahamiyati kattadir. *A. Luriya* ushbu tadqiqotida qo'llangan *piktogramma* usuli, ya'ni, "so'z portretlari"ni, o'z-o'zini analiz qilish metodlarini hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda ham faqat yangicha metodologik prinsiplar asosida qo'llash mumkin.

Oxirgi yillarda chet el va sobiq Ittifoq olimlarining tadqiqotlarini umumlashtirib, etnopsixologik ishlarga yagona ilmiy yondashuvni topish harakatlari sezilmoqda. Bu sohada mashhur rus etnografi va psixologi *Yu. Bromley* olib borgan ishlar, uning laboratoriyasida to'plangan ma'lumotlar misol bo'lishi mumkin. *Yu. V. Bromley* etnik guruhlar psixologiyasida ikki tomonni farq qiladi:

1) *psixik asos* -- etnik xarakter, temperament, milliy an'analar va odatlardan iborat barqaror qism;



2) *hissiyot sohasi* etnik yoki milliy his-kechinmalarini o'z ichiga olgan dinamik qism.

Aksariyat tadqiqotchilar nima uchundir, milliy psixologiya masalalari bilan shug'ullanishganda, milliy qirralar yoki sifatlarni aniqlash bilan shug'ullanadilar-da, u yoki bu millatlargagina xos bo'lgan qirralarni topishga urinadilar. Olimlar fan-texnika rivojlangan, millatlar uyg'unligi, millatlarning doimiy o'zaro hamkorligi, aloqalar va muloqoti sharoitida, aralash nikohlar keng tarqalgan sharoitda faqat u yoki bu millatga xos bo'lgan qirralar haqida gapirish juda qiyin ekanligini biroz e'tibordan qochirishgan. Masalan, o'zbekistonliklar o'rtasida o'tkazilgan kichik tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, mehmonnavozlik, kamtarlik, samimiylik kabi ijobiy sifatlari o'zbek xalqigagina xos. To'g'ri, bu sifatlari albatta o'zbeklarda bor. Lekin, aynan shu sifatlari boshqa millatlar vakillarida yo'q deyishga haqqimiz yo'q. Xuddi har bir shaxs ongida turlicha stereotiplari, ya'ni o'rnashib qolgan obrazlari, psixologik "tamg'alar" bo'lganidek, har bir oila, yaqin oshnagog'aynilari va o'ziga o'xshash shaxslari bilan muloqot jarayonida u yoki bu millat vakilida ham o'z millatiga xos bo'lgan sifatlari haqida stereotiplari paydo bo'lib, ular ongida o'rnashib boradi. Bunday stereotiplari o'z millatiga va boshqa xalqlarga nisbatan bo'lib, boshqalari haqidagi tasavvurlari ancha sodda, yuzaki, mazmunan tor bo'ladi. Shunday tasavvurlari asosida boshqa millatlarga nisbatan yoqtirish (simpatiya) yoki yoqtirmaslik (antipatiya) va befarqlik munosabatlari shakllanadi. O'z millati haqidagi tasavvur va stereotiplari esa milliy "etnotsentrizm" hissini shakllantiradiki, shu his tufayli shu milliy guruh vakillarida boshqa millatlarga nisbatan irratsional munosabatlar paydo bo'lishi, bu esa milliy antagonizm va milliy adovatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizda ko'p yillar mobaynida sobiq ittifoq sharoitida aholini bir xil "baynalmilallashtirish", yagona "sovet xalqi" g'oyasini singdirish mafkurasi ta'sirida bo'lgan xalqlar va millatlarning milliy o'zligini anglashi, shu bilan birgalikda millatlararo va diniy bag'rikenglik siyosatini olib borish unchalik oson kechmadi. Prezidentimizning jamiki yurtimizda istiqomat qilayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning manfaatlarini bir xil himoya qilish, ular o'rtasida do'stlik

va hamjihatlikni kuchaytirishga qaratilgan dono siyosati tufayli, bugungi kunda barcha o'zbekistonliklar shu yurt, shu Vatan ravnaqi yo'lida bir xil kurashish bilan birgalikda o'z milliy qadriyatlarini, madaniyati, san'ati, yashash tarzini hurmat qilishga, uning eng jozibali va tarbiyaviy nuqtayi nazardan noyob an'analarini davom ettirish, namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Demak, mustaqil yurtimizda millatlararo va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatli bo'lib, bu o'z navbatida olimlar, xususan, etnopsixologlar oldiga millatlararo do'stlikni va bahamjihatlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan fundamental va tatbiqiy ishlarni amalga oshirish, natijalari bilan yurtimizda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtirishga hissa qo'shish vazifasini qo'yadi.

Bu borada, ijtimoiy psixologlar va mafkurachilar oldida turgan muammolardan biri millat vakillarida *milliy g'ururni* sof ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o'rganish, uning yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishidagi roliga aloqador psixologik mexanizmlarni tadqiq etishni ko'ndalang qilib qo'yadi. Chunki ko'pincha milliy g'urur tufayli ayrim shaxslarda boshqa millatlarni mensimaslik, ulardagi g'urur yoki milliy hislarni tan olmaslik hollari kuzatilishi mumkin. Umuman, bizning fikrimizcha, milliy adovatlar asosida yotgan etnosentrizm va milliy g'urning salbiy ko'rinishlari boshqa millatlarning tarixini, ularning an'analarini, tili va hokazolarini bilmaslikdan kelib chiqadi.

Milliy psixologiya bo'yicha o'tkazilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarning maqsadlaridan biri ham boshqa millatlar psixologiyasini bilib, uni boshqa millatlarga yetkazish tufayli, har bir millat vakiliga hurmat-izzat hissini kuchaytirishdir. Chunki o'zini hurmat qilmagan odam boshqani hurmat qilmaydi, buning uchun esa o'z psixologiyasini ham, o'zgarlar psixologiyasini ham bilishi kerak. Shundagina shaxslararo ziddiyatlarga barham berilishi mumkin. Bu narsa millatlar psixologiyasiga ham xosdir. Ya'ni, fan jamiyatga shunday etnografik va etnopsixologik ma'lumotlar majmuini yaratib berishi lozimki, undagi ma'lumotlar asosida katta guruh hisoblangan millatlar psixologiyasini ham boshqarish mumkin bo'lsin. Shundagina ko'p millatli jonajon yurtimiz O'zbekistonda tinchlik va xotirjamlik hukmron bo'ladi.

Bugunga kelib, etnopsixologiya masalasi bilan turli soha mutaxassislari shug'ullanmoqdalar. Millat va elatlar va turli ijtimoiy guruhlarni o'rganishda faylasuflar, sotsiolog va tarixchilar, asosan, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, tarkibi, ijtimoiy munosabatlariga e'tiborni qaratgan bo'lsalar, psixologlar shaxs psixologiyasini o'rganish asnosida turli millat vakillariga xos o'ziga xos xarakter xususiyatlarini shaxsni o'rab turgan madaniy va tarixiy muhitning ta'siri doirasida o'rganmoqdalar.

Etnopsixologik muammolarni tadqiq etuvchi xorijlik olimlarning ko'pchiligi, bu muammolarni o'rganish qiyin ekanligini, bu sohada uchraydigan murakkabliklarni ta'kidlashadi. Darhaqiqat, etnopsixologik xususiyatlarni empirik yo'l bilan, psixologiyadagi ishonchli metodlar, testlarni qo'llash yo'li bilan tadqiq etish qiyin. Zero, aynan millatlar o'rtasidagi psixologik tafovutlar, millatlararo munosabatlarga xos bo'lgan murakkabliklarni o'lchay oladigan, kamxarj metodlar yaratilmagan. Boz ustiga bir mamlakatda, boshqa bir madaniyatni o'rganish uchun yaratilgan bir metodlar turkumi, ikkinchi bir xalqlarni o'rganishda natija bermasligini, hatto, qarama-qarshi ko'rsatkich berishi mumkinligi fanga ma'lum. Bu sohadagi muammo yana shundaki, bir etnos ichidagi turli sinflar, sotsial guruhlarda milliy xususiyatlarning namoyon bo'lishi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Shuning bilan birgalikda, tadqiqotchi etnik psixologiyadagi o'ziga xoslik boshqa etnik guruhlardan farq qiluvchi maxsuslik va umumiylik tomonlarni ochib bera olishi kerak. Nihoyat, etnopsixologik xususiyatlar qotib qolgan, o'zgar-maydigan narsa emas. Ular ma'lum bir ijtimoiy o'zgarishlar natijasida, ayrim bir xususiyatlarini o'zgartirishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi xislatlarni hosil qilishi mumkin. Birgina misol, yurtimizda mustaqillik yillarida yaratilgan ulkan inkoniyatlar bois o'zbek millatining bolasi san'at, madaniyat, sport, fan sohasida bugun butun dunyoni lol qiluvchi yutuqlarga erishmoqdaki, bunda kitoblarda, sport maydonlarida va katta sahnalardagi inkoniyatlardan tashqari, o'zbeklarga xos halollik, shijoat, millati, oilasi, mahallasi sha'ni uchun kurash, g'urur, tirishqoqlik kabi noyob sifatlar ham katta rol o'ynamoqda.

## Muammoli savol

Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimining roli qanday? Fikringizni asoslang.

**Aqliy hujum texnologiyasi yordamida jamoaviy muho-kamani o'tkazish uchun taxminiy mavzular**

1. Siyosiy-iqtisodiy va jamiyatdagi ijtimoiy omillarning roli.
2. Tabiiy-geografik muhit va uning etnik xususiyatlarga ta'siri.
3. Etnos hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisalarning ahamiyati.

## Muammoli topshiriqlar

1. Etnik stereotiplarga turli milliy guruhlar vakillari misolida namunalar keltiring.

2. Milliy bag'rikenglikni shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtiring.

3. Milliy his-tuyg'ularga ta'sir ko'rsatib, odamlarning katta guruhini manipulatsiya qilish holatlarini ko'rsatuvchi zamonaviy va tarixiy misollar keltiring.

4. Ommaviy madaniyatning yoshlarga ta'sir ko'rsatishi qanday etnopsixologik mexanizmlar asosida ro'y berishini o'ylab ko'ring.

## Mavzu bo'yicha testlar:

1. Ayrim bahs qatnashuvchilari "milliy psixologik qiyofa", "etnik psixologiya", "milliy xarakter" kabi tushunchalarni .... deb hisoblaydilar.

- A) turli tushunchalar;
- \*B) aynan bir narsa;
- C) o'xshash tushunchalar;
- D) turli xil narsalar.

2. Nadejdin xalq psixologiyasining namoyon bo'lishi sifatida .....ni ham ko'rib chiqdi.

- A) qadimgi qo'lyozmalar, aytishuvlarni;

\*B) xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, qo‘shiq, ertaklar, maqollarni;

C) kitoblarda, sport maydonlarida va katta sahnalardagi imkoniyatlarni;

D) millatlar o‘rtasidagi psixologik tafovutlar, millatlararo munosabatlarga xos bo‘lgan murakkabliklarni o‘lchay oladigan, kamxarj metodlarni.

### **3. 1927-yilda Shpetning qanday kitobi chop etiladi?**

A) Etnopsixologiyaga kirish;

B) Ijtimoiy psixologiyaga kirish;

\*C) Etnik psixologiyaga kirish;

D) Etnografiyaga kirish.

**4. Shpetning ta’kidlashicha, etnopsixologiyaning tadqiqot predmeti axloqiy madaniyat elementlarini emas, balki ular to‘g‘risidagi ..... tadqiq qilish zarur.**

A) dostonlar, qo‘shiq, ertaklar, maqollarni;

\*B) odamlarning kechinmalarini;

C) psixologik tafovutlarni;

D) qadimgi qo‘lyozmalarni.

**5. A.R.Luriyaning asosiy maqsadi ..... bevosita bog‘liqligini isbot qilish edi.**

A) san’at, madaniyat, sport, fan, ilm, psixologiya sohasiga;

B) psixologik tafovutlar, millatlararo munosabatlarga xos bo‘lgan murakkabliklarni o‘lchay oladigan, kamxarj metodlarga;

C) moddiy va ma’naviy madaniyati, tarkibi, ijtimoiy munosabatlar tutgan o‘rniga;

D) milliy psixologiyaning hayot tarziga.

## IV BOB. ETNOS VA MILLAT TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI

### Reja:

1. Etnos, elat, millat, irq tushunchalarining o'ziga xos jihatlari.
2. Etnosning yaxlit tizim sifatida mavjudligi.
3. Etnik guruh.
4. Etnopsixologik xususiyatlarni namoyon qiluvchi omillar.

**Tayanch tushunchalar:** etnos, elat, millat, irq, etnik birlik.

### 1. Etnos, elat, millat, irq tushunchalarining o'ziga xos jihatlari

**Etnos** – bu ong va xatti-harakatlarning o'ziga xos stereotiplariga asoslangan tabiiy rivojlanish natijasida shakllangan odamlarning ma'lum bir jamoasi. Etnos barqaror tizim sifatida mavjud bo'lib, u "biz-biz emasmiz", "o'zimiznikilar -begonalar" tamoyili bo'yicha boshqa barcha jamoalarga qarshi chiqadi. Etnoslar har doim avloddan-avlodga o'tib keladigan va etnik va landshaft muhitida odamlarning moslashishi jarayonida ishlab chiqariladigan, etnos xulq-atvorining stereotipini shakllantiradigan umumiy xususiyatlariga ega.

Etnos iborasi XIX asr oxirlaridan ilmiy tushuncha sifatida fanga kiritildi. Biroq etnos tushunchasining mazmuni xususida hozirga qadar olimlar o'rtasida yakkidillik mavjud emas:

1. Etnos bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odat, marosimlar va an'analari tizimiga ega bo'lgan, o'zining kelib chiqishi birligini tan oluvchi o'ziga xos kishilar guruhi (S.M. Shirokogorov)

2. Etnos til, davlatga tegishlilik, iqtisodiy aloqalar, madaniy turmush, din birligi singari bir qator ijtimoiy aloqalar natijasiga asoslanadigan kishilar jamoasi (S.A. Tokarev)<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> Botirov B.M. Etnopsixologiya. –T.: Fan va texnologiya. 2010. B.6

**Etniklik** bu real ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar sharoitida o'zaro tushunarli tilda so'zlashadigan muayyan hududda yashaydigan kishilar orasida o'zaro shakllanib boradigan va o'zining ma'lum madaniy xususiyatlarini, mustaqil ijtimoiy guruh ekanligini butun hayoti davomida anglab boradigan har qanday jamoadir. (N.N.Cheboksarov)

**Millatning eng keng tarqalgan ikkita tushunchasi mavjud:** g'arbiy (hududiy) va g'arbiy bo'lmagan (etnik).

G'arbiy konsepsiyasiga ko'ra, millat o'z nomi, o'ziga xos tarixiy hududi, umumiy qadriyat va tarixiy xotirasi, umumiy tili, ijtimoiy madaniyati, umumiy iqtisodiyoti va barcha a'zolar uchun yagona qonuniy huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan odamlar guruhidir. Bu konsepsiyaga ko'ra millatning asosiy belgisi - bu ma'lum bir hududda joylashgan davlat yoki uning uchun raqobatdir. Bundan tashqari, G'arb tushunchasida millat va xalq bir xil tushuncha deb qaraladi.

G'arbiy bo'lmagan yoki etnik konsepsiya tarafdorlari millat tushunchasini tahlil qilishda ikki lagerga bo'lingan: ba'zilar "millat" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi deb hisoblashadi. Millat - 1. Ma'lum bir psixologik xususiyatlar, o'z-o'zini anglash, umumiy hudud, iqtisodiy hayot, madaniyat, tilga ega bo'lgan odamlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hamjamiyati uchun tarixiy etnik guruh; yoki 2. Ma'lum bir davlat fuqarolarining yig'indisi. Holbuki, xalq deganda, ma'lum bir mamlakat (barcha etnik, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar) yoki ma'lum bir mintaqaning aholisi tushuniladi. Xalq ham, millat kabi, bu olimlarning fikriga ko'ra, polietnik fenomenidir. Ammo konsepsiyaning o'zi etnik xususiyatga emas, balki ijtimoiylikka qaratilgan.

U ma'lum bir hududda, shtatda, biron bir joyda odamlarning joylashuvini (masalan, "Ukraina xalqi", "Qrim xalqi", "Shimoliy xalqlar"), shuningdek ijtimoiy guruhlar, tabaqalar yoki shaxslarning ("ko'p odamlar to'plangan") aytishi mumkin.

Millat etnik konsepsiyasi tarafdorlarining boshqa qismi "millat" atamasini faqat bir ma'noda belgilaydi va ma'lum bir mamlakat fuqarolarining umumiyligini "xalq" atamasi belgilaydi. Xususan, ushbu nuqtayi nazar 1990-yil 16-iyulda qabul qilingan "Ukrainaning davlat suvereniteti to'g'risida" deklaratsiyada bayon etilgan, unda

"Respublika barcha millatlarining fuqarolari Ukraina xalqini tashkil etadi" deyilgan.

Millatning muhim va ajralmas belgisi milliy o'z-o'zini anglash deb qaralishi kerak. Bu bir millat, shaxs yoki ma'lum bir jamoani ularning millatga tegishli ekanligini anglash, ularning vakillarining tarixiy taqdiri, geosiyosiy, ijtimoiy-psixologik, tarixiy omillar ta'sirining o'ziga xosligi, xarakter, temperament, mentalitet, psixologiya, madaniyatning o'ziga xosligini anglashdir. Demak, millatning bu xususiyatlarni saqlab qolish, assimillatsiyaga berilmaslik, milliy til, urf-odatlar, marosim, diniy e'tiqod va shu kabi narsalarni rivojlantirish istagi aniqlanadi. Shu sababli milliy madaniy va milliy-hududiy avtonomiya, iqtisodiy, siyosiy suverenitet, milliy, fuqarolik jamiyati, davlat yaratishga intilish namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, **millat** atamasi qadimda va o'rta asrlarda kelib chiqishi bir bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan ma'lum bir guruh kishilarga nisbatan qo'llanilgan. E.Renaning fikricha, millat ma'lum bir guruhga taalluqli kishilarning birgalikda yashashi, oldingi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'analarni saqlab qolishga bo'lgan harakati hamda umumiy maqsad yo'lida birlashishdir.

**Millat** – minglab va millionlab odamlardan iborat katta ijtimoiy guruh.

**Etnos** – tabiiy tarixiy jarayon natijasida paydo bo'ladigan o'ziga xos ijtimoiy guruh.

**Xalq** – muayyan davlat hududida yashovchi etnosdir. Xalqning etnosga taalluqliligini ongli qabul qilgan qismi – **millat** deb yuritiladi.

V.M.Mijuev "etnosdan farqli o'laroq millat bu mening tug'ilishim bilan belgilanadigan fakt emas, balki mening shaxsiy tanlovim va harakatlarim mahsulidir. Etnosni men tanlamayman, millatni esa tanlashim mumkin. Millat bu individning davlatga taalluqli, ijtimoiy, madaniy mansubligidir. Aslo uning antropologik va etnik mansubligi" emas deb ta'kidlaydi.

Bir etnos tarkibiga madaniyat va diniy konfessiyalarga singari o'nlab millatlar kirishi mumkin. Etnos millatning bir qismini anglatishi mumkin. Masalan, millat tarkibidagi etnik-diniy guruhlar (bolgarlar orasidagi musulmon va xristianlar, nemislar orasidagi



protestantlar); etnik irqiy guruhlar (Amerika millati bunga misol bo'la oladi); etnik hududiy guruhlar (ma'lum millat vakillari u yoki bu hudud, mamlakatda jips bo'lib yashashi); uchinchi, etnos millat yoki millat shakllanishidan oldingi davrni anglatishi mumkin.

Etnos millatdan kengroq tushuncha bo'lganligi uchun unga millatdan tashqari irqilar, urug'lar, qabilalar, elatlar kabi milliy guruhlarga xos etnik guruhlar ham kiradi.

Shunday qilib, "etnos" tushunchasi "millat" tushunchasiga nisbatan keng mazmunga ega ekanligini ko'ramiz.

## 2. Etnosning yaxlit tizim sifatida mavjudligi

Etnoslar quyidagilarga binoan uyushadi:

1. **Etnoslar umumiy biologik ajdodlarga ega yo shunday afsonalari mavjud.** Masalan, turkiylar xususida shunday afsonalar mavjud (Rahmon, Nasimxon. Turk xoqonligi. –T.: 1993):

Turk qabilasining ota-bobolari So saltanatiga borib taqaladi. Bu saltanat Oltoyning shimolida joylashgan edi. Qabila boshlig'i Abanbuning o'n yettita ukasi bor bo'lib, shulardan biri Ichasin Ishid "Bo'ri o'g'li" deb nom olgan edi. So saltanati dushmanlar tomonidan kunpayakun qilindi. Omon qolganlari tarqalib ketdilar. Bo'ri o'g'li juda tadbirkor edi. Shu sababli imkoniyat topib, urug'ini qiyin ahvoldan olib chiqdi. Uning o'g'illaridan biri Oqqush bo'lib, Abakan daryosi bo'ylarida hukmronlik qilardi. Ikkinchi o'g'li esa Sigu saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Kama daryosi bo'ylarida edi.

Uchinchi o'g'li esa Chjuchje daryosi bo'ylarida hukmronlik qildi. Katta o'g'li Nudulu shad g'arbiy Sayanga o'r'nashdi. Nudulu shadning o'nta xotini bo'lgan. Uning o'g'illari onasining qabilasi nomini oldilar. Eng kichik xotining o'g'li Ashin edi. Nudulu shad vafotidan keyin taxtga birontasi o'tirishi kerak edi. Shunda aka-ukalar, kimki kuchli va epchil bo'lsa, o'sha urug' yo'lboshchisi bo'ladi, deb qaror qildilar. Musobaqada Ashin g'alaba qildi. U Asyan shad nomini olib, urug' boshi bo'ldi. Uning vafotidan keyin esa o'g'li Tuu taxtga o'tirdi. Tuuning o'g'li Tumin (Bo'min) turk xoqonligiga asos soldi.

To'ba qabilasi Shimoliy Xitoyini bosib oldi, u yerdagi qabilalar orasida Ashinning besh yuz oilasi bor edi. Shu paytda Ashin urug'i

xun hokimi Mug'anga qaram edi. (Xunlar –turkiylarning ajdodi, bu davlatda bir qancha qabila-urug'lar bor edi). 439-yilda to'balar xunlar ustidan g'alaba qozondi. Shundan keyin xunlarga tobe bo'lgan Ashinning besh yuz qabilasi jujanlar huzuriga qochib ketdi. Oltoy tog'larining janubida o'rmashib, jujanlarga temir qazib bera boshladilar.

Ashin urug'i qayerda, kimning hukmronligi ostida bo'lmasin, o'zlarining tilini saqladi. To'balar singari tilini yo'qotmadilar. Hatto shu kichkina urug'ning urf-odati boshqa qabilalarga ta'sir qildi.

Xitoylar o'zlariga tobe bo'lgan Ashin qabilasini Tu-kyu deb ataganlar. Xitoycha Ashina ham deyiladi. P.Pelg'o' bu so'zni "turkyut" (ya'ni turkiylar) deb izohlagan. Turk atamasi kuchli mustahkam demakdir. Ashina esa bo'ri degani. Turkiycha bo'ri mo'g'ulcha shono, chino deyiladi, a qo'shimchasi xitoycha hurmat ma'nosini bildiradi. Bundan xulosa chiqadiki, Ashina – himmatli, mard bo'ri degan ma'nodadir.

## **2. Umumiy hududda rivojlanadi.**

Masalan: Turkiylar qancha katta hududni egallagan bo'lsalar, ular yaratgan yodnomalar shunchalik katta hududga yoyilgan. Bu yodnomalar O'rxun daryosi bo'ylaridan Dunaygacha, Yoqutistondan Gobigacha, hatto Sharqiy Ovrupogacha tarqalgan. Yodnomalar qadimgi turkiy qabilalar birlashmasining madaniy-siyosiy markazlariga va iqlim belgilariga qarab guruhlanadi. Ular quyidagicha:

1. Shimoliy Mo'g'uliston yodnomalari. Bu guruhga yirik yodnomalar – Bilga xoqon, Kul tigin, To'nyuquq, Ungin, Kuli chur, Selenga, Qorabalsag'un, Suji yodnomalari, shuningdek, Xayto Tamirdan topilgan o'nta yodnoma, Ixa-Asxetadan topilgan ikkita yodnoma, Xangay va Gobidan topilgan mayda yodnomalar kiradi. Turkshunoslikda bu guruh O'rxun yodnomalari deb ataladi.

2. Enasoy yodnomalari. Bunga toshga, qoyaga, oltin va kumush idishlarga, tangalarga yozilgan yetmishdan ortiq yodnomalar kiradi.

3. Lena – Baykalbo'yi yodnomaliga qirqqa yaqin, o'qilishi qiyin bo'lgan qisqa matnlar kiradi.

4. Oltoy yodnomalari unchalik ko'p emas, bitta qoyaga yozilgan yodnoma va qabrdan topilgan bir necha kumush idishlardagi yozuvlar, xolos.

5. Sharqiy Turkiston yodnomalari Turfondan topilgan va toshga bitilgan, Dunxuan va Mirandan topilgan qog'ozdagi yozuvlardir.

6. O'rta Osiyo guruhi yodnomlari – Yettisuv va Farg'ona guruhlaridan tashkil topgan. Yettisuv guruhiga Talasdan topilgan yodnomalar (tangalar, uy – ro'zg'or buyumlari, yog'ochlarga bitilgan yozuvlar), Farg'ona guruhiga keramika va metalga bitilgan yozuvlar mansub.

7. Sharqiy Ovrupo yodnomalari – Donetsk va Dunay guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhga Novocherkaskdan topilgan ikkita, Makyats shahridan va Sariko'ldan topilgan bitta g'ishtdagi yozuv mansub. Ikkinchi guruhga Nad-Sen-Mikloshdan topilgan kumush idishdagi yozuv va metallarga bitilgan yodgorliklar kiradi.

Yuqorida tilga olingan yodnomalar turli joylarga tasodifan kelib qolgan emas, balki qadimgi turk xoqonligi davrida shu joylarda turkiy qabilalar yashagan – ularning vatani bo'lgan.

Bitigtoshlar avvalo turkiylar tarixi uchun asosiy manba, ham yozma adabiyotning ilk namunasiidir. Shu bilan birga, u etnografiyaga oid qiziq ma'lumotlar beradi. Topilgan ashyolar turkiylarning urf-odatlarini turmush tarziga oid dalillarni birmuncha to'ldiradi<sup>10</sup>.

### **3. Umumiy madaniyat va an'analarga ega.**

Masalan:

Turkiylarning Utukanni muborak (iduk) hisoblashlari va "O'talaridan qolgan" yurtlariga sodiq bo'lishlari vatan shuuri va muhabbatining eng yuksak o'rnagidir. Turk xoqonlari va xalqi milliy madaniyat, nizom va an'anasini muqaddas bilib, o'ta xassoslik bilan ularni himoya etganliklari ham aniq ravshan<sup>11</sup>.

**4. Boshqa shunday ijtimoiy guruhlarga o'zlarini qarshi qo'yadi.**

Masalan, Bilge xoqon asorat davrida o'tkazilgan chin tahsri munosabati bilan: "Chin millati shirin so'zu yumshoq mol oroqali uzoqdagi qavmlar ko'nglini (ya'ni turkiylarning) olmoqchi bo'ldilar. Lekin aqlli insonlarni baribir alday olmadilar<sup>12</sup>.

<sup>10</sup> Raxmon, Nasimxon. Turk xoqonligi. –T.1993

<sup>11</sup> Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi.-T.: 1995

<sup>12</sup> Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi.-T.: 1995

**5. Taraqqiyotning yuqori darajasida o'z davlatchiligini tashkil etadi.** Masalan, miloddan oldingi 626-yilning kuzida turkiylar tarixida birinchi davlat barpo bo'lgan, Alp Er To'nga shu davlatning asoschisi edi. Bu davlat tarixda sak (iskif) turk davlati deb nom oldi. Sak-iskif turk davlati miloddan oldingi yettinchi eramizning ikkinchi yuz yilliklarida yashadi. U Dog'istondan Kichik Osiyoga qadar cho'zilgan hududni o'z ichiga olgan edi<sup>13</sup>.

#### **6. Etnos va millatning umumiy din birligi bo'ladi.**

Masalan, Mo'g'uliston hududida yashaydigan turkiy qabilalar orasida buddizmning birinchi marta davlat dini sifatida paydo bo'lganidan darak beradi. Taspar xoqonning iltimosiga ko'ra, uning qarorgohida budda haykalchasi o'rnatildi. Bu haykalcha va burgut marmartoshining sanskrit yozuvi bitilgan, buzilib ketgan tomni Chinaguptaga bag'ishlagan. U Hindistondan kelgan, xoqon qarorgohida o'n yil yashagan buddistlar ustози edi. Birinchi turk xoqonlari hokimiyat barpo bo'lgandan boshlab, katta imperiyani boshqarish va ushlab turish uchun buddizm qudratli g'oyaviy omil bo'ladi deb tushundilar. Chamasi, bu davrda shomon dini ham bo'lgan, lekin stixiyali tarzda bo'lib, mavqei unchalik mustahkamlab olmagan edi.... Sirdaryo bo'yidan topilgan yodnomadan anglanilishicha, burgutga ilk turkiylar sajda qilagn. U osmon ilohasini jonlantirgan va sulolaning nomiga ishora qilgan. Burgutga sig'inish shomonlikdan dalolat beradi.

O'rta va Markaziy Osiyoda shomonlik bora-bora umumiy din bo'lib qoldi. Turgan gapki, hammabop din tarkibi jihatidan turli hokimiyatda umumiy g'oyani shakllantirishga xizmat qildi. Har bir qabila o'z dini va xudosiga ega bo'lgan paytda umumiy din birlik, hamkorlik uchun katta ahamiyatga ega edi<sup>14</sup>.

**7. Umumiy til.** Masalan, kelib chiqish jihatidan bir bo'lgan xalqlarning tili yagonadir. Bu tillarda fe'l, ayniqsa ot turkumidagi so'zlar umumiy qarindoshlik an'analari uzoq davom etgan. Keyinchalik ular mustaqil qabilalarga ajralgan. Tillari ham o'zicha rivojlangan. Turk so'zi bir ming besh yuz yil davomida o'z ma'nosini o'zgartirgan. V asrda Ashin atrofiga to'plangan o'rda aholisi turk deb yuritilgan. Hammasi turkiy tilda gaplashganlar.

<sup>13</sup> Raxmon, Nasimxon. Turk xoqonligi. -T.1993

<sup>14</sup> Raxmon, Nasimxon. Turk xoqonligi. -T.1993

Ana shu tilda gaplashgan boshqa qo'shni qabilalarga turk nomi qo'llanmagan. Faqat hududiy birlik nomga asos bo'lgan. O'sha davrlarda O'rta va Markaziy Osiyoga sayohat qilgan arab tarixchilari asarlarida shunday farqlash bor. Ular turk nomi ostida qaysi tilda gapirishidan qat'i nazar, O'rta va Markaziy Osiyoda yashovchi hamma qabilalarni nazarda tutganlar. Rashiddin turk va mo'g'ullarni tiliga qarab farqlagan. Chunki XIII asrda mo'g'ul tili alohida til sifatida ajralib chiqib, turkiy yozuv asosida o'z yozuvini shakllantirgan edi<sup>15</sup>.

### **8. Etnos a'zolari umumiy psixologik xususiyatlarga ega.**

Masalan, Vatan tuyg'usi Bilga xoqonda juda yuksak. U turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashadi. Vatanni saqlab qolish faqat xoqonning o'ziga emas, xalqqa ham bog'liq. Ajdodlarning yutuqlari-yu xatosi buni tasdiqlaydi. Xalq o'z xoqonining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda uning boshiga ko'p kulfatlar keladi. O'ta ishonuvchan bo'lmaslik, boshqalarning gapini mulohaza qilgandan keyin ish yurtish kerak. Samimiylilik bilan yolg'onni farqlay bilish kerak. Samimiylilikning ortida ko'pincha yolg'on bo'ladi. Qattiq gapirgan, qattiqqo'l xoqon o'z xalqiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Odamni ajrata bilmay, to'kis ishonuvchan bo'lsa, fojiaga yo'l ochiladi, darbadarlik shundan boshlanadi: "Ey turk xalqi, to'kis ishonuvchansan, samimiy, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so'zini olmayin, har qayerga ketding, u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding. O'sha yerda qolganing har joyda zo'rg'a o'lib-tirilib yurgan eding" deydi Bilga xoqon<sup>16</sup>.

### **3. Etnik guruh**

*Etnik guruh* – bu umumiy madaniy an'analar, o'xshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir. Dastlab ushbu atama biologik jihatdan bir-birlariga bog'liq bo'lgan insonlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, bora-bora uning mazmun va mohiyati kengayib borgan. Birgalikda

<sup>15</sup> O'sha manba.

<sup>16</sup> Raxmon, Nasimxon. Turk xoqonligi. –T.1993

va deyarli bir xil hayot va turmush tarziga ega bo'lgan insonlar guruhining qadriyatlar va an'analar mushtarakligi nuqtayi nazaridan birlashishi etnik guruhni tashkil qilgan. Shunday qilib, etnik guruhlar tarixiy rivojlanish jarayonida quyidagi belgilar va mezonlar asosida shakllangan:

- a) tarixi va an'analari;
- b) tili;
- v) geografik joylashuvi;
- d) irqining ijtimoiy kelib chiqishi;
- e) diniy e'tiqodi va b.q.

Odatda bu atama katta ijtimoiy guruh tarkibida kichikroq guruhga nisbatan ishlatiladi (masalan, o'zbeklar orasida qoraqalpoqlarning etnik guruhi). Lekin ayrim olimlar etnik guruh deganda aynan mamlakatdagi eng katta etnik guruhni (bizning misolimizda - o'zbeklar) nazarda tutadilar. Odatda etnik guruhlar amatamasi irqqa nisbatan ishlatilmaydi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari keskin tus olgan, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmoqlari orqali shaxsning keng axborot oqimiga qo'shilishi imkoniyati kengaygan bir sharoitda uning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, chiniqtirish, axborotlarga nisbatan tanlovchan munosabatni tarbiyalash o'ta muhim va murakkab masalaki, uni samarali yechish ham turli millat va elat vakillari, omma va alohida olingan shaxs psixologiyasini bilishni, jamiyat va shaxs o'zaro munosabatlaridagi nozik jihatlarni o'rganishni talab qiladi.

Ayni davrga kelib hamdo'stlik mamlakatlari hududida har bir sobiq respublikalar alohida, mustaqil davlat maqomini olgan, lekin boshqa tomondan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda. Shuning uchun ham katta guruhlar ichida etnik, milliy guruhlariga ko'proq e'tibor berishni lozim topdik, bunday e'tiborning yana bir boisi - O'zbekistonda bu sohada nisbatan tadqiqotlarning ko'proq o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganligidandir. Chunki oxirgi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan ko'pgina ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda u yoki bu masala yoki

muammoning etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash urf bo'ldi. Bunday tarzda qo'yilayotgan masala to'g'ri va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, lekin muammoni o'rganish uchun avvalo etnopsixologiyaning fan sifatida o'ziga xosligi bilish zarur, deb hisoblaymiz.

#### **4. Etnopsixologik xususiyatlarni namoyon qiluvchi omillar**

Etnopsixologik xususiyatlar o'zining kelib chiqishi jihatidan xalqling butun o'tmishi, hayot tarzi va tarixi bilan bog'lanib ketgan bo'lib, bu xususiyatlar millat shakllanmasdan avvalroq vujudga kela boshlagan bo'ladi. Ma'lumki, etnik birlik millat taraqqiyotining eng yuqori bosqichida vujudga keladi. Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga, ya'ni xalq, qabila, elatlarga ham xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil tabiiy muhit ta'siri bilanгина vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida yana uchta muhim omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omil bu – siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, ikkinchisiga, shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy hodisa va voqealar kiradi.

Lekin shuni ta'kidlash mumkinki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida odamlar ruhiyatining mazmunini, avvalo birinchi omil – mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-mafkuraviy o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy-geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan inson nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologik qiyofasida o'chmas iz qoldiradi.

Tabiatdagi ayni bir voqeliklarning doimiy ta'siri natijasida kishilar bu voqelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob axborotlar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi. Natijada evolyutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muhit bilan adekvat, ya'ni unga mutanosib munosabatni ta'min ettiruvchi neyro-

fiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun u yoki bu xalqqa xos stereotip xatti-harakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muhitga moslashuvining oliy ko'rinishi, deb hisoblash kerak.

Tashqi muhitning doimiy ta'sirida vujudga kelgan ruhiy xususiyatlar bu taassurotlarning butun sistemasi (tizimi) ni emas, balki uning uchun muhim bo'lgan va o'tmish tajribasida sinalgan, mustahkamlanib qolgan tomonlarinigina aks ettiradi. Olimlarning e'tirof etishicha, tashqi olam ta'siri inson miyasida o'rnatilgan qolgan his-kechinmalar, fikrlar, xohish, irodani namoyon bo'lishi, xullas, ideal orzu-tilak tarzida aks etadi va xuddu shu ko'rinishda, ideal kuchlar bo'lib qoladi.

S.I.Korolevning yozishicha<sup>17</sup>, "Millat ruhiyatida shakllangan etnopsixologik xususiyatlar ma'lum darajada ayni shu millat vakillarini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini ham o'ynaydi. U xuddi g'alvirdek yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi yoki shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi".

Atrofdagi voqelikni, hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok qilish, tasavvur va fikr qilish va ularni tab va tuyg'ular, urf-odat va an'analar, xarakter tarzida namoyon bo'lishi etnopsixologiyani qaytarilmas, betakror xususiyatlari hisoblanadi.

"Yaponiyaga birinchi marta kelib qolgan yevropalikni, - deb yozadi I.S.Kon, - yaponiyalikning faqat xursand bo'lgandagina emas, hatto o'nta tanbeh berganda ham, yoki sizga biror qayg'uli narsa, masalan, o'lim to'g'risida gapirayotganda ham kulimsirab gapirishi, taajjubga, hatto hijolatga tushirib qo'yadi. Tajribasiz odam buni beorlik, surbetlik yoki rahmsizlik deb hisoblaydi. Aslida kulimsirash bu elda boshqacha ramziy mazmunga ega - bu bilan u og'ir vaziyatni yengillashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishlikka tayyor ekanligini ta'kidlash va shu kabi mazmunni bildiradi"<sup>18</sup>.

Ma'lum bir millat vakillarining narsa va hodisalarni o'ziga xos idrok etishi, fikrlashi va orzu-istaklarini, ya'ni oliy ruhiy

<sup>17</sup> Коралёв С.И. Вопросы психологии. 2001. № 2. С.9.

<sup>18</sup> Кон И.С. К вопросу национального характера // В книге "История и психология" - М., 1980. - 130 с.



xususiyatlarini tushunish va tushuntirish, uning namoyon bo'lish sabablarini organizmning, miyaning tuzilishidan emas, balki yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, uni o'rab turgan tabiiy muhitning shart-sharoitlaridan qidirish kerak.

Turli ijtimoiy tizim va iqtisodiy yutuqlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat shakllari turli ruhiy jarayonlar tizimining shakllanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda, turlicha ijtimoiy tuzumda yashayotgan xalqlar bir-biridan faqat ongning mazmuni bilangina farqlanib qolmasdan, balki faoliyat shaklining tuzilishi, mazmuni jihatidan ham farqlanadilar.

Ko'p sonli ijtimoiy psixologik eksperimentlari bilan mashhur bo'lgan taniqli rus neyropsixologi A.R.Luriya ko'p ruhiy jarayonlar, ayniqsa, oliy ruhiy faoliyat jarayonlari - tasavvur va mavhumlash, ijodiy xayol insonlarning biologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmay, balki ancha taraqqiy etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini ko'rsatib berdi. U o'z izlanishlarida amaliy ko'rgazmalilik usuli bo'lgan xatti-harakatlar birmuncha sodda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitlarida tafakkur ham sodda amaliy faoliyatni aks ettirish xarakteriga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, faqat murakkab bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarga emas, balki nisbatan oliy jarayonlar va funksiyalar ham hayotiy tajribalar va ijtimoiy-tarixiy jarayonlar asosida vujudga kelar edi. Miya o'z-o'zidan, tashqaridan kelayotgan axborotlarsiz fikrlay olmaydi. Rus psixologi P.P.Blonskiy ta'kidlaganidek, "Bo'm-bo'sh boshda fikr bo'lmaydi". Ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bosh miya faoliyatini belgilaydi. U esa o'z navbatida ruhiy jarayonlar va ongning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Turli davrlarda, zamonlarda yaratilgan mehnat mahsulotlarida o'sha davr va zamon odamlarining bilimlari va imkoniyatlari o'z aksini topgan bo'ladi. Zero, mehnat jarayonida subyekt obyektga ko'chadi, insonning kuch va qobiliyatlari u yaratayotgan narsalarda gavdalanadi. Shuning uchun ham psixologlar turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning ruhiy xususiyatlarini, davr ruhini, ular yaratib qoldirgan faoliyat mahsulotlarini o'rganish orqali bilib olishi mumkin.

Har bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos kechadi. Aynan xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir-biriga solishtirsak biz etnopsixologik xususiyatlar xalq tarixini chuqur aks ettirishini ko'ramiz. Yuqorida zikr qilganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy muhit ham ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Geografik va iqtisodiy sharoitlarni o'xshash o'xshamasligi, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni va qadrdon xalqlar - o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqardi. Ma'lumki, o'zbeklarning asosiy qismi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lgan vohalarda joylashganlar. Yerga xususiy mulkning vujudga kelishi, yerdan intensiv ravishda foydalanish, dehqonchilik mahsulotlarini ko'plab yetishtirishga olib keldi. Bundan tashqari o'zbeklar yashaydigan yirik shaharlarning g'arbdan sharqqa, janubdan shimolga o'tuvchi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lishligi, bu yerlarda faqat dehqonchilikni emas, shuningdek pul-tovar munosabatlarini, turli xil hunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlanishiga olib keldi. XV-XVI asrdayoq Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Xo'jand kabi yirik shaharlar Xindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Arabiston kabi mamlakatlar bilan keng savdo-sotiq ishlarini olib borishar edi. Bularning hammasi o'zbek xalqining hayot tarzida va psixologiyasida o'z aksini topgan edi. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy-madaniy aloqalarni qizg'in olib borilishligi, ulardan xushmuomalalik, xushbiatlik, mehmonnavozlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni talab etadi.

O'zbek xalqining hayoti va turmush tarzini o'rgangan tadqiqotchilarning barchasi o'zbeklarga xos bo'lgan ochiqyuzlik va xushmuomalalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi. O'zbeklarga xos bu xususiyatni qozoq adabiyotining klassigi Abay ham ta'kidlab ko'rsatib, "...iltifotlilik, xushmuomalalik - bularning hammasi sartlardadir", deb yozgan edi.

O'zbeklarning bir necha asrlar dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishi, ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirgan.

N.Jondildin qozoq xalqiga xos bo'lgan ayrim vazminlik, kamsuqumlikni xo'jalik yurgizish xususiyatlari bilan bog'liq deb ko'rsatadi. Ular butun umr bo'yi chorvachilik bilan shug'ullanib bu ularning xo'jalik hayotining deyarli butun qismini tashkil qilib qoldi. Aholini tarqoq holda joylashishi, ular o'rtasida aloqa o'rnatishni qiyinlashtirar, ular hatto uzoq vaqt davomida ham yashashlikka majbur bo'lardi. Bu esa ularda yuqorida aytilganidek, o'zaro muomalada kamgaplik, hatto o'zining eng nozik va qaynoq tuyg'ularini bayon etishda vazminlikni ko'rsatishni vujudga keltirdi.

Shunday qilib, ikki qardosh va qo'shni xalqlar - o'zbeklar va qozoqlar o'zlarining uzoq iqtisodiy va madaniy aloqalariga, etnik jihatdan yaqinligiga, tilining o'xshashligiga qaramay, yuqoridagi sabablar tufayli muayyan ma'noda psixologik xususiyatlari bilan farq qiluvchi ikki millat bo'lib shakllandi.

Tabiiy-geografik omillarning obyektiv ta'sirlarini xolislik bilan o'rganish, hech qanday irqchilik va millatchilik nazariyalarni keltirib chiqarmaydi. Shu narsa ma'lumki, serunum yer, mo'tadil iqlim va boshqa qulay tabiiy sharoitlar, ko'p jihatdan ishlab chiqarishning rivojiga, aholi sonining o'sib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, masalan, shimoldan va tropik mamlakatlardagi elatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotda nisbatan mo'tadil iqlim sharoitlarga ega bo'lgan xalqlardan orqada qolib ketishgan.

Agar shimolning qattiq sovuq tabiati dehqonchilik qilishga va sanoatni rivojlanishiga monelik qilgan bo'lsa, tropik iqlimdagi zaminning sermahsulligi kishilarni dangasa va tarallabedodchi qilib, bir etnograf so'zi bilan aytganda, kishini xuddi bolalarga o'xshash ojiz, nomustaqil qilib, uning taraqqiy etishini tabiiy zarurat qilib qo'ymaydi. Shu narsani payqash qiyin emaski, deb yozadi etnograf Yu.V.Bromley, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va boshqa shart-sharoitlarning ta'siri iatijasida mehnatsevarlik kabi xususiyat hamma xalqlarda ham bir xil namoyon bo'lavermaydi. Tabiiy muhitning o'ziga xosligiga ko'ra, kishilar yashashi uchun zarur bo'lgan narsalarga erishishda uchraydigan qiyinchiliklarni turlicha yengib o'tadilar. Psixolog I.S.Konning yozishicha, Yangi Gvineyaning ichkarisida va nisbatan yevropa ta'siri kam yetib borgan joylarda yashaydigan papuaslar qulay iqlim sharoitlariga va tabiatning mo'l-ko'l ne'matiga ega bo'lganligi uchun ham ba'zi

qiyin sharoitda yashaydigan kishilarga o'xshab, ertaning tashvishi bilan yashashga o'rganmaganlar. Shuning uchun ham ular faqat kundalik ehtiyojlarini qondirish uchungina mehnat qilishadi. Ko'plab narsa ishlab chiqishiga va g'amlab qo'yishga harakat ham qilishmaydi. Ularning nazdida kim kuyib-pishib ko'p ishlasa, ochko'z va yomon odam hisoblanadi. Shunga ko'ra ularning iqtisodiy, madaniy rivojlanishi ham ishlariga yarasha darajada. Qayerda ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil qilinmagan bo'lsa, mehnatkashlik bo'lmasa, u yerda ijtimoiy, tarixiy rivojlanish ham bo'lmaydi. Rivojlangan qaysi bir mamlakatni olib ko'rmang, shu yerda mehnatga munosabat, mehnatkashlik juda yuqori darajada ekanligini ko'ramiz. Tabiiy-geografik muhitni ta'siri qanchalik sezilarlik bo'lmasin, biroq etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida uning yetakchi omil qilib qo'yish to'g'ri emas. Shuning bilan birga, uning rolini mutlaq inkor etish, yoxud ortiqcha oshirib yuborish ham noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi. S.L.Rubinshteyn ta'kidlab ko'rsatganidek, "Psixologik xususiyatlarning shakllanishini birgina tabiiy sharoitlar, yoki ijtimoiy muhit bilangina asoslab tushuntirish mumkin emas. Bularning birortasini mutlaqlashtirish masalasini barbod bo'lishga mahkum etadi"<sup>19</sup>.

Muallifning fikri bilan kelishsak bo'ladi, chunki gap katta ijtimoiy guruhlar, ayniqsa, yaxlit millat yoki xalq psixologiyasi haqida borar ekan, masalaga barcha omillarning muayyan ta'siri nuqtayi nazaridan yondashgan ma'qul.

Etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini mujasamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi guruh bu - etnik birlik vakillaridir. Etnosga taalluqli guruhdagi ulargagina xos bo'lgan xususiyatlarning qay tarzda shakllanishi ham fan, ham amaliyot uchun muhimdir.

Ma'lumki, bola yorug' olamga kelar ekan, avvalo, o'ziga Vatanni va qolaversa, ota-onasini o'zi tanlab tug'ilmaydi. Bundan tashqari, u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor etnopsixologik xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan avlodajdodidan biologik yo'l bilan faqat irsiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarinigina meros qilib oladi, xolos. Bola tug'ilish

<sup>19</sup> Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание.// В кн. «Хрестоматия по психологии». - М., 1977 - С. 49

davrida odam bo'lishga nomzod. Lekin yakka ajralgan holda u odam bo'la olmaydi. Jamiyatda yashab u odam bo'ladi. Bola hayotining birinchi kunidan boshlab o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu axborotlar, turli ijtimoiy va ma'naviy muhit, geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va axborotlarning turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan, o'ziga xos milliy qiyofali xalqlarni yaratadi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, lekin hayotda u faqat o'z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan ijtimoiy muhit va o'zi mansub bo'lgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitni inkor etib yoki undan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi. Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni ongi va xulqiga singdirib, ijtimoiy tajribani egallab, ayni millat vakili bo'la oladi.

### **1-muammoli masala**

Etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini mujasamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi shu etnik birlik vakillaridir. Qanday qilib etnik birlikka xos xususiyatlar ularda shakllanadi?

### **2-muammoli masala**

Bola hayotining birinchi kunidan boshlab o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu informatsiyalar, turli sotsial muhit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va informatsiyalarning turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan xalqlarni yaratadi.

Shaxsning shakllanishida etnik muhitning ta'siri qanday? Fikringizni asoslang.

## Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari

1. Etnos, elat, millat, irq tushunchalarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. Etnosning yaxlit tizim sifatida mavjudligini asoslang.
3. Etnik guruh haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Etnopsixologik xususiyatlarni namoyon qiluvchi omillar nimalar?

## Testlar

### 1. S.M.Shirokogorovning ta'rifiga ko'ra etnos .....

A) bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni ongi va xulqiga singdirib, ijtimoiy tajribani egallab, ayni millat vakili bo'la oladi.

B) bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu informatsiyalar, turli sotsial muhit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi.

C) bir necha asrlar dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishi, ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirgan.

\*D) bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odat, marosimlar va an'analari tizimiga ega bo'lgan, o'zining kelib chiqishi birligini tan oluvchi o'ziga xos kishilar guruhi.

### 2. S.A.Tokarev ta'rifiga ko'ra etnos.....

A) psixologik xususiyatlarning shakllanishini birgina tabiiy sharoitlar, yoki ijtimoiy muhit bilangina asoslab tushuntirish mumkin emas.

\*B) til, davlatga tegishlilik, iqtisodiy aloqalar, madaniy turmush, din birligi singari bir qator ijtimoiy aloqalar natijasiga asoslanadigan kishilar jamoasi

C) bir necha asrlar dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishi, ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirgan.

D) shimoldan va tropik mamlakatlardagi elatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotda nisbatan mo'tadil iqlim sharoitlarga ega bo'lgan xalqlardan orqada qolib ketishgan.

### **3. Etniklik bu .....**

A) Geografik va iqtisodiy sharoitlarniig o'xshash o'xshamasligi, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni va qarddon xalqlar - o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqardi.

B) Bola hayotining birinchi kundan boshlaboq ixtiyorsiz holda o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shakllana boshlaydi.

\*C) Real ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar sharoitida o'zaro tushunarli tilda so'zlashadigan muayyan hududda yashaydigan kishilar orasida o'zaro shakllanib boradigan va o'zining ma'lum madaniy xususiyatlarini, mustaqil ijtimoiy guruh ekanligini butun hayoti davomida anglab boradigan har qanday jamoadir.

D) Bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu informatsiyalar, turli sotsial muhit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi.

### **4. Etnik guruh - .....**

\*A) bu umumiy madaniy an'analar, o'xshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir.

B) bu xususiy madaniy o'tirishlar, o'xshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir.

C) bu juziy ma'naviy an'analar, o'xshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir.

D) bu ayrim iqtisodiy an'analar, o'xshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir.

**5. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida yana uchta muhim omillar ta'sir ko'rsatadi.**

A) siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi

B) etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari

C) xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy hodisa va voqealar

**\*D) Barcha javoblar to'g'ri.**



## V BOB. ETNOS VA SHAXS

### **Reja:**

1. Shaxsiy o'zlikni anglash va etnik o'zlikni anglash tushunchalarining mushtarakligi.
2. Etnonim tushunchasi.
3. Bolalar sotsializatsiyasi va inkulturatsiyasi.
4. Millatning psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari.
5. Etnik ustanovkalar.

*Tayanch tushunchalar: etnik o'zlikni anglash, etnos, shaxs, sotsializatsiya, inkulturatsiya, etnik ustanovkalar.*

### **1. Shaxsiy o'zlikni anglash va etnik o'zlikni anglash tushunchalarining mushtarakligi**

Falsafa, etnologiya, ijtimoiy psixologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda milliy ong va milliy o'zini o'zi anglash tushunchalari deyarli farqlanmasdan, sinonim so'zlar sifatida ishlatib kelinadi. To'g'ri, ular o'rtasida mazmunan uzviy bog'liqlik va yaqinlik bor. Ular bir jarayonning turli bosqich va darajalaridir. Shunday bo'lsa ham ularni alohida - alohida tushunchalar sifatida o'rganish darkor.

Milliy ong etnik taraqqiyotning ilk bosqichlarida vujudga kelgan etnik ongning davomi bo'lib, o'zining ma'lum millatga (etnik birlikka) mansubligini anglash hisoblanadi. Millatning o'zini o'zi anglashi - etnik psixologiyaning ancha keyin vujudga kelgan murakkab fenomeni hisoblanib, u milliy ong asosida vujudga keladi va uning tuzilmasiga kiradi. Milliy o'zini o'zi anglash millatning o'z manfaat, maqsad va motivlarini anglab yetish darajasini bildiradi. Shuningdek u, millat tomonidan o'zining o'tmish tarixi, etnik kelib chiqishi, milliy g'oyalari, kelajagi, jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini bilishi bo'lib, vatanparvarlik milliy g'urur, sha'n, burch ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Agar insonning milliy ongi uning milliy mansublikni anglash orqali, millat hayotidagi voqealarga bildirayotgan munosabati

bo'lsa, milliy o'zini o'zi anglash esa, milliy manfaatlarini bilish, anglash darajasini bildiradi. Bu daraja nechog'lik yuqori bo'lsa, milliy o'zini o'zi anglash ham shunga mos darajada bo'ladi.

Milliy ongning eng dastlabki ko'rinishi bo'lmish etnik ong yillar davomida emas, asrlar davomida yagona til, hudud, axloq va urf-odatlar birligi asosida vujudga keladi. Bunda ayniqsa, etnos a'zolari kelib chiqishidagi umumiylikni anglash muhim omil hisoblanadi. Etnik birlikning dastlabki ko'rinishlari hisoblangan urug'chilik va qabilachilik davrlarida bu xil tushunchalar bir tomondan qarindosh-urug'lar o'rtasida quda-andachilik qilish shaklida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kelib chiqishi bir otanonadan (bir asosdan) ekanligi haqidagi tasavvurlarni saqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar umumiy kelib chiqish birorta jonivor

(zoomorf) nomi bilan bog'lanadi. Buni biz atoqli qirg'iz yozuvchisi Ch. Aytmatovning "Oq kema" qissasida keltirilgan qirg'izlarning bosh Onasi - Shoxdor, Ona bug'u afsonasida ko'rishimiz mumkin. Etnik ongning eng muhim ijtimoiy vazifasi odamning ma'lum etnik guruhga mansubligini anglash va his qilishini ta'minlashdir. Agar etnik psixologiyada etnik ong va etnik o'zini o'zi anglash kabi muhim komponent (unsur)lar bo'lmaganda edi, milliy urf -odat va an'analar, milliy xarakter, milliy tuyg'ular va didning bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishi qiyinlashib qolgan bo'lardi.

Milliy ong qotib qolgan narsa bo'lmay, xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, yuqori bosqichga milliy o'zini o'zi anglashga o'tadi. Birinchi Prezident I.A.Karimov o'zlarining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitoblarida yozganlaridek, "O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan, uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi"<sup>20</sup>.

Milliy o'zini o'zi anglash millatning birligi va jipsligini ta'minlovchi, millat mavjudligining asosiy omillaridandir. Milliy o'zini o'zi anglashning taraqqiyot darajasi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu ma'lum tarixiy davrlarda

<sup>20</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent, 2011 – 69 b.

millatning ichki muammolariga e'tiborning kuchayishi, o'tmishga qiziqishning ortishi, o'zining og'ir iqtisodiy ahvoli sabablarini anglab etishga intilishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Etnik ongning eng muhim ijtimoiy vazifasi – odamning ma'lum etnik guruhga mansubligini anglash va his qilishini ta'minlashdir. Agar etnik psixologiyada etnik ong va etnik o'zini o'zi anglash kabi muhim komponentlar bo'lmaganda edi, milliy urfodat va an'analar, milliy xarakter, milliy tuyg'ular va didning bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishi qiyinlashib qolgan bo'lardi. Milliy ong xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, yuqori bosqichga – milliy o'zlikni anglashga o'tadi. Milliy o'zini o'zi anglash millatning birligi va jipsligini ta'minlovchi, millat mavjudligining asosiy omillaridandir. Milliy o'zlikni anglashning taraqqiyot darajasi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu ma'lum tarixiy davrlarda millatning ichki muammolariga e'tiborning kuchayishi, o'tmishga qiziqishning ortishi, o'zining og'ir iqtisodiy ahvoli sabablarini anglab yetishga intilishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Milliy o'zini o'zi anglash millat hayotidagi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, uning rivojlanishiga jamiyat hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bilan birga xalqaro hayotdagi voqea-hodisalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Milliy o'zlikni anglashda millat ziyolilari yetakchi rol o'ynaydilar. Ular o'z milliy tilida san'at va adabiyotni rivojlantirish, milliy qadriyatlar uchun qayg'urish orqali milliy manfaat va g'oyalalar uchun kurashib, milliy o'zlikni rivojlanishiga xizmat qiladilar.

Milliy o'zini o'zi anglash millat hayotidagi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, uning rivojlanishiga jamiyat hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bilan birga xalqaro hayotdagi voqea va hodisalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonning Milliy mustaqillikka erishishi xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalari millat vakillari ongida katta o'zgarishlar bo'lishiga, milliy o'zini o'zi anglashning rivojlanishiga va boyishiga olib keldi.

Milliy o'zini o'zi anglashda millat ziyolilari yetakchi rol o'ynaydilar. Ular o'z milliy tilida san'at va adabiyotni rivojlantirish, milliy qadriyatlar uchun qayg'urish orqali milliy manfaat va

g'oyalar uchun kurashib, milliy o'zlikni rivojlanishiga xizmat qiladilar. Bu kurash, ayniqsa, milliy til, qadriyatlar kamsitilgan, milliy manfaatlar xavf ostida qolgan paytlarda kuchayadi. Ayniqsa, mustaqillikning ostonasida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv chog'ida yoshlar tarbiyasi va unda ziyolilarning rolini gapirib, Birinchi Prezident I.A.Karimov juda ibratli fikrni bayon etgan edilar: "Mana shu bebaho boyligimizni saqlab qolish, yoshlarimiz tarbiyasi uchun, ularning baxtli, to'kin, mazmunli hayoti uchun hech narsani ayamasligimiz kerak. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda ziyolilarimizning o'rni alohida ekanligini e'tiborga olish kerak"<sup>21</sup>.

Milliy o'zini o'zi anglashda ma'lum subyektivizm mavjud bo'lib, u muayyan tarixiy va ijtimoiy davrlarda o'z yo'nalishini o'zgartirib turishi mumkin. Ba'zan bu yo'nalish o'z chegarasidan chiqib, "millatchilik", degan xavfli, xatarli holatni tug'diradiki, milliy o'zlikni boshqa etnik guruhlarga qarama - qarshi qo'yish, milliy mahdudlik kabi nomaqbul ko'rinishlarga aylanadi.

Milliy mansublikni anglash bilan bog'liq xususiyatlar ancha barqaror bo'lib, doimo ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o'zgarishlar ta'siriga berilmasligi yoki nisbatan kam berilishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak tarix taqozosi bilan o'z Vatanidan ajrab boshqa yurtlarga borib qolgan va u yerda uzoq vaqtlar davomida yashayotgan kam sonli millat vakillarida milliy ongning shakllanishi va saqlanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Ularning milliy tilni saqlash, milliy urf-odat va an'analarga rioya qilish imkoniyatlari, milliy qadriyatlar bilan bevosita aloqasi ma'lum darajada cheklangan bo'ladi. Bunday sharoitda har bir avlod vakilida etnik ong katta avlod tomonidan berilayotgan ma'lumotlar, oila a'zolari va yaqin qarindoshlar o'rtasida so'zlashuv vositasi hisoblangan ona til, milliy qadriyatlar haqidagi bilimlar asosida vujudga keladi. Turli davrlarda uzoq ajnabiy yurtlarga borib qolgan millatdoshlarimizning hayoti bunga misol bo'la oladi. Xususan, Amerikada yashayotgan o'zbeklar bir-birlari bilan yaqin munosabatlarni saqlash, o'zaro suhbatlarni ona tilida olib borish, milliy taomlar tayyorlashga va yana eng muhimi o'zaro qudaandachilik qilishga harakat qiladilar. Umuman bir necha o'n va yuz

<sup>21</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent, 2011. - 141 b.

yillar davomida ajnabiy yurtlarda yashayotgan millatdoshlarimizning psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish tadqiqotchiga muhim ma'lumotlar berishi mumkin.

Etnik birlik kattaroq va kuchliroq etnos qurshovida qolganda yoki tazyiqqa uchraganda, etnik ong an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatning turli shakllariga (til, din, urf-odat, qadimiy qo'shiqlar, milliy kiyim va boshqalarga ta'sir ko'rsatib, etnik xususiyatlarni himoyalashga, saqlab qolishga yordam beradi. Shulardan ko'rinib turibdiki, etnik ong etnik jarayonlarning mahsuli bo'libgina qolmay, shuningdek etnik jarayonning ma'naviy sohasiga ta'sir etuvchi omil rolini o'ynaydi.

Totalitar tuzum - sho'rolar davrida o'zbek millatining o'zini o'zi anglashi, o'z tarixi, madaniy merosi, buyuk ajdodlar hayoti va ijodini o'rganishga qiziqishning ortishida, milliy tilning ijtimoiy va huquqiy vazifalarini kengaytirishdagi harakatlarda, moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlashdagi intilishlarda, O'zbekistonning o'z mustaqilligini ta'minlash uchun qilingan siyosiy sa'y-harakatlarda ko'rindi. Mustaqillikka intilayotgan xalqimizning psixologiyasini yaxshi bilgan Birinchi Prezident I.A.Karimov mustaqillikning ilk ostonasidayoq, ya'ni, 1991-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Qurultoyda shunday degan edilar: "G'ururi bor odamning qaddi rost, boshi baland bo'ladi. Oldimizda turgan ulkan, juda og'ir vazifalarni bajarish, muammolarni yechish, katta sinovlardan o'tish – bularning hammasi xalqimizning ruhini, milliy g'ururini tiklash bilan bog'liqdir"<sup>22</sup>.

Milliy ozodlik uchun kurashayotgan millatdagi milliy ong ezuvchi millatga nisbatan millatchilik ko'rinishida namoyon bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Zero, milliy o'zini o'zi anglashning dastlabki bosqichlarida o'z millatining tarixi, buyuk shaxslari bilan faxrlanish, uni ko'klarga ko'tarish, o'z ezuvchilari bo'lgan millatga qarama-qarshi qo'yish tarzida bo'ladi. Buni biz barcha milliy ozodlik harakatini boshidan kechirgan xalqlar tarixida ko'rishimiz mumkin. Xususan, XX asr boshlarida ijod qilgan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, Avloniy kabi ijodkorlar faoliyati bunga misol bo'la oladi. 80-yillar oxiri sobiq Ittifoq atalmish imperiyaning

<sup>22</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent, 2011. – 325 b.

qulashi arafasida buyuk bobomiz Amir Temur nomining tiklanishi, milliy bayroq misoli qo'lda ko'tarilishi, shu bayroq ostida millatni birlashtirish uchun harakat qilinishi bejiz emas edi. Buning uchun bobomiz, hayoti va faoliyati, qahramonliklari haqida yozilgan kitoblar chop etila boshlandi. Tarixiy haqiqat tiklanib, uning jahon tarixidagi o'rniga berilgan baholar bilan millat tanishtirildi millatning egilgan sha'ni, g'ururi tiklana boshlandi. Alloma bobolarimiz Buxoriy, Yassaviy, Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Zamaxshariy kabilarning nomlarini xalqqa qaytarilishi, ular yaratgan asarlar va kitoblarning chop etilishi kabi jarayonlar millatning o'zini o'zi tanishini yuqoriroq bosqichga olib chiqdi.

Afsuski, hozirga paytgacha fanda individda o'zining etnik birlikka mansubligini anglash, ya'ni etnik ong necha yoshdan vujudga kelishligi va bu jarayon qanday bosqichlarda o'tishligi aniqlanmagan. Shveysariyalik psixolog Jan Piaje ikki yuzga yaqin bolalarni muayyan vaqt davomida kuzatish va o'rganish orqali ularda hech qanday millatchilik va milliy mansublikni anglash kabi bilim va xususiyatlar bo'lmasligini, ya'ni bolalar o'zlarining eng dastlabki rivojlanish bosqichlarida "internatsional" bo'lishligi, etnik xususiyatlar va etnik ong keyinchaliq ma'lum ta'lim-tarbiya va ijtimoiy muhit orqali shakllanishini aniqlagan. Bizning fikrimizcha, bolalar o'zlarining u yoki bu etnik birlikka mansubliklarini, avvalo, ota-onalarining qaysi etnik birlikka mansubliklarini anglash orqali bilib oladilar. Ota-onalari turli millatga mansub bo'lgan bolalar ota-onalaridan birining millatini qabul qiladi. Bu esa shu oila yashayotgan mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy-maishiy kabi bir qancha vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha bunda etnik vaziyatlar, ota-ona mansub bo'lgan etnoslarning son nisbati ham muhim rol o'ynaydi.

Milliy mansublikni anglash, insonning butun umri davomida saqlanib, boshqa yurtlarda yashayotganda ham unutilmaydi. Aksincha, o'z etnik guruhini, yurtini sog'inish, qo'msash sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning xulq-atvorlariga va boshqa ruhiy xususiyatlariga ta'sir etib turadi.

## 2. Etnonim tushunchasi

**Etnonim** (ἔθνος xalq, qabila va ὄνομα — ism, nom) — urugʻ, qabila, elat, xalq, millat va boshqalar xil etnik uyushmalar nomi. Biror tildagi etnonimlar majmui etnonimiya deb yuritiladi. Urugʻ, qabila, xalq nomi oʻzi tomonidan tanlangan yoki oʻzgalar (koʻpincha qoʻshni etnoslar) tomonidan berilgan boʻlishi mumkin. Etnonim etnosning oʻzi tomonidan tanlangan boʻlsa — avtoetnonim; oʻzgalar tomonidan nomlangan boʻlsa — allogen (ekzogen) etnonim deb yuritiladi.

Etnonimlar tarixini, ulardan foydalanish, tarqalish va hozirgi holatni oʻrganish etnik tarix, etnik lingogenez va onomastika muammolarini hal qilishda muhimdir.

Etnonimlarni oʻrganish ismning evolutsiyasini kuzatish, uning kelib chiqishini izohlash, etnik migratsiya yoʻllarini, madaniy va til aloqalarini kuzatish imkonini beradi. Etnonimlar qadimgi atamalar sifatida qimmatli tarixiy va lingvistik maʼlumotlarga ega. Taxminan bitta hududlarda ming yillik rivojlanish bilan turli davrlarda aholi oʻz etnonimlarini oʻzgartirishi mumkin.

Baʼzi tadqiqotchilarning fikriga koʻra, etnonimlar tegishli nomlarga tegishli emas. Etnonimlarning kelib chiqishi va shakllanishi etnonimikaning onomastika boʻlimi tomonidan oʻrganiladi. Etnonimlar makro etnonimlar va mikro etnonimlarga ajratiladi.

**Makro etnonimlar** — yirik etnik birlashmalarning nomlari boʻlsa, kichik etnik birlashmalarni anglatuvchi **mikro etnonimlar**dir. Etnonimlar odatda makrotoponimlar bilan bogʻliq (ruslar - Rossiya, bolgarlar - Bolgariya). Baʼzan mamlakat nomi bir etnonimdan kelib chiqqan (Franklar - Fransiya, Chexlar - Chexiya, Yunonlar - Gretsiya) va etnonimi mamlakat nomidan kelib chiqsa, teskari etnonim boʻladi (Amerika - Amerikaliklar, Avstraliya - Avstraliyaliklar, Belarusiya - Belaruslar, Ukraina - Ukrainlar). Maxsus guruh bu qabilalar yoki xalqlarning qoʻshnilari tomonidan berilgan nomlarga qarshi boʻlgan xalqlar yoki qabilalarning oʻz-oʻzini ismlaridan (endo-etnonimlardan) iborat - masalan, Polshalik "Niemcy" va rus "nemislari", fransuzcha "Allemand" va ispancha "alman" ga nisbatan Deutschenning oʻz-oʻzini nomi.

**Etnikonlar** mahalliy joylarning (katoynimlarning) nomlari toponimlardan kelib chiqqan etnonimlarga o'xshashdir (Moskva - moskvalik, Novgorod - Novgorodlik, Smolensk - Smolensklik, Odessa - Odessalik), shuningdek aholi guruhlarining norasmiy laqablari (Sartlar, Surqash (Surxondaryo va Qashqadaryoliklar). **Jantile** atamasi ham ishlatiladi (frantsuz gents - "odamlar"), bu shahar aholisining ismi, masalan, parijlik, toshkentlik, qo'qonlik va boshqalar.

### 3. Bolalar sotsializatsiyasi va inkulturatsiyasi

Ko'pincha, sotsializatsiya va inkulturatsiya madaniy uzatish jarayoni sifatida tushuniladi. Inkulturatsiya jarayoni o'z vaqtida M.D.Xerskovits tomonidan kiritilgan. Inkulturatsiya deganda madaniyatda zarur deb hisoblangan ta'limot tushuniladi. Muvaffaqiyatli inkulturatsiyaning pirovard natijasi – bu til, marosimlar, madaniy qadriyatlar va hokazolarni biladigan odam. "Ijtimoiylashish" tushunchasi, shaxsning o'rganish natijasida shakllanishidan kelib chiqadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, inkulturatsiya va sotsializatsiya madaniyatning eng muhim mexanizmlari bo'lib, ularda ma'lum o'xshashliklar va farqlar mavjud<sup>23</sup>.

Inkulturatsiya va sotsializatsiya jarayonlari keng ekologik va madaniy kontekstda kechmoqda.

Akkulturatsiya - (lat. Acculturare - lotincha ad -k va culturare - ta'lim, rivojlanish) – madaniyatlarning o'zaro ta'siri (madaniy xususiyatlar almashinuvi), bir odam tomonidan boshqa xalq madaniyatini to'liq yoki qisman idrok etish jarayoni.

Inkulturatsiya - (lat. Inculturare - lotincha in ichida va culturare – ta'lim, rivojlanish) - shaxsning ijtimoiy hayot va madaniyat normalarini o'zlashtirish jarayoni.

J. Berri va uning hamkasblarining tadqiqotlari tor ma'noda va keng miqyosda sotsializatsiya jarayoni haqida ba'zi qarashlarni keltirib chiqardi. Tor ijtimoiylashuv itoatkorlik va konformizm bilan ajralib turadi va individual farqlarning cheklangan doirasiga olib keladi. Garchi keng sotsializatsiya mustaqillik va o'z-o'zini ifoda et-

<sup>23</sup> Кросскультурная психология. Исследования и применения / пер с. Англ. Харьков: Гуманитар. Центр, 2007.



ishning rivojlanishi bilan ajralib turadi va har xil individual farqlarga olib keladi. Inkulturatsiya shunday holatki, bunda shaxs madaniyatga xos bo'lgan dunyoqarash va xulq-atvorni egallaydi. M. D. Xerskovets inkulturatsiyaning bir necha bosqichlarini ajratib ko'rsatdi: bolalik, yetuklik.

D. Matsumoto sotsializatsiyani odamlar madaniy me'yorlarni tushunadigan turli xil jarayonlarni nazarda tutadi, inkulturatsiya esa madaniyatning psixologik jihatlari deb ataladigan sotsializatsiya mahsulotlarini ko'rib chiqishga qaratilgan jarayondir<sup>24</sup>. Madaniy uzatishni hisobga olgan holda, uning uch turi farqlanadi: vertikal (ota-onadan bolalarga), gorizontal (aloqa orqali madaniy me'yorlarni idrok etish) va bilvosita (ijtimoiylashuv agentlari bilan bog'liq)<sup>25</sup>.

Ijtimoiylashish va inkulturatsiya tushunchasi sotsializatsiya agentlari bilan bog'liq. J. Berri bunday bir nechta agentlarni aniqladi:

- vasiylar (to'g'ridan-to'g'ri bolalarni parvarish qilish);
- hokimiyat idoralari (madaniy qadriyatlarni singdirish);
- intizomga chaqiruvchilar (jazolash);
- tarbiyachilar (o'qitish);
- sheriklar (biznes sheriklar);
- xonadoshlar<sup>26</sup>.

Ma'lumki, bola yorug' olamga kelar ekan, avvalo, o'ziga Vatanni va qolaversa, ota-onasini o'zi tanlab tug'ilmaydi. Bundan tashqari, u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor etnopsixologik xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan avlod-ajdodidan biologik yo'l bilan faqat irsiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina meros qilib oladi, xolos. Bola tug'ilish davrida odam bo'lishga nomzod. Lekin yakka ajralgan holda u odam bo'la olmaydi. Jamiyatda yashab u odam bo'ladi. Bola hayotining birinchi kunidan boshlaboq ixtiyorsiz holda o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu axborotlar, turli ijtmoy va

<sup>24</sup> Мацумото Д. Психология и культура. СПб.: Прайм-Еврознак. 2002. С.121.

<sup>25</sup> Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. М. 2005. С. 231.

<sup>26</sup> Кон И.С. Ребенок и общество: историко-этнографическая перспектива. М., 1998. С. 45.

ma'naviy muhit, geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va axborotlarning turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan, o'ziga xos milliy qiyofali xalqlarni yaratadi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, lekin hayotda u faqat o'z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan ijtimoiy muhit va o'zi mansub bo'lgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitni inkor etib yoki undan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi. Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni ongi va xulqiga singdirib, ijtimoiy tajribani egallab, ayni millat vakili bo'la oladi.

Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti-harakatlarni botiniy ya'ni, "aqliy" xususiyatlarga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi. Individning ijtimoiylashishi, milliylashishi ona tilini o'zlashtirish bilan boshlanadi. Milliy tilni bilmaslik etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarning mohiyatlarini anglab olishga to'sqinlik qiladi. Chunki fikr ifodasi uchun ishlatiladigan so'zlarda milliy o'ziga xoslik bo'ladi. Tafakkur bilan til va nutq o'zaro bog'liq bo'lganligi uchun, ruscha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo'lib o'zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqida, tilda reallashadi, moddiylashadi.

O'zbeklar milliy muhitida tug'ilib voyaga yetgan bolalar o'zbekcha gaplashishga o'rganganlaridan keyin ham, ruscha fikrlab, o'zbekcha gapirishga harakat qiladi. Ruscha tafakkur tarzi bilan o'zbekcha gapirish juda qiyin. Boshqa millat vakili voqelikni o'zbekning ko'zi bilan ko'rib o'zbekona tafakkur tarzi bilan idrok eta olgandagina, u chinakamiga o'zbekcha fikr yuritib, o'zbekcha gapira boshlaydi. Yuqorida aytib ta'kidlaganimizdek, ko'rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib yetish miyaning tug'ma xususiyati bo'lmay, bu xususiyatni u turmush tajribasi asosida hosil qiladi. Shuning uchun ham turli tabiiy sharoitlarda va ijtimoiy muhitda yashab voyaga yetgan kishilar, turli hodisa va voqealarni idrok etishda o'ziga xos ijtimoiy psixologik

xususiyatlarga ega bo'lishadi. Olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, Afrika qit'asidagi ijtimoiy taraqqiyotda ortda qolib ketgan ba'zi qabila bolalari tajriba bilan bog'liq bo'lgan, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni, hodisalarni esda olib qolishda ajoyib xotira namunalari ko'rsatishgan. Ular ov qilinadigan so'qmoqlarni topish, yovvoyi hayvonlar izini farqlash, o'rmon ichida orientirovka qila olishlik kabi vazifalarni bajarishda yevropalik tengdoshlariga qaraganda birmuncha ustunlik qilgan holda, oddiy geometrik shakllarni deyarli farqlay olmaganlar. Inson ijtimoiy zot sifatida ma'lum milliy muhitda shakllanib borar ekan, u shu muhitda mavjud bo'lgan munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o'z-o'zidan stixiyali ravishda o'zlashtirmasdan, balki shu jamiyatda qabul qilingan ma'lum ta'lim-tarbiya tizimi orqali, sekin-asta o'zlashtirib boradi.

Har bir avlod vakillari ajdodlarning turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o'zlashtirib, millat uchun umumiy bo'lgan shart-sharoitlar ostida o'sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularning barchasida shu millatga xos bo'lgan umumiy psixologik xislatlar shakllanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ijtimoiy axborotlarni yosh avlod tomomidan o'zlashtirib borilishi, faqat ongli ravishda, ta'lim-tarbiya berish jarayonidagina bo'lib qolmasdan, shuningdek, individning o'zi bilmagan va o'zlashtirish jarayonini anglab yetmagan holda ham yuz beradi. Bu taqlid va ta'sirlanish orqali amalga oshadi, individning taraqqiyoti, - u bevosita yoki bavo-sita munosabatga kirishgan boshqa indvidlarning taraqqiyoti bilan belgilangan bo'ladi va bir-biri bilan munosabatga kirishadigan turli avlod vakillari o'zaro bog'langan, keyingi avlodlarning jismoniy mavjudligi esa o'tmishdoshlari tomonidan belgilangan bo'ladi.

Ilg'or fan namoyondalari insoniyat - bu ijtimoiy hodisa ekanligini allaqachon isbotlab berishgan. Shu jumladan konkret bir kishi ham avvalo murakkab va serqirra ijtimoiy munosabatlar mevasidir. Shuning uchun ham shaxsning xatti-harakatlari mohiyatini biologik yoki irqiy xususiyatlar bilan emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy normalar hamda axloq qonunlari bilan belgilash kerak. Shunday davrlar ham bo'lganki, ayrim olimlar irqchilikni yoqlab, bosh miyaning shakli va vazni go'yoki, xalqlarning ilg'or yoki qoloqligini bildiradi, deb da'vo qilib

chiqishgan edi. Lekin amalga oshirilgan tadqiqotlar bu da'voning asossiz ekanligini isbotlab berdi. Masalan, inglizlar miyasining o'rtacha vazni – 456 gr., fransuzlarniki - 1473 gr., buryatlarniki - 1508 gr., Shimoliy Amerika negrlariniki - 1510 gr, ekan<sup>27</sup>.

Akademik I.N.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotiga ko'ra, hamma xalqlar ijtimoiy taraqqiyotning qaysi darajasida bo'lishlaridan qat'i nazar, oliy nerv faoliyatining bir xil bo'lgan apparatiga - birinchi va ikkinchi signallar tizimidan tashkil topgan bo'ladi.

Agar oliy nerv faoliyatining rivojlanishi yuz ming yillar davom etganligini, sinfiy jamiyatning vujudga kelganiga esa bir necha ming yil bo'lganligini nazarga oladigan bo'lsak, inson oliy nerv faoliyati mexanizmi sinfiy jamiyat barpo bo'lmasdan ancha ilgariroq shakllanganligi ravshan bo'lib qoladi. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan, balki doimiy taraqqiy etib turish xarakteriga ega bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib turadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning yashash sharoitlarining o'zgarishi va yangi amaliy faoliyat shakllarining vujudga kelishi bilan insonning bilish bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarida ham o'zgarish yuz beradi. Bunda ruhiy jarayonlarda qayta qurilish sodir bo'lib, avval mavjud bo'lmagan yangi ruhiy faoliyat turlari vujudga keladi. Mehnat jarayonida odam tashqi tabiatni o'zgartirib borib, shuning bilan bir davrda o'z tabiatini ham o'zgartiradi.

#### 4. Millatning psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari

Etnik psixologiya nisbatan keng tushuncha bo'lib milliy psixologik qiyofaga qaraganda voqealidagi ko'proq hodisalarni o'z ichiga qamrab olgan bo'ladi. U etnik xususiyatlarni millat vakillari ongida aks etishi sifatidagina namoyon bo'lib qolmasdan, shuningdek dunyoni bilish quroli va shakli bo'lib ham namoyon bo'ladi. Etnik psixologiyada xalqning yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy va maishiy odatlar, milliy xarakter, an'analar,

<sup>27</sup> Якимов В. Антропология разоблачает. // Журнал "Азия и Африка сегодня". – 1966. – № 4. С. 24.

milliy tuyg'ular, milliy tab-did, milliy ong va milliy o'zini anglash kabi xususiyatlar aks etadi.

**Milliy psixologik qiyofa** etnik psixologiyaning asosiy komponentlaridan hisoblanib, milliy ong bilan birgalikda etnopsixologiyani tashkil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yaqinlash, "milliy psixologik qiyofa" va "milliy xarakter" terminlarini sinonim so'zlar sifatida ishlatib kelindi. Ma'lum darajada ular mazmun jihatidan va ruhiyatning asosiy xususiyatlariga taalluqligi bilan bir-biriga yaqin kelsa ham, lekin ular ayni bir tushuncha emas. Shunga qaramasdan ayrim mualliflar (SH. Botirov, N. Jondildin, Klomidze), xorijdagi deyarli barcha mualliflar "milliy xarakter"ni millatning butun psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llashadi.

"Milliy psixologik qiyofa" "milliy xarakter"ga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, "milliy xarakter" uning tarkibiy qismiga kiradi. "Xarakter" maxsus termin sifatida ko'pincha, barqaror ruhiy xususiyatlar majmuasi sifatida tushuniladigan "milliy psixologik qiyofa"ga qaraganda torroqdir. Bundan tashqari milliy xarakter etnik psixologiyaning milliy psixologik qiyofaga qaraganda ancha harakatchan, o'zgaruvchan elementidir. Milliy xarakter asosan etnik birlikning millat sifatida shakllangan davrida vujudga kelgan bo'lsa, milliy psixologik qiyofa etnik birlikning barcha tarixiy bosqichlariga ham taalluqlidir. Tadqiqotchilar tomonidan milliy psixologik qiyofaning nafaqat tabiati va mohiyati tahlil qilinib, sharhlanib qolmasdan, shuningdek uning tuzilmasi (strukturasi) ham o'rganilib, bu haqida turlicha qarashlar mavjud.

Milliy psixologik qiyofaning ichki tizimi va tuzilmasi masalasi A.I.Goryacheva, S.M.Arutyunyan, A.Bagramov, S.M.Junusov, B.D. Parigin, F.N.Filatov va boshqa tadqiqotchilar asarlarida, ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan. Bu mualliflar milliy psixologik qiyofani ijtimoiy hayotning real voqeligi, millatning belgilaridan biri ekanligini tan olishda hamfikr bo'lsalar ham lekin uning strukturasi belgilashda turli-tuman qarashlarga egalar. A.I.Goryacheva fikricha, milliy psixologik qiyofa tizimiga milliy xarakter, odatlar, did, an'analar kiradi.

Milliy psixologik qiyofa tizimini N.Sarsenbayev o'ziga xos ravishda talqin qilib beradi. Uning fikricha, milliy psixologik

qiyofada o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi uchta tarkibiy qism mavjud. Bu tarkibiy qismga:

- a) milliy xarakter
- b) milliy urf-odatlar
- v) milliy an'analar kiradi.

Bizning fikrimizcha, milliy psixologik qiyofa, avvalo milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, so'ngra milliy tuyg'ular va ancha barqaror bo'lgan milliy did (tab) kabi elementlarda to'la namoyon bo'ladi va milliy ong bilan birgalikda etnik psixologiyaning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi.

## 5. Etnik ustanovkalar

*Etnik ustanovkalar* – bu shaxsdagi yoki muayyan millat vakillaridagi millat hayoti va turmush tarzini, undagi qadriyat va normalarni, millatlararo munosabatlarni ma'lum tarzda idrok qilish va qabul qilishga, tushunishga ruhiy tayyorlik bo'lib, u ushbu ustanovkaga, ya'ni ruhiy hozirlikka mos holda millatlar bilan munosabatda o'zini u yoki bu tarzda tutadi. Masalan, biror millat vakilining aqliy-intellektual salohiyati haqida unda ijobiy ustanovka shakllangan bo'lsa (masalan, "hamma yahudiyalar aqli" yoki "barcha o'zbeklar mirishkor" tarzda) kim bo'lishidan qat'i nazar, ushbu millat vakillariga nisbatan aynan shu sifatlarni idrok qilishga moyillik bo'ladi, yahudiyning hamma ishi "aqli", o'zbekning bog'i hamisha mevaga to'liqday tuyulaveradi. Vaholangki, ikkila sifat ham birinchidan, barcha millat vakilida bo'lishi mumkin, ikkinchidan, aynan shu millatning barcha vakili ham aqli yoki mirishkor bo'lavermaydi.

Shu nuqtayi nazardan etnopsixologiyaning va psixologlarning vazifasi shu kabi etnik ustanovkalarning shaxsda shakllanib, e'tiqod darajasida o'rnatilib qolishining shart-sharoitlarini o'rganish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun amaliy ishlarni yo'lga qo'yishdir. Chunki etnik ustanovkalarning xulqda barqaror mavjudligi ba'zan etnik nizolarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Shunday qilib, u yoki bu millat vakillarining psixologik xususiyatlarini o'rganishda ular yashaydigan madaniy muhitga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Chunki madaniyat tushunchasida

millatning yashash va turmush tarzi bevosita aks etadi. Bu holat o'z navbatida millat vakillarining psixologiyasida, dunyoqarashlarida, ijtimoiy xuqlqida namoyon bo'luvchi bir-biriga yaqin va o'xshash bo'lgan ustanovkalar, tasavvurlar, qadriyatlarni shakllantiradi. Agar u yoki bu qadriyat yoki udum bir avlod doirasida namoyon bo'lgan bo'lsa, u hali madaniy qadriyat deyilmaydi. Bunday bo'lishining asosiy sharti – bu uning avloddan avlodga o'tishi, avlodlar va ajdodlararo vorislikning mavjudligidir. Agar bir millatning urf-odatlar, qadriyatlari, udumlari, an'analarida tarixiy mantiq va milliy manfaat bo'lmasa, u madaniyatning ajralmas bo'lagiga aylanmaydi. Madaniyatning mavjudligi, uning tarkibiy qismlarining barqarorligi millatning qiyofasini shakllantiribgina qolmay, balki xalq vakillariga muayyan qulayliklar yaratadiki, xalq ulardan tayyor meros sifatida, ba'zan esa stereotiplar sifatida foydalanadi. Madaniyat va uning qadriyatlarining shaxs kamolotidagi, uning shakllanishidagi ahamiyati ham shunda.

Ayrim g'arblik olimlar madaniyatni programmalashtirilgan xulq-atvor qoidalari, deyishga moyillar (E. Aronson, D. Matsu-moto va b.q.). Bizning fikrimizcha, madaniy qadriyatlarni, milliy udumlarni ataylab "programmalashtirib" bo'lmaydi. Chunki ular tarixiy taraqqiyot mobaynida xalq o'zi uchun ma'qul deb bilgan xulq va harakatlar, ustanovkalarining e'tiroflari natijasi bo'lib, muayyan shart-sharoitlar, jumladan, tabiiy, geografik, mintaqaviy, ijtimoiy, mafkuraviy, siyosiy, psixologik, ma'naviy shart-sharoitlarda o'zini oqlagan udum, an'ana va rasm-rusumlar, axloq normalari va qoidalari avloddan-avlodga uzatilib, xalq "xotirasi"da muhrlanadi. Demak, har bir mamlakat va undagi millat va elat vakillari saqlab kelayotgan madaniyat ushbu xalq vakillarining xulqida bevosita aks etadi.

Shunday qilib, biz yuqorida ko'rib chiqqan etnopsixologiyaning dolzarb masalalari va etnik ongning muhim komponentlari amaliyotda va nazariyada tadqiqotchilar va mutaxassislar bilishi lozim bo'lgan asosiy muammolar bo'lib, yurtimizda etnopsixologiyaning rivojlanishi ushbu masalalarning ayrim alohida qirralarini ham fanning ishonchli metodlari yordamida o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

## Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari

1. Shaxsiy o'zlikni anglash va etnik o'zlikni anglash tushunchalarining bir-biridan farqi.
2. Etnonim tushunchasining mohiyatini ochib bering.
3. Bolalar sotsializatsiyasi va inkulturatsiyasi tushunchalarining bir-biridan farqi?
4. Millatning psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Etnik ustanovkalar haqida nimalarni bilasiz?

### Mavzu bo'yicha testlar

1. Milliy ong etnik taraqqiyotning ilk bosqichlarida vujudga kelgan etnik ongning davomi bo'lib, ..... hisoblanadi.

- A) o'zining ma'lum hududga mansubligini anglash
- \*B) o'zining ma'lum millatga (etnik birlikka) mansubligini anglash
- C) ancha keyin vujudga kelgan murakkab hodisa
- D) bir xalqni boshqasidan ajratib turadigan xususiyatlar

2. Milliy o'zini o'zi anglash millatning .....anglab yetish darajasini bildiradi.

- A) o'z holat, kayfiyat, xususiyatlarini
- B) o'z jarayon, e'tiroz, o'zgarishlarini
- \*C) o'z manfaat, maqsad va motivlarini
- D) o'z jarayon, holat, ehtiroslarini.

3. Etnonim ..... — nomi.

- A) shahar, davlat, mamlakat, respublika, vatan nomi
- B) qizlar, ayollar, talabalar, o'quvchilar, o'qituvchilar nomi
- C) o'g'il bolalar, erkaklar, otalar, bobolar, joylar, saylgohlar nomi
- \*D) urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqalar xil etnik uyushmalar.



**4. Milliy psixologik qiyofa tarkibiy qismlari:**

- \*A) milliy xarakter, milliy urf-odatlar, milliy an'analar kiradi
- B) milliy ong, stereotiplar, etnik nizolar kiradi
- C) milliy marosimlar, mentalitet, etnik ramzlar kiradi
- D) etnosentrizm, egoizm, altruizm, milliy xarakter kiradi.

**5. Etnik ustanovkalar – bu shaxsdagi yoki muayyan millat vakillaridagi millat hayoti va turmush tarzini, undagi qadriyat va normalarni, millatlararo munosabatlarni ma'lum tarzda idrok qilish va qabul qilishga, ....mos holda millatlar bilan munosabatda o'zini u yoki bu tarzda tutadi.**

A) tushunishga fiziologik tayyorlik bo'lib, u ushbu ustanovkaga, ya'ni ruhiy hozirlikka

\*B) tushunishga ruhiy tayyorlik bo'lib, u ushbu ustanovkaga, ya'ni ruhiy hozirlikka

C) tushunishga anatomik tayyorlik bo'lib, u ushbu ustanovkaga, ya'ni ruhiy hozirlikka

D) tushunishga falsafiy tayyorlik bo'lib, u ushbu ustanovkaga, ya'ni ruhiy hozirlikka.

## VI BOB. MILLIY XARAKTER VA ETNIK IDENTIKLIK

### Reja:

1. Milliy xarakter va temperament.
2. Etnik identiklikning shakllanishi va turlari.

*Tayanch tushunchalar:* Milliy xarakter, temperament, milliy tafakkur, etnik identiklik.

### 1. Milliy xarakter va temperament

Milliy xarakter ilmiy izlanishlarda bir tomondan, tadqiqot obykti sifatida biroz murakkab, ammo aslida o'rganish mumkin bo'lgan ijtimoiy-tarixiy hodisadir. U milliy psixologik qiyofaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Milliy xarakter millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish, tushuntirib berish uchun shu millat hayotini, tarixini, madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini yaxshi bilishi zarur.

XIX asrda turli xalqlarning etnopsixologik xususiyatlarini o'rgangan ko'plab mualliflar o'z asarlarida milliy xarakterni real voqelik sifatida mavjudligini e'tirof etgan. Masalan, faylasuf E.Frenshrish Angliya tarixini o'rganar ekan, fransuz va nemislarga aslida xos bo'lmagan, lekin davrlar o'tib shakllanib borayotgan mustaqillik, o'ziga ishonch xususiyatlarining rivojlanganligini ko'rsatib beradi. Muallif inglizlarning milliy xakteri nemislar-nikidan ham, fransuzlarnikidan keskin farq qiladi, - deb yozgan edi u. Ma'lumki, xarakterning mavjudligini inkor etuvchi ayrim mualliflar rus va ukrain, gruzin va armanlar, nemis va fransuzlarni bir-biridan farqlovchi xususiyatlarni ko'rsatib bering, deyishadi. Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini bilib olish mumkin. Milliy xakterdagi bu farqlarni hatto kundalik hayotda ham ko'plab uchratamiz. Millat xakterining realligini himoya qiluvchi mualliflar shunday bir epizodni tasavvur qilishni

tavsiya etishadi. Agar vagon kupesiga bir notanish ingliz chiqib qolsa, u kupedoshi bilan safarlarining oxirigacha ham gaplashmay, yaqindan suhbat qurmay ketishi mumkin... O'zbeklarchi! Aksincha, bir-biri bilan yaqindan tanishib, bir-birining butun hayotini bilib ulguradi.

Rossiyalik yirik ijtimoiy psixolog olimi Galina Andreeva milliy xarakterga quyidagicha ta'rif beradi: "*Milliy xarakter* – etnik (milliy) guruhning psixologik qiyofasi xususiyatlarini bayon etishda ishlatiladigan keng tarqalgan tushunchadir. Gap qandaydir xarakter xususiyatlarining majmuasida emas, balki ushbu majmuadagi u yoki bu qirraning namoyon bo'lish darajasi haqida ketishi lozim<sup>28</sup>". Muallifning ta'kidlashicha, milliy xarakterni tadqiq etishda millatning odatlari, ana'nalaridan tashqari, "millatning tili katta rol o'ynashini unutmash lozim, chunki ijtimoiylashuv jarayonida milliy xarakter sifatlarining bir avloddan boshqa avlodga o'tishi bevosita til orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy muhitning o'zgaruvchanligiga qaramay, milliy xarakterning nisbatan barqarorligi aynan tajribaning avlodlararo vorisligi ta'minlanishidagi inersiyaga bog'liqdir<sup>29</sup>". G. Andreeva shunga qaramay, u yoki bu millat vakillari xarakterida muayyan qirralar va sifatlarni mutlaq shu millatgagina xos deyishdan, yoki u yoki bu millatda biror xarakter sifatining yo'qligini e'tirof etishdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Masalan, u bu o'rinda botirlik, mehnatkashlik, vazminlik kabilarni nazarda tutadi. Bu o'rinda ayniqsa milliy va ijtimoiy xulq-atvorga oid xarakter sifatlarining o'zaro bog'liq ekanligini unutmash lozim.

Milliy xarakterni o'rganish chog'ida u faqatgina shaxsning psixologik qadriyatlarida mavjudligini va faqatgina ular orqali u millatning ma'naviy faoliyatida o'z aksini topishi mumkinligini e'tiborimizdan chetda qoldirmasligimiz kerak. Ushbu milliy o'ziga xoslik turli millat vakillarining odatlariga, ijtimoiy-maishiy reaksiyalariga, didiga, xulqiga alohida jilo beradi. Shunga ko'ra hozirgi zamon olimlari A.O.Boronoev va P.I.Smirnovlarning milliy xarakterga bo'lgan qarashi e'tiborga molikdir. Ular: *milliy xarakter*

<sup>28</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений/Г.М. Андреева. - 5-е изд., испр. И доп. - М.: Аспект Пресс, 2003 - (364 с.) - С.160-161.

<sup>29</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений/Г.М. Андреева. - 5-е изд., испр. И доп. - М.: Аспект Пресс, 2003 - (364 с.) - 161 с.

– *real xatti-harakatlarda ro'yobga chiqadigan muayyan xulqiy normalar va qadriyatlar tizimi majmuidir, deydilar.*

Mualliflar milliy xarakterni muayyan ideal tip sifatida talqin etishga harakat qilishgan. Ideal tip faoliyatning muayyan normalarini va ularning obyektivatsiya shakllarini paydo qilib, keyingi har bir avlodda qayta tiklanadi. Milliy xarakter u yoki bu xalqning ideal intilishlarining dialektikasi va ularni yaratuvchi real madaniy institutlarning yaratilishlari bilan bog'liq. Etnik guruhlarining ideal va real xulqlari mutanosibligi, milliy xarakterni shakllanganligi, etnosning refleksiya darajasi xususida hamda milliy-etnik o'zlikni anglash darajasi xususida xulosa chiqarish mumkin.

1. "Milliy xarakter muayyan jamiyatning voyaga yetgan a'zolari uchun modal (eng ko'p uchraydigan) bo'lgan nisbatan turg'un shaxs chizgilari va shaxs toifalariga mos keladi (personality patterns)"- (A.Inkels va D.Levinson);

2. "Muayyan jamiyatning aksariyat a'zosiga taalluqli toifa (tip) modal shaxs sanaladi, milliy xarakter esa ushbu jamiyatda eng ko'p uchraydigan shaxs toifalari (tiplari) bilan belgilanadi" (X.P.Deyker va N.X.Frid)

3. "Milliy xarakter – real xatti-harakatlarda ro'yobga chiqadigan muayyan xulqiy normalar va qadriyatlar tizimi majmuidir" (A.O.Boronoev, P.I.Smironov)<sup>30</sup>.

Xalqlarning turlicha xarakter xislatlariga ega bo'lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakterning shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi. Har bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari asosida millat vakillari milliy mafkura manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z milliy xarakteriga mos idealni yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi odamlarning yashash tarzini aks ettiradi. Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter xislatlarining vujudga kelishi insonlar ruhiyatiga atrofda voqeliklarning uzoq vaqt davomida ta'sir etib turishi bilan bog'liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy xislat va sifatlarni kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, "milliy xarakter" tushunchasi haqida hali ham umumiy bo'lgan bir xil

<sup>30</sup> Botirov B.M. O'zbek milliy xakeri shakllanishiga qadriyatlar ta'sirining psixologik xususiyatlari. Ps.f.n.....dis. -T. B. 31-32.

qarash mavjud bo'lmasa ham, lekin unga kiruvchi xislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud.

Ko'p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mehnatga munosabat asosida shakllanadigan sifatlarni, ya'ni, mehnatsevarlik, tirish-qoqlik, maqsadga yo'nalganlik, Vatanga munosabat asosida yotuvchi vatanparvalik, erksevarlik, jangovarlik sifatlarini kiritishadi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi xislat va sifatlardan bir qatorida milliy xarakter tarkibiga yana millatning tafakkur qilish, fikr yuritish xislatlarining o'ziga xosligini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, millat vakillarining boshqa xalqlarga bo'lgan munosabati va shu millat vakillarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi.

Milliy xarakter va etnik psixologiyani o'rganishning muxoliflari esa, milliy xarakter namoyon bo'ladigan yuqorida ta'kidlangan xislatlarning qaysi biri birorta xalqda yoki millatda mavjud emas, deb savol qo'yishadi. Bu da'vo ham bir qarashda o'rinli. Milliy xarakterni o'rganishda tadqiqotchilar duch keladigan metodologik qiyinchilik ham mana shunda. Darhaqiqat, xarakterning qaysi bir xususiyatini olib ko'rmaylik, albatta, uning barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Masalan, erksevarlik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xislatlar hamma xalqlarga xos bo'lgan xususiyat bo'lgan holda, bu sifatlardan o'zining namoyon bo'lishi, tuzilishi jihatidan barcha xalqlarda bir xil kechmaydi. Zero, xarakter xislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir xil bo'lmaganligi sababli, yuqoridagi xarakter xislatlarining namoyon bo'lishi ham ularda aynan bir xil bo'lolmaydi.

Kavkazdagi tog'li xalqlarning hayoti va yashash tarzini o'rganigan tadqiqotchilarning barchasi bir ovozdan ularda jangovorlik, mag'rurlik kabi xarakter xislatlari kuchli ekanligini e'tirof etishadi. Ularning bu xakteri, - deb yozadi T.CH.Chomaev, tog'li xalqlarning tashvishli va xavf-xatarga to'la hayotlarining in'ikosi bo'lib, unga moslashish zarurati natijasidir. Zero, bu xalqlar uchun tashqi ta'sirlarning butun kompleksi: tog' sharoitining og'irligidan tortib, jangovorlik shon-shuhratigacha, beshikdagi alladan tortib epik xalq dostonlarigacha o'z erki va ozodligini saqlab qolish uchun

mardlik va matonatli, qahramonlik va jasurlikni tarbiyalashga qaratilgan edi.

Mehnatsevarlikning hamma xalqlarga xos fazilat ekanligiga ham shak-shubha keltirmaymiz. Lekin, shuning bilan birgalikda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qurilishi, geografik iqlim sharoiti, shu xalq tomonidan qabul qilingan mehnat qilishiga bo'lgan munosabatga qarab, mehnatsevarlik hamma xalqlarda bir xilda ham namoyon bo'lavermaydi.

Ma'lumki, Gollandiya mo'jazgina kichik maydonga ega mamlakat. Maydoni jihatidan u ancha-muncha davlat yoki undagi viloyatdan kichik, lekin shu mamlakat butun Rossiyani boqishga yetarli bo'lgan qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarar ekan. Vaholanki, Gollandiya xalqi tabiiy-geografik sharoitiga ko'ra, dengiz atrofidagi botqoq va toshloq yerlarni o'zlashtirib, unumdor yerga aylantirish uchun og'ir sharoitlarda ish olib boradi. Natijada ularda tirishqoqlik va sabotlilik bilan mehnat qiladigan kishilarga nisbatan mehr-muhabbat bilan qarash shakllangan. Ota-onalar ham ilk yoshlikdan oilada o'z farzandini shu ruhda tarbiyalashga harakat qilar ekan. Bola sal-pal gapni tushunadigan bo'lgach, ona uning kaftini ochib u yerda ikki egri-bugri chiziqlarni ko'rsatib, "M-men-odam; W-work-mehnat, odam mehnat uchun tug'iladi", deb tushuntirar ekan.

Sevimli va iqtidorli shoirimiz A.Oripov o'zbek xalqining ham mehnatkash va zahmatkash ekanligini ulug'lab, o'zbekistonlik dehqonning bu xislatlarini "Saraton" she'rida bunday tasvirlaydi:

*Hali tong g'unchasi ochmasidan lab,  
Nahor farog'atin o'ylamay taqir,  
Kimsasiz dalaga ko'zin uqalab,  
Chiqib ketganingni ko'rdim-ku, axir.  
Ko'rdim-ku, manglaying ter bilan qotib,  
Berahm otashga berganingni tob.  
Ko'rdim-ku, tepangda o'zin yo'qotib,  
Hayratdan lol qotib qolganin oftob.  
Mening dehqon bobom, andak orom ol,  
Quyosh buroviga olgan palla bu.  
Saratonda qum ham mudraydi, behol,  
Ohangsiz yalla bu, so'zsiz alla bu.*

Shunday qilib, har bir xalqning mehnatsevarligi turli ko'rinishda kechadi. Masalan, o'zbeklar ham, qozoqlar ham mehnatkash xalq. Lekin ularning shu mehnatsevarligi faoliyatning turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. O'zbeklarda u dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish jarayonida namoyon bo'lsa, qozoqlarda chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan mehnatda ko'rinadi.

Bir necha asrlar mobaynida o'zbek xalqi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lib kelgan. Shu boisdan ularda mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan - yerga nisbatan mehr, ehtiyotkor, tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish xususiyatlari vujudga kelgan. Masalan, bizning ajdodlarimiz og'ir sharoitlarda qiyinchilik bilan paxta yetishtirib kelishgan. Asosiy mehnat qo'l kuchi bilan bo'lgan o'sha davrlarda, bu nozik va yilning 8-9 oyi mobaynida doimiy mashaqqatli mehnat qilish talab qilinadigan o'simlik dehqonlardan va uning oila a'zolaridai ozmuncha ter to'kishni talab qilgan deysizmi?

Bundan tashqari xuddi tabiatniig qudratli kuchlari oldida ojiz bo'lgan, yakka xo'jalik bilan ish olib boruvchi dehqon, tabiatning turli-tuman injiqliklariga qarshi kurashishga majbur bo'lgan. Paxtakor va bog'bon, dehqonni ko'pincha bahorgi suv toshqinlari yoki suvsizlik va qurg'oqchilik azoblari qiynagan. Bobodehqon og'ir, mashaqqatli mehnat qilib, peshona teri bilan o'z yerini sug'orib, hosil olishga, bog'-rog'lar yaratishga o'rgangan. Suv payg'ambar, yer avliyo bo'lgan o'sha davrlarda dehqon saratonning jazirama issig'i-yu, kuzning sovuq izg'irinlarini pisand qilmay, har bir qarich yerni zo'r mehr qo'yib ishlagan. Har bir g'o'za tupini e'zozlab parvarish qilgan, har bir daraxtni ko'z qorachig'iday saqlagan. Mana shularning hammasi avloddan-avlodga o'tib, ularda mashaqqatli mehnat qilish odatiy narsaga aylanib, zahmatkashlik og'ir sharoitlarda ham ruhi tushmasdan ishlay olishlik dov-daraxtlarni sevishlik, ob-hayot manbai - suvni e'zozlash kabi xususiyatlar o'zbek xalqiga xos xarakter xislati bo'lib qolgan.

Qozoqlarning mehnatsevarligi esa chorvachilik bilan bog'liq mehnatda, chorva mollarini parvarish qilishda namoyon bo'ladi. Ular chorva boqish uchun qulay va noqulay bo'lgan yaylovlarni topishga, chorva yeydigan o't-o'lanlarning xususiyatlarini farqlashda mohir bo'lishadi.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, har bir millatning mehnatsevarligi, ular bevosita shug'ullanadigan mehnat turlarida to'la namoyon bo'ladi. Shuning uchun qozoq xalqi dehqonchilik bilan bevosita shug'ullanmaganligi uchun dangasa, deya olmaymiz. Aksincha, o'zbeklarning chorvachilikdagi nisbatan "uquvsizligi" uchun ularni mehnatsevar emas, deb bo'lmaydi.

Milliy xarakterni mutlaqlashtirib yuborish, albatta, noto'g'ri. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalq-qagina xos bo'lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi.

Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina betakror bo'lib ko'rinishi mumkin, uning har bir etnik xususiyatini alohida olib ko'rilsa, mutlaq noyob xususiyat bo'la olmaydi. Milliy xarakter muammosini o'rganishdagi murakkablik va chalkashliklar, deb ko'rsatadi I.S.Kon, ko'pincha dialektikadagi umumiylik va xususiylikning mushtarakligi va alohidaligini tushunmaslik natijasida vujudga keladi. Uning to'g'ri ta'kidlashicha, milliy xarakterning u yoki bu xususiyatini ko'rsatganda, albatta u nisbatan olib o'rganilishi kerak. "Rus milliy xarakteriga bag'ishlangan ishlarda, - deb yozadi I.Kon, ko'pincha ularda emotsional vazminlik deb ataladigan xislat ko'rsatiladi. Agar italyanlar bilan taqqoslanganda to'g'ri, qo'shilaman. Lekin faqat finlar yoki estonlar bilan taqqoslaganda emas". Albatta, rus xalqiga xos bo'lgan milliy xarakter xislatlari yo'q emas. Rossiyaning bepoyon yerlari, ayrim boshqa mamlakatlarda bo'lganidek siyosiy ko'rinishlarning yo'qligi, xo'jalik taraqqiyotidagi o'ziga xos xususiyatlarning barchasi, Gersen aytganidek "aysh-ishratni yaxshi ko'radigan, bag'ri keng" rus kishisini, yakka xo'jalik yurgizishga moyil bo'lmagan, bir parcha yeriga yopishib olmagan rus dehqonini yaratdi. Aksincha, o'zbek xalqi xarakterida bir qarich yeriga yopishib olishlik, "kindik qoni to'kilgan" yerni tark etmaslik xususiyatlari bor.

Bu xarakter xususiyatlarining vujudga kelishi o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq. Masalan, Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan bir necha feodal davlatlar, xonliklarning siyosiy-iqtisodiy jihatdan parchalanganligi, ular o'rtasidagi tez-tez bo'lib turadigan qonli to'qnashuvlar, xo'jalik yurgizishning patriarxal



usullarining mavjudligi, urug'-aymoqchilik urf-odatlarining saqlanib qolishi va nihoyat, dehqonchilik qilish uchun sug'oriladigan, yarog'li yerlarning cheklanganligi kabi omillar, o'zbek xalqi xarakteridagi shu xislatlarni vujudga keltirib chiqaradi. O'zbek oilalarida bir necha avlod vakillari (hatto 3-4 avlod) bir-biridan ajralmagan holda, birgalikda-bir hovlida, bir mahallada yashab bir qozondan ovqat yeb kelishgan. Shuning uchun ilgarilari mavjud bo'lgan katta oila ichida, bir necha avlod vakillari yashayotgan xonadonlarni hanuzgacha uchratishimiz mumkin. Oila boshlig'i bo'lgan ota o'rtancha o'g'illarini uylantirgandan keyin ham uzoq vaqt ularni mustaqil oila qilib ajratib yubormagan. Yangi oila qurgan kishi, katta oila boshlig'i bo'lgan ota qo'l ostida ishlab xo'jalik yurgizish ishlarida unga yordam bergan. Agar yangi oila ota-ona bag'ridan ajralib chiqqan taqdirda ham, ular oilasi uchun ota uncha uzoq bo'lmagan joydan hovli yoki yer sotib olib bergan, yoxud o'z yeridan uy qurish uchun joy ajratib bergan. Yangi oilaning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan uy buyumlari, asboblari, yashash uchun zarur ashyolar ajratib berilgan. Lekin shunda ham ota o'z yerini parchalanib ketishiga yo'l qo'ymagan. O'g'il ota qo'l ostida uning yerida ishlagan, xo'jalik yurgizishda otaga yordam berib kelgan.

Buning boisi nimada, nima uchun O'rta Osiyo xalqlarida, xususan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda patriarxal munosabatlar oila va xo'jalik yurgizish sohalarida nisbatan uzoq saqlanib turdi?

Ma'lumki, sug'orib dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda, ayniqsa, O'rta Osiyo sharoitida yer juda katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Qishin-yozin ham katta kuch bilan ishlashni talab qiladigan sharoitda ishchi kuchlari yerning parchalanib ketishligi, yerni ishlash, hosil olishlikni ancha qiyinlashtirib qo'ygan bo'lar edi. Shuning uchun ham O'zbekistonning o'troq xalqlarida juda katta, hatto uch-to'rt avlod vakillarini o'zida birlashtirgan oilalar mavjud bo'lgan. Farzandlar oila boshlig'i qo'l ostida ishlab unga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lishgan. Ota yoki oiladagi bosh o'g'il bu oilaning boshlig'i bo'lgan. Uning so'zi, fikri oilaning boshqa a'zolari uchun qonun darajasida bo'lgan.

Xo'jalik yurgizishda bunday patriarxal ukld hukmron bo'lgan xalqlarning deyarli hammasida, oila boshlig'ini, kattalarni hurmatlash, ularning aytganini so'zsiz bajarilishi odat tusini olgan va keyinchalik u mustahkamlanib xalqning xarakter xislatiga aylanib ketgan.

Oila ierarxiyasidagi o'zaro munosabatlarda ma'lum kichik yoshdagi har bir kishi, albatta o'zidan yuqori yoshda bo'lgan kishilarga itoat etgan, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatilgan. Bunday ahillik va inoqlik oilalarning birgalashib yashash zarurati mavjud bo'lgan sharoitlarda ularning parchalanib ketmasligi uchun katta ahamiyat kasb etgan.

Bundan tashqari, o'zbeklarda aka-ukalar yoki qarindosh urug'lar o'rtasidagina emas, shuningdek qo'ni-qo'shnilar bilan ham yaxshi munosabatlar, o'zaro yordam va hamkorlik ko'rsatish kabi xislatlar ancha rivojlangan. Qadim vaqtlardayoq bir urug' yoki qabila bir mahalla yoki butun bir qishloqda birgalikda yashagan. Kamdan-kam hollardagina begona qabila vakili notanish joylarga ko'chib borgan.

Hozir ham ko'p qishloqlarda mahallalar qarindosh-urug'chilik tamoyili asosida shakllanadi. Demak, yon qo'shni ayni vaqtda sizning yaqin qarindoshingiz hamdir. Shuning uchun qadim vaqtlardayoq bir oilada ovqat pishirilsa albatta qo'shnikiga, qarindoshnikiga chiqarilgan, qo'shning yaxshi kunida ham, aziyatli kunida ham birinchi bo'lib devori bir qo'shnisi xizmat qiladi. Qo'shning uyidagi ma'arakaga qatnashmaslik ayniqsa, ta'ziyali marosimlarda ishtirok etmaslik o'zbeklar uchun katta ayb hisoblanadi. Shuning uchun ham bizda qo'ni-qo'shnikilik to'g'risida juda obrazli maqollar yaratilgan, masalan, "Hovli olma, qo'shni ol", "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi", "Yon qo'shnim - jon qo'shnim". "Gilam sotsang - qo'shningga sot, bir chetida o'zing ham o'tirasan" va hokazo. Bundan tashqari milliy tabiatimizda o'zaro mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu - hayo, ibo, iffat, andisha kabi betakror fazilatlar, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlari mavjud.

Bunday hamjihatlik, bir-birini qo'llab turishlik faqat qo'shnilar o'rtasidagina bo'lib qolmasdan, butun mahalla va qishloq aholisi o'rtasida ham kuchli rivojlangan. Mahalla yoki qishloq aholisi biror

xonadonda aza borligini eshitib qolsa, vafot etgan kishini yaxshi tanish-tanimasligidan qat'i nazar, marhum bilan vidolashmoq uchun vaqtini ayamasdan, yumushini tashlab bo'lsa ham marhumning uyiga kelib, hamdardlik bildiradi, qo'lidan kelgan yordamni ko'rsatadi. Marhumning tobuti mozorga borguncha yelkama-yelka ko'tarilib boriladi. Yo'lda uchragan har bir kishi - u otda bo'lsa ham, mashinada bo'lsa ham tushib bir necha qadam tobutni ko'tarib borishni o'zining insoniylik burchi, deb hisoblaydi.

Qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y va hamqishloqlarining bunday bir-birini qo'llab-quvvatlab turishlari, bir-birlarining manfaatlarini himoya qilishlari odamlarning uzoq davrlar mobaynida birgalikda yashab kelishi, mahalla va qishloq ahlining bir-birlariga qarindosh-urug'chilik iplari bilan bog'langanliklari natijasidir. O'rta Osiyoda kichik-kichik o'ziga mustaqil bo'lgan xonliklarning mavjudligi, yirik birlashgan hokimiyat tomonidan mamlakat miqyosida ma'muriy, xo'jalik ishlarini rejali rivojlantirilmaslari, natijasida, ko'p yirik xo'jalik ishlari - kanal qazib suv chiqarish, ariqlarni tozalash, machit va boshqa binolarni qurish, hosilni yig'ib-terib olish va shunga o'xshash ko'pchilik mehnatini talab qiladigan ishlarni xalq o'zi "hashar" yordamida bajargan. Shuning uchun mahallada va qo'shnilar orasida bo'lib turadigan hasharlarga chiqish har bir keksa-yu yoshning muqaddas burchi hisoblangan.

Milliy xarakterni xalq o'zida namoyon etadi, lekin millat xarakter ayrim shaxslar xarakterining oddiy yig'indisi emas. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo'lgan xislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan, xor ovozi ayrim alohida olingan xor qatnashchisining ovozigga o'xshaganidek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining individual xarakteriga o'xshamaydi yoki millat xakteri hech bir millat vakilida to'raligicha aks etmaydi.

Milliy xarakter o'zgarimas, turg'un narsa ham emas. U tarixiy rivojlanish, o'zgarishlar mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi munosabati bilan u ham ma'lum darajada o'zgaradi, hatto bir ijtimoiy tizimning o'zida ham u ayrim xislatlarni yo'qotib, yangi xislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

Lekin bundan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar milliy xarakterning barcha xislatlarini o'zgartirib yuboradi, deb xulosa qilmaslik kerak. Uning ayrim xislatlari nisbatan barqaror bo'lib, yangi ijtimoiy sharoitlarda ham o'z vorisligini yo'qotmaydi ular, keyingi avlodlarga o'tishi, ajdodlarning moddiy va ma'naviy merosini o'zlashtirib olishligi uchun xizmat qiladi. Tarix avlodlarning birini o'rniga ikkinchisining kelishidan iboratdir. Ularning har biri avvalgi avlodlar qoldirgan barcha materiallaridan, boyliklaridan, ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanadi. Natijada avlodlararo vorislik paydo bo'ladi. Milliy xususiyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan.

Milliy xarakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo'lmaydi. Shuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar xarakteridan ajratib qo'yishi yoki qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Har bir xalq boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'lmagan narsalarni beradi. Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter xislatlari, millat vakillari tomonidan o'zlashtirilganda, aynan, o'zgarishsiz ko'chirma olmay, o'ziga xos milliy ifodani oladi.

D.V. Olshanskiyning ta'kidlashicha, milliy xarakter milliy temperamentda namoyon bo'ladi. Milliy xarakter asosida, uning fikricha, birinchi navbatda, inson organizmining barqaror psixofiziologik va biologik xususiyatlari, shu jumladan markaziy asab tizimining reaktivligi va asabiy jarayonlarning tezligi kabi omillar yotadi. O'z navbatida, bu omillar, kelib chiqishi, ma'lum bir milliy-etnik guruhning jismoniy (birinchi navbatda, iqlimiy) ekologik sharoitlari bilan bog'liq. Umumiy yaxlit milliy xarakter – bu guruh yashaydigan hududning barcha xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan ruhiy aksi. Shunga ko'ra, issiq ekvatorial iqlimi sovuq shimoliy iqlimga qaraganda butunlay boshqacha psixofiziologik va biologik xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunga misol sifatida Braziliya karnavallarining sho'xligi va Skandinaviya xalqlari vakillarining shoshilmasligi to'g'risida gapirish mumkin.

Albatta, temperament milliy xarakterning fiziologik, dinamik asosi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Ammo bu har qanday D.V. Olshanskiy ta'kidlaganidek, "milliy kayfiyat", "milliy temperament"ga qarab milliy xarakterni baholashni anglatmaydi. Ushbu milliy xarak-

ter tarkibiga milliy hissiyotlarni kiritish mumkin (masalan, milliy g'urur), ammo ular temperament emas, balki xarakterologik xususiyatlarga ega, chunki ularni oily hislarga kiritish mumkin.

P.I. Gnatenkoning ta'kidlashicha, milliy xarakter va milliy temperament tushunchalarini ayniylashtirish milliy xarakter kabi murakkab ijtimoiy hodisani soddalashtirish, sxemalashtirishga olib keladi. Shu sababli, ba'zi bir mualliflarning u yoki bu millatning milliy xarakterini hisobga olgan holda, ulardan birini hissiy jihatdan tiyilgan, ikkinchisi yaxshi xulqli, uchinchisini shafqatsiz, qizg'in deb baholash intilishadi. Shunga o'xshash taxminlar, deb yozadi P.I. Gnatenko hech qanday tarzda milliy xarakterning mohiyatini ochib bermaydi, balki xalqlarni milliy temperament jihatidan ko'proq tasvirlaydi. P.I. Gnatenkoning fikriga ko'ra, eng to'liq va har tomonlama milliy xarakter xalqning etnik o'ziga xosligini aks ettiruvchi milliy madaniyatda o'zini namoyon qiladi. Madaniyatda milliy psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va eng avvalo, milliy xarakter kabi uning tarkibiy qismi obyektivlashtiriladi.

Demak, milliy xarakterning ta'rifi rivojlanishning ma'lum bir bosqichida milliy jamoaga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar (milliy psixologik munosabatlar, stereotiplar) sifatida belgilanadi, ular atrofimizdagi dunyo, shuningdek madaniyat, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarda namoyon bo'ladi.

## 2. Etnik identiklikning shakllanishi va turlari

Etnik mansublik (identifikatsiya) ijtimoiy mansublikning bir tarkibiy qismi bo'lib, "ijtimoiy makonda individning kognitiv-hissiy jarayonda o'z mavqeini belgilash natijalarini o'zida aks ettiradi. Bu nafaqat anglash, balki idrok qilish, tushunish, o'zining umumiy etnik mansubligini baholashdir"<sup>31</sup>. Stefanenko etnik mansublikni nafaqat individ o'zini ma'lum bir xalqqa mansub ekanligini anglashi tarzida, balki Men va etnik muhit – o'zini biron etnik jamoaga aynan mansubligi va boshqa etnik guruhlardan farqlay olish xususiyatlarini o'rganish lozimligini taklif qiladi<sup>32</sup>.

<sup>31</sup> Стефаненко Т.Г. Поведенческий компонент этнической идентичности: за и против // Кризис и идентичности и проблема становления гражданского общества / отв. ред. Н.Л.Иванова. Ярославль. 2003(6). С. 127-134.

<sup>32</sup> Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – М.: Аспект-Пресс, 1999.

Etnik mansublik muammosini o'rganishda, avvalo, etnik mansublik va etnik o'z-o'zini anglash tushunchalari o'rtasidagi munosabatni to'la-to'kis aniqlab olish muhim. Chunki zamonaviy adabiyotlarda etnik mansublik va etnik o'z-o'zini anglash borasida turli qarashlar mavjud. Shu sababli quyida mazkur masala borasidagi ayrim nuqtayi nazarlarni keltiramiz.

Masalan, V.Yu.Xotinets etnik mansublikni etnik o'z-o'zini anglashning darajasi deb hisoblaydi<sup>33</sup>.

G.U.Soldatova esa etnik mansublik va etnik o'z-o'zini anglash ikki kesishgan tushuncha ekanligini ta'kidlaydi. "Bir tarafdin etnik mansublik etnik o'z-o'zini anglashning kognitiv-motivatsion yadrosi hisoblanadi. Boshqa tarafdin – kengroq tushunchani anglatib, o'zida g'ayriixtiyoriy holatni aks ettiradi"<sup>34</sup>.

V.N.Pavlenko etnik mansublik tushunchasi etnik o'z-o'zini anglash tushunchasiga nisbatan torroq mazmunni ifodalashiga doir qarashlar (masalan, N.U.Shulga) mavjudligini ta'kidlaydi. Bu holatda etnik mansublik etnik o'z-o'zini anglashning bir qismi (ba'zan markaziy) sifatida tushuniladi<sup>35</sup>.

T.G.Stefanenko esa etnik mansublik etnik o'z-o'zini anglash tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunni ifodalashini ta'kidlaydi, chunki etnik mansublik individ o'zini qaysidir millat vakili deb hisoblashi, ularga o'zini o'xshatishi va boshqa millat vakilidan o'zini farqlay olishi kognitiv-hissiy jarayon natijalari hisoblanadi.

V.N.Pavlenko G.T.Stefanenkoning fikrlariga qo'shilgan holda etnik mansublik nafaqat o'zini jamiyatning a'zosi sifatida anglashi, balki ana shu etnik guruhning a'zosi sifatida "yashashi", ya'ni ana shu guruhning hayot tarziga muvofiq tarzda hayot kechirishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, etnik mansublikning kognitiv va emotsional tarkibiga etnik mansublikning xulqiy jihatlarini ham qo'shimcha tarzda kiritadi<sup>36</sup> (Pavlenko, Taglin, 2005).

Biz ham mana shu ikki olim – T.G.Stefanenko va V.N.Pavlenkoning fikrlari tarafdirimiz. Birinchidan, etnik mansublik etnik o'z-o'zini anglash tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunni ifodalaydi, chunki u o'zida nafaqat o'zining etnik umumiyligini (kognitiv-

<sup>33</sup>Хотинец В.Ю. Этническое самосознание. – СПб.: Алетей, 2000.

<sup>34</sup>Солдатова Г.У. Психология меэтнической напряженности. М., 1998.

<sup>35</sup>Павленко В.Н., Таглин С. А. Общая и прикладная этнопсихология. М., 2005.

<sup>36</sup>Павленко В.Н., Таглин С. А. Общая и прикладная этнопсихология. М., 2005.

motivatsion markaz) ifodalaydi, balki bunga nisbatan emotsional munosabatini ham aks ettiradi. Ikkinchidan, etnik mansublik har doim **implitsit** (beqiyos) tarzda millatning o'ziga xos munosabatini o'z ichiga oladi, bu esa etnik mansublikning valentligini ta'minlaydi (bu salbiy munosabat bildirilgan hollarda negativ bo'lishi ham mumkin).

Etnik va ijtimoiy mansublikning muvofiqligi haqida gapiradigan bo'lsak, zamonaviy adabiyotlarda etnik mansublik aksariyat hollarda ijtimoiy komponent<sup>37</sup> yoki uning turi sifatida talqin qilinadi<sup>38</sup>. Shu sababli etnik mansublik adabiyotlarda qoida sifatida ijtimoiy mansublikning 4 yo'nalishi (psixodinamik, vaziyatli, kognitiv va konstruktiv yo'nalish) asosida tahlil qilinadi. Yo'nalishlar ro'yxatiga instrumental va primordial yondashuvlarni ham kiritish mumkin.

Instrumental yo'nalish vakillari etniklikni guruhning qiziqishlariga erishish vositasi, yoki guruhni jalb qilish lozim bo'ladigan mafkura sifatida baholashadi. "Instrumentalistlar nazarida etnik mansublik shaxsning idrok qilishini ifodalovchi asosiy sifatlar, qadriyatlar tizimi, guruhning o'ziga tegishli bo'lgan ustanovka va e'tiqodi hisoblanadi"<sup>39</sup>.

Primordial yondashuv vakillari etnik mansublikni shaxs o'zini etnik guruh bilan identifikatsiyalashini (aynan tenglashtirish) tug'ma xususiyat sifatida baholashadi. Bu yo'nalish o'z navbatida evolyutsion-biologik va evolyutsion-tarixiy kabi ikki turga ajratiladi<sup>40</sup> (Sadoxin, Grushevitskaya, 2000).

Zamonaviy etnopsixologiyada etnik mansublik tuzilishi ijtimoiy ustanovkalar tuzilishining analogiyasi (o'xshashlik) asosida affektiv, kognitiv va xulqiy komponentlar tavsiflanadi<sup>41</sup>[Soldatova, 1996; Xotinets, 2002; Pavlenko, Taglik, 2005]. Etnik mansublik – etnik guruh ustanovkalari majmui sifatida qaralganda bu yondashuv

<sup>37</sup> Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. М.: Аспект-Пресс, 1999.

<sup>38</sup> Хотинец В.Ю. Этническая идентичность и толерантность. – Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та, 2002.

<sup>39</sup> Попков В.Д. Феномен этнических диаспор. М., 2003. С.63

<sup>40</sup> Салохин А.П., Грушевицкая Т.Г. Этнология. Учебник для высших учебных заведений. М.: Изд.центр "Академия", 2000.

<sup>41</sup> Солдатова Г.У. Этническая идентичность и этнополитическая мобилизация // Дробижина Л.М., Аклаев А.Р., Коротева В.В., Солдатова Г.У. Демократизация и мобилизация национализма в Российской Федерации. М., 1996. С. 296-366.

Хотинец В.Ю. Этническая идентичность и толерантность. Екатеринбург: Изд-во Уральского ун-та, 2002;

Павленко В.Н., Таглин С.А. Общая и прикладная этнопсихология. М., 2005.

mantiqan to'g'ri. Uning tuzilishi kognitiv, affektiv va xulqiy komponentlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar tuzilishini eslatadi. Hozirgi vaqtda etnik mansublik tarkibidan xulqiy komponentning ajratilishi to'g'ri ekanligiga shubha tug'ilmoqda<sup>42</sup> [Stefanenko, 1999; 2003(6)].

Etnosotsiologik yondashuv doirasida L.M.Drobijeva etnik mansublikning quyidagi asosiy komponentlarini ajratadi: o'z xalqiga mansubligini anglash, xalqining qiziqishlarini anglash, madaniyati, tili va hududi haqidagi bilimga (tasavvur) ega bo'lish<sup>43</sup>.

Etnik mansublikning kognitiv va affektiv komponentlari mazmuni britaniyalik tadqiqotchi M.Barretning ishlarida yetarlicha to'liq yoritib berilgan<sup>44</sup>. Barret etnik mansublikning kognitiv komponentini quyidagi elementlarga ajratadi:

- 1) etnik guruhning mavjudligi haqida bilish;
- 2) o'zini etnik guruh vakili deb hisoblashi;
- 3) davlatning hududi haqida bilish;
- 4) milliy emblema (nishon), ramzlar, institutlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy voqealar va millatning ramzi tarzida<sup>45</sup> tilga olinuvchi tarixiy shaxslari haqida bilish;

- 5) etnik guruh a'zolarining nasl-nasabi bir ekanligi va umumiy qarindosh ekanligiga ishonish;

- 6) har qanday etnik guruhda ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar: milliy va etnik jihatlarga ega vakillari borligiga ishonish;

- 7) shaxs va etnik guruh chambarchas bog'liq ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Olim etnik mansublikning affektiv komponentini quyidagi elementlarga ajratadi:

- 1) etnik mansublikning subyektiv muhimligi;
- 2) etnik mansublikka bog'langanlik darajasi: undan kechishga tayyor yoki aksincha;

---

<sup>42</sup> Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. М.: Аспект-Пресс, 1999.; Стефаненко Т.Г. Поведенческий компонент этнической идентичности: за и против // Кризис идентичности и проблема становления гражданского общества / отв.ред. Н.Л.Иванова. Ярославль, 2003 (6).С. 127-134.

<sup>43</sup> Дробижева Л.М. Национализм, этническое самосознание и конфликты в трансформирующемся обществе // Национальное самосознание и национализм в Российской Федерации начала 1990-х годов. М., 1994. С. 16-47.

<sup>44</sup> Barret M. English Children's Acquisition of a European Identity // G.Breakwell, E.Lyons (eds). Changing European Identities: Social - Psychological Analyses of Social Change. Oxford: Pergamon Press, 1996.P.145-172



- 3) etnik guruhga mansublik hissi;
- 4) milliy hududga bogʻlanganlik hissi;
- 5) milliy gʻurur, nomus, aybdorlik kabi ijtimoiy his-tuygʻular;
- 6) milliy oʻz-oʻziga hurmat<sup>45</sup>.

Etnik mansublik yuqorida koʻrsatib oʻtilgan komponentlardan tashqari yana bir qancha mezonlar asosida tavsiflanishi lozim. Bunday mezonlar sifatida biz uning valentligi va aniqligi komponentlarini taklif qilamiz. Etnik mansublikning valentligi (ijobiylik va salbiylik) – bu affektiv komponentning hissiy (emotsional) yoʻgʻ-rilgan belgisidir. Aniqlik – bu birinchi navbatda, oʻzini toʻliq etnik guruh vakili sifatida anglash darajasini ifodalaydi. Shuningdek, oʻzi mansub boʻlgan guruhning madaniy, psixologik xususiyatlari haqidagi tasavvur va mukammal bilish darajasini ham anglatadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Milliy xarakter va temperamentning bir-biridan farqi nimada?
2. Milliy mentalitet va milliy tafakkurning umumiy va farqli jihatlari.
3. Etnik mansublikning kognitiv va affektiv komponentlari nimalar?

### **Test savollari**

**1.G.Andreeva milliy xarakterga quyidagicha taʼrif beradi:**  
**“Milliy xarakter –....**

A) milliy emblema (nishon), ramzlar, institutlar, urf-odatlar, anʼanalar, tarixiy voqealar va millatning ramzi tarzida tilga olinuvchi tarixiy shaxslari haqida bilish;

B) oʻzi mansub boʻlgan guruhning madaniy, psixologik xususiyatlari haqidagi tasavvur va mukammal bilish darajasi haqida tushunchadir;

<sup>45</sup>Barret M. English Children's Acquisition of a European Identity // G.Breakwell, E.Lyons (eds). Changing European Identities: Social – Psychological Analyses of Social Change. Oxford: Pergamon Press, 1996. P. 145-172

\*C) etnik (milliy) guruhning psixologik qiyofasi xususiyatlarini bayon etishda ishlatiladigan keng tarqalgan tushunchadir;

D) etnik guruh a'zolarining nasl-nasabi bir ekanligi va umumiy qarindosh ekanligiga ishonish.

## **2. Etnik mansublik (identifikatsiya) .....**

A) har qanday etnik guruhda ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar: milliy va etnik jihatlarga ega vakillari borligiga ishonish;

B)shaxs va etnik guruh chambarchas bog'liq ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lishi;

\*C) ijtimoiy mansublikning bir tarkibiy qismi bo'lib, "ijtimoiy makonda individning kognitiv-hissiy jarayonda o'z mavqeiini belgilash natijalarini o'zida aks ettiradi;

D) har bir inson va xalqning ma'naviy hissiyotlarining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni hisobga olish;

## **3. Etnik mansublik adabiyotlarda qoida sifatida ijtimoiy mansublikning ... yo'nalishi asosida tahlil qilinadi.**

A) 2;

B) 3;

\*C) 4;

D) 5.

## **4. Instrumental yo'nalish vakillari etniklikni .....** sifatida baholashadi.

A) etnik guruhga mansublilik hissi;

B) milliy hududga bog'langanlik hissi;

C) milliy g'urur, nomus, aybdorlik kabi ijtimoiy his-tuyg'ular;

\*D) guruhning qiziqishlariga erishish vositasi, yoki guruhni jalb qilish lozim bo'ladigan mafkura.

## **5. Etnik mansublikning komponentlari mazmuni....**


A) emotsional-irodaviy;

\*B) kognitiv va affektiv;

C) motivatsion-irodaviy;

D) kognitiv-intellektual.

## VEN DIAGRAMMASI



### 1-muammoli masala

**1-misol.** Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini bilib olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni hatto kundalik hayotda ham ko'plab uchratamiz. Millat xarakterni realligini himoya qiluvchi mualliflar shunday bir epizodni tasavvur qilishni tavsiya etishadi. Agar vagon kupesiga ikki notanish ingliz chiqib qolsa, ular safarlarining oxirigacha bir-biri bilan yaqindan suhbat qurmay, hatto bir og'iz gapirmasdan ketishlari mumkin deyishardi... O'zbeklar-chi?! Aksincha, bir-biri bilan yaqindan tanishib, bir-birining butun hayotini bilib ulguradi.

Milliy xarakterdagi bu farqlar nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz?

### 2-muammoli vaziyat

Qadim vaqtlardayoq bir oilada ovqat pishirilsa, albatta qo'shnikiga, qarindoshnikiga chiqarilgan, qo'shning yaxshi kunida ham, aziyatli kunida ham birinchi bo'lib devormiyon qo'shni xizmat qiladi. Qo'shning uyidagi ma'rakaga qatnashmaslik, ayniqsa, ta'ziyali marosimlarda ishtirok etmaslik, o'zbeklar uchun katta ayb hisoblanadi. Shuning uchun ham bizda qo'shni to'g'risida juda obrazli maqollar yaratilgan, "Hovli olma, qo'shni ol", "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi", "Yon qo'shnim - jon

qo'shnim" va hokazo. Ushbu maqolning ma'nosi nimadan iborat? Fikringizni asoslang.

### 3-muammoli savol

Milliy xarakterni o'rganishdagi qiyinchiliklar nimalar bilan bog'liq deb o'ylaysiz?

## VII BOB. MILLIY MENTALITET, ETNIK RAMZLAR VA MADANIYAT

### Reja

1. Milliy psixologik o'ziga xosliklar tushunchasi, turlari va xususiyatlari.
2. Milliy psixikaning funksiyalari.
3. Etnik ramzlar va madaniyat.
4. Etnopsixologiyada folklorning o'rni
5. Etnopsixologik fenomenlarning namoyon bo'lish mexanizmlari.

**Tayanch tushunchalar:** *milliy mentalitet, etnik ramzlar va madaniyat*

**Mentalitet** – ijtimoiy yoki etnik guruh, millat, xalqqa xos bo'lgan aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar, qadriyat yo'nalishlari va munosabatlarning o'ziga xos majmuasidir. Ushbu atama tarix fanida paydo bo'lgan, ammo hozirda ko'pincha psixologiya, sotsiologiyada qo'llaniladi. Mentalitet tushunchasi odamlarning ma'lum bir guruhini tavsiflaydigan qarashlar, baholashlar, qadriyatlar, xulq-atvor normalari, munosabat, diniy qarashlar va boshqa ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi.

Etnolog Levi-Bruhl ushbu atamani birinchi bo'lib qo'llagan. U bu atamani hayotini kuzatgan ibtidoiy qabilalarga nisbatan qo'llagan. Levi-Bruhl ibtidoiy odamning va zamonaviyning fikrlash tarzini taqqoslagan, shuning uchun u qabilalarning o'ziga xos tafakkurini "mentalitet" atamasi bilan belgilab bergan. Biroq, ushbu nom fransuz tarixiy "Annallar" maktabining faoliyati tufayli keng tarqaldi. Uning vakillari Fransiya qiroli va oddiy askarni birlashtirgan mentalitet bilan tushunishdi, ya'ni mentalitet individual emas, balki jamoaviy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Asta-sekin, bu ilmiy jamoatchilikdan jurnalistikaga o'tdi.

### 3. Etnik ramzlar va madaniyat

Tarixiy taraqqiyotdagi o'ziga xoslik ijtimoiy hayotdagi turli sinflarning, qatlamlarning ta'siriga qarab milliy tab ham turlicha shakllanishi va o'zgarishi mumkin. Ma'lumki, islom dini hukmronlik qiladigan mamlakatlarda haykaltaroshlik, rassomchilik bilan shug'ullanish man etilganligi sababli, san'atning bu turi rivojlanmagan. Buning natijasida kishilarning tasviriy san'atni idrok etishga nisbatan estetik didi ham rivojlanmasdan qolib ketgan. O'zbekistan xalq rassomi Chingiz Axmarov jurnalistga bergan intervyularidan birida: "...Chamamda, O'rta Osiyoda tasviriy san'atni ommaviy idrok etish birmuncha sust, degan gapda jon bor. Xususan, respublikamiz aholisining juda ko'p qismi, ayniqsa, badiiy tashviqot kuchsizroq bo'lgan qishloq joylarda professional tasviriy san'at namunalarini ko'rgazma va muzeylarga maxsus borib ko'rishga odatlanmaganlar. Men, Moskva, Leningrad kabi shaharlarda tashkil qilingan tasviriy san'at ko'rgazmalariga kirish uchun qor, yomg'ir ostida turnaqator bo'lib navbatda furgan odamlarni ko'rganman. Afsuski, bizda bunday emas..." ("Guliston" jurnali, 1977-y. № 1).

Odamlarning san'atni bu turiga nisbatan bo'lgan ehtiyojlarini qondirilmasligi evaziga, uni to'ldirish uchun Sharqda, xususan, respublikamizda naqqoshlik, o'ymakorlik, geometrik ornamentlar bilan ishlash kabi san'atning boshqa bir turi rivojlanib ketgan. Samarqand va Buxoro, Xiva va Qo'qon, Shahrisabz va Toshkent shaharlaridagi tarixiy obidalarga tushirilgan turli-tuman naqshlar, yog'ochga va devorga o'yib ishlangan ganjlar kishi aql-idrokini, tasavvurini hozir ham lol qoldiradi.

Bu o'rinda munozarali bo'lsa ham yana bir narsani aytib o'tish joiz. Xuddi tasviriy san'at singari bizda raqs san'atining gultojisi bo'lgan balet o'yinlarini "idrok qilishimiz birmuncha sust". Bu hodisani o'zbek xalqining bunday nodir san'at asarini "hazm" qilishga layoqatsizligini, badiiy saviyasining, didining pastligi bilan emas, balki xalqimiz tarixiy taraqqiyotidagi, ijtimoiy hayotidagi o'ziga xos jarayonlar bilan tushuntirib berish mumkin.

O'zbek san'atida xoreografiya (raqs) turi vokal (ashula) turiga nisbatan yangi va unchalik rivojlangan emas. Buning sabablaridan

biri, o'zbek ayollarining avvallari ko'pchilik oldiga chiqib o'ynashi mutlaqo mumkin bo'lmagan. Ayollarimizdagi mavjud o'yin san'ati faqat tor doiradagina - xotin-qizlar o'rtasida namoyon etilib, ko'pchilik, ayniqsa erkaklar bundan bahramand bo'la olishgan erkaklar o'yini esa xalq ichida unchalik rasm bo'lmagan. Shu bois yigitlarimiz tomonidan ijro etiladigan o'yinlarimiz esa, tan olish kerakki, Kavkaz erkaklarida erkaklar ijro etadigan o'yinlarchalik rang-barang emas. Balet san'atining ommaviy bo'lmaganligiga yana bir sabab, o'zbek ayollarining o'yinlarida, balet raqsidagidek charxpalak bo'lib aylanish, sakrash, oyoq uchida yurib harakatlanish kabi dinamik harakatlar ancha kam. Butun joziba va nazokat yuz va ko'z ifodalarida, qo'lning nozik harakatlarida, har bir harakati ma'lum ma'noni ifodalovchi nozli va iboli yurishlarda namoyon bo'ladi.

Natijada bizning ko'pchiligimizda, hatto ziyolilarimiz orasida ham xoreografiya san'atini, uning gultojisi bo'lgan balet raqslarini chuqur idrok etish ko'nikmalari va bilimlari hali yetarli darajada, deb bo'lmaydi. Aksincha, Sharqda, Islom dunyosida madaniyatning boshqa bir turi - she'riyat benihoya darajada rivojlangan. Sharq shoirlarining she'riyati hatto Yevropaning genial shoirlari - Gyote, Bayron, Shekspir, Pushkin kabilar uchun ham ilhom manbai bo'lgan. Shuning uchun xalqimiz nazmni joni-dilidan sevadi. Shoirlar, yozuvchilar bilan bo'ladigan har qanday uchrashuvlar talabchan, yuksak did sohiblari bo'lgan ko'plab nazm muxlislarini doimo o'ziga jalb qiladi.

Shulardan ko'rinadiki, san'atning u yoki bu turini to'g'ri tushunish va to'la idrok yetilishi uchun uning milliy zaminida nechog'lik ildiz otgan bo'lishi, unga nisbatan xalqda qanchalik tab va didning shakllangan bo'lishiga bog'lik bo'lar ekan. Lekin bulardan zinhor va zinhor haykaltaroshlik, rassomlik, xoreografiya kabi san'at turlari biz uchun tushunarsiz, nokerak narsalar ekan, degan fikr tug'ilmaligi kerak. Aksincha, insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lgan bu noyob san'at turlari, ayniqsa, xoreografiya san'ati keyingi yillarda bizda keng rivojlanib bormoqda. Lekin hali ham ko'pchilik tomonidan milliy raqslarni tomosha qilganchalik zavq-shavq bilan qabul qilinayotgani yo'q.

Mehnat faoliyati, iqtisodiy yuksalish va yashash sharoitlari asosida vujudga keladigan milliy did bu sharoitlarning o'zgarishi bilan ma'lum darajada o'zgarishlarga uchraydi. Lekin qadimiy tab va didlar butunlay izsiz yo'qolib ketmaydi. Chunki uzoq vaqt kishilar iste'molida bo'lgan u yoki bu tablar, xalq hayotiniig ma'naviy va moddiy tomonlarida o'zining chuqur ildizni qoldirgan bo'ladiki, ularning o'zgarishi yoki yo'qolib ketishi, yangi did va tablarning shakllanishi uchun o'n va yuz yillar kerak bo'ladi.

Keyingi o'n yilliklar davomida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar natijasida mavjud bo'lgan tab va didlar ham o'zgara boshladi. Bu moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq sohalarga daxldordir. Xalqimizning milliy kiyinishi, taomlar tayyorlashida milliy andozalar bilan birga boshqa xalqlardan kirib qolgan yangi taomlar, shirinliklar va ust-boshlar hisobiga o'zgarish bo'ldi. Bularning hammasi milliy didga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Etnopsixologiyaning xilma-xil xususiyatlarini ularning obyektiv jihatdan namoyon bo'lishi orqali o'rganish mumkin. U yoki bu xalqqa xos psixologik xususiyatlarni o'rganishni, barcha yetakchi tadqiqotchilar avvalo ularning ma'naviy ijodiyotini tahlil qilishdan boshlanganlar. Chunki xalq o'z tarixini, turmush tarzini, orzu-istaklarini moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari aks ettirib kelgan.

Milliy san'at va badiiy asarlarda xalqning voqelikni o'ziga xos idrok qilishi natijasida hosil bo'lgan tasavvurlari, tuyg'ulari, tab va didlari, tafakkur xususiyatlari, temperament va xarakterlari aks etadi.

Etnopsixologik xususiyatlar ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyoti doston va ertaklarda, maqol va matallarda, musiqa, qo'shiq va raqslarda to'la namoyon bo'ladi. Xalqimiz Go'ro'g'li, Alpomish, To'maris, Shiroq obrazlarida o'z ma'naviy fazilatini, kuch-qudratini, orzu-istagini, aql-zakovatini mujassamlantirgan. Milliy zaminda voyaga yetgan bu qahramonlar millat vakillari ong shuuriga chuqur kirib, ruhiy jihatdan ta'sir etib turadi. Yangi avlod bu qahramonlarga o'xshashga, ulardan namuna olishga, ular qilgan qahramonliklarni takrorlashga harakat qiladilar. Atoqli shoirimiz Abdulla Oripov "Genetika" she'rida shunday yozadi:



*Nechog'lik sabot bor yovqur Shiroqda  
Er yigit ov to'pga ko'ksin bosar jim.  
Rahimov g'animga tashlangan choqda  
Alpomish shiddatin payqamagan kim?!*

Mashhur yozuvchilar, bastakorlar va boshqa ijodkorlar xalq hayotini yaqindan bilganliklari uchun ham xalq hayotini tasvirlovchi ajoyib obrazlar yaratilgan. Zero, jahon madaniyatining nodir asarlari doimo o'z milliy zaminiga ega bo'ladi. Kimki Furqat va Oybek asarlarini chinakamiga o'rganar ekan, deb yozadi qozoqistonlik etnopsixolog N.Jondildin, so'zsiz u o'zbek xarakteriga, kim Abay va Avezov asarlarini chuqur singdirsa qozoq xarakteriga duch keladi.

Ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-geografik shart-sharoitlar dastlab kishilarning his- tuyg'ularida, tab va didlarida, fikr va xarakterlarida, ya'ni ularning milliy psixologik xususiyatlarida aks etib, undan keyin milliy madaniyatniig o'ziga xos xususiyatlarida shakllanib qoladi. Shuning uchun ham milliy madaniyatda shu xalqning tabiat go'zalliklarini qanday idrok etishi, ijtimoiy tartiblari, tarixiy taraqqiyotning turli davrlaridagi tuyg'u va istaklari, mushohada qilish usuli va xakteri aks etadi. Bu xususiyatlar madaniyatda mustahkam o'rnanishib, shu millatning hozirgi vakillariga va kelajak avdoddarga ajdodlarniig ruhiy xususiyatlari to'g'risidagi axborot sifatida doimo ta'sir etib turadi. Xorijlik etnopsixologlar u yoki bu millat va xalqning etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishda, ayniqsa, badiiy adabiyotdan ko'p foydalanishgan. Zero, adabiyotda turli jihatlilar, millat vakillarining xarakterlari tipik holatda, uni shakllantiruvchi hamma shart-sharoitlarni ochib ko'rsatgan holda tasvirlanadi.

Amerikalik etnopsixologlar D.Makgrenp va A.Ueynlar nemislar va amerikaliklarning etnopsixologik xususiyatlari Germaniya va AQSH da bir necha yillar davomida qo'yilib kelayotgan 45 ta mashhur pyesada qanday namoyon bo'lganligini o'rganishgan. Tekshirish yakunlarini taqqoslab, ajoyib natijalarga duch kelishgan. Pyesalarning sujeti quyidagi mavzular: sevgi, axloq, ideallarni yaratish, hokimiyat uchun kurash, mansabparastlik va huquqlarning qay darajada yoritilgan bo'lishligiga qarab o'rganilgan.

Tekshirish yakunlari quyidagicha bo'lgan:

1. Ideallik, falsafiy va tarixiy mavzular nemis pyesalarida Amerika pyesalariga qaraganda ko'proq yoritilgan;

2. Nemis pyesalaridagi qahramonlar jamiyatdan uzoqroq turishga harakat qilgan holda, amerikaliklarning pyesalaridagi qahramonlar oddiy kishilar bo'lib ko'rinishga harakat qilishadi;

3. Amerik pyesalariga ayollar obrazi nemis pyesalaridagiga qaraganda ko'proq kiritilgan;

4. Amerika pyesalarida axloqiy tendensiyalar, nemis pyesalarida ideal tendensiyalar hukmron bo'lgan;

5. Har ikkala mamlakat pyesalarida ham xalqning hokimiyatdan noroziligi kayfiyati hukm surgan.

Har bir xalqda estetik idrok qilish va hissiy holatlarni kechirish o'ziga xos ravishda o'tadi. Agar o'zbek adabiyoti va san'atida asosan ko'm-ko'k vodiy va vohalar, serunum dalalar, dehqonchilikning asosi bo'lgan suv, paxtakor dehqonning mashaqqatli va oliyjanob mehnati kuylansa, qo'shni qozoq va qirg'iz san'atshunoslari bepoyon cho'l-adirlarning fusunkorligi, cho'pon va yilqichilarning mehnati, Oloy tog'larining go'zalligi to'g'risida kuylashadi. Chunki har bir kishi uchun dunyoga kelgan kundan boshlab, unga butun umr bo'yi hamroh bo'lib yurgan narsalar go'zal bo'lib ko'rinadi. Akademik A.P.Barannikov o'zining "Hind poeziyasining tasviriy usuli", deb nomlangan tadqiqotida, hind poeziyasida turli hayvonlar, ayniqsa, sigir, fil, asalari kabilarning obrazlari ko'p uchrashligini ko'rsatadi. Ma'lumki, Hindistonda sigir mehr-muhabbatga loyiq hayvon sifatida e'zozlanadi. Eng go'zal ayollarni, hatto malikani ham maqtashganda sigirga taqlid qilishadi.

#### 4. Etnopsixologiyada folklarning o'rni

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda folklor ham ma'lum ahamiyat kasb etadi. Qadimiy afsona va rivoyatlarni xalq o'zining butun tarixiy taraqqiyoti davomida, turli ijtimoiy ukladlar davrida yaratadi. Shuning uchun xalqning butun kechmishi, uning xohish-istaklari, kelajak bilan bog'liq buyuk orzulari, fikr-tuyg'ulari, axloqiy va ijtimoiy tushunchalari, yashash uchun olib borgan ko'p asrlik tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan folklorni o'rganish shu xalqning psixologik qiyofasini vujudga kelishi yo'llarini

tushunishga yordam beradi. Milliy madaniyat va milliy psixologiyaning xususiyatlari, uning ichki emotsional tomonlari maqol va matallarda, o'xshatish va nutqda yaqqol namoyon bo'ladi.

Har bir xalq o'zining o'tkir maqollariga, tasviriy iborasiga ega. Tildagi bu tasvirlilik bevosita xalqning hayoti va maishiy turmush tarzi, uning tarixi va tabiati bilan bog'liq bo'ladi. Bu yerda xalq borliqni o'ziga xos ravishda idrok etuvchi san'atkor sifatida namoyon bo'ladi. Maqol va matallar, hikmatli gaplar bir necha asrlar, necha avlodlarning aql-zakovat chig'irigidan o'tib sayqallangan xalq donoligidir. Ajdodlarimiz yaratgan hikmatli gaplar necha avlodlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan keksalarni hurmat qilish, mehmondo'stlik mehnatsevarlik kabi xususiyatlar ular yaratgan ko'pgina maqollarda o'z aksini topgan. Masalan, ota-ona va keksalarni hurmatlash to'g'risida yaratilgan maqollar: "Otalar so'zi - aqlning ko'zi", "Qarisi bor uyning parisi bor", "Qari bilganni pari bilmaydi", "Yosh kelsa ishga, qari kelsa, oshga", "Oltinning eskisi bo'lmas, ota-onaning bahosi" va shu kabi.

Yoki mehmondo'stlikka doir maqollar va matallar ham ko'p: "Mehmon otangdek ulug'", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmonga osh qo'y, ikki qo'lini bo'sh qo'y", "Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin" va shu kabi. Mehnatsevarlikka doir:

"Elga xizmat - oliy himmat;

Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar;

Mehnat, mehnatning tagi - rohat;

Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog' qolar;

Oltin o'tda, odam mehnatda sinaladi.

Milliy tuyg'ular, kayfiyat va temperament ayniqsa, milliy raqslarda va musiqada yorqin namoyon bo'ladi. Ayni san'atning shu turlarida, ayrim tadqiqotchilar aytgan "qo'lga tushmas" va "anglash qiyin bo'lgan" etnopsixologik xususiyatlar "mana, men", deb ko'zga yaqqol tashlanadi. Zero, rus xalq kuyini hind musiqasidan, yoki o'zbek raqsini ukrain xalq raqsidan farqlash uchun san'at sohasida chuqur bilimga ega bo'lish shart emas.

Etnopsixologik xususiyatlar xalq hayotining butun borlig'ida namoyon bo'libgina qolmasdan, shuningdek, shu millatga mansub

bo'lgan shaxslarning kundalik muomalasida, xatti-harakatlarida ham ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Chunki har bir inson bolasi ma'lum bir Vatan farzandi, shaxs sifatida muayyan bir jamiyat mevasidir. Bizning dunyoni bilishdagi turli-tuman tasavvur va tushunchalarimiz ham shu jamiyatning va etnik muhitning bizga ko'rsatayotgan ta'siri ostida vujudga kelgan. Mana shu o'ziga xoslikni o'rganish va tushuntirib berish etnopsixologiya fanining asosiy vazifalaridandir.

### **1-muammoli masala**

Musofir yurtlarda yashab ishlari yurishib ketgan odamlar ham, o'z baxtini, farovonligini kemtik ko'radi. Chunki unga Vatan sog'inchi tinchlik bermaydi. Butun qalbi bilan Vatanga intiladi. Faqat o'z nafsini o'ylaydigan odamlarda vatanparvarlik tuyg'usi bo'lmaydi. Ular bir joydan ikkinchi joyga, bir yurtdan boshqa yurtga osongina ko'chib o'taveradilar. Ular qayerga borsam, baribir kunimni ko'raveraman, deb o'ylab, yashashdan maqsad o'z nafslarini qondirishdan iborat, deb biladilar.

Vatan inson uchun shu qadar aziz va muqaddaski, eng og'ir jinoyat qilganlarga jazo sifatida Vatandan badarg'a qilish hukm qilinadi.

Yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak?

### **2-muammoli masala**

Milliy tuyg'ular ko'pincha milliy iftixor sifatida namoyon bo'ladi. Lekin shuning bilan birgalikda o'z millatini ortiqcha ko'klarga ko'tarish, uning qandaydir boshqa xalqlarda bo'lmagan fazilatlarini to'g'risida "Kuyib-pishib" ta'kidlash, o'z xalqini boshqa xalqlarga qararna-qarshi qo'yishi, boshqa xalqlarga nisbatan mensimaslik ruhini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu fikrlarga munosabatingiz?

### 3-muammoli masala

Ayrim xalqlarda o'z chanqog'i va ochligini yangi so'yilgan hayvonlarning qoni bilan qondirish, ehtiyojlarni qondirishning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Bunday tab boshqa muhitda yashayotgan va qon umuman biologik ehtiyojlarni qondirish vositasi hisoblanmagan kishilar uchun butunlay qarama-qarshi tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Milliy estetik didning o'ziga xosligi millat ma'naviy hayotining ko'p sohalarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ular me'morchilik qurilishlarida, tasviriy san'atda, musiqada, raqslarda, adabiyotda, milliy kiyimlarda va uning bezaklarida, ayollarning xushro'yligida va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida to'la o'z ifodasini topadi. Milliy did moddiy ehtiyojlarda namoyon bo'ladi degan fikrga munosabatingiz.

## VIII BOB. ETNIK STEREOTIPLAR VA ULARNING TURLARI

### Reja:

1. Etnik stereotip tushunchasi.
2. Etnik stereotiplarning shakllanishi.
3. Etnik stereotiplarni o'rganish tarixi va asosiy xususiyatlari.
4. Avtostereotiplar va geterostereotiplar.

**Tayanch tushunchalar:** Etnik stereotip, avtostereotiplar, geterostereotiplar, etnos.

### 1. Etnik stereotip tushunchasi

Biror bir xalq, millat va elatning mushtarakligini anglatish uchun etnopsixologiyada etnos iborasi ishlatiladi. Psixologlar ushbu iborani turli millat vakillari o'rtasidagi muayyan farqlarni tushuntirish maqsadida ishlatadilar. Millat yoki milliylik esa biror insonning u yoki bu millat vakili yoki muayyan mamlakatning vakili sifatidagi xususiyatlarini tavsiflash maqsadida qo'llaniladi. Mamlakatdagi yashovchi insonlar qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar ushbu mamlakatdagi madaniyat va madaniy qadriyatlarining egalardir.

Etnotsentrizm fenomeni ikkinchi bir tushuncha - stereotiplar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. **Stereotiplar** – bu u yoki bu guruh a'zolari ongida, tasavvurlari va ustanovkalari mujassam bo'lib, qotib qolgan shunday ong mahsullariki, ulardan shu guruh a'zolari avvalo o'zlarini, qolaversa, o'zgalarni baholashda tayyor “qoliplar” sifatida foydalanadilar. Amerikalik E. Aronson stereotiplarga tavsif berarkan, ularning muayyan ijtimoiy guruhning barcha vakillarida bor bo'lgan sifatlar tarzida e'tirof etilishi, shu bilan birga aslida har bir guruhning alohida a'zosida o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini inkor qilinishini ta'kidlaydi. Aynan bu holat aslida bizning fikrimizcha, etnotsentrizmni keltirib chiqaradi. Chunki stereotiplar real, konkret sifatlar asosida shakllangan bo'lishi

muqarrar, masalan, o'zbeklarning soddaligi – bor narsa. Lekin hamma mutlaq shunday deyish ham – noto'g'ri, uning yoniga yana boshqa sifatlarni uydirma sifatida tirkash undan ham noto'g'ri tasavvurlarni hosil qiladi. Ayniqsa, o'zga millat vakillari, o'zimizni ham baholaganda, “yaxshi-yomon”, “to'g'ri-noto'g'ri”, “yuqori - past” kabi dixotomiyalardan, solishtirishlardan ogoh bo'lish lozim.

Shunday qilib, *etnik stereotiplar* nisbatan barqaror psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy, jismoniy, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

## 2. Etnik stereotiplarning shakllanishi

Individning ijtimoiylashuv jarayoni ijtimoiy rollar o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur jarayon muvaffaqiyatli amalga oshishi u yoki bu ijtimoiy rolni bajarayotgan shaxs ega bo'lishi lozim bo'lgan ijtimoiy psixologik sifatlarga to'g'risidagi insonning subyektiv tasavvurlari bilan belgilanadi. Mazkur tasavvurlar subyekt ongida muayyan bir andozalar sifatida shakllanadi.

Andozalar, kategoriyalar, stereotiplarni konkret tadqiq etish V.M.Senchenko, G.G.Finikova, V.N.Kunitsinlar tomonidan amalga oshirilgan. V.M.Senchenko ijtimoiy kategoriyalar genezisi bilan shug'ullangan. Uning tadqiqotiga maktabgacha yoshdagi bolalar va yuqori sinf o'quvchilari jalb etilgan. Ulardan oddiy askarlar va ofitserlar shaxsini ifodalab berish so'ralgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda askarlar to'g'risidagi tasavvurlarning asosiy qismini tashqi jihatlar tashkil etishi aniqlangan (formasi, qurol-aslahalari va b.)

Katta bog'cha yoshidagi bolalar esa tashqi belgilar bilan birga gavda tuzilishiga oid alomatlarini kiritisha boshlashgan. 1-sinf bolalarida yuqoridagi alomatlar saqlanishi bilan birga funksional belgilar ham o'z aksini topa boshlagan (avtomatdan otish, tank haydash, akoplarda yotish).

Keyingi yosh davrlari taalluqli guruhlarda mazkur tushunchaning mazmuni irodaga, xulq-atvor motivlari bilan bog'liq. Sifatlar bilan to'ldirilganda askarlarning irodaviy sifatlariga o'smirlar katta ahamiyat berganlar.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida vujudga kelgan andozalar va kategoriyalar shakllanishi maktab yoshi davrida taraqqiylashadi.

qiy etib o'spirinlik va undan keyingi yosh bosiqchlarida takomillashib borishi isbotlangan. Ko'p sonli tadqiqotlarda mazkur shaxsga doir baholovchi stereotiplarda insonning o'z xulqi, jinsi, yoshi, kasbiga taalluqli ham nazariy, ham amaliy bilimlar zaxirasi aks etishi ochib berilgan<sup>46</sup>.

Stereotiplar baholanayotgan odamlar tashqi xarakteristikalarini bilan farqlana boshlagan davrdan ishga tushishini G.Ollport, P.Sekord tadqiqotlari ko'rstaib bergan. Masalan, Sekord tomonidan odamlar yuzidagi muayyan bir belgilar (yuz shakli, ko'z joylashuvi, og'iz katta-kichikligi) bilan shaxs xususiyatlari o'rtasida ma'lum aloqadorlikni xos deb biladiganlar mavjudligi isbotlangan. Sekord tadqiqotida baholash uchun 24 nafar erkak surati qo'llanilgan, o'rtacha korrelatsion koeffitsiyent 0,65ni tashkil qildi. Sekord mazkur natijalarni sinoluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan baholovchi stereotiplar bilan tushuntirgan.

D.Bruner va X.Perlmutter amerikaliklar, fransuzlar va nemislar katta guruhlarida o'tkazgan tadqiqotlarida odamlarning o'zlari uchun notanish kishini baholash mulohazalari mazkur odamlarning qaysi milliy etnik guruhlarga mansubligi to'g'risidagi tasavvurlar bilan belgilanishini isbotlagan. Agar kishining milliy mansublik alohati uning shaxsini baholashda birinchi o'ringa chiqsa ular baholanayotgan odam taalluqli millatga xos xarakter xususiyatlari bilan assotsiatsiya qilingan. Shuningdek, baholanayotgan odam qaysi millatga mansubligini bilmagan taqdirda ushbu odamni baholashda soddalashgan guruhii stereotiplarga kamdan-kam murojaat etishini ham tasdiqlashgan. D.Bruner va X.Perlmutter ma'lumotlari turli davrda tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan (E.Kentril, G.Ollport, K.Sodxi).

Yuqorida keltirilgan faktlar inson boshqa odamlarni baholashda foydalandigan stereotiplar ushbu insonning shaxs xususiyatlari bilan uzviy aloqada ekanini isbotlagan. Inson hayot davomida o'zlashtiradigan tajribaning o'ziga xosligi natijasida, mehnat, muloqot subyektii sifatida shakllanadi. Ayni shu jihatlar uning stereotiplari shakli va mohiyatini belgilaydi.

<sup>46</sup> Botirov B.M. Etnopsixologiya. -T. Fan va texnologiya nashriyoti. 2012. B.110.



### 3. Etnik stereotiplarni o'rganish tarixi va asosiy xususiyatlari

Ijtimoiy stereotip tushunchasini amerikalik olim U. Lippman o'zining 1922- yilda nashr etilgan "Ijtimoiy fikr" asarida ilk bora qo'llagan. U. Lippman: "Ijtimoiy stereotiplar inson tafakkuri "Psixik energiyani tejash tamoyili"ni amalga oshirish sababli vujudga keldi, - deydi- ushbu tamoyilning mohiyati har safar yangi hodisaga duch kelar ekan, odam unga yangicha javob qaytarmasdan, balki avval shakllangan kategoriyalar doirasiga olib kirishidir. Garchi yangi axborot mazmuni biroz o'zgarsada bilish jarayoni yengilla-shadi" Etnik stereotiplar ijtimoiy stereotiplarning bir ko'rinishidir.

Etnik stereotiplarni o'rganish bo'yicha ilk tadqiqotlar D. Kats va K. Breyli tomonidan XX asrning 30-yil boshlarida o'tkazilgan. XX asrning 40-yillarida esa turli etnik guruh vakillari xususida ommaviy axborot vositalarida, badiiy adabiyotlarda, san'at asarlarida mavjud tasavvurlar o'rganila boshlandi.

Etnik stereotiplar – turli etnik guruh a'zolarining jismoniy, axloqiy va aqliy xususiyatlari haqidagi nisbiy barqaror, umumlashgan tasavvurlaridir.

### 4. Avtostereotiplar va geterostereotiplar

Etnik stereotiplarning mazmunida odatda o'zgalarga muayyan sifatlarni qo'shib aytish, bayon etish xos bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan olimlar etnik stereotiplarni ikkita toifaga bo'ladilar:

- etnik avtostereotiplar;
- etnik geterostereotiplar.

*Avtostereotiplar* – muayyan etnik guruh a'zolarining o'z qavmi, ya'ni etnik guruhiga nisbatan shakllangan fikrlari, baholari, munosabatlaridir. Odatda avtostereotiplar mazmunan ko'proq ijobiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

*Geterostereotiplar* aksincha, o'zga millat va elat vakillari to'g'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlariga xarakteriga ko'ra ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

Etnik stereotiplarning mazmunida eng o'zgarimas va barqaror tuzilma – bu u yoki bu baholanayotgan millatning:

a) tashqi qiyofasi (tog'li xalqlarga nisbatan ularning basavlat, sog'lom bo'lishi);

b) tarixan kelib chiqishi (masalan, tarixan millatning hamisha g'olib kelishi);

v) turmush tarzi (ko'ngliochiq yoki jangari);

g) mehnat malakalari (mehnatkash yoki tanbal);

d) muloqandmandlik sifatlari (ochiq, kirishuvchan yoki tunt);

e) axloqiy jihatlari (andishali) kabilardir.

Shu kabi sifatlarning (ijobiy yoki salbiy stereotiplar) o'zgarishi eng avvalo shu xalqlar o'rtasida ma'lum vaqtlarda o'zaro bordikeldi va shaxslararo aloqalarning o'zgarishi, yaxshi yoki taranglashishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, shohlar va davlat rahbarlarining siyosiy qarashlariga mos ravishda boshqa aloqalar (savdo-sotiq, madaniy, diplomatik)ning zavol topishi millat vakillari ongidagi o'sha barqaror stereotiplarni "o'chirishi" (vaqtincha bo'lsa ham) mumkin. Masalan, bir umr biri-biridan qiz olib, qiz berib yurgan, quda-andachilik rivojlangan bo'lishiga qaramay, birdan g'anim millatning qizlari "unchalik yaxshi bo'lmay qolishi" ham mumkin.

Shunday qilib, etnik stereotiplarni hamisha ham xolis, obyektiv deyish qiyin. Etnik stereotiplarning barqarorlashuvidan ayrim xalqlar cho'chiydilar ham. Shuning uchun amerikaliklar turli millat vakillaridan iborat jamiyatni "demokratiya jamiyati" deb atab, millatlarni ham yagona "amerika millati" deb ataydilar. Bu ularning fikricha, etnik stereotiplarga barham berarmish. Lekin oddiy xalq hech qachon o'z ildizlarini unutishni xohlamagandek, etnik stereotiplardan ham holi bo'la olmaydi. Chunki bora-bora etnik stereotiplar mustahkam va harakatchan, ya'ni anchagina dinamik xarakterga ega bo'lgan etnik ustanovkalarining shakllanishiga ham turtki beradi.

Shunday qilib, biz yuqorida ko'rib chiqqan etnopsixologiyaning dolzarb masalalari va etnik ongning muhim komponentlari amaliyotda va nazariyada tadqiqotchilar va mutaxassislar bilishi lozim bo'lgan asosiy muammolar bo'lib, yurtimizda etnopsixologiyaning rivojlanishi ushbu masalalarning ayrim alohida qirralarini ham fanning ishonchli metodlari yordamida o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Etnik stereotip haqida tushuncha?
2. Etnik stereotiplarning shakllanishi qanday kechadi?
3. Etnik stereotiplarni o'rganish tarixi va asosiy xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?
4. Avtostereotiplar va geterostereotiplarning bir-biridan farqi?
5. Etnik ustanovkalar qanday namoyon bo'ladi?

### Test savollari:

#### 1. Etnik stereotiplar .....

A) nisbatan barqaror psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

B) nisbatan o'zgaruvchan psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

C) nisbatan barqaror psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy, jismoniy, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

D) nisbatan o'zgaruvchan psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy, jismoniy, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

2. Agar kishining milliy mansublik alomati uning shaxsini baholashda birinchi o'ringa chiqsa ular bahaolanayotgan odam taalluqli .... xos xarakter xususiyatlari bilan assotsiatsiya qilingan.

- A) oilaga
- B) muhitga
- C) temperamentga
- D) millatga.

### 3. Etnik stereotiplarni o'rganish bo'yicha ilk tadqiqotlar .....o'tkazilgan.

A) E. Aronson, D. Matsumoto tomonidan XX asrning 30-yil boshlarida

B) D.Kats va K.Breyli tomonidan XX asrning 90-yil boshlarida

C) Bodalev tomonidan XX asrning 90-yil boshlarida

D) D.Kats va K.Breyli tomonidan XX asrning 30-yil boshlarida.

### 4. Avtostereotiplar –

A) muayyan mamlakat va qishloq a'zolarining o'z qavmi, ya'ni etnik guruhiga nisbatan shakllangan fikrlari, baholari, munosabatlaridir. Odatda avtostereotiplar mazmunan ko'proq ijobiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

B) o'zga millat va elat vakillari to'g'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari xarakteriga ko'ra ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

C) nisbatan o'zgaruvchan psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy, jismoniy, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi.

D) muayyan etnik guruh a'zolarining o'z qavmi, ya'ni etnik guruhiga nisbatan shakllangan fikrlari, baholari, munosabatlaridir. Odatda avtostereotiplar mazmunan ko'proq ijobiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

### 5. Geterostereotiplar ....

A) o'zga oliy o'quv yurti vakillari to'g'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari xarakteriga ko'ra ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

B) o'zga millat va elat vakillari to'g'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari xarakteriga ko'ra ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

C) muayyan etnik guruh a'zolarining o'z qavmi, ya'ni etnik guruhiga nisbatan shakllangan fikrlari, baholari, munosabatlaridir. Odatda avtostereotiplar mazmunan ko'proq ijobiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

D) o'zga davlat va shahar vakillari to'g'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida xalqlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari xarakteriga ko'ra ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin.

## **IX BOB. ETNIK O'ZARO MUNOSABATLARNING XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

1. Milliy urf-odat va an'analar.
2. Milliy did (tab) va uning namoyon bo'lishi.

**Tayanch tushunchalar:** milliy urf-odat, an'analar, milliy did, marosim

### **1. Milliy urf-odat va an'analar**

Ma'lumki, har bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomondan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi.

Bunda ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan, etnopsixologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan bo'lgan urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularning vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir.

Milliy mansublikni anglash bilan bog'liq xususiyatlar ancha barqaror bo'lib, doimo ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o'zgarishlar ta'siriga berilmasligi yoki nisbatan kam berilishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, tarix taqozosi bilan o'z Vatanidan ajrab boshqa yurtlarga borib qolgan va u yerda uzoq vaqtlar davomida yashayotgan kam sonli millat vakillarida milliy ongning shakllanishi va saqlanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Ularning milliy tilni saqlash, milliy urf-odat va an'analarga rioya qilish imkoniyatlari, milliy qadriyatlar bilan bevosita aloqasi ma'lum darajada cheklangan. Bunday sharoitda har bir avlod vakilida etnik

ong katta avlod tomonidan berilayotgan ma'lumotlar, oila a'zolari va yaqin qarindoshlar o'rtasida so'zlashuv vositasi hisoblangan ona tili, milliy madaniyat haqidagi bilimlar asosida vujudga keladi. Turli davrlarda uzoq ajnabiy yurtlarga borib qolgan millatdoshlarimizning hayoti bunga misol bo'la oladi. Xususan, Amerikada yashayotgan o'zbeklar bir-birlari bilan yaqin munosabatlarni saqlash, o'zaro suhbatlarni ona tilida olib borish, milliy taomlar tayyorlashga va yana eng muhimi o'zaro quda-andachilik qilishga harakat qiladilar.

Umuman bir necha o'n va yuz yillar davomida ajnabiy yurtlarda yashayotgan millatdoshlarimizning psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish tadqiqotchiga muhim ma'lumotlar berishi mumkin. Etnik birlik kattaroq va kuchliroq etnos qurshovida qolganda yoki tazyiqqa uchraganda, etnik ong an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatning turli shakllariga – til, din, urf-odat, qadimiy qo'shiqlar, milliy kiyimga ta'sir ko'rsatib, etnik xususiyatlarni himoyalashga, saqlab qolishga yordam beradi. Shulardan ko'rinib turibdiki, etnik ong etnik jarayonlarning mahsuli bo'libgina qolmay, etnik jarayonning ma'naviy sohasiga ta'sir etuvchi omil rolini o'ynaydi.

Ma'lumki, har bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi. Bunda ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan, etnopsixologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan bo'lgan urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir.

Har bir davrning, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga mos bo'lib tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analari bo'ladi. Milliy urf-odat va an'analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug'iladi. Har bir xalq butun tarixi davomida yashash

sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum norma va yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l-yo'riqlar avloddan-avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analarga aylanib qoladi. Shakllangan urf-odat va an'analar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida uning xulq-atvorlarini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Urf-odat va an'ana, udum yoki marosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, bir qarashda, bema'ni, behuda bo'lib ko'rinishi mumkin. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan.

Kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xalqlardagi taqiqlar, man etishlarning hammasi ham bema'ni va zararli bo'lmay, ma'lum zarurat bilan vujudga kelar ekan. Ya'ni ular xalqning yashash tarziga, ehtiyojlariga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu misollar, shuni ko'rsatadiki, odat va an'analar xalq hayotiga, turmush tarziga ongli ravishda kirib keladi, lekin ularning ta'siri esa stixiyali bo'ladi.

Shuning bilan birga ayrim urf-odat va an'analar o'z umrini o'tab bo'lgan bo'lsa ham, yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun yana uzoq vaqt saqlanib, odamlar ongiga ta'sir etib turadi. Bu narsa insonlar psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan fenomen hisoblanadi. Chunki, mustahkamlanib qolgan urf-odat va an'analarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Ko'pchilikning ta'na-malomatiga qolishdan qo'rqish va tortinish, jamiyatning har bir a'zosini urf-odatlarga ongli yoki ko'r-ko'rona bo'lsa ham amal qilishga majbur qilib qo'yadi.

Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa ham, ammo ma'no jihatdan farq bordir. Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog'langan bo'ladi va unda axloqiy, diniy va huquq normalari to'la o'z aksini topadi.

An'analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo'lishi bilan birgalikda ishlab chiqarish jarayonini ham qamrab oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Bundan tashqari an'ananing ta'sir doirasi



nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Misol tariqasida xalqimizda mavjud bo'lgan mehmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, mehmondo'stlik u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladi, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anasiga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek oilalarida mehmon har doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Xonadondagi eng yaxshi va noyob narsalar (bunday narsalar doimo "mehmon uchun", deb saqlanadi) mehmon oldiga qo'yiladi. Mehmon xonadonga kirib kelishi bilan mezbon ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, "xush kelibsiz", deb kutib oladi va hurmatli zot sifatida eng yuqori joyga o'tkaziladi, qo'ni-qo'shnilar chaqirilib mehmonga hamsuhbat va ulfat qilinadi. Ovqat ham birinchi bo'lib, yoshidan qat'i nazar mehmonga tortiladi. Mehmon boshlamaguncha, oilaning birorta a'zosi birinchi bo'lib taomga qo'l urmaydi. O'tirishdagi birinchi so'z ham mehmonga beriladi, uning so'ziga diqqat bilan quloq solinadi. Unga e'tiroz bildirish, gap qaytarish katta ayb hisoblanadi. Mehmon oldida oila a'zolari bir-birlari bilan xushmuomalada bo'lishlari, hatto "mushugini ham pisht", demasligi kerak. Mehmon kuzatilayotganda kutib olish chog'idagidek, ikki qo'l ko'ksida bo'lib, "xush ko'rdik", "yana kelib turing", deb xayr-ma'zur qilinadi.

Endi udum va marosimlarga kelsak, ular kuchli psixologik va hissiy ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, ular yordamida urf-odat va an'analar bevosita yuzaga chiqadi. Udum u yoki bu urf-odat va an'ananing bajarish vaqtida amal qilinadigan tartib va qoidalardir. Marosim esa, udumni ko'z-ko'z qilib turadigan tashqi bezagi va tasviri, ya'ni bajarilish jarayonidir.

Ijtimoiy mazmuni va ahamiyatiga qarab urf-odat va an'analar ilg'or va qoloq bo'ladi. Ilg'or urf-odat va an'analar keng xalq omma manfaatlariga xizmat qiladi va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qoloq urf-odat va an'analar deb, umrini o'tab bo'lgan davr ruhiga mos kelmaydigan, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga monelik

qiladigan urf-odat va an'analarga aytiladi. Shuning uchun ham urf-odat va an'analarni o'rganishda, rioya qilishda, nihoyat darajada ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo'ladiki, shoshma-shosharlik bilan ular to'g'risida hukm chiqarish, noroziliklarga va tuzatib bo'lmas xatolarga olib kelishi mumkin.

Bizning asosiy vazifamiz va burchimiz ajdodlarimizdan yetib kelgan ko'plab urf-odat, an'ana, udum va marosimlarni har tomonlama o'rganish, asrlar sinoviga bardosh bergan va davr sinoatidan o'tgan, turmushimizga fayz kiritadigan, kishilarni yetuklikka chorlaydigan ilg'or urf-odatlarimizni saqlab qolishimiz va aksincha, qachonlardir turli sabablar bilan vujudga kelgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan, qop-qorong'u tun kabi dilimizni siyoh qilayotgan, eng muhimi jamiyat taraqqiyotiga monelik qilayotgan urf-odat va an'analardan voz kechishimiz kerak. O'zbek xalqining mehnat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, hovli-joyni ozoda tutish, rizqu ro'zimiz bo'lgan turli-tuman noz-ne'matlarni e'zozlash kabi bir qancha milliy urf-odat va an'analari borki, ularni o'rganish, yoshlarni shu an'analarda ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Ota-ona hurmatini bajo keltirish, keksalarni e'zozlash kabi odat va an'analarda o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Ota-ona va kattalar, yoshlarga boshqalar bilan muomala qilish va munosabatga kirishish yo'l-yo'riqlarini o'rgatib, odamiylikdan, insonparvarlikdan saboq berib boriladi. O'zidan katta yoshda bo'lgan kishilarni hurmatlash bilan bog'liq bo'lgan an'anaga ko'ra, yoshlar ularni ko'rganda tanish-tanimasligidan qat'i nazar ularga birinchi bo'lib salom berishi, yo'lda uchratganda birinchi bo'lib ularni o'tkazib yuborishi, gaplashganda muloyim gaplashishi, ularga ters javob bermasligi, doimo "Siz," deb muomalada bo'lishi, ularning ismi, laqabini aytib chaqirmasligi, qo'lidan yukini va yumushini olishi, hamma yerda ham ularga joy bo'shatib berishi va shunga o'xshash odob normalariga rioya qilishi kerak bo'ladi. Har bir qariya, yoshi katta kishi o'zlari shaxsan tanimagan yoshlarga ham pand-nasihatchilik qilishi, tanbeh berishi mumkin. Yoshlar ham ularning so'zini bo'lmasdan tinglashi va bundan jahli chiqmasligi kerak.

O'zbek oilalarida o'tadigan biron-bir yig'ilish, marosim, tantanali to'y-tomoshalar, hashar va obodonlashtirish ishlari "aqlning ko'zi" bo'lgan nuroniy keksalarimiz maslahatisiz, ishtirokisiz o'tmaydi.

An'anaviy xarakterga ega bo'lgan o'zbek xalqining mehmondo'stligi ham hozirgi davrda yangi ijtimoiy mazmun kasb etib, xalqlar do'stligi va boshqa xalq vakillariga bo'lgan hurmat-ehтиromimizni ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hech bir avlod o'zigacha yaratilgan va to'planib kelingan madaniy meroslarsiz, bilim va an'analarsiz yashay olmaydi. Ma'lum bir jamiyatda yashar ekan inson ajdodlar tomonidan to'plangan meroslarni hayotining birinchi kunidanoq o'zlashtirib boradi. Shuning uchun ham xalq hayotiga singib ketgan urf-odat va an'analarni farmoyish va ma'muriy yo'l bilan yo'qotib bo'lmaydi.

Urf-odat va an'analar ma'lum ma'noda o'zgaruvchan xarakterga ega. Turmush jarayonida yangi davrga mos kelmaydigan urf-odatlar o'z-o'zidan yo'qolib boradi. Shu bilan birga har bir davrda ham yangi udum va marosimlar, urf-odat va an'analar paydo bo'ladi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar asosan ikki manba asosida vujudga keladi: birinchisi, ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'analar zamon ruhiga moslashtiriladi, ikkinchisi, boshqa xalqlar bilan bo'ladigan iqtisodiy, ma'naviy aloqalar natijasida ulardagi ilg'or an'analar o'zlashtiriladi.

Milliy an'analarga rioya qilish insonning jamiyatga, millatiga nisbatan moslashuvini yengillashtiradi, an'analar orqali u o'z millati bilan identifikatsiyalashadi. Shu sabab an'analardan uzoqlashish insonning o'z xalqidan uzoqlashishiga olib keladi, bu ayniqsa, jamoaviylikka asoslangan jamiyatda yaqqol seziladi. An'analar, qadriyatlar tizimi avloddan avlodga, avvalo oila doirasida meros bo'lib o'tadi. Oilaviy marosimlar, urf-odatlar va an'analar uzoq o'tmishdan asrdan-asrga shakllanib, o'zbek xalqining boy tajribasini jamlab, bizgacha yetib kelgan bo'lib, shulardan to'y rasm-rusumlari nikohni, oilani mustahkamlashga qaratilgandir. To'ylar xalqni ma'naviy-ruhiy tomondan tarbiyalovchi vosita bo'lgan. Chunki to'ylarda xalq og'zaki ijodi – lapariar, termalar, milliy raqs san'ati, qo'shiq san'ati ham ravnaq topgan. Umuman olganda, to'y oilaviy bayram bo'lib, unda barcha qarindosh-urug'lar ishtiroki mavjud

bo'lsa-da, unga azaldan qo'ni-qo'shni, do'stu birodarlar ham taklif etiladi. Bu esa shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Zero, uzoq vaqt ko'risha olmagan qarindosh-urug'lar, do'stu birodar va tanish-bilishlar diydor ko'rishishga muyassar bo'ladilar. Shu sabab to'y kishilarda hamjihatlik, ahillik, mehr-oqibat, xayr-saxovat, iymon-e'tiqod, mehmondo'stlik, insonparvarlik, do'stlik kabi fazilatlarini tarbiyalashga xizmat qiluvchi ijtimoiy psixologik vosita hisoblanadi. To'yda o'zbek xalqining milliy mentaliteti va ma'naviyati aks etadi<sup>47</sup>.

Xalqlarga xos bo'lgan milliy xususiyatlar ularning kiyinish madaniyati va marosimlarga mos kiyinish an'analari ham o'z aksini topadi. O'zbek xalqi azaldan kiyinish madaniyatiga ham alohida e'tibor berib kelgan. Ajdodlarimizning qanday kiyimlar kiygani to'g'risidagi ma'lumotlar hududlarimizdagi arxeologik topilmalarda: devoriy suratlar, sopol va suyak buyumlarga tushirilgan tasvirlar, qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralar orqali bizgacha yetib kelgan. Bundan tashqari, bir qator mumtoz ijodkorlarning memuar asarlarida, sayyohlik asarlarida tarixiy shaxslarni tasvirlash jarayonida kiyim-kechaklar ta'riflab o'tilgan. Asar qahramonlarining qanday kiyimgani haqidagi qiziqarli ma'lumotlar xalqimizning madaniyati haqida yorqin tasavvur beradi. Mazkur tajriba libos tayyorlash bizda qadimdan hunar sifatida yaxshi rivojlanganini, chevarlikda o'ziga xos maktablar yaratilganini ko'rsatadi. Xalqimiz kiyim-kechaklardagi bezaklardan tortib, choklari naqshlargacha aniq ramziy ma'noni singdirishga, nafasat bilan birga liboslarda odob, axloq tamoyillari, or-nomus tuyg'ulari ham ifodalashga harakat qilgan. Bu xalqimiz boy hayot falsafasidan, ma'naviyatimizning teran ildizlari olis o'tmishlarga borib taqalganidan dalolat beradi<sup>48</sup>.

O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishida, jamiyat a'zolarining tarbiyalanganligi, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lib yetishishi, ularda milliy xususiyatlarning shakllanganligi bugungi kunda dolzarb masalasidir. Xalqning milliy xususiyatlaridan biri unda milliy tuyg'uning shakllanganligidir.

<sup>47</sup> Rasulova Z. Nikoh to'yi bilan bog'liq an'analarning etnopsixologik xususiyatlari // Psixologiya. T., 2016. № 3. – B. 41-48.

<sup>48</sup> Rahimova D. Milliy liboslar – ma'naviyat ko'zgusi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2016, № 5. – B. 45.

Har bir davrning, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga mos bo'lib tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analar bo'ladi. Odamzot ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatu marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish qiyin.

Milliy urf-odat va an'analar butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Har bir xalqning butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum norma va yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bunday norma va yo'l-yo'riqlar avloddan-avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analarga aylanib qoladi.

Milliy urf-odat va an'analar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida shaxsning xulq-atvorlarini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, be'mani, behuda bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan. O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarining ayrimlarida mavjud bo'lgan va hozirgi kunda eskilik sarqiti, deb qoralanadigan "qalin" berish odatini o'rgangan ba'zi olimlar, hozirgi davrga kelib, bu odat faqat ramziy qimmatga ega bo'lib qolganini ko'rsatishdi.

Ma'lumki, ekzogam nikohli hukm ustuvor davrlarida qiz olish va qiz berish bir qabila yoki urug' doirasida bo'lmasdan, boshqa qabila va urug'lar bilan bo'lar edi. Bir qabila boshqa qabilaga qiz bergandan keyin, qiz bergan qabila yoki oila zaiflashib qolmasligi uchun ular ham albatta qo'shni qabiladan qiz olishlari va shu bilan aholi o'sish nisbatini va iqtisodiy balansini saqlab turishlari kerak bo'lgan. Lekin ayni shu paytda qo'shni qabilada bo'yiga yetgan, ya'ni balog'atga yetgan qizning bo'lmasligi yoki narigi qabilada uylanadigan yigitning bo'lmasligi natijasida bunday teng holda qiz almashtirishlar juda kam paytlardagina amalga oshgan. Bunday

hollarda yigit tomon qiz tomonga qiz berish imkoniyati kelgunga qadar turli-tuman mol-dunyo hisobida kafolat yoki hozirgi tushunchamizcha "qalin" berib turgan.

Bu fikrning to'g'riligini shundan ham ko'rsak bo'ladiki, ekzogam nikohning qo'llanilishi majbur bo'lmagan. O'rta Osiyo xalqlarida qalin berish hodisasi, deyarli uchramaydi. Uchrasa ham ekzogam nikohi qo'llaniladigan xalqlar darjasidagi shakl va mazmunda emas. Shuningdek, har bir xalqda u yoki bu narsalarga nisbatan turli taqiqlar mavjud bo'ladi.

Kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xalqlardagi taqiqlar, man etishlarning hammasi ham bema'ni va zararli bo'lmay, ma'lum zarurat bilan vujudga kelar ekan. Ya'ni, ular xalqning yashash tarziga, ehtiyojlariga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, odat va an'analar xalq hayotiga, turmush tarziga ongli ravishda kirib keladi, lekin ularning ta'siri esa stixiyali bo'ladi.

Shuning bilan birga ayrim urf-odat va an'analar o'z umrini o'tab bo'lgan bo'lsa ham, yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun yana uzoq vaqt saqlanib, odamlar ongiga ta'sir etib turadi. Bu narsa insonlar psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan fenomen hisoblanadi. Chunki, mustahkamlanib qolgan urf-odat va an'analarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Ko'pchilikning ta'na- malomatiga qolishdan qo'rqish va tortinish, jamiyatning har bir a'zosini urf-odatlariga ongli yoki ko'r-ko'rona bo'lsa ham amal qilishga majbur qilib qo'yadi. Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa ham, bu terminlar tushunchalar o'rtasida faqat terminologik tafovut bo'lib qolmasdan, yana ma'no jihatdan ham farq bordir.

Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog'langan bo'ladi va unda axloqiy, diniy va huquq normalari o'z aksini topadi. An'analar esa ijtimoiy hayotning hamna sohalarida mavjud bo'lish bilan birgalikda, yana ishlab chiqarish jarayonini ham qamrab oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, fanda, san'at va adabiyotda, armiya va oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo'lmaydi, balki an'analar mavjud. Masalan, armiyaga yangi borgan soldatning qasamyod qabul qilishi, oliy

o'quv yurtiga kirgan yoshlarni talabalar safiga qabul qilish tantanalari, yirik sport musobaqalarida g'olib sportchi sha'niga mamlakat bayrog'ining ko'tarilishi va madhiyasini yangrashi – bular an'analar hisoblanadi. Bundan tashqari an'ananing ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Misol tariqasida xalqimizda mavjud bo'lgan mehmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, ushbu fazilat u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladiki, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anaga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek oilalarida mehmonlar doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinadi.

Kavkazdagi tog'li xalqlarda xun olish bor. Agar xundor dushman uyi ostonasidan kirib kelsa, dushmanlik yo'qoladi. Hamma uni aziz mehmondek kutib olishi shart. Qishloqdan, ovuldan chiqib ketgach, dushmanlik yana tiklanadi. Ularda ham mehmon daxlsiz. Ikki qo'shni xalq - o'zbeklar bilan qozoqlarning to'y o'tkazish vaqtida bajaradigan turli udum va marosimlarini mashhur yozuvchimiz Oybek "Bolalik" qissasida juda mohirlik bilan tasvirlagan. Mana, qozoqlar to'yida bo'ladigan marosimlar qanday tasvirlangan. "Bir o'tovda odamlar tiqilinch... Ayollar erlardan qochmaydi. Aralash-quralash. Bir-birlarining yelkalarini qoqib, bemalol hazillashib so'zlashishadi... Birdan qozoqlar tipirchilagan, osmonga sapchiydigan arg'umoqlariga minib, uloqni boshlab yuborishdi... Uloqdan sho'x qizlar, ayollar o'tirgan ulovga bir to'da yasangan yigitlar kirib keladi. Qizlar baland, qo'ng'iroq ovoz bilan, jonli imolar bilan, ko'zlarini chiroyli o'ynatib qo'shiq aytadi... Kulgi, qiyqiriq o'lan tinmaydi... Kuyov bilan kelin o'lan aytishadi..."

Endi to'y marosimi o'zbeklarda boshqacha kechadi. Karomatning to'yi tasvirida erkaklar va ayollar deyarli qo'shilishmay, marosimni alohida-alohida o'tkazishadi. "Qiz oshi" kuni qizning uzoq-yaqindagi dugonalari va mahallaning qizlari to'planishadi. Dutorga jo'r bo'lishib, ashula aytishadi. Atrofda erkaklar bo'lmasa

ham, iymnishib, "Sen tur, sen tur," deyishib bir-birlarini o'yinga tortishadi... To'y kuni turli ko'ngil ochuvchi o'yinlar tashkil qilinadi, ayollar "yor-yor" aytishadi va hokazo.

Mana shu badiiy tasvirdagi ikki xalqda mavjud bo'lgan to'y o'tkazish jarayonidagi udum va marosimlar an'ana sifatida bir necha asrlar davomida avlodan-avlodga yetib kelgan.

Urf-odat, an'ana, udum va marosimlar bir-birlari bilan chambarchas bog'liq va doimo bir-birini to'ldirib, bir-biriga o'tib turishi mumkin. Ba'zan ma'lum urf-odat an'ana ham sanalishi mumkin, deb ko'rsatadi professor N.Sarsenbayev. Masalan, mehmonga borganda "yuvosh o'tir", degan o'zbek maqoli bor. O'zbeklar orasida bu – odat, boshqa millat vakillari doirasida esa bu odat o'zbek xalqining milliy an'anasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy mazmuni va ahamiyatiga qarab urf-odat va an'analar ilg'or va qoloq bo'ladi. Ilg'or urf-odat va an'analar keng xalq omma manfaatlariga xizmat qiladi va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qoloq urf-odat va an'analar deb, umrini o'tab bo'lgan davr ruhiga mos kelmaydigan, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga mʼohelik qiladigan urf-odat va an'analarga aytiladi.

Shuning uchun ham urf-odat va an'analarni o'rganishda, rioya qilishda, nihoyat darajada ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo'ladi, shoshma-shosharlik bilan ular to'g'risida hukm chiqarish, noroziliklarga va tuzatib bo'lmas xatolarga olib kelishi mumkin.

Bizning asosiy vazifamiz va burchimiz ham ajdodlarimizdan yetib kelgan ko'plab urf-odat, an'ana, udum va marosimlarni har tomonlama o'rganish, asrlar sinoviga bardosh bergan va davr sinoatidan o'tgan, turmushimizga fayz kiritadigan, kishilarni yetuklikka chorlaydigan ilg'or urf-odatlarimizni saqlab qolishimiz va aksincha, qachonlardir turli sabablar bilan vujudga kelgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan, qop-qorong'u tun kabi dilimizni siyoh qilayotgan, eng muhimi jamiyat taraqqiyotiga monelik qilayotgan urf-odat va an'analardan voz kechishimiz kerak.

O'zbek xalqining mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, hovli-joyni ozoda tutish, rizqi-ro'zimiz bo'lgan turli-tuman noz-ne'matlarni e'zozlash va shunga o'xshash bir qancha milliy urf-odat va an'analar borki, ularni o'rganish, yoshlarni shu an'analar ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga egadir.



Ota-ona hurmatini bajo keltirish, keksalarni e'zozlash kabi odat va an'analar o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Ota-ona va kattalar, yoshlarga boshqalar bilan muomala qilish va munosabatga kirishish yo'l-yo'riqlarini o'rgatib, odamiylikdan, insonparvarlikdan saboq berib borishadi.

Uzoq safarga ketayotgan va qaytib kelgan har bir kishi, albatta, mahalla va qishloqning hamma keksalarini va xasta bo'lib yotgan kishilarni borib ziyorat qilishi zarur. Agar safardalik davrida, mahalladagi biror kishi vafot etgan bo'lsa, birinchi navbatda uning oilasiga borib ta'ziya bildiriladi.

Millatimizning asriy an'ana va urf-odatları, milliy xususiyatlarimizni bilmasdan, hisobga olmasdan turib milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas. Bunda "... Sharq xalqlari uchun notanish, ammo milliy tabiatimizga mos bo'lgan o'z-o'zini boshqaruv usuli - mahallani rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish" kerak.

Jamiyat hayotida totuvlik va ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda mahallaning ahamiyati beqiyosdir. Tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf-xatarlarni birgalikda yengish, qurilish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadosh bo'lishga intilish tuyg'usi o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar mahallalarda shakllangan va avlod-dan-avlodga o'tib kelgan. Mahallani o'zini o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin.

El-yurtga manzur bo'lgan, el bilan shaxs o'rtasida g'ov bo'lib yotmagan, eng muhimi, el sha'niga dog' tushirmaydigan, xalqning donoligi asosida yaralgan eng yaxshi urf-odat har doim e'zozlanib, saqlanib kelinadi. Zero, bunday an'analarimiz, birinchidan, hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmasdan, yangidan-yangi mazmun va shakl bilan boyib, fozil insonga xizmat qilib kelyapti. An'anaviy xarakterga ega bo'lgan o'zbek xalqining mehmondo'stligi ham hozirgi davrda yangi ijtimoiy mazmun kasb etib, xalqdar do'stligi va boshqa xalq vakillariga bo'lgan hurmat-ehtiromimizni ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Hech bir avlod o'zigacha yaratilgan va to'planib kelingan madaniy meroslarsiz, bilim va an'analarsiz yashay olmaydi. Ma'lum bir jamiyatda yashar ekan u, ajdodlar tomonidan to'plangan meroslarni hayotining birinchi yilidanoq o'zlashtirib boradi. Shuning uchun ham xalq hayotiga

singib ketgan urf-odat va an'analarni hech qanday farmoyish va ma'muriy yo'l bilan yo'qotib bo'lmaydi. Lekin madaniy merosimizni o'rganishda ilg'or urf-odat va an'analarni eski an'analardan farqlashda ba'zan noto'g'ri yondashishlar ham bo'lganligini ta'kidlash kerak. Masalan, yaqingacha aholi o'rtasida keng tarqalgan. "Navro'z bayram"iga asossiz ravishda diniy tus berilib, noto'g'ri asosda tanqid qilinib, man etib kelindi. Kelib chiqishi va mazmuniga ko'ra "Navro'z" bayramini diniy ham, konservativ ham, deb bo'lmaydi. Uni o'tkazish rasm-rusumlari, udumlari bahor faslining kirib kelishida rizqi-ro'z bo'lgan ekin-tikin ishlarini boshlab yuborish quvonchlarini tarannum etadigan xalq tantanasidir. Navro'z – Sharq xalqlarida yangi yilning kirib kelishidir.

Urf-odat va an'analar har bir xalqqa abadul-abad berilgan va hech o'zgar olmaydigan narsa emas. Hayot ularni g'alvirdan o'tkazib, puchisini puchakka, sarasini sarakka ajratib beradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shuning bilan birga har bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odat va an'alarini yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar o'z-o'zidan, quruq yerda paydo bo'lmasdan, asosan ikki manba: birinchisi, ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'analar zamon ruhiga moslashtiriladi, ikkinchisi, boshqa xalqlar bilan bo'ladigan iqtisodiy, ma'naviy aloqalar natijasida ulardagi ilg'or an'analar o'zlashtiriladi.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan mahallaning jamiyatni boshqarishdagi vaziyatlari kengaytirib, mavqeni oshirib borayapti. Davlatni boshqarishning ayrim funksiyalari unga o'tayapti. Mahalla savdo va hunarmandchilik mavzellarini ifodalovchi arabiy so'z bo'lib, X asrdayoq mavjud bo'lgan. Toshkent shahar hokimiyatining tashabbusi bilan 1996-yildan buyon avgust oyining birinchi shanba kuni "Mahalla kuni" deb qabul qilingan va shahardagi G'afur G'ulom nomidagi bog'da bu kun tantana bilan bayram qilinadi. Shahar bo'yicha eng yaxshi mahalla, mahalla raisi, xotin-qizlar kengashi raisi, posbonlar sardori, namunaviy oila kabi tanlovlar o'tkaziladi, bu ham yangi davr ruhi bilan tug'ilib an'ana tusini olayotgan marosimdir.

Yangi marosim, urf-odat va an'analarning vujudga kelishini o'z holiga tashlab qo'yilmasdan, uni yaratishga butun jamoatchilik bosh-qosh bo'lib turishi, unga ijodiy yondashish kerak bo'ladi.

Jamiyat, xalqning turmush tarziga va etnik xususiyatlariga mos kelajak ijtimoiy g'oyalar bilan sug'orilgan yangi urf-odat, an'ana va marosimlarga keng yo'l ochib, turmushga singdirib borish zarur.

## 2. Milliy did (tab) va uning namoyon bo'lishi

Idrok etilayotgan voqealar va tashqi olamdagi narsalarni bilishdan vujudga keladigan hissiy-ruhiy reaksiya turli xalqlarda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Etnos yashayotgan turfa xil tabiiy sharoitlar - o'rmon, cho'l, dashtlik, tog', suv havzalari, vodiylar va vohalar, shuningdek tarixiy taraqqiyotdagi o'ziga xoslik xalqlarning borliq olamni, uning ne'matlarini, voqealar va hodisalarni idrok etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Milliy did – bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan go'zallik va xunuklik to'g'risida beriladigan bahodir. Milliy did o'zida milliy o'ziga xoslikni mujassamlantirgan bo'lib, hissiy va ruhiy jihatdan milliy psixologik qiyofaning xarakterli xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuniig uchun ham uni xalq hayoti va turmushidan ajratib tushunib bo'lmaydi. Ma'lum milliy muhitda yashab va voyaga yetar ekan, har bir shaxsning ruhiy xususiyatlari millatning psixologik xususiyatlaridan "ko'chirma" oladi. Shaxs ajdodlar tomonidan to'plangan madaniy meroslarni o'zlashtirib boradi va uni o'rab turgan milliy zamin ta'siri ostida unda atrof-muhit, iqlim sharoitlari, nabotot va hayvonot olamini idrok etishga nisbatan maxsus did va his-tuyg'ular shakllanadi.

Odam eng avvalo uni ilk bolalik davridanoq o'rab turgan, unga har kun, har soat sayin ta'sir etib turgan, uning amaliy maqsadlari va moddiy ehtiyojlarini qondiradigan narsalarning xususiyatlarini boshqa xalq vakillariga nisbatan chuqurroq idrok etishga o'rganadi. Shuning uchun ham tabiat va jamiyatdagi biror narsa va hodisa bir millat va elat vakillarida kuchli hissiy-ruhiy reaksiyani keltirgan holda, boshqa millat va elat vakillari uchun befarq bo'lib qolishi mumkin. Masalan, cho'l qozoq xalqi uchun bir necha yuz yillar mobaynida hayot kechirish manbai, ularning tabiiy boyliga bo'lib kelgan. Shu boisdan qozoq xalqida uni idrok etishga nisbatan o'ziga xos did vujudga kelib, cho'l chuqur hurmat bilan kuylanib kelinadi.

Qozoq xalqining atoqli yozuvchisi M.Avezov o'zining "Abay" romanida Abayning cho'lga bo'lgan mehr-muhabbatini bundan tasvirlaydi: "Abay o'zi tug'ilgan va bolaligi o'tgan atrof-olamga cheksiz qirlar, kengliklar, tepaliklarga mehr va hayajon bilan qarab turar, ularni quchgisi va bag'riga bosgisi kelar edi" (M.Avezov. Abay, 21b.).

Dengiz va okean yoki o'rmon va vodiylarda yashab o'sgan odamlar uchun cho'l manzarasi ham qanday ijobiy hissiyot tug'dirmasligi, aksincha, zeriktiruvchi ta'sir etishi mumkin. Xalqning yashash tarzining kundalik hayot ehtiyojlari tarixiy jihatdan go'zallik to'g'risida ma'lum tushunchani vujudga keltirgan. Shu asosda shaxs bilan jamoa va shaxslararo muomala munosabatlarida ham ma'lum normalar vujudga kelgan. Bu normalar maishiy hayotda doimo oshkor namoyon bo'lavermasa ham, lekin shu jamoa vakillari va har bir davr kishilari tomonidan eng maqbul va to'g'ri yo'l sifatida, ba'zi bir tuzatishlar bilan qabul qilinib, amalda kuchlanib boriladi. Shuning uchun ham bir xalq vakili boshqa xalq orasiga tushib qolganda, ularda mavjud bo'lgan o'zaro munosabatlarni ko'rib taajjublanishi mumkin. Chunki bu narsalar unga qandaydir g'ayritabiiy bo'lib ko'rinadi. Quddusni (Palastinni) istilo qilib olgan fransuzlar arablarning ko'p xotinlik odatiga nafratlanishib qarashgan, arablar esa fransuz xonimlariniig ochiq yuz bilan yurishini hayosizlik deb hisoblashgan, deb yozadi L.N.Gumilyov epigrafida.

XX asning yirik yozuvchisi Ch.Aytmatov asarlarini o'qisak, unda qirg'iz va qozoq xalqlaridagi odat - qiz olib qochish hodisasi tavsiflanganligini ko'ramiz. "Somon yo'li" qissasida Qosim o'z ovuliga qaytishida sevgani Aminani olib ketadi. "Sarvqomat dilbarim"da Ilyos Asalni, "Jamila"da Doniyor Jamilani o'zi bilan olib qochib ketadi. "Qiz olib qochish" udumi guruhiy nikohning barham topishi va ekzogam nikohga o'tish davrida vujudga kelgan, deb hisoblanadi. Guruhiy nikohda urug'dagi barcha ayollar shu guruhdagi barcha erkaklarga tegishli bo'lgan. Boshqa guruhdan begona erkakning aralashishi qattiq taqiqlangan va jazolangan, ekzogam nikohga o'tish bilan urug'dagi ayollarga boshqa guruhdagi erkaklar egalik qila boshlaydi. Ayol mansub bo'lgan guruhdagi erkaklar bu huquqdan mahrum bo'lgan. Albatta bu xil psixologik

holat stereotipning buzilishi esa osonlik bilan bo'lmaydi. Agar bu stereotip bir necha asrlar davomida shakllangan va amal qilib kelingan bo'lsa, uni buzilishi uchun ham ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun ayol mansub bo'lgan urug' erkaklari quda tomon bilan kelishilgan holda, ularga qizni olib qochish uchun imkoniyat berishgan. Ma'lum vaqtdan keyin "sezib qolishgach", o'z huquqlarini himoya qilish uchun "raqiblarini" quvishga, shu yo'l bilan o'z huquqlarini himoya qilish amallarini qilishgan. Keyinchalik bu narsa urf-odat tusini olgan.

Albatta bunday an'analarga ega bo'lmagan xalqlar uchun bu xil xatti-harakatlar g'ayritabiiy ko'rinishi mumkin. Lekin har bir urf-odat va an'analarning vujudga kelishida yuqorida aytganimizdek, ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta'sir etgan bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyoda yashaydigan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda qiz olish uchun juda katta miqdorda "qalin" to'lash kerak bo'lgan. Buning natijasida ayrim yo'qchil kishilar butun umr bo'yi uylanmasdan qolib ketgan holda, moddiy jihatdan baquvvat kishilarning bir nechtadan xotini bo'lgan. Iqtisodiy, siyosiy tengsizlik hukm surgan davrlarda sevishib, bir-biriga talpinib turgan ikki yosh qanday qilib bo'lsa ham bir-biriga yetishish uchun yuqoridagi chorani qo'llashga majbur bo'lishgan. Hozirgi kunda iqtisodiy, siyosiy tengsizlik barham topgan davrda qiz olib qochish uchun hech qanday zarurat qolmadi. Lekin u etnik an'ana sifatida, ramziy tarzda ayrim xalqlarga saqlanib qolgan.

Narsa va hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok qilish yoki tushunib olish insonning tug'ma xususiyati emas, balki bu xususiyatlarni faqat yashash jarayonida, tajriba asosida hosil qiladi. Faoliyat jarayonida vujudga keladigan milliy did millatning ham moddiy, ham ma'naviy ehtiyojlarida namoyon bo'ladi. Kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirilishi asosan ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shuning bilan birga tabiiy-geografik shart-sharoitlarning xususiyatlari ham moddiy iste'mol xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Yeyish va ichishning qanday bo'lishi shu xalqning xo'jalikni qaysi turi bilan shug'ullanishiga, uni o'rab turgan nabotot va hayvonot olamiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Hech bir odam o'zi ko'rmagan yoki hali mazasini tatib ko'rmagan narsalarga nisbatan ehtiyoj hosil qilmaydi. Shu

narsalarga doir unda tab va did hosil bo'lmaydi. Xo'jalik yurgizish shakllaridagi o'ziga xoslik ham xalq tabiga ta'sir ko'rsatadi. Shu joyga xos bo'lgan ma'lum mahsulotlarni uzoq asrlar davomida doimiy iste'mol qilinishi, unga o'rganish va o'ziga xos didning vujudga kelishiga olib keladi. Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan respublikamiz aholisining asosiy ovqati guruch, sabzavot va mevalar hisoblanadi. Shunga ko'ra, ularda qishloq xo'jalik va o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, ulardan turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashga nisbatan malaka va odatlar rivojlangan bo'lib, shunga mos ravishda tab va didlar ham shakllangan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda go'sht va go'sht mahsulotlariga nisbatan ehtiyoj va did shakllangan.

Ayrim xalqlarda o'z chanqoq va ochligini yangi so'yilgan hayvonlarning qoni bilan qondirish, ehtiyojlarni qondirishning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Bunday tab boshqa muhitda yashayotgan va qon umuman biologik ehtiyojlarni qondirish vositasi hisoblanmagan kishilar uchun butunlay qarama-qarshi tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Milliy estetik didning o'ziga xosligi millat ma'naviy hayotning ko'p sohalarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ular me'morchilik qurilishlarida, tasviriy san'atda, musiqada, raqslarda, adabiyotda, milliy kiyimlarda va uning bezaklarida, ayollarning xushro'yligida va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida o'z ifodasini topadi. U obyektiv va subyektiv idrokning umumlashmasi sifatida turli millatlar tomonidan o'ziga xos ravishda idrok va tasavvur etiladi.

Avstraliyadagi ayrim qabilalar o'z qizlarining ko'zlarini yoshlikdanoq g'ilay qilishga harakat qilib, bosh kiyimini chekka tomoniga yaltiroq narsa osib qo'yishar ekan. Chunki bu yerda g'ilay ko'zli ayol go'zallik belgisi hisoblanadi.

Odam ma'lum tabiiy-geografik sharoitda va ijtimoiy muhitda yashar ekan, u doimo ta'sir etib turuvchi narsa va hodisalarning simvolik xususiyatlarini boshqa muhit odamlariga qaraganda chuqurroq bilib olishga o'rganadi va boshqa tabiiy va ijtimoiy muhitga tushib qolganda, u yerdagi narsalarni va hodisalarni ham o'zida shakllanib qolgan "mexanizm" orqali idrok etadi. Shuning uchun ham go'zallik to'g'risidagi tushuncha ham turli tabiiy-geografik va tarixiy sharoitlarda yashayotgan xalqlarda har xil bo'ladi. Rossiya podshosi Anna Ivanovna saroyiga balga taklif qi-

lingan Xitoy elchilari, malikaning shu yerda hozir bo'lgan xonimlardan qay birini ular eng go'zal, deb hisoblaydilar, deb bergan savoliga Petrning qizi Yelizaveta (bo'lajak podsho)ni afzal ko'rganliklarini aytishadi. Yelizaveta darhaqiqat, juda go'zal bo'lgan. Buni hamma zamondagilari bir og'izdan e'tirof etishgan. Lekin elchilar nazokatlik Sharq xalqlariga xos bo'lgan xushmuomalalik bilan, agar Yelizavetaning ko'zi shaxlo bo'lmay, sal qisiroq va qambarroq bo'lganda edi, u o'z go'zalligi bilan yagona va har qanday kishini bir qarashda hushini olib qo'yadigan bo'lar edi, deb qo'shib qo'yanlar.

### **Muammoli savol**

Urf-odat va an'analar har bir xalqqa abadul-abad berilgan va hech o'zgaraydigan narsa emas. Hayot ularni g'alvirdan o'tkazib, puchagini puchakka, sarasini sarakka ajratib beradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shuning bilan birga har bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odat va an'alarini yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar o'z-o'zidan, quruq yerda paydo bo'lmasdan, asosan ikki manba - birinchisi, ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'analar zamon ruhiga moslashtiriladi, ikkinchisi, boshqa xalqlar bilan bo'ladigan iqtisodiy, ma'naviy aloqalar natijasida ulardagi ilg'or an'analar o'zlashtiriladi.

O'zbek xalqida yangidan paydo bo'lgan an'analar va yo'qolib ketgan an'analarga misollar keltiring.

### **Aqliy hujum texnologiyasi yordamida jamoaviy muhokamani o'tkazish uchun taxminiy mavzular**

1. Urf-odat va an'analar nimalar ta'sirida vujudga keladi?
2. Urf-odat va an'analar o'rtasidagi farqlar?
3. Mehmondo'stlik an'anasi o'zbeklarda qanday namoyon bo'ladi?
4. O'zbek xalqining eski, qoloq urf-odatlaridan misollar keltiring.
5. O'zbek xalqining tarbiyaga oid an'analari?

## Muammoli topshiriqlar


1. Etnik stereotiplarga turli milliy guruhlar vakillari misolida namunalar keltiring.

2. Milliy bag'rikenglikni shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtiring.

3. Milliy his-tuyg'ularga ta'sir ko'rsatib, odamlarning katta guruhini manipulatsiya qilish holatlarini ko'rsatuvchi zamonaviy va tarixiy misollar keltiring.

4. Ommaviy madaniyatning yoshlarga ta'sir ko'rsatishi qanday etnopsixologik mexanizmlar asosida ro'y berishini o'ylab ko'ring.

**Klaster usuli orqali talabalarning urf-odat va an'analar haqidagi tasavvurlarini o'rganish uchun namunaviy chizma**





## Testlar

**1. Urf-odatlar, asosan ..... sohalar bilan bog'langan bo'ladi va unda axloqiy, diniy va huquq normalari to'la o'z aksini topadi.**

- A) oilaviy, moddiy
- B) oilaviy, ma'naviy
- \*C) oilaviy, maishiy
- D) oilaviy, masnaviy.

**2. An'analar esa ijtimoiy hayotning ..... ham qamrab oladi.**

A) ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida mavjud bo'lishi bilan birgalikda o'qish jarayonini

B) ijtimoiy hayot sohalarida mavjud bo'lishi bilan birgalikda o'yin jarayonini

C) inson hayotining turli sohalarida mavjud bo'lishi bilan birgalikda mehnat jarayonini

\*D) ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo'lishi bilan birgalikda ishlab chiqarish jarayonini

**3. An'anada kishilarning .... bo'lgan munosabatlari ifodalanadi.**

A) narsa va buyumlarga, jamiyatga

\*B) narsa va buyumlarga, tabiatga

C) narsa va buyumlarga, dunyoga

D) narsa va buyumlarga, hokimiyatga

**4. An'ananing ta'sir doirasi nisbatan ..... o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin.**

\*A) keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni

B) tor bo'lib, bitta urf-odat bir necha an'ana va marosimlarni

C) keng bo'lib, bitta udum bir necha urf-odat, an'analar va marosimlarni

D) tor bo'lib, bitta marosim bir necha urf-odat, udum va an'analarni.

**5. Milliy did –..... to'g'risida beriladigan bahodir.**

A) bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan musbat va manfiy

B) bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan pozitiv va negativ

\*C) bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan go'zallik va xunuklik

D) bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan go'zallik va salbiylik.

## X BOB. ETNIK NIZOLAR VA ETNOSENTRIZM

### Reja:

1. Etnik nizolarning tasnifi.
2. Etnosentrizm – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida.
3. Etnosentrizمنى bartaraf etish yo‘llari.

**Tayanch tushunchalar:** *etnik nizo, etnosentrizm, mahalliy, mintaqaviy, global.*

### 1. Etnik nizolarning tasnifi

Jamiyatdagi har qanday nizo ijtimoiydir. Nizoning universal manbai bu cheklangan imkoniyatlar tufayli tomonlarning da‘volarini qondirish mumkin emasligi. Etnik ziddiyat – bu nizoning xususiy shakli.

Qarama-qarshi tomonning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab, etnik ziddiyatlarning 2 turi mavjud: "gorizontal" - etnik guruhlar o‘rtasida; "Vertikal" - etnik guruh va davlat o‘rtasidagi. Etnik nizo bu mavjud bo‘lgan holatni mahalliy etnik guruhlarining bir necha vakillarining muhim qismi tomonidan rad etilishi natijasida yuzaga kelgan va ushbu guruh a‘zolari tomonidan quyidagi harakatlarning kamida bittasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan o‘zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy vaziyat:

a) mintaqadan boshlangan etnik tanlanma emigratsiya, mahalliy etno-demografik muvozanatni sezilarli darajada boshqa etnik guruhlar foydasiga o‘zgartirdi; b) mavjud vaziyatni ko‘rsatilgan etnik guruh (guruhlar) manfaatlariga qarab o‘zgartirish zarurligini bildiruvchi va shu bilan hokimiyat tomonidan o‘ch olish uchun qarshilik ko‘rsatilishini va yoki vaziyatni himoya qilishga boshqa (boshqa) mahalliy etnik guruhni siyosiy safarbar etilishini qo‘zg‘atadigan siyosiy tashkilotni yaratish;

v) ommaviy miting, yurishlar shaklida boshqa mahalliy etnik guruh vakillari yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan ular

manfaatlarining buzilishiga qarshi o'z-o'zidan norozilik namoyishlari.

Guruhlararo munosabatlar millatlararo nizolarga aylanishi mumkin. Millatlararo (yoki etnik) mojaro ijtimoiy mojaroning alohida holati deb hisoblanadi, ammo o'ziga xos xususiyatlarga ega, masalan: nizoli guruhlar etnik jihatdan farq qiladi va nizo tabiatan emotsionaldir.

Etnik nizolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Intensivligiga ko'ra:

A) o'tkinchi;

B) sust.

2. Namoyon bo'lish masshtabiga ko'ra:

A) mahalliy

B) mintaqaviy

V) global.

3. Nizolashayotgan tomonlarning maqsadiga ko'ra:

A) ijtimoiy-iqtisodiy

B) madaniy-til

V) siyosiy

D) territorial.

Etnik nizolar ochiq yoki yopiq xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Etnik nizolar quyidagi bosqichlari ajratiladi:

A) inqiroz oldi

B) inqiroz cho'qqisi

V) inqirozdan keyingi davr.

Har bir bosqichning davomiyligi inqirozli vaziyatning xususiyatiga bog'liq.

Etnik nizolarni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar quyidagilar:

A) etnik va milliy kamsitish;

B) milliy xarakter kayfiyati.

Etnik va milliy kamsitish boshqa etnik guruh vakillari faoliyatini, xulq-atvori haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmay dushmanlarcha munosabatda bo'lish ustanovkasidir.

Milliy kayfiyat bu jamoa kayfiyatining predmetga yo'naltirilgan alohida turi bo'lib, unga emotsionallik, impulsivlik va dinamiklik xos.

Etnik nizolarni bartaraf etishning 3 ta usuli farqlanadi:

1. Ijtimoiy struktura va qonunlarni o'zgartirish mexanizmlarini o'qitish.
2. Nizo ishtirokchilari bilan kelishish uchun muzokaralar o'tkazish usuli.
3. Guruhlar orasida o'zaro ma'lumot almashish uchun informatsion usul.

## **2. Etnosentrizm – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida**

Ekstremizm va terrorizm agressiv kayfiyatdagi kichik bir guruh kishilarning aholining katta qismiga nisbatan zo'ravonlik xatti-harakatlarida ko'rinib, spetsifik ijtimoiy-psixologik fenomenlarda asoslanadi. Bu fenomenlar etnoslararo, konfessiyalararo, irqalararo intolerant munosabatlarning psixologik asosini tashkil qilib, odamlarni ongsiz ravishda tashqi ko'rinishi, boshqalarini xulqi, boshqacha qarashlari va qadriyatlarini o'xshamaganlarini "o'zlariniki"ga va "begonalar"ga ajratishlariga tayanadi.

Intolerantlik – bu insonning xilma-xil belgilar bo'yicha boshqa kishilar bilan o'zaro aloqa munosabatlari va xulqida bag'rikenglikning namoyon bo'lmashidir.

Intolerant munosabatlar etnosentrizm, haddan tashqari ishon-tirish kabi psixologik shart-sharoitlarda shakllanadi. Intolerant xulqning yaqqol namoyon bo'lishiga diskriminatsiya, ksenofobiya, ekstremizm va terrorizm misol bo'ladi. Turli millat va elat vakillari o'rtasidagi farqlarning mavjudligi fanda aniqlangan fakt. Mana shu farqlar mavjudligi o'z navbatida ba'zan muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Ya'ni, har bir millat vakili boshqa bir millat vakili bilan muloqot qilganda, yoki uning madaniyatini, milliy qadriyatlarini o'rganganda, ularga nazar solganda, tabiiy bir holat yuz beradi. O'zgalar madaniyatini baholash jarayonida o'zidagi qadriyatlar, o'z madaniy boyliklari, afzalliklari va bilgan narsalarini o'zgalarni tushunish uchun vosita sifatida ishlata boshlaydi. Masalan, konkret vaziyatda biror o'zga millat vakilining xulq-

atvorini tavsiflash uchun o'zimizning madaniyatimiz nuqtayi nazaridan solishtirib baholaymiz. Shunday sharoitlarda biz ochig'i hamisha ham unga nisbatan xolis, obyektiv bo'la olmaymiz. Chunki uning madaniy qadriyatlarini bilmagan holda o'zimizning bilganlarimizni unga qo'shib (yoki ayirib) fikr yuritamiz. Chunki baribir o'zimiznikini yaxshiroq bilamiz va o'zgalarni bilmasligimizni bo'ynimizga olgimiz kelmaydi. Shu tariqa etnopsixologiyada ishlatiladigan va o'rganiladigan "*etnosentrizm*" hodisasiga duch kelamiz. Olimlar etnosentrizmni "atrofdagilarning xulq-atvorini shaxsiy madaniy filtrlari orqali o'tkazib, tushuntirish va bayon etish"<sup>49</sup>dir deb ta'riflashadi. Aynan shu holatni barcha boshqa millat vakillari bilan muloqot qilganda nazarda tutish lozim ekanligi ta'kidlanadi.

Psixologik lug'atlarda<sup>50</sup> "*Etnosentrizm* – o'z etnik guruhi va unga oid xulq andozalarini amalda boshqalarga baho berish uchun asos sifatida qabul qilishning namoyon bo'lishidir" deyiladi. Bunda inson o'z millatiga tegishli xulq standartlarini o'zgalarnikidan ustuvor etib qo'yishga intiladi. Ya'ni, etnosentrizm amalda begona madaniyat va tuzum, millat vakillariga nisbatan noxolis munosabatning shakllanishini izohlash uchun qo'llaniladigan tushunchadir. Bu tushuncha mohiyatan shaxsga xos bo'lgan egosentrizmining etnik analogidir.

Professor G. Andreeva etnosentrizmni "o'z etnik guruhining qadriyatlarini afzal bilish, boshqalarni aynan shu nuqtayi nazardan turib baholash, o'zining milliy sifatlarini ta'kidlashga intilish"<sup>51</sup> tarzida ta'riflaydi. T. Stefanenko esa, "etnosentrizm har doim ham o'zga millatlarning qadriyatlarini kamsitishni nazarda tumaydi, chunki u o'zgalarga nisbatan xayrixohlik va toqatni ham nazarda tutadi"<sup>52</sup>, deb ogohlantiradi.

Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: xo'sh, etnosentrizm salbiy holatni yoki ijobiymi? Fikrimizcha, ushbu masalaga tolerantlik nuqtayi nazaridan yondashmoq lozim. Birinchidan, o'z milliy

<sup>49</sup> Мацумото, Д. Человек, культура, психология. Удивительные загадки, исследования и открытия Дэвид Мацумото. – СПб: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2008. – 56 с.

<sup>50</sup> Большой толковый психологический словарь. Артур Ребер. Том 2: П-Я. – М.: Веше-Аст, 2003 – С.523

<sup>51</sup> Андреева Г.М. Социальная психология. – 162 б.

<sup>52</sup> Стефаненко Т. Этнопсихология. – М.: Академический проект, 1999 – С. 237

madaniyatini, qadriyatlarini, milliy o'zligini bilish aslida pozitiv holat. Ikkinchidan, boshqa o'zga madaniyat vakillarining madaniy qadriyatlarini to'la bilmasligimiz va bila olmasligimiz ham tayin gap. Uchinchidan, etnosentrizmni millatchilik yoki milliy manqurtlikka tenglashtirish ham xatodir. Demak, biz avvalo yuqorida olimlar ta'kidlagan "filtr"imizning toza bo'lishi uchun kurashishimiz va uni juda yuqori qo'yib yuborishdan saqlanishimiz lozim. Chunki o'zgalari bilan munosabatda faqat o'zimiznikini ta'kidlab, o'zgalarni bilmaganimiz bois kamsitish bu millatchilikka va milliy adovatga olib kelishi muqarrar.

Etnosentrizm – guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadigan fundamental tushunchalardan biri hisoblanadi. Etnosentrizm kundalik hayotda jamiyat qadriyatlarini va madaniyatini o'zlashtirishning me'yoriy natijasi hisoblanib, o'z ijtimoiy guruhining himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi, o'ziga mansub kishilarning bir xilligini(idetichnost) saqlab qolishga xizmat qiladi, biroq guruhlararo mojarolar, guruhlarning butunligiga xafv tug'ilgan sharoitida dolzarblashadi.

Etnosentrizm ijtimoiy nazorat shakli sifatida rad etilgan va autoguruhlariga xafv tug'diradigan munosabatlarda diskriminatsion harakatlarni oqlashga xizmat qiladi. Etnosentrizm tashqi xavf vaziyatlarida masalan, terrorizm ko'rinishida yorqin namoyon bo'ladi.

Etnosentrizm atamasi 1906-yilda "Narodnie obichai" kitobida Uilyam Samner(1840–1910) tomonidan taklif etilgan. Uning ta'kidlashicha, guruhlar bir-biridan o'z urf- odatlariga ega bo'lishi, o'z axloq normalarini ishlab chiqishi bilan farq qiladi u atrofdagi odamlarni "o'zlariniki" va "begonaga" bo'linishini ilmiy asoslab "biz-guruh" va "ular-guruh" tushunchalarini ishlab chiqdi. Shuningdek, etnosentrizمنى guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir etishi g'oyasi ham Samnerga tegishlidir.

"Biz-guruh" o'rtasidagi munosabatlar o'zaro rozilik asosida quriladi. " Biz-guruh"ga taalluqli dunyoga etnosentrik qarashlarni belgilab beradi.

"Biz-guruh"i va "ular guruh"i o'rtasidagi munosabatlar har birining etnosentrizmi asosida vujudga kelib, o'zaro dushmanlik va ishonchsizlik sifatida namoyon bo'ladi. Etnosentrizm turli shakllarda namoyon bo'ladi: o'z xalqining tarixiy missiyasi va

tanlaganligi haqidagi g'oyadan tortib, milliy g'urning toptalganligigacha, vatanparvarlikdan shovinizmga bo'lishi mumkin. Sammer, etnosentrizm boshqa guruhlar va ularning a'zolariga nisbatan shubha va ishonchsizlik bilan birga yuradi degan qat'iy qoidani kiritadi.

D. Matsumoto quyidagicha ta'rif beradi: "Etnosentrizm – o'z madaniy filtrlari orqali dunyoni baholash tendensiyasidir". Etnosentrizmi ko'pincha boshqa insonlarni relyativizm va tolerantlik nuqtayi nazaridan baholash qobiliyatiga ega emaslik sifatida salbiy ma'noda foydalanadilar. U ko'pincha quyida turuvchi deb ko'riladigan autguruhlarini- boshqa guruhlariga, jamiyatlarga mansub yoki o'z madaniyatiga mos boshqacha turmush tarzini yuritayotgan kishilarni muhokama qilish tendensiyasini bildiradi.

Etnosentrizm quyidagi psixologik fenomenlarda namoyon bo'ladi:

1. Insonning ijtimoiylashuvi va uning o'z madaniyati doirasidagina qolishi (inkulturatsiya) dunyoga etnosentrik qarashlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Ekspektatsiya (kutish), boshqa kishilarning idroki, ularning xulqini izohlash va bu xulq-atvorni muhokama qilish shunga olib keladiki, odamlar o'zlari tarbiyalangan qoidalarni haqqoniy deb hisoblab, boshqa madaniyatga mansub kishilar uchun ham shu qoidalar to'g'ri bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

3. Emotsional reaksiyalar, kutish va mulohazalar bilan bog'liq kishilarga xos bo'lib, ular qoniqish hissidan norozilikkacha, dushmanlikdan frustratsiyagacha namoyon bo'lishi mumkin.

### **3. Etnosentrizmi bartaraf etish yo'llari**

Etnosentrizm – ibtidoiy jamiyatlarning antropologik jihatdan tadqiq qilinishi shuni ko'rsatdiki, insoniyat tarixining ilk davridayoq odamlar o'z qabilalari va ularning a'zolariga nisbatan mayl bildirib, boshqa qabilalarga nisbatan dushmanlik va ular a'zolarining o'ldirilishini jinoyat sifatida qaramaganlar. Adolat haqida va o'z qabila a'zolarining harakatlarining qonuniyligi haqidagi ibtidoiy tushunchalarida qasos olish burchi shaklida etnosentrizm namoyon bo'lgan. Etnosentrizm asosida qurilgan munosabatlarda guruh-



larning ichki jipsligi, birdamligi, guruh qadriyatlariga ommaviy ehtiromning yuqori darajasi, boshqa guruhlarga nisbatan ularning e'tiqodlari, urf-odatlaridan nafratlanish kuzatiladi. Qo'shni xalqlar qanchalik yaqin yashasalar, etnosentrik dushmanlik darajasi shuncha yuqori bo'lishi qayd qilinadi. Etnosentrizm inson mansub bo'lgan u yoki bu guruhning mutlaq ustunligini bayon qiladi.

Etnosentrizm xato tushunchalar, xurofot-bid'atlarning uyg'un birligi bo'lib, etnoslaro, guruhlaro ixtiloflarning sotsial-psixologik asosiy manbasi sifatida ko'riladi. Etnosentrist – boshqa madaniyatlarni ularning nuqtayi nazarlaridan ko'rishni istamaydigan va tushunish qobiliyatiga ega bo'lmagan kishi hisoblanadi. Etnosentrizm– bu mening madaniyatim boshqa barchasidan yaxshi va boshqa hislarni aks ettiradi. U ikki yoqlama axloqqa asoslanib, inguruhiy ziddiyatlar ma'qullanmasdan, autguruhlarga nisbatan zo'rvonlik mumkin va qahramonlik hisoblanadi.

Yevropa olimlari R. Levayn va D.Kembell 1974-yili etnosentrik tafakkurga ega bo'lgan kishida quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lishini belgilaydilar:

1. O'zining madaniyatida kechayotgan barcha o'zgarishlar tabiiy va to'g'ri hisoblanadi, boshqa madaniyatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar- notabiiy va noto'g'ri hisoblanadi;

2. O'z guruhining odatlarini barcha uchun universal hisoblaydilar “biz uchun nima yaxshi bo'lsa, boshqalar uchun ham yaxshidir”;

3. O'z guruhining normalarini va qadriyatlarini so'zsiz haqqoniy deb qabul qilish;

4. Zaruriyat tug'ilganda o'z guruhining a'zolariga har tomonlama yordam ko'rsatish;

5. O'z guruhi manfaatlari yo'lida harakat qilish;

6. O'z guruhidan faxrlanish;

7. Boshqa guruhlar a'zolariga nisbatan nafrat hissini his qilish.

Kanadalik olim Dj. Berri etnosentrizm – inguruhlaro favoritizmga asoslangan guruhlararo munosabatlarning so'nggi nuqtasidir - deb qayd qiladi. Barcha guruhlar o'zaro etnosentrizmni, guruhlarning qadriyatlariga ko'r-ko'rona amal qilishida namoyon etadilar.

D. Matsumoto etnosentrizmni ikki shaklga ajratadi: o'zgara oladigan (moslashuvchan), o'zgarmaydigan (moslashmaydigan)

O'zgaruvchan etnosentrizm, odamlar uni vaqtincha bo'lsa ham mantiqqa va argumentlar ta'siriga tushib, unutishga harakat qilishini o'rganishlarini bildiradi. O'zgarmaydigan etnosentrizm bunung aksidir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Etnik nizolarning tasnifi.
2. Etnotsentrizm – qanday hodisa?
3. Etnotsentrizmni bartaraf etish yo'llari qanday?

### **Test savollari**

**1. Etnik nizolarni intensivligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:**

- A) faol, sust;
- \*B) o'tkinchi, sust;
- C) tez, sekin;
- D) kuchli, kuchsiz.

**2. Etnik nizolarni namoyon bo'lish masshtabiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:**

- A) mahalliy, elatlararo, aholilararo;
- B) mintaqaviy, millatlararo, qishloqlararo;
- \*C) mahalliy, mintaqaviy, global;
- D) boshliqlararo, xodimlararo, shaharlararo.

**3. Etnik nizolarni nizolashayotgan tomonlarning maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:**

- \*A) ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-til, siyosiy, territorial;
- B) madaniy-til, psixologik, rahbarlik, filologik;
- V) siyosiy, falsafiy, jug'rofiy, madaniy;
- D) territorial, umumiy, individual, jamoaviy.

#### **4. Etnosentrizm –.....**

A) guruhlarning qadriyatlariga ko‘r-ko‘rona amal qilishida namoyon bo‘lishidir;

B) ommaviy miting, yurishlar shaklida boshqa mahalliy etnik guruh vakillari yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan ular manfaatlarining buzilishiga qarshi o‘z-o‘zidan norozilik namoyishlari;

C) bu mavjud bo‘lgan holatni mahalliy etnik guruhlarning bir necha vakillarining muhim qismi tomonidan rad etilishi natijasida yuzaga kelgan vaziyat;

\*D) o‘z etnik guruhi va unga oid xulq andozalarini amalda boshqalarga baho berish uchun asos sifatida qabul qilishning namoyon bo‘lishidir.

#### **5. Ekspektatsiya (kutish).....**

A) o‘z qabila a‘zolarining harakatlarining qonuniyligi haqidagi ibtidoiy tushunchalarida qasos olish burchi;

\*B) boshqa kishilarning idroki, ularning xulqini izohlash va bu xulq-atvorni muhokama qilish shunga olib keladiki, odamlar o‘zlari tarbiyalangan qoidalarni haqqoniy deb hisoblab, boshqa madaniyatga mansub kishilar uchun ham shu qoidalar to‘g‘ri bo‘lishi kerak deb hisoblaydilar;

C) bu mavjud bo‘lgan holatni mahalliy etnik guruhlarning bir necha vakillarining muhim qismi tomonidan rad etilishi natijasida yuzaga kelgan vaziyat;

D) xato tushunchalar, xurofot-bid‘atlarning uyg‘un birligi bo‘lib, etnoslaro, guruhlaro ixtiloflarning sotsial-psixologik asosiy manbasi, boshqa madaniyatlarni ularning nuqtayi nazarlaridan ko‘rishni istamaydigan va tushunish qobiliyatiga ega bo‘lmagan kishi.

## XI BOB. DIN PSIXOLOGIYASINING PREDMETI VA METODLARI

### Reja:

1. Din va din psixologiyasi tushunchalarining ta'riflari.
2. Din psixologiyasi fanining umumiy tavsifi.
3. Ilmiy bilimlar tizimida din psixologiyasining o'рни.
4. Din psixologiyasining tadqiqot metodlari.
5. Din psixologiyasining nazariyalari.

**Tayanch tushunchalar:** *din, dinshunoslik, psixologiya, din psixologiyasi, diniy tuzilma, diniy qarashlar, psixika, ruh, tadqiqot metodlari, psixologik nazariyalar.*

### 1. Din va din psixologiyasi tushunchalarining ta'riflari

Din psixologiyasi fani integratsiya jarayonining natijasi o'laroq dunyoga kelgan fan hisoblanadi, ya'ni dinshunoslik va psixologiya fanlarining integratsiyasidan, boshqacha aytganda, qo'shilishidan paydo bo'lgan. Bir tomonda dinshunoslik fani va ikkinchi tomonda esa psixologiya fani turadi. Dinshunoslik fani dinni o'rganadigan fan hisoblanadi. Dinning o'ziga esa quyidagicha ta'rif beriladi: "Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarni to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir"<sup>53</sup>.

Din (arab. mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish va b.<sup>54</sup>) ilohiyotga nisbatan e'tiqodni ta'minlab beradigan qarashlarning ma'lum tizimi bo'lib, o'zida xulq-atvor, diniy marosim va urf-odatlarining axloqiy normalarini va tiplarini mujassamlashtiradi

<sup>53</sup>Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. Ma'ruzalar matni. – T.: 2000, .B.4.

<sup>54</sup>Islomshunoslik qomusiy lug'ati. – T. I. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 272 b.

hamda ma'lum diniy tashkilotda odamlarning faoliyatini tashkil etadi.

Qadimgi zamonlarda kishilar inson xulq-atvorini keltirib chiqaradigan fikrlari va istaklarining manbai tashqi omillarga borib taqaladi, degan o'yda bo'lishgan. Ibtidoiy qarindoshlarimiz ichki ruhiy faoliyatimizni tushunishga uringanlar. Ularning fikriga ko'ra, inson tanasida uning ko'rishi, eshitishi va his qilishini ta'minlab turadigan boshqa bir mavjudot bor. Uning nomini turlicha ataganlar: ruh, jon, soya va h.k. U odam uxlaganda tanadan chiqadi va tushlarda o'zining hayot tarziga ega bo'ladi, degan fikrda bo'lganlar. O'lim holatida esa bu mavjudot og'iz orqali tanadan chiqib ketadi va unga boshqa kirmaydi, deb hisoblaganlar. Bunday tushuncha, masalan, qadimgi yunonlarda keng tarqalgan edi.

Psixologiya atamasining kelib chiqishida yunon mifologiyasining o'rni bor. Ma'lumki, qadimgi sivilizatsiyalar turli-tuman xudolarni o'ylab topgan edi. Ularning fikriga ko'ra, quyosh, oy va boshqa samoviy jismlar sirli quvvatga ega va bu odamlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular bu ilohiy qudratga ega bo'lgan kuchlar odamning taqdirini belgilab beradi, degan e'tiqodda bo'lishgan.

Psixologiya atamasining paydo bo'lishida yunon mifologiyasining roli katta. Afroditaning o'g'li Erot Psixeya nomli go'zal yosh qizni yaxshi ko'rib qoladi. Afsuski, Afroditadan norozi bo'ladi. Chunki ma'budlar qavmidan bo'lgan uning o'g'li o'z taqdirini oddiy bir kun kelib o'ladigan yerlik bilan bog'lashga qaror qilgan edi. Afroditadan Psixeyani turli xil sinovlardan o'tkazadi. Biroq Psixeyaning muhabbati shu darajada kuchli va Erotni ko'rish istagi shu darajada yuqori ediki, u barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tadi. Bu holat barcha ma'bud va ma'budalarga kuchli ta'sir ko'rsatadi va ular Psixeyaga Afroditaning barcha talablarini qondirishiga yordam berishga qaror qilishadi. Erot bo'lsa, o'z navbatida yunon mifologiyasidagi oliy ma'bud Zevsni Psixeyani mangu yashaydigan ma'budaga aylantirishga ko'ndiradi. Shunday qilib, sevishganlar abadiyatga qovushadilar.<sup>55</sup>

Ma'lumki, "psixologiya" atamasi birinchi marta Aristotelning "Metafizika" nomli asarida ishlatiladi. U "psixika" atamasini

<sup>55</sup> Годфруа Дж. Что такое психология: В 2-х т. Т.1: Пер. с франц. – М.: Мир, 1992. – 376 с.- 201-бет.

Psixeya soʻzidan olganligi rivoyat qilinadi. Psixika deganda Aristotel “ruh”, “jon” degan maʼnoni ilgari suradi, yaʼni gʻayb olamidan kelib inson vujudiga kiradigan bir borliq va vujud oʻlganda ham oʻlmaydigan bir substansiya. Psixeya ham oldiniga oddiy oʻladigan yerlik boʻlgan boʻlsa, keyinchalik abadiyatga doxil boʻlib qoladi. Boshqacha aytganda, ruh ham Psixeyaga oʻxshab ilohiy kelib chiqishga ega boʻlsa-da, vujudda dunyoviy sifatlarni oʻzida mujassamlashtiradi. Ayrim olimlarning fikricha, aynan shu holat Aristotelning psixologiya atamasini qoʻllaganda asosiy rol oʻynagan.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, psixologiya atamasining oʻzi ham, bu fanning predmeti ham u yoki bu darajada diniy masalalar bilan aloqada ekan.

Shunday qilib, bir tomondan psixologiya fani, ikkinchi tomondan dinshunoslik fani. Ularning qoʻshilishidan yangi fan dunyoga kelmoqda. Uning nomi din psixologiyasi. Ikkita taʼlimotning qoʻshilgan joyida asosan diniy eʼtiqod turadi.

## 2. Din psixologiyasi fanining umumiy tavsifi

Din psixologiyasi diniy ongning xususiyatlarini, uning tuzilmasini va funksiyalarini taʼminlab beradigan psixologik va ijtimoiy psixologik omillarni oʻrganadigan psixologiya fanining tarmogʻi hisoblanadi.

“Din psixologiyasi – diniy psixologik bilimlar sohasi va bir vaqtning oʻzida ilmiy tarmoq boʻlib, diniy ong faoliyatining psixik rasmiylashtirilishi hamda diniy munosabatlar faoliyatining motivatsion taʼminlanishi bilan bogʻliq kompleks muammolarni tadqiq qiladi”<sup>56</sup>

Din psixologiyasi predmeti masalasida M.Mamatovning quyidagi gaplari ayniqsa diqqatga sazovordir: “Din psixologiyasi fanini dinshunoslik fani vakillari oʻtishi kerakmi yoki psixologlarmi? Bizning fikrimizcha, har ikkisi ham emas. Bu fanni har ikki fandan xabardor boʻlgan mutaxassis oʻqishi lozim. Zero bu fanning **obyektini** inson ruhiyati, diniy jamoalar va tashkilotlar,

<sup>56</sup>Бачинин В.А. Психология. Энциклопедический словарь. – СПб: Из-во Михайлова В.А., 2005. – С.123

diniy e'tiqod va amallar tashkil etadi. **Predmetiga** esa dinning ruhiy fenomen sifatida inson qalbi, xulq-atvori, hissiyotlar va tafakkuriga ta'siri, diniy e'tiqod kabi masalalar kiradi".<sup>57</sup> Biz muallifning fikriga qo'shilamiz. Hech bo'lmaganda din psixologiyasidan dars beradigan psixolog diniy masalalarda kompetent bo'lmog'i lozim.

Yuqoridagi aytilganlardan din psixologiyasining predmetiga ta'rif bersa bo'ladi. Shunday qilib, din psixologiyasining predmeti shundaki, u individual, jamoaiy va ijtimoiy psixologiyaning (ehtiyotlar, tuyg'ular, kayfiyatlar, an'analar va h.k.) diniy hodisalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishining psixologik qonuniyatlarini, mazkur hodisalarning mazmuni, tuzilmasi, yo'nalganligini, diniy kompleksda ularning o'rni va rolini hamda jamiyat, jamoalar, individning hayot faoliyatining nodiniy sohasiga ta'sirini o'rganadi. Qisqacha qilib aytganda, din psixologiyasi diniy xulq-atvorli, diniy tafakkurli va diniy tuyg'uli insonni o'rganadi.

### **3. Ilmiy bilimlar tizimida din psixologiyasining o'rni**

Din psixologiyasi psixologik fanlar tizimida o'z o'rniga ega. Biz quyida din psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o'rniga qisqacha nazar tashlaymiz.

Ma'lumki, din psixologiyasi amalda hozirgi zamondagi barcha psixologik tarmoqlar va yo'nalishlar bilan aloqador hisoblanadi. Biz ulardan ayrim muhimlariga qisqacha to'xtalamiz. Mazkur aloqalarni quyidagi sxema orqali ifodalaymiz.

1. Din psixologiyasining **ijtimoiy psixologik muammolari** deganda diniy jamoalar (diniy jamoalar, firqalar, oqimlar)ning ijtimoiy psixologik tuzilmasi, jamoa a'zolarining muomala, taqlid, ustanovkalarining mexanizmlari va ularning dindorlar ongiga, his-tuyg'ulariga va xulq-atvoriga ta'siri, shuningdek, jamoaviy diniy emotsiyalari, jamoadagi rasmiy va norasmiy munosabatlar dinamikasini o'rganish nazarda tutiladi.

2. Din psixologiyasining **umumiy psixologik muammolari** psixik hodisalarning taraqqiyoti bilan bog'liq holda kechadi. Ma'-

---

<sup>57</sup>Mamatov M.M. Din psixologiyasini o'qitishdagi muammolar. // O'zbekistonda din psixologiyasining ilmiy-nazariy va amaliy masalalari. Ilmiy to'plam. – Toshkent, 2019. B. 57-60.

lumki, an'anaviy holda psixik hodisalarning uchta sinfi farqlanadi: shaxsning psixik jarayonlari, psixik holatlari va psixik xususiyatlar.

Ijtimoiy psixologiya	Etnopsixologiya
Umumiy psixologiya	Yuridik psixologiya
Psixologik antropologiya	Iqtisodiy psixologiya
Differensial psixologiya	San'at psixologiyasi
DIN PSIXOLOGIIYASI	
Yosh davrlari psixologiyasi	Ijod psixologiyasi
Pedagogik psixologiya	Fan psixologiyasi ✓
Eksperimental psixologiya	Psixolingvistika
Tibbiy psixologiya	Psixologiya tarixi

Psixik jarayonlar (sezgi, idrok, tasavvur, xotira, diqqat, xayol, tafakkur, iroda, his-tuyg'ular va h.k.) din psixologiyasi uchun katta material to'plab beradi. Mazkur materiallar insonda diniy e'tiqodning shakllanishiga sabab bo'ladi. Diniy tuyg'ular shaxsning ma'naviy-ruhiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, diniy hislarga berilish turli xil dinlarda turli xil kechadi. Masalan, tasavvufda diniy tuyg'ular va kechinmalar hal qiluvchi rol o'ynasa, konfutsiylikka o'xshagan intellektual dinlarda bu holat kamroq kuzatiladi. Diniy e'tiqodning mustahkamligi, ibodatlardagi bardavomlik insonning bevosita irodasi bilan bog'liqligi tadqiqotlarda o'rganilgan.

Psixik holatlar to'g'risidagi ta'limot din psixologiyasi bilan ham tutash nuqtalarga ega. Ruhiy psixik holatlar ayniqsa tasavvufda



ko'zga tashlanadi. Masalan, sayru sulukni oling. Tasavvuf yo'liga kirgan kishi sayrda turli-tuman holatlarni (zavq, shavq, muhabbat, vajd va h.k.) boshidan kechiradi. Bu holatlarning har birini Murshid Muridiga tushuntirib beradi.

Shaxsning psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyat, qadriyat, ustanovka va h.k.) din psixologiyasida markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Diniy e'tiqod shaxsning muhim sifati bo'lganligi sababli yuqoridagi shaxs xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi, rivojlanadi. Masalan, ba'zi olimlar (D.Uznadze, A.Prangishvili va h.k.) diniy e'tiqodni ustanovka sifatida talqin etadilar. Ma'lumki, ustanovka uchta komponentdan tashkil topgan: kognitiv (bilish), emotsional-hissiy va karnitiv (xatti-harakatlar). Diniy e'tiqod ham dastavval dinni bilishdan boshlanadi. So'ngra bilimlar kuchayib, insonda ma'lum diniy tuyg'ularni chaqiradi. Diniy tuyg'ular esa o'z o'rnida kishini ibodatga boshlaydi. Ko'rib turganingizdek, insonning diniy e'tiqodi tegishli jarayonlarni boshidan kechira borib, yuksaladi, taraqqiy topadi.

3. Din psixologiyasining **psixologik antropologiya bo'yicha muammolari** nisbatan yangi muammolar hisoblanadi. Chunki eng qadimgi dinlardan tortib so'nggi dinimizgacha bo'lgan davrlarni, ta'limotlarni psixologik jihatdan o'rganish tabiiyki insoniyat psixologiyasi dinamikasini tadqiq qilish imkoniyatini beradi. Ma'lumki, dinlar qancha eski bo'lgani sari odam bilan uning Yaratuvchisi o'rtasiga turli-tuman vositalar (butlar, sanamlar, odamlar va h.k.) tushib qolavergan. Eng yosh va eng keyingi din bo'lgan Islom asosan Yaratuvchi bilan bandasi o'rtasidagi vositalarni olib tashladi va Islom dinida Yaratuvchi bilan bandasi o'rtasida Allohdan o'zga hech narsa yo'q. Tavhidning asl ma'nosi ham shunda yotadi. Boshqacha aytganda, tavhid bizning dinimizni o'zga barcha dinlardan cheksiz yuksaklikka ko'taradi. Qisqasi, antropologik materiallar qadimgi ajdodlarimizning diniy e'tiqodi qanday bo'lganligi, Allohga bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi va h.k.larni bilishimizga xizmat qiladi.

4. Din psixologiyasining **differensial psixologik muammolari** uchta masala bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Birinchidan, din psixologiyasi dindor shaxslarning konkret psixologik

tipologiyasini aniqlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, individual diniy tajribaning xususiyatlarini tadqiq etadi. Uchinchidan, din psixologiyasi erkaklar bilan ayollarning diniy e'tiqodidagi gender psixologik farqlarni tahlil qiladi. Yuqoridagi uchta muammo ham din psixologiyasining o'ta dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Mazkur muammolar qiyosiy antropologik muammolar hamda diniy va madaniy xususiyatlarning o'ziga xosligi bilan bog'liq holda kechadi. G'arbda mashhur odamlarning dinga nisbatan bo'lgan munosabatini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Bunda biografik metoddan foydalaniladi. Shuningdek, G'arbda diniy e'tiqodga nisbatan gender tadqiqotlar amalga oshirilgan. Natijada qiziqarli diniy psixologik qonuniyat aniqlangan: ayollar erkaklarga nisbatan dindorroq bo'lishar ekan. Xolbuki dinlarning asoschilari erkaklar bo'lishganlar.

5. Din psixologiyasining **yosh davrlari bilan bog'liq muammolari** birinchi navbatda yoshning o'zgarishida diniy e'tiqodning shakllanishi, rivojlanishi nuqtayi nazaridan turib tushuntiriladi. Diniy e'tiqodning inson umrining aynan qaysi davrida shakllana borishi, qanday psixologik qoidalar asosida rivojlanishi, qarilik davrida diniy e'tiqodning sifat jihatdan qayta qurilishi va h.k. masalalar bu o'rinda ko'rib chiqiladi. Ma'lumki, umr davrlarining ortib borishi bilan yosh krizislari va senzitiv davrlar boshlanadi. Shu vaqtlarda diniy e'tiqod qanday o'zgarishlarga uchraydi, degan savolga javob ham yosh davrlari psixologiyasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

6. Din psixologiyasining **pedagogik psixologik muammolari** diniy ta'lim-tarbiya bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Diniy ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, oilada va maktabda bu jarayon qanday amalga oshirilishi va boshqa masalalar dolzarb hisoblanib, fan ularning tadqiq qilinishini kutmoqda.

Pedagogik psixologiyada "Ustoz-shogird" munosabatlarni masalasi ham o'rganiladi. Tasavvufdagi "Pir-murid" munosabatlari chuqur o'rganilgan bo'lib, uning samaradorligini ta'minlab beradigan omillar mukammal holda ishlab chiqarilgan.

7. Din psixologiyasining **eksperimental psixologik muammolari** toifasiga diniy e'tiqodni bevosita tadqiq qilish bilan bog'liq masalalar kiradi. Diniy e'tiqod subyektiv borliq bo'lganligi sababli

uni obyektiv holda tadqiq qilish murakkab hisoblanadi. Diniy e'tiqodni nima yordamida qanday o'rganish mumkin? Olingan natijalar qanchalik yaroqli va ishonchli? Shunga o'xshagan masalalar din psixologiyasida dolzarb hisoblanadi.

8. Din psixologiyasining **tibbiy-psixologik muammolari** turli xil diniy amaliyotlarda qo'llaniladigan psixologik usullar va metodlarni tushuntirish, insonlarni ibodatga boshlaydigan psixologik sabablarni aniqlashtirish va turli xil botil firqalarga a'zo bo'lish maqsadlarini o'rganish bilan bog'liq holda kechadi. Shunga o'xshagan masalalar tibbiy psixologiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Ba'zi olimlar (Z.Freyd, K.G.Yung) tasavvufdagi hollarni tibbiy psixologik jihatdan ko'rib chiqishga uringanlar. Ularning fikriga ko'ra, ilohiy muhabbat go'yoki normal holat emas ekan.

Tibbiy psixologiyaning oldida botil diniy firqalarni yaxlit va detallashgan ko'rinishda o'rganish, ular tomonidan odamlar ongiga ta'sir ko'rsatish dasturlarini tadqiq qilish, botil diniy firqalar ta'siriga tushib qolgan kishilarni ijtimoiy psixologik va psixiatrik reabilitatsiya qilish zarurati turibdi.

9. Din psixologiyasining **etnopsixologik muammolari** shundaki, aksariyat xalqlar o'zlarining kelib chiqishini, o'zlarining diniy qiyofasini o'zlari e'tiqod qo'ygan dinlari bilan bog'lashadi. Bu jarayonning psixologik mexanizmlari va qonuniyatlarini kashf etish, etnosning har bir a'zosi darajasida bu jarayon qanday kechishini asoslash din psixologiyasining vazifalaridan biri hisoblanadi. Dinlarning jo'g'rofiy joylashuvini o'rganish ham juda qiziq masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin:

1) Din psixologiyasi muammolari Sovet Ittifoqi davrida o'ta siyosiyashtirilganligi va g'oyalashtirilganligi sababli kam tadqiq qilindi. Natijada dinning psixologik muammolari bartaraf etilmay qoldi. Mustaqillik sharofati bilan bunga chek qo'yildi va din psixologiyasi ham ijtimoiy ongning bir shakli sifatida tan olindi hamda dinning psixologik muammolarini obyektiv o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi.

2) Sovet tuzumi davrida o'quv dasturlarimiz G'arb mamlakatlariidagi ma'lumotlar asosida shakllantirilganligi sababli bizda asosan G'arbdagi din psixologiyasi o'rganilgan. Holbuki ko'hna Sharq, buyuk jahon dinlarining kelib chiqish makoni bo'lgan Sharqda ham din psixologiyasi yuksak darajada o'rganilgan. Sharqda psixologiya "ilm-an nafs" deb atalgan, inson bilan uning nafs, ya'ni ichidagi "Men"i o'rtasidagi mujodalani o'rganadi. Din psixologiyasining Sharq olimlari va amaliyotchilari tomonidan o'rganilganlik tarixi "ochilmagan qo'riq" bo'lib yotibdi.

3) Jahon siyosatida din omilining roli oshib borishi bilan, tabiiyki, din psixologiyasi masalalarini tadqiq qilishga ehtiyoj kuchaymoqda. Din insonlarning ma'naviy-ruhiy olamini boshqaruvchi omil sifatida aynan psixologiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur ehtiyojni qondirish uchun psixolog olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlarning o'tkazilishi, ilmiy izlanishlarning olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### 4. Din psixologiyasining tadqiqot metodlari

Din psixologiyasiga daxldor tadqiqotlar, eng avvalo, insonning subyektiv (ichki) dunyosi hodisalariga bag'ishlangan bo'lib, ular quvonch, qayg'u, kuyunish, qo'rquv, xavotir, ehtiros, tuyg'ular, ruhiy motivatsiya, intiluvchanlik, iroda kuchi, irodaviy zo'riqish, tafakkur jarayonlari (holatlari), xotira va uning ongli hamda ongsiz mazmuni shular jumlasidandir. Shuning uchun ham din psixologiyasida quyidagi metodlar keng qo'llanadi: kuzatish metodi, eksperimental metod, shaxsga oid hujjatlarni o'rganish metodi, suhbat, test metodi qo'llaniladi.

Kuzatish metodi umumiy empirik metod hisoblanadi. Kuzatishdan foydalanib, diniy jarayonlar va hodisalar, dindorlar xulqi tadqiq etiladi. Kuzatish metodi din psixologiyasida alohida kishilarni o'rganishda ham, insonlar jamoasini o'rganishda ham qo'llaniladi. Kuzatish metodining turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularga o'zini o'zi kuzatish (introspeksiya), ichki kuzatish va tashqi kuzatish kabilarni misol qilish mumkin. Kuzatish jarayonida psixofiziologik apparatlardan, kompyuter texnologiyalardan foydalanish ham mumkin.

Din psixologiyasida eksperiment metodidan ham keng foydalaniladi. Eksperiment bosqichlari - dastlabki, shakllantiruvchi (tarbiyalovchi), nazorat tarzida o'tkaziladi. Tajribalarda tadqiq etilayotgan hodisa, jarayon, holat muayyan shart-sharoitda takror va maxsus o'rganiladi. Eksperimentda sinovda qatnashayotgan shaxsga diniy mazmundagi matnni o'qib, uning ta'sirida yuzaga keladigan tuyg'u va fikrlarni, ruhiy kechinmalarni qayd etishi taklif etiladi. Eksperimentlar diniy qadriyatlar va qarashlarning dindor psixologiyasiga ta'sirini, unda turli tuyg'ularni uyg'otishini aniqlash imkonini yaratadi.

Din psixologiyasida hujjatlarni o'rganish metodi qo'llaniladi va bunda hujjatlar sifatida shaxs tarjimai holi, kundaliklari, uyquga doir yozuvlari, psixoterapevtga murojaat etish tarixi, xatlari, badiiy asarlari, chizgan suratlari va hatto ma'lum ma'noda yozdirilgan inshosi, mustaqil ishi, nazorat bitiklarini ko'rsatish mumkin. Shaxs hujjatlarini baholashda subyektivlik ustuvor bo'lishiga qaramay, dindorlardagi ruhiy kechinmalar, muhabbat, qo'rquv, isyon yoki shukronalik singari kechinmalarni o'rganishda bunday hujjatlar qimmatli ma'lumotga ega manba bo'la oladi.

Inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obyekti va subyekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganiladigan narsa, jarayon bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, tirikligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi kabilar to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

Test inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy ko'rsatkichini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, sujetli rasm yoki shakl test deb ataladi. Test, ayniqsa, odamning qanday kasbini egallash mumkinligini, kasbga yaroqligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng ko'lamda foydalaniladi. Testlar: maqsadga erishuv, intellekt, kreativ, kriterial, shaxslilik, proyektiv, qobiliyat, xotira turlariga ajratiladi.

Psixologiya sohalarida keng qo'llaniladigan metodlardan biri anketadir. Uning yordamida turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, ularning narsa va xodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa uch xil tuzilishga ega. Ularning birinchi xili anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchilarga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi va u shkalali anketa deb ataladi. Anketalar turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga munosabatlarini aniqlash maqsadida keng ko'lamda foydalaniladi. Tarqatilgan anketalar yig'ishtirib olinadi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblab chiqiladi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi.

Sotsiometriya metodi kichik jamoa a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik Jon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan jamoadagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlari jamoadagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar jamoaiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi, xolos. Sinaluvchilardan quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi: "Sen sayohatga kim bilan borishni xohlaysan?", "Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?" va hokazo. Har bir savol sotsiometrik mezon vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olinadi. Sotsiometriyada diniy jamoa a'zolari o'rtasidagi emotsional munosabatlarni aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Langityud metodi yordamida subyektiv omillarning o'ziga xosligidan tashqari, sinaluvchiga obyektiv shart-sharoitlarning, sotsial-psixologik muhitning ta'siri o'rganiladi. Masalan, egizaklarning o'zaro o'xshashligi va ularning tafovutlanishi, ta'sirlanishi, his-tuyg'ularining o'zgarishi, shaxslar o'rtasida individual farqlar

yuzasidan olingan ma'lumotlar langityud metodi yordami bilan ro'yobga chiqadi.

Ushbu metod yordamida boshqa metodlardan farqli o'laroq bir yoki bir necha sinalluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillar davomida uzluksiz tekshiriladi.

Proyektiv metod shaxsni o'rganishning muhim metodlaridan hisoblanadi. Mazkur metodika eksperimental-psixologik vaziyatni vujudga keltirish xususiyati bilan tavsiflanadi. Proyektiv metodikalar inson ongini go'yoki "chalgitadi", buning natijasida psixologik himoya vazifasini bajaradi.

Psixologiya fanida proyektiv metodikalar besh turkumga ajratib tadqiq qilinadi; assotsiativ, topshiriq yechimini tugallash, konstruksiyalovchi, ekspressiv, ranjirovka qilish. Assotsiativ metodikalarga quyidagilar kiradi: so'zli assotsiatsiyalar personifikatsiyasi, rasmi va so'zli assotsiatsiyalar. Topshiriqni tugallash metodikalariga quyidagilar kiradi: tugallangan gap, tugallanmagan gap. Ekspressiv metodikalarning psixorasm, rolli o'yinlar kabi ko'rinishlari mavjud.

Din psixologiyasidan tadqiqotda ilmiy-tarixiy tahlil yo'nalishida qo'llaniladigan qator metodlar ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1) Tarixiy-genetik metod. Bu metod yordamida diniy psixik hodisalar mavjud ijtimoiy-tarixiy vaziyatdan kelib chiqqan holda o'rganish joriy qilinadi.

2) Qiyosiy-tarixiy tahlil metodi. Bu metod yordamida diniy psixik hodisalar rivojlanishi dinamikasi turli xil davrlar kesimida qiyosiy tahlil qilinadi.

3) Biografik metod. Bunda din psixologiyasi dindor shaxsi va hayot yo'li nuqtayi nazardan turib o'rganiladi.

4) Din psixologiyasiga taalluqli bo'lgan asosiy holatlar, jarayonlar, konsepsiyalar, tushunchalar, mashqlar va hokazolarni sistemalashtirish metodi orqali tadqiq qilish mumkin.

5) Diniy ta'limot va amaliyot o'rtasidagi uzviy aloqani va o'zaro bog'lanish xususiy proyeksiya metodikalaridan biri hisoblangan "Mavhumdan konkretga o'tish" metodi yordamida o'rganiladi.

## 5. Dinning psixologik nazariyalari

Dinning psixologik nazariyasini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) dinning psixologik asoslari to'g'risidagi ta'limot;
- 2) jamoaga va shaxsga taalluqli hisoblangan diniy hodisalar (xususiyatlar, jarayonlar, holatlar)ning o'ziga xosligini belgilovchi tartiblar to'plami;
- 3) diniy-psixologik tajribaning ko'p qirraligini ochish;
- 4) diniy faoliyat va munosabatlar (kultlar, diniy ibodatlar, dindorlar o'rtasidagi muomala, ularga ta'lim-tarbiya berish va h.)ning psixologik jihatlarini tahlil qilish;
- 5) diniylikni psixologik tadqiq qilish metodikalari.

Din psixologiyasi asosan uchta vazifani bajarish bilan shug'ullanadi:

- 1) umumiy diniy amaliyot (masalan, diniy marosimlar, urf-odatlar) obyektlari sifatida qabul qilingan obyektlarni tadqiq etish;
- 2) diniy fenomenlarning paydo bo'lish psixologiyasini tushuntirish;
- 3) mazkur fenomenlarning alohida olingan bir shaxsga va butun jamiyatga ta'sirini o'rganish.

Ijtimoiy hodisa sifatida dinning bir qancha sotsial-psixologik funksiyalari mavjud. Bularga kommunikativ, regulativ, interaktiv, psixoterapevtik va gnoseologik funksiyalari kiradi.

1. Dinning kommunikativ funksiyasi insonlarning diniy munosabatlari asosida o'zaro psixologik, sotsial-psixologik, emotsional munosabatlarga kirishishi, axborotlar almashishini ta'minlashdan iboratdir.

2. Regulativ funksiya o'zaro munosabatga kirishuvchilar, suhbatdoshlar xulq-atvorini, emotsional kechinmalarini e'tiqodlar, diniy normalar asosida muayyan darajada tartibga solib turish vazifasini bajaradi. Bunda diniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, udum va marosimlar shaxslararo munosabatlarni boshqarishda ishtirok etadi.

3. Dinning interaktiv funksiyasiga munosabat va muomalaga kiruvchilarning bir-birlariga ta'sir etishi, taqlid qilishi, ta'sirlanishi, xulq-atvorini o'zgartirishi kabi ruhiy va hissiy holat hamda jarayonlar kiradi.



4. Gnoseologik funksiya esa dinni, uning tarixini, diniy bilimlarning vujudga kelishidagi sotsial-psixologik jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishdan iboratdir.

5. Psixoterapevtik funksiyada diniy amallarni bajarish bilan bog'liq ravishda dindorda vujudga keladigan tinchlanish, taskin topish, ruhlanish, forig'lanish (katarsis) kabi holat va kechinmalar nazarda tutiladi.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Din psixologiyasining predmeti nimadan iborat?
2. Din tuzilmasi qanday komponentlardan tashkil topgan?
3. Diniy psixologiyaning shakllanishi, taraqqiyoti va funksiyalari qonunlarini o'rganish qanday yo'nalishlarda olib boriladi?
4. Dinning psixologik negizi qanday jihatlardan tahlil qilinadi?
5. Dinshunoslik fanining qanday funksiyalari bor?
6. Din psixologiyasi psixologik fanlar tizimida qanday o'rinni tutadi?
7. Din psixologiyasining o'zga fanlar bilan aloqasida qanday muammolar kuzatiladi?
8. Din psixologiyasining qanday tadqiqot metodlari bor?

## XII BOB. DIN PSIXOLOGIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

### Reja:

1. Diniy ong tushunchasi. Diniy psixologiya va diniy mafkura.
2. Diniy ibodat va uning dindor psixologiyasiga ta'siri.
3. Diniy tasalli va diniy targ'ibot.
4. Ishonch va uning turlari. Diniy e'tiqod.
5. Ichki (botiniy)dindorlik — din psixologiyasi predmeti sifatida.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy ong, diniy psixologiya, diniy mafkura, diniy ibodat, diniy tasalli, diniy targ'ibot, ishonch, diniy e'tiqod, dindorlik.*

### 1. Diniy ong tushunchasi. Diniy psixologiya va diniy mafkura

Dinning tuzilmasida quyidagi komponentlar farqlanadi:

– diniy ong (odatdagidek bo'lishi mumkin va bunda odamning ilohiyotga nisbatan shaxsiy munosabati aks etadi; konseptual bo'lishi mumkin va bunda ilohiyot to'g'risidagi ta'limot, turmush tarzining normalari va h.k. o'z aksini topadi);

– diniy faoliyat (u kult ichida va kultdan tashqarida bo'lishi mumkin);

– diniy munosabatlar (bular ham kult ichida va kultdan tashqarida bo'lishi mumkin);

– diniy tashkilotlar.

Dinning paydo bo'lishi tarixi bo'yicha turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1) diniy qarash – din ham, unga amal qilishi kerak bo'lgan odam ham Alloh taolo tomonidan yaratilgan. Birinchi odam – Odam alayhissalomdan to Muhammad payg'ambargacha bo'lgan davrda Alloh taolo o'z farishtasi orqali insonlarga dinini tushirib turgan. Alloh taolo o'zining mukammal dinini so'nggi kitobi – Qur'oni

Karim orqali jo'natadi. Bu muqaddas kalomda insoniyat uchun xulq-atvor normalari ham tushirilgan.

2) ikkinchisi ilmiy qarashlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

a) tarixiy qarash – din insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsuli (I.Baxoven, F.Baur, E.Renan);

b) psixologik qarash – din odamning psixofiziologik funksiyasi, dunyo arxetiplari (Z.Freyd, K.Yung);

d) sotsiologik qarash – din ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyoji tomonidan chaqirilgan hodisa (I.Kant, O.Kont, M.Veber).

e) mifologik qarash – din atrof dunyoni aks ettiruvchi mifologik allegoriyalar oqibati (M.Myuller, J. Freyzer);

f) antropologik qarash – dinni qo'rquv yaratgan, qo'rquvni esa xudolar yaratgan (Demokrit, B.Spinoza, L.Feyerbax, E.Taylor);

g) marksistik qarash –kuzatilayotgan tabiat hodisalarini aqlan tushuntirishda dinning imkoniyatining yo'qligi (K.Marks, F.Engels, V.Lenin).

Psixologiya fani esa “hayot faoliyatining alohida shakli bo'lgan psixikaning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi qonuniyatlari to'g'risidagi fan”<sup>58</sup> hisoblanadi. Quyida psixologiya fanining kelib chiqishiga taalluqli bo'lgan fikrlarni ilgari suramiz. Chunki mazkur fanning predmeti diniy masalalarga yaqin.

Ma'lumki, “din psixologiyasi” bilan “diniy psixologiya” atamalari bir-biridan mazmunan farq qiladi. Din psixologiyasi psixologik fanlar tizimidagi bir fan tarmog'i hisoblansa, diniy psixologiya esa “ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan, dinga taalluqli ijtimoiy hodisalar to'plami”<sup>59</sup>dir. Shu nuqtayi nazardan diniy psixologiyaning shakllanishi, taraqqiyoti va funksiyalari qonunlarini o'rganish quyidagi yo'nalishlarda olib boradi:

1) din psixologiyasining umumiy nazariyasi diniy ongning mazmuni va tuzilmasini, diniy tuyg'ularning o'ziga xosligini, shaxs va jamiyatning ma'naviy hayotida dinning psixologik funksiyalarini o'rganadi;

<sup>58</sup>Большой психологический словарь. - СПб. Прайн - ЕВРОзнак, 2004. - 672 с.- 434 с.

<sup>59</sup>Социальная психология. Краткий очерк. Под. общ. ред. П.Г.Предвечного и Ю.А.Шерковина. М., Полигиздат. 1985. – С. 299.

2) differensial din psixologiyasi konkret ijtimoiy muhit va tarixiy davrni inobatga olgan holda dindorlarning diniy ongini va diniy tuyg'ularini ko'rib chiqadi;

3) diniy jamoalar psixologiyasi diniy jamoalarning ijtimoiy psixologik tuzilmasini, o'zaro muomala mexanizmlarini va dindorlarning ongi, tuyg'ulari va xulq-atvoriga ta'sirini o'rganadi;

4) diniy kultlar psixologiyasi diniy marosimlar va urf-odatlarining inson psixikasiga ta'sirini tadqiq qiladi.

Mafkura-arabcha tushuncha bo'lib, "fikrlamoq", "fikrlash" degan ma'noni bildiradi. Mafkura yoki ideologiya tushunchasi dastlab fransuz ma'rifatparvarlari De-Trase va Dalamberlar tomonidan talqin etilgan. Mafkura muayyan ijtimoiy jamoa, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad va muddaolari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tuzilishidir. Mafkuralar ham insoniyat tarixiy diniy taraqqiyotining mevasidir:

Ibtidoiy jamiyatda: totemizm, animizm, fetishizm, magiya...

Quldorlik jamiyatida: iudaizm, sintoizm, hinduizm, konfut-siychilik, daosizm.

O'rta asrlarda: buddaviylik, xristianlik, islom, tasavvuf.

Yangi zamonda: monizm, dualizm, plyuralizm, shovinizm, idealizm, materializm.

XX asrda milliy mafkuralar, jumladan, Yaponiyada kokutay-milliy davlatchilik tizimi, AQSHda "Amerikacha orzu", Rossiyada "Milliy tiklanish" va h.k.

## **2. Diniy ibodat va uning dindor psixologiyasiga ta'siri**

Bizning mamlakatimizda asosan ikki xil diniy jamoalar faoliyat ko'rsatishadi. Birinchisi, a'zoliqi qat'iy qayd etilmagan ochiq diniy jamoalar. Ularni birlashtirib turagan narsa ibodatlarini bir joyda qilishlari. Masalan, juma namozlarida musulmonlarning masjidlarda ibodat qilishlari. Ularning ichida ibodatga doimiy holda keladigan yadro mavjud. Biroq ularning bir qismi goh kelib, goh kelmaydi. Muhimi, bu jamoaga kimning kelishi yoki kelmasligi aniq qat'iy qayd etilmaydi.

Jamoada ibodat qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish, taqlid qilish, hissiy yuqish singari ijtimoiy-psixologik mexanizmlar yordamida diniy tuyg'ular kuchaytiriladi, emotsional jihatdan forig'laniladi, dindorlarda shakllangan diniy stereotiplar va ijtimoiy ustanovkalar ularning ongida qaytadan ko'rib chiqiladi, mustahkamlanadi.

Tadqiqotchi A.Jabbor shunday deb yozadi: "Din psixologiyasining rivojlanayotganligi qator davlatlarda amalga oshirilayotgan amaliy tadqiqotlar va loyihalar bilan bog'liqdir. Masalan, AQSHda Massachussets va Verjiniya universiteti olimlari Emi Vachxoltz va Usha Sambamortlar tomonidan 2002–2007- yillarda o'tkazilgan tadqiqotda ibodat (namoz)dagi jarayonlar salomatlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida tahlil etilgan"<sup>60</sup>. Dinning psixoterapevtik funksiyasining kelajakda insonlar uchun muhimligi ko'plab tadqiqotlar bilan isbotlangan holatdir. Bu yo'nalish din psixologiyasining kelajagini belgilab beruvchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ibodatlarni bajarishda vujudga keladigan individual va jamoa kechinmalari bir-biridan farqlanadi. Lekin ular o'rtasida umumiy xususiyatlar ham mavjud. Amerikalik psixolog U.Jeyms ular o'rtasidagi umumiy psixologik o'xshashlik, barcha dinlarda ham bir xil kechadi. Ya'ni "ruhiy qiynalishlar, ikkilanishlar, umidvorlik, sekin-asta forig' bo'lish jarayonidir" deydi.

Diniy kechinmalarning rivojlanish qonuniyati, ibodatlar jarayonidagi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqichda – hissiy kechinmalarga nisbatan diqqat-e'tibor, qiziqish ortib boradi. Ayniqsa, bu – e'tiqodli dindorlarda kuchliroq seziladi.

Ikkinchi bosqichda – ibodat qiluvchilar bevosita Allohga murojaat qilib, gunohlarini kechirishni, mag'firat qilishni so'raydilar. Tavba-tazarru qiladilar. Mag'firat qilishni iltijo qiladilar.

Uchinchi bosqich yakuniy bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati, ibodat tinch, osoyishta, ijobiy hissiyotlarni namoyon etish bilan yakunlanadi. Ibadatdan keyin, ruhiy-ma'naviy poklanib, o'zini erkin va yengil his qiladi.

Diniy amallarni jamoa bo'lib bajarish, ibodat qiluvchilarda ijobiy va salbiy kechinmalarni yaqinlashtiradi, ya'ni ruhiy

---

<sup>60</sup>Jabbor A. XXI asrda din psixologiyasining rivojlanish tendensiyalari// O'zbekistonda din psixologiyasining ilmiy-nazariy va amaliy masalalari. Ilmiy to'plam. – Toshkent, 2019. 308 b. -

yaqinlikni vujudga keltirib, hissiy jihatdan tinchlanishga olib keladi. Diniy ibodatlarining psixologik vazifalaridan biri ham salbiy kechinmalarni susaytirish vositasi bo‘lib xizmat qilishdan iboratdir. Ibadat qiluvchi Allohga ishonib, undan mushkulotlarini oson qilishni so‘rab iltijo qiladi. Diniy poklanishning butun mohiyati ham shunda, ya‘ni ishonchda, e‘tiqodda. Jamoa bo‘lib diniy amallarni, ibodatlarni bajarishda ibodat qiluvchilarning o‘ziga xos ruhiy kechinmalar dinamikasi sodir bo‘ladi. Bu xil kechinmalar individual ibodatlarda sodir bo‘lmaydi.<sup>61</sup>

### 3. Diniy tasalli va diniy targ‘ibot

Dinning psixoterapevtik funksiyasida diniy amallarni bajarish bilan bog‘liq ravishda dindorda vujudga keladigan tinchlanish, taskin topish, ruhlanish, forig‘lanish (katarsis) kabi holat va kechinmalar nazarda tutiladi.

Din psixologiyasiga oid tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, diniy amallar va ibodatlar bilan dindor kishilarda qalb poklanishi sodir bo‘ladi, ya‘ni qalbgaga taskin berish jarayoni amalga oshiriladi. Materialistik ta‘limotga ko‘ra, diniy amallarni bajarish jarayonida emotsional holatlarning almashishi bilan bog‘liq ma‘lum qonuniyatlar amalga oshadi va taskin orqali yuzaga chiqadi, deb hisoblaydilar. Bu albatta, ancha murakkablikni keltirib chiqaradigan tushuncha va izoh. Diniy amallarni to‘la-to‘kis amalga oshirishda, diniy poklanish va ruhiy komillikka yetaklovchi bilimlarga ega bo‘lish uchun islomda tasavvuf ilmi bilan va boshqa dinlardagi ibodat vaqtidagi ruhiy poklanishga bag‘ishlangan ilmlarni bilish talab etiladi.

D.S.Trimingem esa o‘z izlanishlarida har ikki ta‘limot xususida K.V.Ernstga nisbatan tasavvufdagi “islomiy poydevor” faktoriga ko‘proq e‘tiborini qaratgan. Hindistonda deyarli biror so‘fiy jamoasi mahalliy dinning ta‘siridan mutloq tarzda saqlanib qololmagan. Yoganing ayrim usullari shattariya suluki jamoasida qo‘llangan. Shu tariqa talay tariqat usullari turli panteistik ta‘limotlar bilan omixtalashib, ularda yoglar tajribasidan ko‘p narsalar

<sup>61</sup> Шкуренко А.Д. Общая и медицинская психология.-Ростав-на-Дону .2002. - С. 256.

o'zlashgan: asketizm, vegetarianlik va boshqalar. G'arb tasavvufshunosi T.Bukharda musulmon mistitsizmining sof holatda islomning o'ziga taalluqli ekanligini ta'kidlab, diniy amallarning inson ruhiyatiga ta'siri va shu orqali, ruhiy yengillikni, qalb taskinligiga erishish mumkin ekanligini izohlaydi. Yoki E.S.Bertelsning tasavvufni ayrim mutaxassislar tomonidan turli ma'lumotlar konglamirati – qotishmasi ekanligiga yaqin xulosalariga qarata bildirgan nuqtayi nazari ham diqqatga sazovordir.<sup>62</sup>

E.Fromm o'zining "Psixoanaliz va din" asarida diniy e'tiqodga asosan ijtimoiy muhit ta'sir etadi. Biologik yoki instinktiv asosda din yuzaga kelmasligini uqtirib, ijtimoiy muhitdagi madaniyatgina shaxsda e'tiqodni qay darajada shakllanishiga sabab bo'ladi, deb uqtiradi. Fromm psixoanalizdagi ongsizlik nazariyasidan chetga chiqmagan holda omma ongsiz ravishda dinga ergashadi va bu shaxsda ongsiz ravishda e'tiqodni yuzaga keltiradi, degan g'oyani ilgari suradi. E.Fromm din sotsial-ijtimoiy terapiya sifatida, shaxs himoyaga muhtoj bo'lganda, uni izlaganda tasalli beruvchi, ruhlantiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi ijtimoiy madaniyat ko'rinishida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Targ'ibot (*arab.* qiziqtirish, tarqatish) – keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosat va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, obyektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim.

Targ'ibot (lot. propaganda – tarqatilishi kerak bo'lgan ma'lumot) – og'zaki yoki ommaviy axborot vositalari orqali muayyan g'oyalarning jamoatchilik ongida ommalashtirishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Diniy targ'ibot deganda diniy g'oyalarning, ma'lum e'tiqodning targ'iboti nazarda tutiladi. Targ'ibot usullaridan destruktiv sektalar ayniqsa unumli foydalanishadi. Targ'ibotning psixologik

<sup>62</sup> Ашрафян К.А. История и культура.-Москва:Наука,1987.

ta'sir qiladigan, ayniqsa insonning emotsional sohasi orqali kirib boradigan usullari shular sirasiga kiradi.

#### 4. Ishonch va uning turlari. Diniy e'tiqod

Diniy e'tiqodning xususiyatlarini aniqlash uning gnoseologik xarakteristikalaridan boshlanadi. Ma'lumki, diniy ongning muhim belgilaridan biri ilohiyotga ishonishdir.

Diniy e'tiqodning quyidagi psixologik xususiyatlari mavjud:

- a) g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonch;
- b) inson hayotiga va umuman jamiyatga ilohiy kuchlarning ta'siri borligiga ishonch;
- v) g'ayritabiiy kuchlar bilan insonning aloqa qilishiga imkoni borligiga ishonch.

Islom manbalariga ko'ra, diniy e'tiqodda to'rtta masalaga nisbatan munosabat qamrab olinadi: ilohiyotga, nubuvvatga, kavniyotga va g'aybiyotga. Bularga Abdulqodir Abdur Rahimning "E'tiqod durdonalari" asarida mukammal baho beriladi:

“1. Ilohiyot; bu qismda Alloh taoloning borligi, bu haqdagi aqliy va naqliy dalillar, Alloh taoloning sifatlari, nuqsonlardan mutloq holi ekanligi, qazo va qadar, jannatda Alloh taoloni ko'rish kabi masalalar haqida bahs yuritiladi.

2. Nubuvvat; bu qismda nubuvvat va risolat ma'nolari, vahiy tushunchasi, payg'ambarlar va ularning sifatlari, mo'jizalari va hokazolarga tegishli masalalar to'g'risida bahs qilinadi.

3. Kavniyot; bu qismda insonlar, farishtalar, jinlar, borliqdagi sababiyat qonunlari va hokazo borliqdagi barcha mavjud narsalar to'g'risida bahs qilinadi.

4. G'aybiyot; bu qismda juda ko'plab haqiqatlar to'g'risida bahs qilinadi. Ularni umumiy qilib uch qismga ajratish mumkin:

- a) o'limga taalluqli bo'lgan bahslar;
- b) qiyomat alomatlari to'g'risidagi bahslar;
- v) qiyomat kuni va u kunda ro'y beradigan voqealar to'g'risidagi bahslar”<sup>63</sup>.

<sup>63</sup>Abdulqodir Abdur Rahim. E'tiqod durdonalari. Mas'ul muharrir / Jaloliddin Hamroqulov. – T.: "Sharq", 2016. – 480 b. – 40 b.



Yuqoridagilarning muhim xususiyati shundaki, ular biz bilgan moddiy olamning qonuniyatlariga bo'ysunmaydi, biz hissiy idrok etadigan olamning "narigi" tomonida turadi. Bu ikki olam, ya'ni real va ilohiy olamlar o'zaro aloqadiligini inobatga oladigan bo'lsak, diniy e'tiqodning shakllanishiga real olam to'g'risidagi bilimlarimiz yordam beradi. Real olam to'g'risidagi bilimlarimizning o'zi aslida Yaratganning mo'jizalari haqidagi ma'lumotlardir. Masalan, Sa'diy Sheroziy shunday deb yozgan edi:

Dar daraxtoni sabz gar nazari hushyor,  
Har varaqash daftarest ma'rifati Kirdigor.

Mazmuni: Agar daraxtlarning yashil barglariga hushyorlik nazari bilan qaraydigan bo'lsangiz, ular misoli bir daraxtning varaqlariki, ularda Allohning ma'rifati yozilgan. Fan tarixidan ma'lumki, daraxtlarning yashil barglarida fotosintez jarayoni sodir bo'lishligi aniqlandi va bu jarayon natijasida yashil barglar odamlar chiqargan karbonat angidridni yutib, kislorod chiqarar ekan. Ya'ni Alloh taolo yashil barglarga insoniyatni kislorod bilan ta'minlash vazifasini yuklagan ekan. Fotosintez sof ilmiy bilim hisoblanadi. Biroq ozgina tafakkur qilinsa, bu bilim inson tafakkurini Alloh taoloning mo'jizasi to'g'risidagi fikrga olib boradi.

E'tibor berib qaralsa, nodiniy e'tiqod bilan diniy e'tiqod o'rtasidagi aloqani ko'rsa bo'ladi.

Ilohiyot qadimgi odamlarda boshqacharoq talqin qilingan va buning natijasi o'laroq dunyoning turli xil talqinlari vujudga kelgan. Masalan, moddiy predmetlarning ilohiy xususiyatlariga e'tiqod (fetishizm), moddiy predmetlar o'rtasidagi ilohiy aloqalarga e'tiqod (magiya, totemizm) tabiiy ilohiy mavjudotlarga qarama-qarshi qo'yilishi diniy e'tiqodning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday hodisa ayniqsa dahriylik ta'limotida ko'zga tashlanadi. Bu ta'limotga ko'ra, ilohiy borliq inkor etiladi, inson hayoti faqat moddiy ko'rinishda mavjud bo'ladi. Ilohiyot esa odamlar va ularning kundalik hayoti boshqaradigan real kuchlarning fantastik obrazlari xolos. Boshqacha aytganda, ilohiy kuchlar va ularning mohiyati obyektiv mavjud emas, ular inson xayoli tamonidan yaratilgan illuziyalardir. Bu moddiyunchilarning e'tiqodi hisoblanadi. Ishonmaslikning o'zi ham aslida ma'lum bir e'tiqodning aksiga e'tiqod qilishdir.

“E’tiqod borasida har bir mukallaf kishi eng avval shar’an Alloh haqida vojib, joiz va muhol (nomumkin) bo‘lgan narsalar nimalar ekanligini bilmog‘i kerak”.<sup>64</sup>

E’tiqod masalasida Moturidiy ta’limoti quyidagi sharhni beradi: “Bandalar mas’ul bo‘ladigan ikkinchi a’zo qalb hisoblanadi. Qalbning ishi mutlaqo e’tiqod qilishdir. To‘g‘ri bo‘ladimi yoki noto‘g‘ri bo‘ladimi qalb qaysi tushunchaga bog‘lansa, o‘sha tushuncha “e’tiqod” va “aqida” deb nomlanadi. Shuning uchun qalb hech qachon aqidasi bo‘lmaydi. Ya’ni mo‘min kishining aqidasi iymon bo‘lsa, kofirning aqidasi kufr bo‘ladi. O‘zini go‘yo hech narsaga iymon keltirmaydigan, deb hisoblaydigan kimsaning aqidasi iymon keltirish lozim narsalarga iymon keltirmaslik bo‘ladi. Qalbgga taalluqli muhim ishlardan biri niyat hisoblanadi. Qilinayotgan amallarning savobli bo‘lishi yoki aksincha bo‘lishi niyatga bog‘liq bo‘ladi. Alloh taologa va U nozil qilgan barcha narsalarga iymon keltirish har bir aqli raso balog‘atga yetgan musulmon zimmasiga farz bo‘lgan e’tiqoddir”<sup>65</sup>.

Yuqorida aytilganlardan bir qancha xulosalar chiqarsa bo‘ladi. Birinchidan, insonning e’tiqodi uning qalbi bilan kechadigan jarayondir. Ikkinchidan, e’tiqod qalbning birorta tushuncha, g‘oya yoki mafkura bilan bog‘lanishi ko‘rinishida sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham e’tiqodni biror narsaga qalban bog‘lanish bilan tushuntiriladi. Uchinchidan, e’tiqod tushunchasiga nisbatan iymon tushunchasi torroq tushuncha ekan. Boshqacha aytganda, iymon, biror narsaga iymon keltirish, ishonish yoki aksincha holat (biror narsaga iymon keltirmaslik ham aslida iymon keltirilmayotgan narsaning yo‘qligiga ishonchdir) e’tiqodning asosida yotadi. Ba’zi manbalarda e’tiqodga iymon, islom va ehson tushunchalarini ham kiritishadi. To‘rtinchidan, e’tiqod bilan insonning niyati o‘rtasida aloqa mavjud. Ma’lumki, niyat sof psixologik tushuncha hisoblanadi. Shuning uchun ham e’tiqod bilan niyat o‘rtasidagi aloqani chuqur tabliil qiladigan tadqiqotlarga muhtojligimiz bor.

Moturidiy ta’limotida quyidagilarga e’tiqod qanday bo‘lishligi kerakligi bayon etiladi: tavhidga nisbatan e’tiqod, Alloh taologa iymon keltirish bo‘yicha e’tiqod, qazoyu qadarga e’tiqod, Alloh

<sup>64</sup>Ahmad Ziyoddin Al-Kumushxonaviy. Jomi’ ul-muton. – T.: “Movarounnahr”, 2000. - 313 b. – 32-b.

<sup>65</sup>O‘sha asar, 51-b.

taoloning sifatlariga e'tiqod, Uning o'ziga va rasuliga e'tiqod, Qur'oni Karimga imon keltirish bo'yicha e'tiqod, payg'ambarlar va farishtalarga imon keltirish bo'yicha e'tiqod, xotamul anbiyoga e'tiqod, shafokatga e'tiqod, payg'ambarlarning ma'sumligiga e'tiqod, valiylar va ularning karomatlariga e'tiqod va h.k.

Diniy e'tiqodlar va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi aloqa din psixologiyasining markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda bir qancha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Shulardan biriga to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, diniy e'tiqodlar odamlarga o'z hayotining ma'nosini topishga yordam beradi, shuningdek ularning his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari va ruhiy salomatligiga ta'sir ko'rsatadi.

Torbat-e Jaam shahridagi Islom Ozod Universitetida o'tkaziladigan psixologik eksperiment uchun tasodifiy holda 178 talaba tanlab olingan.<sup>66</sup> Eksperimentdan ko'zlangan maqsad asosiy diniy e'tiqodlar (basic religious beliefs) va shaxs xususiyatlarini (personality traits) o'rtasidagi aloqaning o'ziga xosligini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot uchun uchta narsaga nisbatan diniy e'tiqodlar Inson (Human), Mavjudlik (Existence) va Xudo (God) tanlab olindi. Shuningdek, shaxsning beshta omili: nevrozizm (neuroticism), ekstraversiya (extraversion), ochiqlik (openness), kelishuvchanlik (agreeableness), vijdonlilik (conscientiousness) singari omillar aniqlashtirildi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar korrelatsion darajada tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy diniy e'tiqodlar nevroziklik ( $n = -0.29$ ) bilan salbiy korrelatsiyaga, ekstraversiya bilan esa ijobiy korrelatsiyaga ( $e = 0.28$ ), ochiqlik bilan zaif ijobiy korrelatsiyaga ( $o = 0.14$ ), kelishuvchanlik bilan ijobiy korrelatsiyaga ( $a = 0.29$ ) va vijdonlilik bilan yuqori ijobiy korrelatsiyaga ( $s = 0.48$ ) ega ekan. Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, asosiy diniy e'tiqodlar bilan ochiqlik deb atalgan shaxs xususiyati eng past va vijdonlilik deb atalgan shaxs xususiyati bilan eng yuqori darajada korrelatsiyaga ega. Insonning o'zini o'zi bilishi, umrining mazmunini tushunishi va Yaratuvchiga nisbatan munosabatiga bo'lgan e'tiqodlari nevroziklarda teskari aloqaga egaligi ko'zga

<sup>66</sup>[https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3428642/Iran\\_J\\_Psychiatry\\_2012\\_Spring\\_7\(2\):\\_82-86](https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3428642/Iran_J_Psychiatry_2012_Spring_7(2):_82-86)

tashlanadi, ya'ni insonlarda nevroitiklik darajasi qancha yuqori bo'lsa, ulardagi e'tiqod pastlashib boraveradi. Insonning o'zini o'zi bilishi, umrining mazmunini tushunishi va Yaratuvchiga nisbatan munosabatiga bo'lgan e'tiqodlari bilan shaxsning vijdonlilik xususiyati o'rtasida yuqori ijobiy korrelatsiya kuzatilmoqda. Bu degani vijdonli kishida bu e'tiqodlar yuksak darajada shakllangan bo'lar ekan.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari diniy e'tiqod bilan ijobiy shaxs xususiyatlari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi haqidagi diniy kognitiv-hissiy nazariyani tasdiqlayapti.

### **5. Ichki (botiniy)dindorlik — din psixologiyasi predmeti sifatida**

Shaxsdagi dindorlik darajasini o'lchash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan. Bunga misol qilib Charlz Glok tadqiqotlarini keltirish mumkin.<sup>67</sup> Ma'lumki, shaxsdagi dindorlik darajasini o'lchash bo'yicha yaratilgan metodikalarning birinchisi Ch.Glokka tegishli bo'lib, u o'zining 1962-yildagi maqolasida dindorlik darajasini o'lchash bo'yicha o'ziga xos o'lchovni taklif etgan. Uning fikriga ko'ra, shaxsdagi dindorlik darajasini quyidagi 5 ta mezon asosida to'laqonli o'lchash mumkin:

1) tajribaga tayanuvchi mezon (experiential): subyektiv emotsional diniy tajriba, dindorlikning subyektiv shaklini aks ettiruvchi dindorlik;

2) ritualistik mezon (ritualistic): diniy amaliyotlar, diniy faoliyatlar va diniy marosimlarda ishtirok etish, diniy xizmatlarga tashrif buyurish;

3) mafkuraviy mezon (ideological): ma'lum bir e'tiqod tizimini qabul qilish;

4) intellektual mezon (intellectual): e'tiqod haqida bilish, xabardorlik,;

5) natijalarni o'lchash mezoni (consequential): yuqoridagi 4 ta diniy mezonlarni shaxsning dinga aloqador bo'lmagan qadriyatlarini va xulq-atvoriga ta'siri, natijalari va oqibatlarini o'lchash.

<sup>67</sup>Glock Ch. Y. On the Study of Religious Commitment // Religious Education, Research Supplement. 1962. Vol. 42.

Turli xil dinlar bir-biridan antropologik va dunyoqarash nuqtayi nazaridan keskin farq qilganligi sababli ularga taalluqli bo'lgan shaxslarning strukturasi ham turli xil bo'lishligi tabiiydir.

**Buddizm** dini an'analarida shaxs dxarm degan nom bilan tushuntiriladi. Dxarm inson psixikasi va tajribasi elementlarining tartibga tashirilgan yaxlitligidir. Shaxs buddizmda ezgulik, go'zallik, haqiqat qonunlari bo'yicha yashaydigan koinotga taalluqli inson sifatida talqin etiladi. Bunda buddiyona turmush tarzi va e'tiqod tarbiyasi asosiy ustun jihat hisoblanadi.

Budparast shaxsning strukturasi skandxa yordamida tushuntiriladi. Skandxa besh jamoadan iborat bo'lgan borliq barcha elementlarining tasnifi, ya'ni bularning tarkibiga rupa, vedana, sandjnya, sanskara, vidjnyana kiradi.

Umuman aytganda, buddizmda inson turli xil tarkibiy qismlarning shartli nomidir: moddiy tana (kaya), nomoddiy aql (manas yoki chitta) va shaklsiz ong (vidjnyana). Insonning mavjudligi mana shu to'plamga bog'liq, agar u parchalansa, inson ham o'z majudligiga nuqta qo'yadi.

**Xristianlikda** shaxs mohiyatiga ko'ra koinot borlig'ining ("makrokosmos") barcha reja va sohalarini o'zida mujassamlashtirgan "mikrokosmos"dir. Shu ma'noda shaxs borliqning turli darajalari bilan Alloh o'rtasidagi bog'lovchi zvenodir.

Xristian antropologiyasi tarixida dindor shaxsning ikkita nisbatan mustaqil modelini farqlasa bo'ladi: dixotomik va trixotomik. Ularning birinchisiga ko'ra, inson tana va jondan iborat ("jon" deganda insonning ruhiy holatlari nazarda tutiladi), ikkinchisiga ko'ra, inson uchta o'lchovdan, ya'ni tana, jon va ruhdan iborat. Ruh funksiyalarining yaxlitligi e'tiqodda, jon funksiyalarining yaxlitligi esa tashqi sezgirligimiz bilan oldimizga aqliy amaliy maqsad qo'yishimizning yaxlitligini anglashda yotadi.

Shaxsning ruhiy yuksalishi o'zining quyi va yuqori chegaralariga, aniqroq qilib aytganda, borliqning qarama-qarshi holatlariga ega. Faylasuf P.A.Florenskiy bu holatlarni yuz, lichina va tajalliy so'zlari yordamida tushuntiradi. Shunday qilib, uning fikriga ko'ra, dindor shaxsi strukturasi bir qancha darajalar mavjud:

– tajalliy – Allohga murojaat bilan bog'liq bo'lgan oliy daraja;

– yuz – o‘zining ichki olamiga qaratilgan ruhiy, tashqariga, ya’ni odamlarga qaratilgan ijtimoiy jihatlar (o‘z “men” ini topish) ga ega o‘rta daraja;

– lichina – inson borlig‘ining moddiy tomoniga qaratilgan quyi daraja.

Xristianin shaxsi o‘zini o‘zi anglash qobiliyatiga ega bo‘lgan, Alloh bilan ibodat yordamida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotga chiqa oladigan va ruhiy-moddiy tabiatga yo‘g‘rilgan unikal yaxlit mavjudotdir.

**Islomda** musulmon shaxsining ideal obrazida Alloh insonda tana, aql, jon va ruhning garmonik muvozanatini ta‘minlashligini ko‘rish mumkin. Musulmon shaxsi strukturasi tana ot, ruh esa chavandoz timolida talqin etiladi. Ot bo‘lmasa, chavandoz manzilga yetib borolmaydi, ruh bo‘lmasa, ot manzilni bilmaydi. Jaloliddin Rumiyning fikriga ko‘ra, biz otini to‘yintirish bilan shug‘ullanamiz va otning ozuqasi ruhga ham ozuqalik qiladi, deb o‘ylaymiz. Aslida otning ozuqasi ruhga ozuqalik qilmas. Ot ham, ruh ham to‘yingan bo‘lsa, ko‘zlangan manzilga yetib borish mumkin.

Bu haqda Imom G‘azzoliy boshqacharoq fikr bildirgan: “Hoji Makkaning yo‘lida o‘z tuyasiga qanday g‘amxo‘rlik qilsa, ruh ham tanaga shunday g‘amxo‘rlik qilishi lozim. Biroq hoji faqat tuyasini boqish bilan shug‘ullanib qolsa, karvon usiz ketib qoladi va hoji cho‘l-biyobonda halok bo‘ladi”.

Musulmon shaxsining keyingi tarkibiy tuzilmasi nafs bo‘lib, u “o‘zlik”, “Ego”, “ichki Men”, “shaxs” degan ma‘nolarni anglatadigan neytral kategoriyadir. Bu atamaning boshqa ma‘nosi – salbiy, quyi “Men”, tananing istaklari bilan oqadigan insonning instinktiv-hayvoniy borlig‘idir. Birinchi holatda nafs o‘zining nuqsonlarini bartaraf eta turib, Allohga intiladi. Ikkinchi holatda esa nafs faqat o‘zini o‘ylaydi, o‘zining manfaatlarini boshqalardan ustun qo‘yadi, insonni Allohdan parda bo‘lib to‘sadi.

Shunday qilib, dindor shaxsining universal tuzilmasini darajalarning quyidagi sxemasi yordamida tasvirlash mumkin bo‘ladi: “Real Men” (insonda mavjud bo‘lgan gunohlarga to‘la tabiati to‘g‘risidagi tasavvur) va “Ideal Men” (insonning gunohlardan forig‘ bo‘lgan, o‘zida ko‘rishni istagan ideali). Dindor shaxsi uchun ahamiyatli bo‘lgan ideal, ijobiy “Men” va real, salbiy bo‘lgan

“Men” ko‘rinishidagi bu ikkita obraz qadriyatlar va ustanovkalar bilan ziddiyatga kirishadi, nomutanosiblikni dunyoga keltiradi, chunki ideal “Men” hech qachon real “Men” bilan kelishmaydi. Bunday ziddiyat shaxsning o‘zini o‘zi taraqqiy qildirishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Shunday qilib, dindor shaxs – bu murakkab, ko‘p o‘lchamli tuzilma bo‘lib, uning yagona strukturasi bo‘lishi mumkin emas. Dindor shaxsining strukturasi tadqiq qilish uchun ilmiy va kofessional yondashuvlar zarur bo‘ladi. Dindor shaxsi strukturasi yadrosini e‘tiqod tashkil etadi. E‘tiqod shaxs asosiy xususiyatlari va normalarining poydevori hisoblanib, uning statusiga, roliga, qadriyatlar yo‘nalganligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Dindor shaxsining ko‘rib chiqilayotgan strukturasi barcha elementlari mazkur yadro atrofida jipslashishi lozim. Dindor shaxsi strukturasi elementlarining ierarxiyasining markazida aynan e‘tiqod yotishligini unitmasligimiz lozim.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy psixologiya va diniy mafkura tushunchalarining farqi nimadan iborat?
2. Diniy ibodat nima va u dindor psixologiyasiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
3. Diniy tasalli va diniy targ‘ibotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
4. Ishonchning mohiyati nimadan iborat va uning qanday turlari bor?
5. Diniy e‘tiqodning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
6. Ichki (botiniy) dindorlikning tashqi (zohiriy) dindorlikdan qanday farqi bor?

### XIII BOB. DINDOR SHAXSIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

#### **Reja:**

1. Diniy his-tuyg'ular.
2. Diniy muomala va diniy ustunlik (o'z dinini boshqa dinlardan ustun qo'yish) hodisasi.
3. Dindor kishining ehtiyojlari va xulq-atvor motivlari.
4. Dindorlarning qadriyatlar tizimi va diniy ustanovkalari.
5. Diniy hodisalarning intersubyektiv (botiniy) jihatlar.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy hislar va tuyg'ular, diniy muomala, diniy ustunlik, diniy ehtiyoj, xulq-atvor motivlari, diniy qadriyatlar tizimi, diniy ustanovkalar, diniy hodisalar, intersubyektiv jihatlar.*

#### **1. Diniy his-tuyg'ular**

Insonning hissiy-emotsional olami uning hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Inson o'zga va o'zining atrofidagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga hech qachon befarq bo'lmaydi. U xohlaydimi-yo'qmi o'zining birorta munosabatini bildiradi. Mana shu munosabat hissiy-emotsional ko'rinishga ega bo'ladi.

Psixologiya fani insonning hissiy-emotsional sohasi bo'yicha katta tajribaga ega, bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, ilmiy natijalar qo'lga kiritilgan. Ularning xulosalariga asosan his-tuyg'ularning ikkita jihatini alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: birinchidan, his-tuyg'ularning psixologik mazmuni, ikkinchidan, his-tuyg'ularning obykti va ularning yo'nalganligi. Birinchisi, ya'ni his-tuyg'ularning mazmuni deganda ularning ijobiy (quvonch, muhabbat va h.) va salbiy (g'azab, qo'rquv va h.) xarakterga egaligi nazarda tutiladi.

Ma'lumki, bilish jarayonlari atrof olamdagi hodisa va predmetlar shunchaki aks ettiradi. His-tuyg'ularimiz esa shu olamga



ma'lum munosabatimizni ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu haqda "Din psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida shunday deb yoziladi: "Shuning bilan birgalikda emotsional holatlarni faqat gnoseologik jarayonlarning tashqi belgilari, ko'rinishlari bilan ham cheklab bo'lmaydi. Chunki emotsional holat - shaxsning individual xususiyatlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, namoyon bo'lish dinamikasi va intensivligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi"<sup>68</sup>.

His-tuyg'ularimizning diniy jihatini tahlil qilishdan oldin ularning farqini bilib olishimiz ayni muddao bo'ladi. Chunki adabiyotlarda diniy hislar bilan diniy tuyg'ularning farqi kam o'rganilgan. Ma'lumki, hislar kechishining muddati ozligi, unchalik chuqur emasligi, o'zgarib turish xususiyatiga egaligi, tezda paydo bo'lib, tezda so'nishligi, insonning chuqur ijtimoiy-psixologik sohaları bilan bog'liq holda kechmasligi singari sifatleri bilan ajralib turadi. Tuyg'ular esa uzoq muddat davom etishligi, inson shaxsining juda chuqur chegaralariga kirib borishligi, uncha-munchaga o'zgara bermasligi, o'zgarishligi uchun jiddiy ruhiy kechinmalarni boshidan kechirishligi lozimligi bilan farqlanadi.

Masalan, ibodat qilayotgandagi dindorlarning psixologik kechinmalari hislar toifasiga kiradi. Chunki ibodat tugagandan keyin bu hislar so'nadi. Yoki tavba qilingandan so'ng kechiladigan kechinmalar ham (qoniqish hissi) inson shaxsining chuqur tuzilmalarigacha yetib bormaydi. Namozdagi xushu va huzu ham diniy hislarga kiradi va h.

Tuyg'ularga, masalan, Vatan tuyg'usi, ota-onaga bo'lgan mehr-oqibat, e'tiqod tuyg'usi va h.lar kiradi.

"Din psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida shunday deb yoziladi: "Diniy tuyg'u insonning boshqa hissiy kechinmalaridan farq qilib, u intim (yashirin, sirli) va ilmiy tushuncha, so'zlar bilan ifodalab berish qiyin bo'lgan ruhiy holat hamda xususiyatdir"<sup>69</sup>.

Ittifoq davri psixologlarining ta'kidlashicha, insonning hayotidagi muayyan hissiyotning o'rnini to'g'ri tushunish uchun hissiyotning psixologik tarkibini va uning yo'nalishini, obyektini

68 Din psixologiyasi: o'quv qo'llanma / B. Valiyev [vaboshq.]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom un-ti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi. - Toshkent: «Movarounnahr», 2014. - 312 b. 201 b.

<sup>69</sup>O'sha asar, 201 b.

hisobga olish kerak. Bu haqda S.L.Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: "Insonning hissiy sohasidagi asosiy farqlar insoniy his-tuyg'ularning mazmuni bilan, shuningdek, ular nimaga, qanday obyektlarga qaratilganligi va ularga nisbatan insonning qanday munosabatda bo'lishligi bilan bog'liq. Biror kishining his-tuyg'ularida bevosita tajriba ko'rinishida, insonning barcha munosabatlari, shu jumladan dunyoqarashi, mafkurasi, uning dunyo bilan munosabatlari va, eng avvalo, boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari o'z ifodasini topadi".<sup>70</sup>

Hissiy jarayonlarning ta'kidlangan umumiy psixologik jihatlari diniy tuyg'ularni to'g'ri tushunish uchun juda muhimdir. Ushbu jihatlarining chalkashligi muqarrar ravishda diniy tajribalarni noto'g'ri tushunishga olib keladi, ularning xususiyatlarini buzadi va yashiradi. Bu holat psixologiyada diniy tuyg'ular muammosini yechishga nisbatan yondashuvlar tahlilini qiyinlashtiradi.

G'arbdagi din psixologiyasi olimlari XX asrning 90-yillaridan boshlab diniy his-tuyg'ular masalasiga alohida e'tiborlarini qaratishadi. Diniy kechinmalarni o'rganish zarurati ilmiy bilishning mantig'idan va psixologiyani dinga xizmat qildirishga uringan kishilar hamda tashkilotlar ehtiyojidan kelib chiqadi. Dinshunoslik fanida diniy his-tuyg'ularni dinning asosiy manbasi sifatida qarash e'tiborga olinadi. Masalan, daniyalik faylasuf va psixolog G.Geffding shunday deb yozadi: "His-tuyg'ular barcha dinlarning, barcha diniy qarashlarning eng muhim xususiyatini tashkil etadi. Unga qiyosan barcha tasavvurlar unga bog'liq va bo'ysingan holda kechadi"<sup>71</sup>. Shunga o'xshagan fikrlarni U.Jems tomonidan ham ilgari surilgan.

Yuqoridagi holatlardan shuni ta'kidlash kerakki, haqiqatdan ham dinning asosini alohida shaxslarning e'tiqodi tashkil etadi. Biroq diniy his-tuyg'ular diniy e'tiqod tizimida bosh, hal qiluvchi rolni o'ynaydi degan fikr bilan kelishib bo'lmaydi. Ma'lumki, diniy e'tiqod nafaqat dindorlarning emotsiyalaridan tashkil topadi, balki rivoyatlar, afsonalar, tasavvurlar, obrazlar va h.lar ham e'tiqodning predmeti sifatida mavjuddir. Aynan mana shu tasavvurlar, obrazlar

<sup>70</sup>Рубинштейн Л.С. Основы общей психологии. 2-е изд. М., 1946. С. 499.

<sup>71</sup>Гейфдинг Г. Философия религии. С. 104.

va h.k.lar emotsional va irodaviy jarayonlarning yoʻnalganligini belgilab beradigan diniy eʼtiqodning maxsus yadrosini shakllantiradi.

Gʻarbning din psixologiyasida diniy his-tuygʻular masalasi koʻp martalab muhokama qilingan. Diniy his-tuygʻularning oʻziga xos psixologik mazmunini oʻrganishga harakat qilingan. Baʼzi psixologlar (F.Shleyermaxer) diniy his-tuygʻularni “tobelik hissiyoti” sifatida talqin etdilar. Nemis dinshunosi va faylasufi R.Otto diniy his-tuygʻularni “muqaddas qoʻrquv va hayrat”ning oʻziga xos birligi sifatida qaraydi. G.Vobberminning fikriga koʻra, dinning oʻziga qaysidir darajada “xavfsizlik va ehtirosli kutishlar” tuygʻusi xosdir.

Biroq baʼzi psixologlar yuqoridagi fikrlarga qarshi boʻlgan fikrlarni ham ilgari surishganlar. Ularning taʼkidlashlaricha, turli xil dinlarning vakillariga ularning dinlari bilan bogʻliq boʻlgan emotsional holatlarining mazmuni boʻyicha turli-tuman diniy his-tuygʻular xosdir. Masalan, tasavvufda his-tuygʻular muhim ahamiyat kasb etsa, konfutsiylik dinida koʻproq intellektual jihatlariga eʼtibor qaratiladi. Xulosa qilib aytganda, diniy his-tuygʻularning oʻziga xosligini emotsiyalarning mazmunida emas, balki ularning alohida yoʻnalganligidan izlash lozim. U.Jemsning fikricha, agar “diniy his-tuygʻular” degan soʻz jamlanma soʻz boʻlsa, turli xil diniy obyektlarga mos holda turli xil diniy his-tuygʻular yuzaga chiqadi. Darhaqiqat, diniy qoʻrquv, diniy muhabbat, diniy zavq, diniy quvonch, diniy afsus-pushaymon singari hislarning asosida turli xil diniy obyektlar yotadi.

Taʼkidlash joizki, diniy his-tuygʻularni har doim ham salbiy kechinma sifatida talqin qilish kerak emas. Ular ham salbiy, ham ijobiy koʻrinishga ega boʻlishi mumkin. Tajriba shuni koʻrsatadiki, amaliyotda ijobiy his-tuygʻular insonga koʻproq taʼsir koʻrsatadi. Darhaqiqat, muhabbat, hayrat, zavq, ilhom singari kechinmalar insonni yaxshilikka undaydi. Insonga toʻgʻri yoʻnalish beradi. Biroq ijobiy diniy his-tuygʻular diniy eʼtiqodning komponenti sifatida oʻziga xos yoʻnalishga ega boʻladi. Yaʼni ilohiy, gʻaybiy, oddiy koʻz bilan koʻrib boʻlmaydigan narsalarga nisbatan paydo boʻladigan his-tuygʻular toifasiga kiradi. Diniy his-tuygʻular baʼzida real obyektlarga nisbatan ham paydo boʻlishi mumkin.

Diniy his-tuyg'ularning xoh u ijobiy bo'lsin, xoh u salbiy bo'lsin dindorlarning ongi va xulq-atvoriga ta'sir qilish orqali ularning e'tiqodiga ma'lum yo'nalish beradi. Shu nuqtayi nazardan ular ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir.

Diniy his-tuyg'ularning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini bir dindorning kechinmalari tizimidagi muhabbat tuyg'usiga murojaat qilish orqali ko'rsatamiz. Muhabbat haqida barcha dinlarda ham gapiriladi.

Shunday qilib, diniy bilimlar va amallar insonlarda ularga nisbatan ma'lum munosabatlarning shakllanishisiz kechmaydi. Bu munosabatlar diniy kechinmalar ko'rinishida sodir bo'ladi. Ular diniy his-tuyg'ular sifatida yuzaga chiqadi. Bu diniy his-tuyg'ular shaxsning diniy yo'nalganligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

## **2. Diniy muomala va diniy ustunlik (o'z dinini boshqa dinlardan ustun qo'yish) hodisasi**

Muomala – muloqotning tarkibiy qismi bo'lib, shaxsiy xulq-atvorlar, muloqotning yoqimli yoki yoqimsiz bo'lishi odamlarning o'zaro muomalalariga bog'liq bo'ladi. Muomala muloqotning sifat darajasini belgilaydi va u his-tuyg'ular, kechinmalarning ifodalanishidir.

Munosabat – muloqot ishtirokchilari o'rtasida almashilgan voqea- hodisalarga har bir kishining o'ziga xos yondashuvidir. Ya'ni, muloqot va muomala jarayonidan so'ng ma'lum bir xulosalarga kelinadi.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-u - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash,

gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va h.k.).

B.F.Pariginning yozishicha, muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- Individlarning o'zaro ta'sir jarayoni.
- Individlarning o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni.
- Bir shaxsning boshqa bir shaxsga munosabati jarayoni.
- Bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni.
- Bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati.
- Shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni.

Muloqot davomida psixologik ta'sirning uch vositasini kuzatish mumkin. Birinchidan, so'z orqali muomala jarayonidir. Monologik nutq va dialogik nutqda odam o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanishi, eng ta'sirchan so'zlarni topib, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatishi lozim bo'ladi. Ikkinchidan, nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi ovoz ohangidir. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar orqali suhbatdoshning qay darajada samimiyligini bilish mumkin. Ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Sizga albatta yordam beraman!», deb aytilgan fikrga tez ishonish mumkin. Uchinchidan, nutqsiz- mimika (imo-ishora), pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilish tushuniladi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.<sup>72</sup>

Dinning interaktiv funksiyasiga munosabat va muomalaga kiruvchilarning bir-birlariga ta'sir etishi, taqlid qilishi, ta'sirlanishi, xulq-atvorini o'zgartirishi kabi ruhiy va hissiy holat hamda jarayonlar kiradi.

Kichik jamoa – tarkibi bo'yicha uncha katta bo'lmagan, bevosita shaxsiy o'zaro ta'sir va muomalada bo'lgan hamda umumiy ijtimoiy faoliyat bilan jipslashgan kishilarning yetarli darajada turg'un bo'lgan to'plami. Barcha odamlar u yoki bu kichik

<sup>72</sup>Nurmatova M. Muloqot va muomala psixologiyasi. – Samarqand: SamDCHTI, 2016. – 56 b.

jamoalarning a'zolari hisoblanadi: sinfning o'quvchisi, brigadaning a'zosi, talabalar jamoasi va h.k. Kichik jamoalar kamida 2-3 kishidan, ko'pi bilan 20-40 kishidan iborat bo'ladi. Kichik jamoalarning optimal miqdori 5-7 kishidan iborat bo'ladi.<sup>73</sup>

Dindor shaxs tuzilmasi va uning ruhiy olami, muomalasi va hayot faoliyati muhiti, ijtimoiy faolligining tashqi va ichki asoslari jamiyat va individ o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy jarayonning bir bo'lagi sifatida talqin qilinishi lozim. Dindor shaxs deganda biz bilish va diniy faoliyatning sub'ekti bo'la olishi mumkin bo'lgan kishini tushunamiz. U albatta ma'lum diniy va psixologik sifatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Dindor shaxsining ontologik (bilish) xususiyati dunyoviy va uxroviy sifatlarni, ruh bilan tana o'rtasidagi munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Diniy hayot bilan yashayotgan har qanday kishi intuitiv holda din uning yashash sohasining barcha jabhalarini qamrab olishligini his qiladi. Din insonning nafaqat faoliyatiga, balki uning so'zlariga, fikrlariga va niyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tabiatshunoslik insoniyatga dunyoni bilish borasida cheksiz imkoniyatlar yaratayotgani keng e'tirof etilgan 1916-yilda Jeyms Lyuba o'z tadqiqotlarida AQSH olimlarining 40% Xudoga ishonishini asoslagan. 90-yillarning oxirida amerikalik tarixchilar E.Larson va I.Uitxem tomonidan o'tkazilgan yangi tadqiqot natijalari bundan ham ko'proq shov-shuvga sabab bo'ldi. Ular XX asrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar va fan yutuqlari ta'sirida olimlar dunyoqarashi qay darajada o'zgarganini aniqlashga qaror qildilar. Shu bois ularning AQSHda tasodifiy tanlangan ijtimoiy fanlar namoyandalari va tabiatshunoslik vakillari orasida o'tkazgan so'rovi olimlarning 40% avvalgidek Xudoga va narigi dunyoda hayot mavjudligiga ishonishini ko'rsatdi. Bunda Xudoga ishonmaydiganlar va ateistlar (Xudoning borligini inkor etuvchilar) soni ham deyarli o'zgargani yo'q va bugungi kunda, avvalgidek, taxminan 45 va 15% ni tashkil etadi.

---

<sup>73</sup>Андреева Г.М. Социальная психология. – М: Изд-во МГУ, 1980. С. 176-182.

### 3. Dindor kishining ehtiyojlari va xulq-atvor motivlari

Motivatsiya — harakatga nisbatan turtki; inson xulq-atvorini boshqaradigan, uning yoʻnalishini belgilaydigan psixofiziologik jarayon, insonning oʻz ehtiyojlarini qondirish qobiliyatidir. Motivatsiya – tashkilotning maqsadlariga erishish uchun faoliyatga undaydigan insonni ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlarning majmuasidir. Motiv – ehtiyojlarni qondirish uchun shaxsni maʼlum harakatga undaydigan ichki turtkidir.

Psixologiyada motivatsiyaning quyidagi turlari farqlanadi:

*Tashqi motivatsiya* – birorta faoliyatning mazmuni bilan bogʻliq boʻlmagan, insonning tashqi vaziyatlari bilan belgilanadigan (mukofot olish uchun musobaqalarda ishtirok etish va h.) motivatsiya.

*Ichki motivatsiya* – faoliyatning mazmuni bilan bogʻliq boʻlgan, biroq tashqi holatlar bilan bogʻliq boʻlmagan (ijobiy emotsiyalar bagʻishlagani uchun sport bilan shugʻullanish va h.) motivatsiya.

*Ijobiy motivatsiya* – ijobiy stimullarga asoslangan (“agar injiqlik qilmasam, ota-onam menga kompyuterda oʻynashimga ruxsat beradi” va h.) motivatsiya.

*Salbiy motivatsiya* – salbiy stimullarga asoslangan (“agar injiqlik qilmasam, ota-onam meni urishmaydi” va h.) motivatsiya.

*Turgʻun motivatsiya* – insonning tabiiy ehtiyojlariga asoslangan (chanqoqni qondirish, ochlik va h.) motivatsiya.

*Noturgʻun motivatsiya* – doimiy tashqi qoʻllab-quvvatlashni talab etadigan (chekishni tashlash, vazni kamaytirish va h.) motivatsiya.

*Individual motivatsiya* – oʻzini oʻzi boshqarishni qoʻllab-quvvatlaydigan (chanqoq, ochlik, ogʻriqdan qochish, temperaturani ushlab turish va h.) motivatsiya.

*Jamoaiy motivatsiya* (kelajak avlod toʻgʻrisida oʻylash, jamiyatda oʻz oʻrnini topish, jamiyat tuzulmasini saqlab qolish va h.).

Diniy motivatsiya masalasida quyidagi nazariy yondashuvlar mavjud:

1) *Oʻzini oʻzi aniqlash nazariyasi* dinning shaxs tuzilmasiga integrallashganligining turli xil darajalarini koʻrib chiqadi.

Tadqiqotlarning aniqlashicha, dindorlik darajasi turli xil psixologik xususiyatlar va ruhiy xotirjamlik bilan bog'liq ekan.

2) *Kutish nazariyasi* motivatsiyani insonning o'zining imkoniyatlaridan va vaziyatdan kelib chiqqan holda maqsadga erishish ehtimolining bahosi sifatida tushuntiradi. Din maqsadlarni, kontekstni va muvaffaqiyat imkoniyati baholashning o'z variantlarini taklif qiladi.

3) *Izlash faolligi nazariyasi* dinni ekzistensial masalalarga javob berishga harakat sifatida ko'radi. Ma'noni izlash dinning asosiy motivatsiyasi sifatida qaraladi. Bu nazariya doirasida oddiy va ramziy e'tiqod psixologiyasi yaxshi talqin qilinadi.

4) *Sakralizatsiya nazariyasida* amaldagi har qanday maqsad ma'naviyatga borib taqaladi. Diniy motivatsiya dindor odamlarda turli xil motivlarning borligini ko'rsatadi. Motivatsiya psixologiyasi din bilan bog'liq bo'lgan ko'plab shaxs va sotsiomadaniy jarayonlarni tushunish uchun kalit bo'lishi mumkin.

Endi motiv tushunchasi va uning mazmunini ko'rib chiqishga o'tamiz. Motiv (lotinchadagi *moveo* — «harakat qilayapman») — inson uchun qadriyat hisoblangan moddiy va ma'naviy predmetlarning umumlashgan obrazi bo'lib, u erishish faoliyatining mazmuni bo'lgan harakatning yo'nalishini belgilaydi. Motiv subyektga maxsus kechinmalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. U yoki ma'lum maqsadlarga erishishdan paydo bo'ladigan ijobiy emotsiyalar, yoki bunday holatning to'liq emasligidan paydo bo'ladigan salbiy emotsiyalar bilan farqlanadi. Motivni anglash uchun ichki jihatdan ishlash lozim. «Motivatsiya» atamasini ilk marotaba A.Shopengauer o'z maqolasida ishlatgan.

Bugungi kunda bu atama har xil olimlar tomonidan turli xil talqin qilinadi. Masalan, V.K.Vilyunas bo'yicha motivatsiya — faoliyatga undash uchun javobgar jarayonlar tizimidir. K.K. Platonovning fikricha, motivatsiya motivlar to'plamidan iborat psixik hodisadir.

Motivlarning olti xil tipi farqlanadi. Ular quyidagilardir:

1) Din olamni o'ziga xos anglash shakli sifatida ko'riladigan motiv.

2) Din o'limdan keyin jannatga tushish motivi sifatida.



3) Din ilohiyotga ishonish sifatida emas, balki diniy marosim motivi sifatida.

4) Din insoniy axloqni saqlab qolish motivi sifatida.

5) Din “har ehtimolga qarshi” qilinadigan ibodat motivi sifatida.

6) Din yuksakroq ijtimoiy mavqega ega bo‘lish motivi sifatida.

Budapesht universitetining professori I.Goldtsiger o‘zining “Islom haqida ma’ruzalar” risolasida materialistik kayfiyatdagi quyidagi holatni kuzatsa bo‘ladi: “Etnografik sharoitdan tashqari aziz-avliyolarga sig‘inishga psixologik ehtiyoj ham yordam beradi: kundalik turmushi bilan bog‘liq xilma-xil tashvishlarga va xohishlarga ega bo‘lgan oddiy dindor bilan Olloh o‘rtasida o‘tib bo‘lmas katta masofa bor – uni nima bilandir to‘ldirish ehtiyoji juda katta. Uni shunday vositachi kuchlar bilan to‘ldirmoq kerakki, bu kuchlarga oddiy dindorning ishonchi bo‘lsin, hamma odamlardan, zaminu osmondan yuqorida, hududsiz yuksaklikda o‘tiruvchi Ollohdan ko‘ra ana shu vositachi kuch dindorga yaqinroq bo‘lmog‘i, uning aqliga sig‘mog‘i lozim. Xalq Ollohni butun koinotning hukmdori sifatida tan oladi va undan qo‘rqadi. Olloh koinotdagi eng ulkan, eng ulug‘ voqea-hodisalarni boshqaradi. Shundoq bo‘lgach, u tor doiradagi odamlarning yoki ayrim olingan bitta shaxsning mayda-chuyda ehtiyojlari bilan shug‘ullana olmaydi-da! Bunaqa fikrni xayolga ham keltirib bo‘lmaydi”<sup>74</sup>.

Z.Freyd ishlarining davomchisi, uning shogirdi K.G.Yung (1875–1961) ham din psixologiyasini tushuntirishda anglanmaganlik g‘oyasiga tayanadi. U individning tug‘ma mayl va ehtiyojlarini uning ongi va ijtimoiy normalarga qarama-qarshi qo‘yadi. Shunga ko‘ra, anglanmaganlik doimo ong va jamiyat normalari bilan ziddiyatda bo‘lib kelgan, deb tushuntiradi.

#### **4. Dindorlarning qadriyatlar tizimi va diniy ustanovkalari**

Diniy ustanovkalar bo‘yicha G.Ollport yetarli darajada shug‘ullangan. Uning 1960-yillarda chop etilgan ishlarida diniy amallarni bajaruvchi insonlarni ikkita asosiy tipdan iborat bo‘lgan qarashini ilgari suradi.

<sup>74</sup>Goldtsiger I. Islom haqida ma’ruzalar /Tarj.: O.Sharafiddinov. – T.: “Akademiya”, 2001. – 46 b. B. 14.

U birinchi tip vakillari sifatida din faqat insonlarni hayotiy maqsadlarga yetishishini ta'minlovchi bir yo'l sifatida e'tirof etib, bunday insonlar dinga nisbatan tashqi tomondan yondashadigan insonlar, deb ta'kidlaydi. Ular turli xil diniy tadbirlar va yig'ilishlarda ishtirok etadilar, jamiyat tomonidan qabul qilingan yashash shakliga o'zining munosabatini ifoda etadilar. Aynan bu tipdagi insonlarda din qadriyat hisoblanadi. Din salbiy, negativ hodisalarga qarshi turish vositasi sifatida, ya'ni ichki konfort vositasi sifatida ko'zga tashlanadi. G.Ollport bu tipdagi insonlarni ekstrensiv, ya'ni "tashqi" tip deb ataydi.

Ikkinchi tipdagi insonlar dinni mustaqil va asosiy qadriyat sifatida tasavvur qiladilar. Ular o'zlarining turli ijtimoiy doiradagi faoliyatlarini diniy amallar bilan motivlashtiradi va bog'laydilar. Nodiniy ehtiyojlari va qiziqishlarini ular ikkinchi darajaga qo'yadilar va o'zlarining xulq-atvori va xatti-harakatlarini diniy normalar, qarashlarga bo'ysundiradilar. Bunday tipdagi insonlarni G. Ollport intrensiv, ya'ni "ichki" tip deb ataydi. G.Ollport qarashlari o'sha vaqtda bir qancha Amerikalik din mutaxasislari tomonidan muhokama etildi. Ammo asosiy tadqiqotchilar ishlarida o'zining metodologik asos bo'lishi bilan qadrini yo'qotmadi.

Dindor shaxsining universal tuzilmasini darajalarning quyidagi sxemasi yordamida tasvirlash mumkin bo'ladi: "Real Men" (insonda mavjud bo'lgan gunohlarga to'la tabiati to'g'risidagi tasavvur) va "Ideal Men" (insonning gunohlardan forig' bo'lgan, o'zida ko'rishni istagan ideali). Dindor shaxsi uchun ahamiyatli bo'lgan ideal, ijobiy "Men" va real, salbiy bo'lgan "Men" ko'rinishidagi bu ikkita obraz qadriyatlar va ustanovkalar bilan ziddiyatga kirishadi, nomutanosiblikni dunyoga keltiradi, chunki ideal "Men" hech qachon real "Men" bilan kelishmaydi. Bunday ziddiyat shaxsning o'zini o'zi taraqqiy qildirishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ba'zi olimlar (D.Uznadze, A.Prangishvili va h.k.) diniy e'tiqodni ustanovka sifatida talqin etadilar. Ma'lumki, ustanovka uchta komponentdan tashkil topgan: kognitiv (bilish), emotsional-hissiy va konitiv (xatti-harakatlar). Diniy e'tiqod ham dastavval dinni bilishdan boshlanadi. So'ngra bilimlar kuchayib, insonda ma'lum diniy tuyg'ularni chaqiradi. Diniy tuyg'ular esa o'z o'rnida

kishini ibodatga boshlaydi. Ko'rib turganingizdek, insonning diniy e'tiqodi tegishli jarayonlarni boshidan kechira borib, yuksaladi, taraqqiy topadi.

## 5. Diniy hodisalarning intersub'yektiv (botiniy) jihatlari

Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir o'tkazuvchi omil - din doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Sotsiologiya fanining asoschisi hisoblanuvchi O.Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lar ekan, asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Uning tasnifida insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi. Bular quyidagilar: *teologik, metafizik va ilmiy* bosqichlar. Kont fikricha, har uchchala bosqichda ham din muayyan rol o'ynaydi.

Dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va rolini tahlil qilish uchun, avvalo, din o'zi nima? - degan savolga javob topish kerak. Bu savol jo'ngina tuyulsa ham, unga javob berish ancha murakkab. Bu savolga dinshunoslik, sotsiologiya va falsafadagi turli oqimlar turlicha javob beradilar. Bu javoblarning aksariyati esa bir-biriga zid va bir-birini inkor qiladi.

Sho'rolar davrida chiqarilgan falsafa va ateizmga oid adabiyotlarda din voqelikning kishilar ongidagi fantastik in'ikosi, deb ta'riflangan va u xalq uchun afyun, deb e'lon qilingandi. Bu adabiyotlarda dinning asosiy belgilaridan biri ilohiy kuchga, ya'ni xudoga ishonish, deb belgilanardi. Holbuki, dunyoda shunday dinlar borki, ularda xudo tushunchasi umuman yo'q. Sotsiologiya va dinshunoslikka oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish ularda dinga ko'plab ta'riflar berilganini ko'rsatadi. Biz bu ta'riflar qatoriga yana bittasini qo'shish o'rniga dinning o'ziga xos belgilarini sanab o'tmoqchimiz.

Ular quyidagilar:

1. Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi. Har bir din dunyoni o'z nuqtayi nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi.

2. Marosim va rasm-rusumlar. Har bir din o'ziga xos marosim va rasm-rusumlarga ega.

3. Diniy marosim va rasm-rusumlarning muayyan qismi faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi faqat sinagoga va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan o'qiladigan namoz asosan jome masjidlarida o'qiladi. Dinlar sehrgarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, ya'ni muayyan marosimlarni muayyan joylarda bajarish bilan farqlanadilar. Sehrgar va shamanlar g'ayritabiiy harakatlarni individual holatda bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarining asosiy qismini jamoa bo'lib bajaradilar.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy his-tuyg'ular qanday mazmun mohiyatga ega?
2. Diniy muomalaning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. Diniy ustunlik (o'z dinini boshqa dinlardan ustun qo'yish) hodisasining mohiyatini ochib bering.
4. Dindor kishining ehtiyojlari va faoliyati o'rtasida qanday aloqalar mavjud?
5. Xulq-atvor motivlari bilan diniy motivlar o'rtasida qanday farqlar kuzatiladi?
6. Dindorlarning qadriyatlar tizimi umuminsoniy qadriyatlar tizimi bilan umumiy tomonlarini ko'rsatib bering.
7. Diniy ustanovkalar va ular diniy ongning shakllanishida qanday rol o'ynaydi?
8. Diniy hodisalarning intersub'yektiv (botiniy) jihatlarining ekstroobyektiv (zohiriy) jihatlardan qanday farqi bor?

## XIV BOB. DINNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA MOHIYATI

### **Reja:**

1. Diniy kechinmalarning psixologik tahlili.
2. Psixologiya fanida diniy e'tiqod tushunchasiga yondashuv.
3. Diniy amallar va diniy xulq-atvor.
4. G.Ollport tadqiqotlarida dindor shaxsi tipologiyasi.
5. V.Franklning hayot mazmuni to'g'risidagi ta'limotida dindorlik tushunchasi.
6. Ratsional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy kechinmalar, diniy e'tiqod, diniy amal, diniy xulq-atvor, dindor shaxsi tipologiyasi, hayot mazmuni, dindorlik, ratsional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasi.*

### **1. Diniy kechinmalarning psixologik tahlili**

G'arbdagi din psixologiyasi olimlari XX asrning 90-yillaridan boshlab diniy his-tuyg'ular masalasiga alohida e'tiborlarini qaratishadi. Diniy kechinmalarni o'rganish zarurati ilmiy bilishning mantig'idan va psixologiyani dinga xizmat qildirishga uringan kishilar hamda tashkilotlar ehtiyojidan kelib chiqadi. Dinshunoslik fanida diniy his-tuyg'ularni dinning asosiy manbasi sifatida qarash e'tiborga olinadi. Masalan, daniyalik faylasuf va psixolog G.Geffding shunday deb yozadi: "His-tuyg'ular barcha dinlarning, barcha diniy qarashlarning eng muhim xususiyatini tashkil etadi. Unga qiyosan barcha tasavvurlar unga bog'liq va bo'ysingan holda kechadi"<sup>75</sup>. Shunga o'xshagan fikrlarni U.Jeyms tomonidan ham ilgari surilgan.

Hissiy-emotsional kechinmalar jarayonidagi katarsisning vujudga kelish qonuniyatlari, ma'lum darajada diniy katarsisga ham

<sup>75</sup>Гегфдинг Г. Философия религии. С. 104.

xos bo'ladi. Agar estetik katarsis mazmunida hissiy kechinmalarning mohiyati mazmuni yotsa, diniy kechinmalar esa diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'ladi.

Diniy katarsis dinamikasini diniy ibodatlarni (amallarni) bajarish vaqtida aniqlab olish mumkin. Ibotatlarni bajarishda vujudga keladigan individual va jamoa kechinmalari bir-biridan farqlanadi. Lekin ular o'rtasida umumiy xususiyatlar ham mavjud. Amerikalik psixolog U.Jeyms ular o'rtasidagi umumiy psixologik o'xshashlik, barcha dinlarda ham bir xil kechadi. Ya'ni "ruhiy qiynalishlar, ikkilanishlar, umidvorlik, sekin-asta forig' bo'lish jarayonidir" deydi.

Diniy kechinmalarning rivojlanish qonuniyati, ibodatlar jarayonidagi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqichda – hissiy kechinmalarga nisbatan diqqat-e'tibor, qiziqish ortib boradi. Ayniqsa, bu – e'tiqodli dindorlarda kuchliroq seziladi.

Ikkinchi bosqichda – ibodat qiluvchilar bevosita Allohga murojaat qilib, gunohlarini kechirishni, mag'firat qilishni so'raydilar. Tavba-tazarru qiladilar. Mag'firat qilishni iltijo qiladilar.

Uchinchi bosqich yakuniy bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati, ibodat tinch, osoyishta, ijobiy hissiyotlarni namoyon etish bilan yakunlanadi. Ibadatdan keyin, ruhiy-ma'naviy poklanib, o'zini erkin va yengil his qiladi.

Diniy amallarni jamoa bo'lib bajarish, ibodat qiluvchilarda ijobiy va salbiy kechinmalarni yaqinlashtiradi, ya'ni ruhiy yaqinlikni vujudga keltirib, hissiy jihatdan tinchlanishga olib keladi. Diniy ibodatlarning psixologik vazifalaridan biri ham salbiy kechinmalarni susaytirish vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir. Ibadat qiluvchi Allohga ishonib, undan mushkulotlarini oson qilishni so'rab iltijo qiladi. Diniy poklanishning butun mohiyati ham shunda, ya'ni ishonchda, e'tiqodda. Jamoa bo'lib diniy amallarni, ibodatlarni bajarishda ibodat qiluvchilarning o'ziga xos ruhiy kechinmalar dinamikasi sodir bo'ladi. Bu xil kechinmalar individual ibodatlarda sodir bo'lmaydi.<sup>76</sup>

<sup>76</sup> Шкуренко А.Д. Общая и медицинская психология. -Ростов-на-Дону. 2002. -С. 256.

## 2. Psixologiya fanida diniy e'tiqod tushunchasiga yondashuv

E.Fromm o'zining "Psixoanaliz va din" asarida diniy e'tiqodga asosan ijtimoiy muhit ta'sir etadi. Biologik yoki instinktiv asosda din yuzaga kelmasligini uqtirib, ijtimoiy muhitdagi madaniyatgina shaxsda e'tiqodni qay darajada shakllanishiga sabab bo'ladi, deb uqtiradi. Fromm psixoanalizdagi ongsizlik nazariyasidan chetga chiqmagan holda omma ongsiz ravishda dinga ergashadi va bu shaxsda ongsiz ravishda e'tiqodni yuzaga keltiradi, degan g'oyani ilgari suradi. E.Fromm din sotsial-ijtimoiy terapiya sifatida, shaxs himoyaga muhtoj bo'lganda, uni izlaganda tasalli beruvchi, ruhlantiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi ijtimoiy madaniyat ko'rinishida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

1901–1902-yillarda V.Jeymsning Edinburg universitetida o'qigan din psixologiyasiga oid ma'ruzalaridan so'ng Yevropa psixologlari diniy e'tiqodning psixologik asoslari tahliliga e'tibor qaratib, o'z izlanishlarini qayta qura boshlashdi. Shunday qilib dinning psixologik xususiyatlariga Yevropalik psixologlar diqqatini qaratgan mutaxassis sifatida V.Jeyms tarixdan joy olgan.

Dinga psixologik munosabatni ta'kidlab o'tgan fransuz olimi E.Butru fikricha, bu masala quyidagicha namoyon bo'ladi: birinchidan, diniy fenomen (g'ayritabiiy holat va ko'rinishlarni kuzatish va ularni ilmiy tahlil etish; ikkinchidan, psixologik tahlil asosida diniy fenomenlarni psixologik jarayon bilan bog'liqlik qonuniyatini o'rganish. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib E.Butru izdoshlaridan Teodyul Ribo (1839–1916) diniy amallarni bajarish jarayonidagi har xil ruhiy va jismoniy holatlarga ko'plab fransuz nevropatolog va psixiatrlarining "diniy e'tiqod ongli faoliyatning buzilishidir" degan nazariyalariga qarshi o'laroq, "Hissiyot psixologiyasi" asarida diniy e'tiqod sog'lom shaxslargagina xos bo'lib, u oliy tuyg'ularning bir ko'rinishidir, deb baho beradi.

Fransiyada psixiatriya va nevropatologiyaning rivojlanganligi diniy e'tiqoddagi fanatizm, mistitsizm kabi ko'rinishlarni oliy nerv faoliyati asosida o'rganish imkoniyatini berdi. Shu yo'nalishda izlanishlar olib borgan E.Myurise "Diniy hissiyot kasalligi" asarida mistitsizm shaxs rivojlanishini bir andozaga solib, innoug-ratsiyalasa, fanatizm yuqori darajada rivojlangan xohishlar asosida

ijtimoiy muhitga yoqish istagidir, deb qaraydi. Bu xil izohlash diniy e'tiqodning psixologik tahliliga yana bir yondashuv bo'lib, u asosan ijtimoiy omillar bilan bog'lab tushuntiriladi. Dinning ijtimoiy psixologik nazariyasi asoschisi deb, fransuz olimi Emil Dyurkgeym (1858–1917) tan olinadi. U “Diniy hayotning sodda tuzilishi” asarida diniy e'tiqod shaxsgagina xos xususiyat bo'lmasdan, ijtimoiy hodisa hamdir, degan fikrni ilgari suradi. E.Dyurkgeym dinga shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida qarab, dini jamiyat a'zolari xulqini bir mezonga solib turuvchi andoza sifatida ta'riflaydi. Diniy e'tiqodni ijtimoiy-psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil etish Fransiyada hozirgi kungacha ham davom etib kelmoqda.

Germaniyalik olim Maks Sheller fikricha, din psixologiyasi inson ruhiyatiga ikki xil - moddiy va ma'naviy yo'nalishda ta'sir etadi. Moddiy tomondan inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir o'zi va yagona holda yashay olmaydi. Balki boshqa ijtimoiy mavjudotlarning va borliqning yordami va ko'magi bilangina hayotini davom ettira oladi. Shu jihatdan olib qaraganda, u insonlar bilan keng miqyosda aloqaga kirishadi. U kirishayotgan munosabatlardagi asosiy mezon-diniy omillar hisoblanadi. Bu narsa qisqagina yaxshi va yomon, halol va harom kabi kategoriyalarda ifodalanadi. Bular esa dinning inson ruhiyatidagi ta'sirini belgilovchi asosdir.

Ma'naviy jihatdan diniy e'tiqodning inson ruhiyatiga ta'sirini ko'radigan bo'lsak, inson faqatgina moddiy va jismonan mavjud emas. U o'z jismini saqlab qolishi uchun yeyish, ichish kabi narsalarga muhtojdir. Ammo unda oliy tuyg'ular mavjud. Jism o'ziga ozuqa talab qilgani kabi, ma'naviy borlig'imiz ham o'z ozuqasini talab qiladi. Ushbu ozuqalarning manbai diniy e'tiqoddur. Moddiy narsalarning kamchiligi va buzuvchiligi yoki unuman ehtiyojning ta'minlanmasligi, jismning yo'q bo'lib ketishiga yoki o'limiga sabab bo'ladi. Xuddi shunga o'xshab, inson ruhi diniy tushunchalar bilan ozuqlanmasa ma'nan qashshoqlashib ketadi.

### **3. Diniy amallar va diniy xulq-atvor**

Din psixologiyasiga oid tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, diniy amallar va ibodatlar bilan dindor kishilarda qalb poklanishi sodir bo'ladi, ya'ni qalbgaga taskin berish jarayoni amalga oshiriladi.



Materialistik ta'limotga ko'ra, diniy amallarni bajarish jarayonida emotsional holatlarning almashishi bilan bog'liq ma'lum qonuniyatlar amalga oshadi va taskin orqali yuzaga chiqadi, deb hisoblaydilar. Bu albatta, ancha murakkablikni keltirib chiqaradigan tushuncha va izoh. Diniy amallarni to'la-to'kis amalga oshirishda, diniy poklanish va ruhiy komillikka yetaklovchi bilimlarga ega bo'lish uchun islomda tasavvuf ilmi bilan va boshqa dinlardagi ibodat vaqtidagi ruhiy poklanishga bag'ishlangan ilmlarni bilish talab etiladi.

Teodyul Ribo (1839–1916) diniy amallarni bajarish jarayonidagi har xil ruhiy va jismoniy holatlarga ko'plab fransuz nevropatolog va psixiatrlarining “diniy e'tiqod ongli faoliyatning buzilishidir” degan nazariyalariga qarshi o'laroq, “Hissiyot psixologiyasi” asarida diniy e'tiqod sog'lom shaxslargagina xos bo'lib, u oliy tuyg'ularning bir ko'rinishidir, deb baho beradi.

Din psixologiyasiga oid tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, diniy amallar va ibodatlar bilan dindor kishilarda qalb poklanishi sodir bo'ladi, ya'ni qalbgaga taskin berish jarayoni amalga oshiriladi. Materialistik ta'limotga ko'ra, diniy amallarni bajarish jarayonida emotsional holatlarning almashishi bilan bog'liq ma'lum qonuniyatlar amalga oshadi va taskin orqali yuzaga chiqadi, deb hisoblaydilar. Bu albatta, ancha murakkablikni keltirib chiqaradigan tushuncha va izoh. Diniy amallarni to'la-to'kis amalga oshirishda, diniy poklanish va ruhiy komillikka yetaklovchi bilimlarga ega bo'lish uchun islomda tasavvuf ilmi bilan va boshqa dinlardagi ibodat vaqtidagi ruhiy poklanishga bag'ishlangan ilmlarni bilish talab etiladi.

Xorij psixologlaridan S.Grof va D.Xelifakslar o'z asarlarida insonning ma'lum dinga nisbatan e'tiqod va amal qilishini ijtimoiy hodisa, deb baholaydi. Shuningdek, diniy amalning kuchayishi va shaxsning biror-bir diniy harakatlarni sodir etishi sababi sifatida gunohlardan qochish yoki o'lim oldidagi qo'rquvni yengishning yo'li sifatida e'tirof etadi.

Insonda diniy amallar va e'tiqodning shakllanishi hamda rivojlanishini amalda birinchi bo'lib J.Flovler taklif qilgan. Quyida shaxs diniy e'tiqodini shakllanish bosqichlari o'z ifodasini topgan:

1 – bosqich: intuitiv – proyektiv, 3 – 7 yoshlarga to'g'ri keladi; e'tiqod imitatsiya, idrok va fantaziya ko'rinishlarida bo'ladi.

2 – bosqich: mifik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri, 7 – 12 yoshlarga to‘g‘ri keladi; xarakter xususiyatlarida har bir voqea-hodisani to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok qilish, fikriy cheklanganlik, oilaviy mojarolar bilan bog‘liq reaksiyalar qo‘zg‘atish mumkin.

3 – bosqich: sintetik – konvensional, o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi; tashqi avtoritetlardan g‘oyaviy tizimlar o‘zlashtiriladi.

4 – bosqich: individual – refleksiv: inson o‘zi mustaqillikka qadam qo‘ygan davriga to‘g‘ri keladi; bu davrda demifiologizatsiya kuzatiladi. E‘tiqodini mustaqil shakllantirishga harakat qilinadi va oliy ta‘lim jarayoni bilan birga amalga oshiradi.

5 – bosqich: paradoksal – konsolidatsiyalashgan, o‘rta yoshlarga to‘g‘ri keladi; ratsional ong shakli namoyon bo‘ladi, ya‘ni shaxsiy uyining doimiy egasi.

6 – bosqich: universiallashtirish, bu davrga kelib inson o‘z qadriyatlarini doirasida yashashni boshlaydi. Diniy amallar tizimi bo‘yicha hayotni davom ettiradi.

Yuqoridagi aytib o‘tilgan mulohazalar turli dinlarga e‘tiqod qiladigan dindor shaxsning diniy amallarni bajarish jarayonidagi psixologik va psixoterapevtik holatlarini belgilab beradi.

#### **4. G.Ollport tadqiqotlarida dindor shaxsi tipologiyasi**

Jahon psixologiyasi uzoq yillardan beri diniy amallarni bajaruvchi shaxslarning ijtimoiy-psixologik tipologiyasini tuzishga harakat qilib kelinmoqda. Ayniqsa, bu masala bilan G.Ollport yetarli darajada shug‘ullangan. Uning 1960- yillarda chop etilgan ishlarida diniy amallarni bajaruvchi insonlarni ikkita asosiy tipdan iborat bo‘lgan qarashini ilgari suradi.

U birinchi tip vakillari sifatida din faqat insonlarni hayotiy maqsadlarga yetishishini ta‘minlovchi bir yo‘l sifatida e‘tirof etib, bunday insonlar dinga nisbatan tashqi tomondan yondashadigan insonlar, deb ta‘kidlaydi. Ular turli xil diniy tadbirlar va yig‘ilishlarda ishtirok etadilar, jamiyat tomonidan qabul qilingan yashash shakliga o‘zining munosabatini ifoda etadilar. Aynan bu tipdagi insonlarda din qadriyat hisoblanadi. Din salbiy, negativ hodisalarga qarshi turish vositasi sifatida, ya‘ni ichki konfort

vositasi sifatida ko'zga tashlanadi. G.Ollport bu tipdagi insonlarni ekstrensiv, ya'ni "tashqi" tip deb ataydi.

Ikkinchi tipdagi insonlar dinni mustaqil va asosiy qadriyat sifatida tasavvur qiladilar. Ular o'zlarining turli ijtimoiy doiradagi faoliyatlarini diniy amallar bilan motivlashtiradi va bog'laydilar. Nodiniy ehtiyojlari va qiziqishlarini ular ikkinchi darajaga qo'yadilar va o'zlarining xulq-atvori va xatti-harakatlarini diniy normalar, qarashlarga bo'ysundiradilar. Bunday tipdagi insonlarni G. Ollport intrensiv, ya'ni "ichki" tip deb ataydi. G.Ollport qarashlari o'sha vaqtda bir qancha Amerikalik din mutaxassisleri tomonidan muhokama etildi. Ammo asosiy tadqiqotchilar ishlarida o'zining metodologik asos bo'lishi bilan qadrini yo'qotmadi.

Keyinchalik G.Ollportning ishlarini davom ettirgan bir qancha amerikalik psixologlar D.Betson va L.Ventis o'zlarining "Diniy tajriba" degan kitoblarini yaratishdi. Bu kitobda ular ekstrensiv va intrensiv tiplariga kiruvchi insonlarda qator tadqiqotlar o'tkazishdi. Diniy amallarni bajarish jarayonida har bir subyekt, emotsional, psixik jarayonlarni boshdan kechirib, ularda xursandchilik, Alloh bilan yaqinlik qilishga, bu jarayonlarda aloqaga kirishishga harakat qilinganligi, deyishadi D.Betson va L.Ventis. Ekstrensiv tipga mansub insonlarda salbiy ruhiy poklanish vujudga kelib, ularda nevroz holatlari kelib chiqishi mumkinligi aytiladi. Intrensiv tipga mansub insonlarda esa xavotirlilik hissi pasayib, aybdorlik hislaridan ozod bo'lishib, ruhiy yengillik va barqarorlikka erishishadi. Bu esa ularning faoliyat sohasini yanada rivojlanib, takomillashishiga sabab bo'ladi, deb e'tirof etishadi.

## **5. V.Franklning hayot mazmuni to'g'risidagi ta'limotida dindorlik tushunchasi**

Viktor Frankl Vena universiteti psixologiya professori, shaxsning rivojlanishi masalalari bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. U psixologiya faniga "logoterapiya" yoki "ma'naviy ma'no orqali psixoterapiya" tushunchalarini kiritadi. Bunda u ruhiy va ma'naviy asosga ega bo'lish haqida fikr yuritadi. «Logoterapiya» — bu fundamental ruhiy masalalar doirasida psixologiya muammolarini qaytadan ko'rib chiqish degani. Bu masalalardan asosiysi — bu inson

hayotining ma'nosi, bu ma'noning ijodiy hayotga tatbiq etilishi bilan bog'liq holda kechadigan haqidagi masaladir.

Logoterapiyaning asosida logos degan tushuncha yotadi va logos deganda bu dunyoda yashaydigan va harakat qiladigan hayotiy ma'nolar olami tushuniladi. V.Frankl fashistlarning konsentratsion lagerida yotganida shu narsaga iqror bo'ldiki, insonning yashovchanlik xususiyati birinchi navbatda jismoniy sifatlar bilan belgilanmasdan, hayotning ma'nosini tushunishga, oliy qadriyatlariga intilishiga, ma'naviy olamga munosabatiga, eng muhimi Xudoga ishonishiga bog'liq holda kechar ekan. Logos odamning tanasiga emas, balki uning qalbiga bog'liq tushuncha hisoblanadi. Hayotning ma'nosining manbai dinga borib taqaladi. V.Franklning fikricha, agar inson o'zining dindorligini yashirsa, Allohga bo'lgan munosabati "anglanmaganlik sohasiga" siqib chiqariladi va shunda u ruhiy iztirob ichida qoladi, ish hatto patologiyaga ham borib yetishi mumkin.

Ekzistentsializmning logoterapiyaga ta'siri ko'rinib turibdi. Inson uchun muhimi hayotni anglashi va mas'uliyatni tushunib yetishi. Shuning uchun inson doimo hayotning ma'nosini anglash yo'lidan bormog'i lozim. Insonda reallik bilan ideal o'rtasidagi qutblar hamisha bo'ladi. Bu qutblar o'rtasidagi zo'riqish maydonida yashashga to'g'ri keladi. Inson ideallari va qadriyatlari bilan yashaydi. Inson ma'noni vijdon yordamida izlaydi. Vijdon doimo uyg'oq bo'ladi. Ma'noni izlash jarayonida odamni vijdon boshqaradi. Shu nuqtayi nazardan vijdon insonning intuitiv qobiliyatidir. Bu qobiliyat yordamida u vaziyatlarning ma'nosini anglaydi.

Hayotning ma'nosi oxir oqibat dinga borib taqaladi. Frankl ham shunday degan xulosaga kelgan. Shaxsdan yuqori bo'lgan har qanday narsa oliy ma'noga olib boradi. Oliy ma'no esa metafizik hodisadir, shuning uchun ham dinga taalluqlidir. Bu holat esa tabiiy psixoterapevtik ahamiyatga ega. Ichki bir kuchga asoslangan haqiqiy e'tiqodga o'xshash insonni boshqaradigan omil insonning yashovchanligini oshirib yuboradi.

Logoterapiya insonga "Oliy ma'no"da bo'lishli natijasida uning ilk sog'lom holatiga qaytishiga yordam beradi. Bu sog'lom holatni anglanmaganlik sohasiga siqib chiqarilgan, anchadan beri yo'qotilgan manbadan izlab topish mumkin bo'ladi. Bu sog'lom

holat ilk holatni tiklashligi va tinch, hayotga tashnalik bilan yo'g'rilgan pozitsiyaga qaytishlikda ko'zga tashlanadi. Logoterapiya albatta ruhni qutqarib qolish vazifasini o'z zimmasiga olmaydi, balki u ruhni davolash bilan shug'ullanadi. Agar psixoterapevt va patsient bitta umumiy e'tiqodda to'qnash kelsa, psixoterapevt patsientga vrach sifatida emas, balki e'tiqoddosh sifatida ko'riladi va bu terapiyaning samaradorligini oshirib yuboradi. Bu narsa psixoanalizda yo'q, unda insonni qo'zg'atadigan, majburlaydigan mayllar haqida gap ketadi. Erkin insonning yashashdagi ma'nolari Freydni qiziqirtmaydi va shuning uchun ham u "cho'loqdir". Shu nuqtayi nazardan Frankl hayotning ma'nosini, qadriyatlarini va din singari hayotiy muhim masalalarni inkor etadigan psixologlarni tanqid qiladi.

V.Franklning fikriga ko'ra, ruhiy muammolarni "simptom" sifatida qarash noto'g'ri, ularni fazilat deb baholash lozim. Chunki ruhiy muammolar patsient tomonidan anglangan va yechimida qiynalinyotgan holatlarkim, ularni psixokonsultant yordamida hal etish mumkin.

## **6. Ratsional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasi**

Ilmiy bilishda dindor shaxsning ikki xil tipi farqlanib turadi: ratsional va konfessional tiplar.

1. Ratsional tipdagi kishilar ilmiy bilish jarayonida quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: dinga, umuman diniy tashkilotlarga nisbatan skeptik munosabat (tanqidiy munosabat, biror narsaga ishonchsizlik); antiklerikal qarashlar (qadimgi yunon tilidaga *ἀντι κληρικὸς* klirik so'zlaridan olingan bo'lib, klirikka qarshi degan ma'nolarni beradi. Siyosiy va ma'naviy hayotni, fanni, madaniyatni va ta'limni dinning aralashuvidan qutqarish kerak, degan maqsadni o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy harakat, qarashlar to'plami); Xudo to'g'risidagi panteistik tasavvur (panteizm Xudo bilan olamni ba'zida umumlashtiruvchi, ba'zida tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot bo'lib, u qadimgi yunon tilidagi *παν* hamma, hamma narsa va *θεός* Xudo, ilohiyot so'zlaridan olingan); tabiat qonunlari garmoniyasiga ishonch (tabiatdagi garmoniya qonunlaridan biri "oltin kesim" deb ataladigan, butun va uni tashkil

etadigan qismlar o'rtasida proporsiyaning saqlanishi qonuni); dunyoni, jamiyatni va odamni bilishning ratsional va irratsionalligi asosiga qurilgan dixotomik dunyoqarash (dixotomiya-bo'linganlik, narsalarning, tushunchalarning ichki jihatdan o'zaro aloqador bo'lgan ikkita qismga bo'linishi to'g'risidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u qadimgi yunon tilidagi  $\delta\chi\eta$  ikkiga va  $\tau\omicron\mu\eta$  bo'lingan so'zlaridan olingan); mistitsizm; diniylik va axloqiylikning qiyoslanishi; insonparvarlik; olamga va insoniyatga muhabbat; tolerantlik; antinomlilik (antinomiya bir-birini inkor etadigan ikkita fikr biri ikkinchisidan kelib chiqishi to'g'risidagi ta'limot bo'lib, u qadimgi yunon tilidagi antinomia – qonundagi qarama-qarshilik so'zidan olingan). Yuqoridagi belgilarga ega bo'lgan olimlarning ratsional tipiga quyidagilarni kiritsak bo'ladi: N.P.Bexterev, V.I.Vernadskiy, V.Geyzenberg, Ch. Darwin, S.P.Kapitsa, M.Plank, A.D.Saxarov, A. Eynshteyn.

2. Konfessional tipdagi kishilar ilmiy bilish jarayonida quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: ma'lum diniy an'analarga qat'iy rioya qilish; Allohning biru-borligiga nisbatan diniy e'tiqod, ilmiy kashfiyotlarda Allohning mo'jizasini ko'rish; ilmiy va diniy haqiqatlarning bir-birini to'ldirishligini e'tirof etish; din va fan tamoyillarini bitta bilimga umumlashtirish. Yuqoridagi belgilarga ega bo'lgan olimlarning ratsional tipiga quyidagilarni kiritsak bo'ladi: V.F. Voyno-Yasenetskiy, J. Lemetr, D.E. Melexov, B.C. Olxovskiy, N.I. Pirogov, D. Polkinxorn, P. Teyyar de Sharden, V.P. Filatov, P.A. Florenskiy.

Dindor shaxs o'z hayotida ilm bilan dinni hamohang holda olib boradi va olamni, jamiyatni va inson tafakkurini bilishning yagona yo'li sifatida ularning hamkorligini ta'kidlaydi. Har qanday olimning dindor yoki dindor emasligi uning ilmiy xulosalarida o'z aksini topadi. Biz bilgan va bilmagan tabiat shunchalik murakkabki, uni faqatgina ratsional jihatdan bilib bo'lmaydi. Shuning uchun uni mukammal bilishda irratsional jihat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi ijtimoiy tajriba bilishning barcha shakllarining hamkorligini talab etadi. Shu yo'l bilangina bilishda haqiqiy erkinlikka erishish mumkin.

## **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy kechinmalarning psixologik tahlili qanday amalga oshiriladi?
2. Psixologiya fanida diniy e'tiqod tushunchasiga yondashuvning o'ziga xos jihatlarini aytib bering.
3. Diniy amallar va diniy xulq-atvor din psixologiyasida qanday o'rin tutadi?
4. G.Ollport tadqiqotlarida dindor shaxsi qanday tipologiyasi ishlab chiqilgan?
5. V.Franklning hayot mazmuni to'g'risidagi ta'limotida dindorlik tushunchasi qanday o'rin tutadi?
6. Ratsional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasining farqlari qanday?

## **XV BOB. INSONNING DINIY JAMOAGA QO'SHILISHI VA UNING PSIXOLOGIK TOMONLARI**

### **Reja:**

1. Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko'rsatadigan psixologik ta'siri.
2. Insonlarni diniy tashkilotlarga jalb etish xususiyatlari.
3. Da'vatchi (yollovchi) va obyekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o'zaro aloqaning vujudga kelishi.
4. Obyektning (yollanuvchining) ongini boshqarishning nutqiy usullari.
5. Psixotexnik usullar va obyekt (yollanuvchi) ongida hosil bo'lgan o'zgarishlarning tashqi belgilari.

**Tayanch tushunchalar:** diniy jamoa, din peshvolari, diniy tashkilotlar, yollovchi, yollanuvchi, ongsizlik darajasi, ishonchli o'zaro aloqa, nutqiy usullar, psixotexnik usullar, ongda hosil bo'ladigan o'zgarishlar.

### **1. Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko'rsatadigan psixologik ta'siri**

Diniy jamoa – diniy uyushmalardan biri bo'lib, uning a'zolari hamkorlikda ibodat qilishlari uchun va e'tiqodlarini tarqatish uchun erkin holda uyushgan bo'lishadi. Ijtimoiy jamoalardan biri hisoblagan diniy jamoalarning o'ziga xosligi nimada? Mazkur uyushma doirasida odamlarni nima uyushtiradi? Birinchi navbatda shuni ta'kidlash kerakki, bu yerda diniy e'tiqod hamkor holda o'z a'zolariga yoki tashqi jamoalarga uzatiladi. Bunday jamoaning paydo bo'lishiga dastavval diniy e'tiqod bilan yashashga va uni tarqatishga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'ladi. Diniy e'tiqodga amal qilish va tarqatish ijtimoiy faoliyat turlaridan biri hisoblanib, bunda inson ilohiyotga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi va shu munosabatini amalda ko'rsatadi.



Diniy jamoalarning tasnifini qisqacha ko'rib chiqamiz:

1) a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi bo'yicha:

a) ochiq tipdagi jamoalar – a'zolarning a'zoligi qayd qilinmagan, biroq dindorlarning mustahkam yadrosidan tashkil topgan diniy jamoa;

b) yopiq tipdagi jamoalar – dindorlarning qat'iy qayd qilingan tarkibiga ega bo'lgan, turg'un shaxslararo kontaktlar mavjud bo'lgan va o'ta uyushgan diniy jamoa.

2) e'tiqodining mazmuniga ko'ra:

a) ijobiy idealga tayanadigan konstruktiv diniy jamoalar;

b) to'liq destruktiv (botil) mazmun bilan xarakterlanadigan diniy jamoalar.

3) tashkil bo'lishining shakliga ko'ra:

a) rasmiy jamoalar, ya'ni davlat tomonidan ro'yxatdan o'tgan diniy jamoalar;

b) norasmiy jamoalar, ya'ni ro'yxatdan o'tmagan, lekin bir e'tiqod atrofida uyushgan diniy jamoalar.

Din psixologiyasida nafaqat diniy jamoaning psixologik ta'siri, balki din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko'rsatadigan psixologik ta'siri bo'yicha ham ma'lum tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda liderlar (rahnamolar)ning ommaga ta'sirining psixologik mexanizmlari mukammal o'rganilgan. Shunday psixologik mexanizmlardan taqlid, identifikatsiya, sublimatsiya, ratsionalizatsiya, proyeksiya va h.k. larni ko'rsatishimiz mumkin. Din peshvolari bunday psixologik mexanizmlarni puxta egallab olishadi va jamoaga kuchli ta'sir ko'rsatishadi.

## **2. Insonlarni diniy tashkilotlarga jalb etish xususiyatlari**

Diniy guruhlar jamiyatdan tashqarida alohida mavjud bo'lmaydi. U o'z o'rinida o'zidan nisbatan kattaroq bo'lgan, odatda umumiy marosimlarga va umumiy e'tiqodga ega bo'lgan hamda bir qancha diniy guruhlarini birlashtiradigan murakkab tizimning elementi hisoblanadi. Bunday tizimni diniy tashkilot deb atashadi.

Bizning mamlakatimizda asosan ikki xil diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishadi. Birinchisi, a'zoligi qat'iy qayd etilmagan

ochiq diniy tashkilotlar. Ularni birlashtirib turagan narsa ibodatlarini bir joyda qilishlari. Masalan, juma namozlarida musulmonlarning masjidlarda ibodat qilishlari. Ularning ichida ibodatga doimiy holda keladigan yadro mavjud. Biroq ularning bir qismi goh kelib, goh kelmaydi. Muhimi, bu jamoaga kimning kelishi yoki kelmasligi aniq qat'iy qayd etilmaydi.

Diniy tashkilotlarning keyingi tipi dindorlarning a'zolari qat'iy belgilanganligi bilan xarakterlanadi. Bu tip diniy konfessiyalarga xos bo'lgan holat. Ma'lumki, mamlakatimizda ko'plab diniy konfessiyalarga faoliyat ko'rsatish uchun rasman ruxsat berilgan. Ularning a'zolari qat'iy rasmiylashtiriladi. Bunday guruhlarda a'zolar o'rtasida shaxsiy munosabatlar o'rnatilgan bo'ladi, ularning bevosita kontaktlari takrorlanuvchan va doimiydir. Bunday guruhlarga har qanday kichik guruhlarga xos bo'lgan qonuniyatlar kuchga kiradi.

A.I.Demyanovning tadqiqotlariga ko'ra, jamoa a'zolarining proporsional, ichki uyushganligiga to'g'ri proporsional holda bog'liq bo'lar ekan.<sup>77</sup> Bu xulosa to'g'ri. Chunki diniy guruh qancha kichik va kam sonli bo'lsa, u a'zolarining xulq-atvori va ongiga shuncha kattaroq ta'sir ko'rsatadi.

Diniy guruhlarda rasmiy va norasmiy munosabatlarga to'xtalamiz. Har qanday kichik guruhlarda bo'lgani kabi diniy guruhlarda ham rasmiy va norasmiy munosabatlar o'rnatiladi. Guruh a'zolarining nizom va an'analar bilan reglamentlashtirilgan munosabatlari to'plami guruhning norasmiy tuzilmasini tashkil etadi. Guruh a'zolari o'rtasida reglamentga rioya etish sharti bo'lmagan holdagi munosabatlari guruhning norasmiy tuzilmasini beradi. Bu ikki tizimning o'zaro munosabati guruh ichidagi psixologik muhitni belgilab beradi. Boshqacha aytganda, rasmiy doiradagi ishlab chiqilgan normalarning norasmiy doirada ham saqlanishi guruhni mustahkam va uyushgan qiladi.

Rasmiy tuzilmada rasman tayinlab qo'yilgan rahbar bo'ladi. Masalan, bugungi kundagi masjidlarimizda rasman tayinlangan imom xatiblarimiz rahbarlik qilmoqda. Ular bilan jamoasi o'rtasidagi munosabatlar ikki xil bo'ladi. Ikkala tuzilmada ham

<sup>77</sup>Демьянов А.И. Религиозность тенденции и особенности проявления. – Воронеж, 1984. С.104.

rahbar rahbarlik qilsa, boshqacha aytganda, norasmiy doirada ham imomni rahbar sifatida qavmi tan olsa, bunday diniy jamoada sog'lom psixologik muhit hukmron bo'ladi.

Guruhiy diniy ongning shakllanishida diniy guruhdagi liderlarning ijobiy bo'lishligi muhim ahamiyatga ega. Agar guruh ichidagi liderlarning maqsadi rasmiy rahbar, ya'ni imom xatib maqsadi bilan bir bo'lsa, ular jamoaning ma'naviy-ruhiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadilar. Agar aksincha bo'lsa, jamoada rasmiy liderlar birorta ishni amalga oshirishi qiyin kechadi. Ba'zida guruh ichidan shunday diniy "faol"lar chiqib qoladiki, ular imom xatibning diniy jamoada olib borayotgan ijobiy ishlariga xalaqit beradi.

Jamoada ibodat qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish, taqlid qilish, hissiy yuqish singari ijtimoiy-psixologik mexanizmlar yordamida diniy tuyg'ular kuchaytiriladi, emotsional jihatdan forig'laniladi, dindorlarda shakllangan diniy stereotiplar va ijtimoiy ustanovkalar ularning ongida qaytadan ko'rib chiqiladi, mustahkamlanadi.

### **3. Da'vatchi (yollovchi) va obyekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o'zaro aloqaning vujudga kelishi**

Insonlarning diniy jamoga qo'shilishi masalasi din psixologiyasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu qo'shilish jarayonida ikkita muhim omilni ajratib ko'rsatish mumkin: yollovchi va yollanuvchi shaxslar. Ularning ikkalasining ham ma'lum psixologik jihatlari mos tushadigan bo'lsa, insonning diniy jamoaga qo'shilish hodisasi kuzatiladi. Ularning har birining psixologik jihatlari alohida-alohida to'xtalib o'tamiz. Birinchisi – yollovchidir. Ular nafaqat din sohasini puxta egallagan kishilar, balki kuchli psixologlar hamdir. Yollovchi diniy sektaga jalb etilayotgan kishiga nisbatan psixologik ta'sirning bir qancha usullarini qo'llaydi. Bu usullarning samaradorligi yollovchining qobiliyatiga ham bog'liq. Quyida yollovchi tomonidan qo'llaniladigan usullarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. "Zaiflarni tanlash" usuli. Yollovchi diniy sektaga iymone'tiqodi zaiflarni tanlaydi. Chunki bunday e'tiqoddagilar misoli bir oq qog'ozday bo'lishadi va bu qog'ozga o'zlari xohlagan e'tiqodni

yoziqlari mumkin. E'tiqodi kuchlilar bilan ishlash qiyin, ko'p vaqt va asab talab etiladi. Zaiflar bilan ishlash oson kechadi.

2. "Muhabbat bilan ishg'ol qilish" usuli. Yollovchi yangi kelgan kishiga, ya'ni yollanuvchiga o'zining mehr-muhabbatini singdiradi. Chunki yollanuvchida bunday munosabatga nisbatan ijobiy holat paydo bo'ladi. Yollanuvchidagi bunday ustanovka yollovchining g'oyalarini qabul qilishga moyillik paydo qiladi. Bu ustanovkani shakllantirish uchun yollovchi ba'zida moddiy, moliyaviy rag'batlardan ham foydalanadi.

3. "Qadam baqadam" usuli. Bu usulning ma'nosi shundaki, yollovchi yollanuvchiga nisbatan bosqichma-bosqich psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab kechadi. Destruktiv g'oyani oldiniga eng soddalaridan boshlab keyinchalik qiyinrog'iga qarab tushuntiriladi. Murakkablari oxiriga qo'yiladi. Bu usulda g'oyani yollanuvchi qay darajada qabul qilayotganiga qarab singdiriladi.

4. "Dunyoni oq va qoraga bo'lish" usuli. G'oyalar singdirilgach, dunyo ikki toifaga ajratilib tushuntiriladi: yaxshilar va yomonlar, oqlar va qoralar, to'g'rilar va egrilar va h.k. Buning ma'nosi shundaki, ulardan birini tanlash sharti qo'yiladi. Albatta tanlanganda "yaxshilar" deb talqin etilgan tomonni tanlash ma'qullanadi. "Yaxshilar" tomon eng to'g'ri g'oyada, eng to'g'ri yo'lda, eng ma'qul tomonda bo'lishligi ta'kidlanadi. "Yaxshilar" obrazi shakllantirilganligi sababli aksariyat kishilar shu tomonni tanlashadilar va yollovchilar bu bilan o'z maqsadlariga erishadi.

5. "Identifikatsiyaning buzilishi" usulida yollanuvchining ilgarigi hayotidagi qadriyatlarini, normalari, ustanovkalari o'zgartiriladi. Bu usul eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Chunki shu bosqichda yollanuvchining psixologik tuzilmasi butunlay qayta quriladi. Natijada u yangi bir qiyofa oladi.

6. "Ongning o'zgartirilishi" usuli. Qadriyatlar, normalar o'zgartirilgandan so'ng yollanuvchining butunlay hayotga munosabati o'zgartiriladi. Ota-onaga, jamiyatga, davlatga nisbatan munosabati butunlay o'zgartiriladi. Ongning o'zgartirilishi natijasida endi ortga qaytmaslik holati kuzatiladi. Bundaylarni ortga qaytarish qiyin kechadi.

7. “Mo’jizalarning namoyishi” usuli. Bu psixologik jihatdan o‘ta nozik jarayon bo‘lib, bunda rahnamolarning va ular tavsiya qilayotgan g‘oyaning “mo’jiza”lari ko‘rsatiladi. Buning natijasida yollanuvchining botil g‘oyaga nisbatan ishonchi kuchayadi. Natijada yollanuvchi shu g‘oyani qabul qilish bo‘yicha uzil-kesil qaror qabul qiladi.

8. “Ongning, xulq-atvorning va tashqaridan kelayotgan ma’lumotlarning nazorati” usuli. Bu usulda yollanuvchi yollovchi tomonidan har tomonlama to‘liq nazoratga olinadi. Uning ongi, xatti-harakatlari va hatto tashqaridan oladigan ma’lumotlari nazoratga olinadi.

Yuqorida aytilgan usullar yordamida yollanuvchi sektaga jalb etiladi va manqurtga aylantiriladi. Yollovchining bu usullari yollanuvchining anglanmaganlik sohasi orqali psixologik ta’sir ko‘rinishida amalga oshiriladi. Ya’ni yollanuvchi o‘zga g‘oyani qabul qilib qo‘yanini anglamay ham qoladi.

#### **4.Obyektning (yollanuvchining) ongini boshqarishning nutqiy usullari**

Yollanuvchining ongini boshqarish turli xil vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, ongni boshqarishning nutqqa taalluqli bo‘lgan usullari mavjud. Nutqiy jihatdan ongni boshqarish inson hayotining barcha jabhalarida ko‘zga tashlanadi. Shu jumladan yollovchining yollanuvchiga psixologik ta’sir ko‘rsatishida ham kuzatiladi. Nutqiy usullar yordamida ko‘rsatiladigan psixologik ta’sirlar yordamida insonlardagi ehtiyojlar, qadriyatlar, ustanovkalar, stereotiplar, ijtimoiy tablar va h.k.lar o‘zgartiriladi. Muhimi bu o‘zgarishlar yollovchining manfaatlariga xizmat qiladi, ular kutgan o‘zgarishlar hisoblanadi.

Nutqiy manipulatsiya vositalari yollanuvchining ishonchi va e’tiqodi orqali ta’sir ko‘rsatmasdan, uning emotsional sohasiga psixologik ta’sir ko‘rsatish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Nutqiy ta’sir yashirin holda bo‘ladi, o‘z oldiga yollanuvchining qarashlari, maqsadlarini kerakli yo‘nalishga o‘zgartirish orqali bo‘ladi.

Yollanuvchi ongiga psixologik ta’sir qilishning maxsus nutqiy usullari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

9. Nutqiy usullarning birinchi guruhiga yollovchi va yollanuvchi pozitsiyalarining umumiy tomonlarini topish va namoyish qilish kiradi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

a) “Biz” shaklining qo‘llanilishi. Bunda yollovchi yollanuvchi pozitsiyasini ma’qullashligini, u bilan hamfikir ekanligini e’lon qiladi. U bu gapni hatto yollanuvchi pozitsiyasi uning qarashlariga xilof bo‘lsada, aytadi. Chunki yollanuvchi tarafga o‘tib, uni o‘zining pozitsiyasiga olib kelish psixologik jihatdan qulay hisoblanadi.

b) Yollovchi yollanuvchining pozitsiyasining juz’iy jihatlarini ozgina tanqid qilib qo‘yadi. Bu juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Hatto buni yollanuvchi sezmay ham qoladi. Bu insonning anglanmaganlik sohasida amalga oshiriladi.

v) Yollanuvchining ma’lum jihatlarini doimiy holda maqtab turish. Bunda maqtoovlar samimiy bo‘lmog‘i, obyektiv bo‘lmog‘i talab etiladi. Maqtoovning psixologik ta’siri katta va bu holat yollovchi bilan yollanuvchini bir-biriga yaqinlashtiradi.

10. Nutqiy usullarning ikkinchi guruhiga uzatiladigan ma’lumotning xarakteri kiradi. Yollovchi uzatadigan ma’lumotlarini shunday tuzadiki, tokim yollanuvchida uning haq ekanligiga zaracha ham shubha qolmasin. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

a) “ma’lumki”, “mutlaqo aniqki”, “biz bilganimizday” singari nutqiy jumalarni qo‘llash yordamida shubha uyg‘otmaydigan faktlarni ma’lumot sifatida uzatish usuli.

b) subyektiv fikrni fakt sifatida yoki haqiqat sifatida isbot talab qilmaydigan ko‘rinishda uzatish usuli. Bunda odatda maqollardan, aqlli fikrlardan, afsonalardan va badiiy asarlardan unumli foydalaniladi. O‘zlarining g‘oyalariga moslari topib olinadi yoki o‘zlarining g‘oyalariga moslab sharhlanadi.

v) biror masala haqida gapirganda tayyor yechim variantini aytish usuli. Bu yollanuvchini shaxsiy fikrlashdan qaytarish, tayyor mahsulotni berish va bu orqali ularda tanqidiy tafakkurni so‘ndirish uchun qilinadi.

3. Nutqiy usullarning uchinchi guruhi yollanuvchilarda “umumiy raqib”ga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishga yo‘naldirilgan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

a) yollovchi gapirganda “raqib”ning asl maqsadlarini ochib beruvchi xayoliy nutqini matnga kiritish usuli. Bunda “raqib”ning aytishi mumkin bo‘lgan nutqi ishlab chiqiladi va yollanuvchiga aytiladi. Bu kelajakda yollanuvchi “raqib” bilan to‘qnash kelganda, u aytadigan gaplarga nisbatan oldindan ustanovka paydo qilish uchun amalga oshiriladi.

b) “raqib”ga qarshi yo‘naltirilgan hazil-mazax, ritorik savollar ishlab chiqish usuli. Bunda “raqib”ga nisbatan unda salbiy emotsiya paydo bo‘ladi va u bilan munozaraga kirishganda ulardan foydalanadi.

Nutqiy usullardan biri afsonalar, rivoyatlar hisoblanadi. Ular odatda mantiqiy sxemalar orqali ta’sir ko‘rsatmasdan, obrazli-emotsional xarakterga ega bo‘lib, yollanuvchining bevosita emotsional-hissiy olamiga psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Diniy mavzudagi afsonalar va rivoyatlar mohiyatan ma’lum bir diniy g‘oyani tasdiqlaydi va yollanuvchidagi botil g‘oyani mustahkamlaydi.

## **5. Psixotexnik usullar va obyekt (yollanuvchi) ongida hosil bo‘lgan o‘zgarishlarning tashqi belgilari**

Yollanuvchi ongi yollovchining asosiy psixologik ta’sir objekti hisoblanadi. Chunki uning ongi o‘zgartirilsa, u boshqa bir odamga aylanib qoladi. Ongning o‘zgartirilgan holati deganda inson subyektiv kechinmalarining sifat o‘zgarishlariga aytiladi. Yollovchi oldinlari “Ota-ona rozi – Xudo rozi” qoidasiga amal qilsa, endi yollovchining diniy g‘oyasini qabul qilgandan so‘ng, u “Allohning roziligi ota-ona roziligidan ham afzaldir” degan qoidaga amal qiladi. U kelajakda kerak bo‘lsa “Allohning rozigi uchun” o‘z ota-onasini qurbon ham qilishi mumkin. Bu aslida yollovchining asl maqsadi hamdir. Inson ongini o‘zgartirishning bir qancha psixotexnik usullari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

i. Fragmentatsiya usuli. Bu usulda ongga yuboriladigan informatsiya to‘liq bo‘lmaydi, balki umumiy informatsiyaning ma’lum, yollovchining manfaatlariga xizmat qiladigan qismlari fragmentar jo‘natiladi. Shu fragmentlar asosida umumiy diniy botil g‘oya shakllantiriladi. Natijada yollanuvchi ongida ma’lum hodisaga nisbatan paydo bo‘lgan obraz haqiqatdan uzoq bo‘ladi.

ii. “Gebbels” metodi deb atalgan ko‘p martalik takror usuli. U yollanuvchi ongiga bo‘ladigan psixologik ta’sirning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda ko‘p ma’lumotlar ichida asosiy diniy botil g‘oya qisqa va lo‘nda ko‘rinishda takror va takror aytilaveradi. Natijada ongda bu g‘oya mustahkam o‘rnashib qoladi va tegishli paytda chiqib keladi.

iii. Mutlaqo yolg‘on psixotexnik usuli. Bu muhim psixotexnik usullardan biri hisoblanib, yollanuvchi ongiga g‘irt yolg‘on ma’lumotlar singdiriladi. Psixologik jihatdan ma’lumki, odamlar yolg‘on qanchalik dahshatli bo‘lsa, unga shunchalik tez ishonishadi. Bu psixotexnik usul yordamida yollanuvchi ongida ma’lum shaxsga yoki g‘oyaga nisbatan munosabatning keskin o‘zgarishini kuzatsak bo‘ladi. Yolg‘on hodisaning ishlab chiqilishi yoki mistifikatsiya inson ongiga kuchli psixologik ko‘rsatadi.

iv. “Faktlarning go‘zal shiorlarga aylantirilishi” deb atalgan psixotexnik usul. Bunda odatdagi oddiy shiorlar ham boshqacha ma‘no kasb ettirilgan holda e‘lon qilinadi. Masalan, “Erkinlik. Tenglik. Birodarlik” shiori haqiqiy musulmonlarning qul ekanligi va ularning erk uchun kurashga chiqishi kerakligi, kofirlarning musulmonlarni noteng ko‘rayotgani va tenglik uchun kurashga otlanishi lozimligi, kofirga aylangan musulmonlar ularning birodari emasligi va yollovchi ilgari surgan g‘oyani qabul qilganlar haqiqiy birodarlar ekanligi ma‘nosida tushuntiriladi. Aslida bu uchta so‘zning ma‘nosi butunlay boshqacha ekanligini yollanuvchi tushunmaydi ham.

v. Dissonans psixotexnik usuli. Bunda to‘g‘ri g‘oyaga nisbatan botil diniy g‘oyani oqlaydigan alternativ faktlar, qadriyatlar va tasavvurlar ilgari suriladi. Masalan, “vatan” degan qadriyatning o‘rniga “jihod” degan qadriyat ilgari suriladi. Natijada yollanuvchi ongida bu ikki holat joy almashgandan keyin, yollanuvchi Vatan manfaatlarini botil diniy g‘oya uchun kurash g‘oyasidan past qo‘yadi. Tarixiy xotirani mutlaqo boshqa xotira bilan almashtirishga intilishadi. Masalan, sovet mafkurasi davrida Alisher Navoiy hazratlari qariyb din va dindorlarni hajvga olgan kommunist darajasida talqin qilinar edi.

Yuqorida zikr qilingan psixotexnik usullarning ongga psixologik ta’siri amalga oshirilgach, bu holat yollanuvchining xulq-



atvorida ko'zga tashlanadi va ularni tashqi xatti-harakatlariga qarab bema'lol aniqlash mumkin bo'ladi. Bu tashqi belgilar yollanuvchining ko'proq tajovuzkor bo'lishida, qaysar bo'lishida, o'zga fikrlarga nisbatan chidamsiz bo'lishida, silai rahmda va h.k.lardan ko'zga tashlanadi.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga qanday psixologik ta'siri ko'rsatadi?
2. Insonlar diniy tashkilotlarga qanaday jalb etiladi?
3. Da'vatchi (yollovchi) va obyekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o'zaro aloqa qanaday vujudga keladi?
4. Obyektning (yollanuvchining) ongini boshqarishning qanaqangi nutqiy usullari mavjud?
5. Psixotexnik usullar yordamida obyekt (yollanuvchi) ongida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

## XVI BOB. IYMON VA E'TIQODNING SHAKLLANISHI VA NAMOYON BO'LISHI

### **Reja:**

1. Diniy iymon va e'tiqod tushunchasi. Ularning shakllanish bosqichlari.
2. Bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha.
3. Sezgi va uning turlari.
4. Idrok va uning xususiyatlari.
5. Xotira va uning e'tiqoddagi roli.
6. Tafakkur jarayoni va bilimlari.
7. Xayol va uning mohiyati.
8. Psixologik xususiyatlar: diqqat va e'tiqod.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy iymon, e'tiqod, shakllanish, bosqichlari, bilish jarayonlari, sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayoni, xayol.*

### **1. Diniy iymon va e'tiqod tushunchasi. Ularning shakllanish bosqichlari**

Din psixologiyasi fanining markaziy tushunchalaridan biri e'tiqod tushunchasi hisoblanadi. Ayrim manbalarda e'tiqod tushunchasi iymon tushunchasi bilan sinonim deb talqin qilinadi. Ba'zi manbalarda esa ularga har xil ma'no berishadi. Iymonning ma'nosi ishonch hisoblanadi, iymon kalimasida keltirilgan narsalarga ishonish tushuniladi. E'tiqod kalimasi ko'proq aqida tushunchasiga yaqin deb tushuntiriladi. Insonning turli masalalarga nisbatan, ayniqsa ilohiyot masalasiga nisbatan munosabatda e'tiqod yoki aqida yuzaga chiqadi. E'tiqodni to'g'rilamay turib, chin musulmon bo'lish qiyin. E'tiqod shunchalik muhimki, aynan ilohiyotga nisbatan munosabatga qarab insonning to'g'ri yo'ldami yoki noto'g'ri yo'ldami ekanligi ma'lum bo'ladi.

E'tiqodga quyidagilar kiradi:

– din tomonidan ishlab chiqilgan axloq normalari. Ularning saqlanishi norma (savob) hisoblanadi. Bu normalarning buzilishi esa gunoh hisoblanadi.

– ma'lum yuridik qonunlar va normalar bo'lib, ularning saqlanishi yoki saqlanmasligiga qarab insonlar har xil toifalarga farqlanadi.

– ilohiyotga nisbatan munosabat, ya'ni Yaratuvchining biru-borligiga ishonch yoki bularga ishonmaslik.

– Muqaddas kitobda buyirilgan ishlarni qilish orqali Allohning roziligiga erishishga ishonish yoki ishonmaslik va h.k.

E'tiqodning insonlarda paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari mavjud bo'lib, quyida ularga to'xtalamiz.

*1-bosqich* intuitiv-proyektiv bosqich deb hisoblanadi. Bu insonning 3-7 yoshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichga xos bo'lgan holatlar quyidagilar: imitatsiya, fantaziya, taqlid va h.k.

*2-bosqich* so'zma-so'z afsonaviy bosqich deb ataladi. Bu insonning 7-12 yoshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichga xos jihatlar: tor tushunish, bukvalizm, oila tarixi bilan aloqa, yosh krizisiga xos bo'lgan kechinmalarning yechimida dinning roli va h.k.

*3-bosqich* sintetik-konvensional bosqich deb ataladi. Bu insonning o'smirlik yoshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichga xos jihatlar: g'oyaviy mazmun tashqi avtoritetlardan o'zlashtiriladi, kat-talar tomonidan beriladigan ustanovkalarning konformli bo'linishi.

*4-bosqich* individual-reflektiv bosqich deb ataladi. Bu insonning ota-ona uyini mustaqil tashlab chiqib ketayotgan davrga to'g'ri keladi. Bu bosqichga xos jihatlar: bu bosqichda demifologizatsiya (afsonalarga ishonishdan qutilish) kuzatiladi, dunyoni tushunish, hayotning ma'nosini anglash singari o'zining shaxsiy pozitsiyalari shakllanadi.

*5-bosqich* paradokslarning konsolidatsiyasi bosqichi deb ataladi. Bu insonning o'rta yosh davrga to'g'ri keladi. Bu bosqichga xos jihatlar: inson ratsional ong har doim ham hayotini bezab turmasligini anglaydi, u simvolizmi qabul qiladi va "ikkilamchi soddalik"ni qo'lga kiritadi.

*6-bosqich* universal bosqich deb ataladi. Bu insonning keksargan yosh davrga to'g'ri keladi. Bu bosqichga xos jihatlar:

inson o'z hayotiga e'tiqodning tamoyillarini singdira boradi, adolat va muhabbat prinsiplariga haqiqiy sodiqligini namoyish qiladi, ilohiy kashflarni qabul qilish orqali dunyoga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, inson umrining ortib borish bilan ulardagi e'tiqod mazmunan o'zgarib borar ekan. E'tiqodning bunday o'zgarishi ko'pchilik insonlarga xos xususiyat hisoblanadi va albatta ba'zida individual holatlarni ham namoyon qiladi.

## **2. Bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha**

Psixologiya fani psixik hodisalar olamini o'rganadigan fan hisoblanadi. Psixik hodisalar olami deganda inson psixikasining asosiy mazmunini aks ettiradigan va psixologiyani bilimlarning maxsus sohasi sifatida o'rganadigan barcha hodisa va jarayonlarning to'plami nazarda tutiladi. Psixik hodisalar olamiga quyidagilar kiradi: psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar, psixik tuzilmalar va ijtimoiy-psixologik hodisalar va jarayonlar.

Shulardan psixik jarayonlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Psixik jarayonlar deganda atrof-voqelik ta'sirlarining inson tomonidan ilk aks ettirilishini va anglanilishini ta'minlab beradigan psixik hodisalar tushiniladi. Odatda ular aniq boshlanishga, ma'lum ko'rinishda kechishiga va yorqin ifodalangan nihoyaga ega bo'ladi.

Psixik jarayonlar bilish, emotsional-hissiy va irodaviy jarayonlarga bo'linadi. Bilish jarayonlariga esa quyidagilar kiradi: sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, xotira, xayol, tafakkur va nutq.

Atrof olamning ilk manzarasi insonda psixik bilish jarayonlarining faoliyati orqali yuzaga chiqadi.

Bilish jarayonlari bilan e'tiqod o'rtasidagi aloqani ikki xil ko'rinishda talqin qilsa bo'ladi: birinchidan, e'tiqod bilish jarayonlarining natijasi sifatida, ikkinchidan, e'tiqod bilish jarayonlari mazmunining shakllantiruvchi omili sifatida. Bu ikki holatni bir-biri bilan bog'lab ham tushuntirsa bo'ladi. E'tiqod bilimning natijasi o'laroq shakllanadi. Bilim esa bilish jarayonlarining mahsulidir. E'tiqod shakllanib bo'lgach, mustaqil holda inson ruhining turli jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi. Jumladan, bilish jarayonining o'ziga ham. Natijada e'tiqod bilish jarayonlarining

kechishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va uning mazmunini belgilab beradigan muhim omilga aylanadi.

E'tiqod voqelikka mos keladimi yoki yo'qmi bilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda uning bilish jarayonlariga bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatsa bo'ladi:

– e'tiqod voqelikning in'ikosi, dunyoni obyektiv va subyektiv reallikni anglashning shaklidir;

– e'tiqod soddadan murakkabga qarab o'sishning tuganmas yo'lida bilishning ma'lum darajasi hisoblanadi; e'tiqod o'zgaradigan olamda nisbatan turg'undir va shuning uchun ham bilish jarayonlaridagi keyingi bosqich uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

– e'tiqod tipik, anglangan bilim sifatida fikrlash jarayonining muhim elementi sifatida qatnashadi va bu bilan tafakkur jarayoni uchun vaqtni iqtisod qiladi;

– e'tiqod bilimning bir turi sifatida o'zga bilim turlaridan konkret e'tiqodning mazmunini tashkil etadigan bilimning mutlaqligi, turg'unligi, fitratligi bilan farq qiladi;

– e'tiqod mazmun jihatdan o'ziga qarshi bo'lgan har qanday bilimning olinishiga qarshi turadi;

– e'tiqod bilish predmeti to'g'risidagi bilimlarning tugallanligi illuziyasini yaratadi va bu bilan yetishmagan bilimlarni kompensatsiya qiladi.

Shunday qilib, e'tiqod gnoseologik fenomen sifatida obyektiv va subyektiv reallikning turli tomonlari to'g'risidagi bilimlarni doimiy tekshirish va qayta tekshirishdan himoya qiladi.

### 3. Sezgi va uning turlari

Sezgi insonning sezgi organlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan predmet va hodisalarning alohida xususiyatlarini ongida aks etishidir. Shu o'rinda sezgi bilan sezgi organlari o'rtasidagi farqni bilib olishimiz lozim. Sezgi organlari bu shunday mexanizmlarki, ularning yordamida atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlar bosh miya po'stloq qismiga tushadi. Sezgi yordamida esa predmet va hodisalarning asosiy tashqi belgilari (rang, shakl, predmetlarning

tashqi xususiyatlari, tovush, ta'm va h.k.) va ichki organlarning holatlari (og'riq, muskul sezgilari va h.k.) o'z aksini topadi.

Sezgilarning turlarini uchga bo'lishi mumkin: ekstroretseptiv, interoretseptiv va proprioretseptiv sezgilar. Ekstroretseptiv sezgilarga ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, temperaturani his qilish, taktil sezgilari kiradi. Interoretseptiv sezgilarga og'riq sezgisi, muvozanat sezgisi, jadallashish sezgisi kiradi. Proprioretseptiv sezgilarga muskul-harakat sezgilari kiradi.

Sezgi bilan e'tiqod o'rtasidagi aloqalarga to'xtaladigan bo'lsak, u diniy tajribalarning bevosita shakllarida ishtirok etadi. Masalan, diniy amallarda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar natijasida ma'lum sezgilar paydo bo'ladi. Namozni olib qaraylik. Namoz dinning ustunlaridan biri hisoblanadi va uning amaliyotida sezgi katta rol o'ynaydi. Inson namoz o'qiyotganda, namozning har bir holatini sezgi a'zolari bilan his qiladi, tuyadi. Bu esa amallarning bevosita ijrosining ta'minlanayotganligini anglatadi. Anglanganlik tuyg'usi esa namozxonning e'tiqodini kuchaytiradi, o'zida qoniqish hissini tuyadi. Sezgilar e'tiqodning amaliy jihatlari bilan bevosita aloqani ta'minlab berish mexanizmlari hisoblanadi.

Yuqorida sezgilarning turlari to'g'risidagi fikrlarimizni aytgan edik. Har bir sezgining turi diniy tajribada o'zining roliga esa va shu rolni bajarish barobarida e'tiqodga hissa qo'shadi.

#### **4. Idrok va uning xususiyatlari**

Inson sezgi a'zolariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan predmet va hodisalarning uning ongida sezgilarga o'xshab ularning alohida xususiyatlari ko'rinishida emas, balki yaxlit holda aks etishi idrok deyiladi. Idrok u yoki bu predmetdan olinadigan sezgilarning to'plami emas, balki hissiy bilishning sifat jihatdan yangi darajasidir.

Idrokning xususiyatlariga quyidagilar kiradi: tanlanganlik, predmetlilik, appersepsiya, ma'noni anglash, konstantlilik, yaxlitlik. Quyida ularning har biriga alohida to'xtalamiz.

a. Idrokning tanlanganligi insonning uning uchun katta qiziqish uyg'otadigan predmet va hodisalarga e'tiborini qaratish qobiliyatidir. Idrokning bu sifati shaxsning qiziqishlari, ustanovkalari va ehtiyojlariga bog'liq.

b. Idrokning predmetliligi insonning atrof-voqelikni hodisalarning ma'lum toifasiga taalluqli bo'lgan konkret predmetlari sifatida aks ettirish qobiliyatidir. Shu bilan birga miya predmetlarni, fon va konturlarini aniq farqlab turadi.

c. Appersepsiya idrokning insondagi ilgarigi tajribaga bog'liq holda sodir bo'lishidir. Bitta predmetning turli xil odamlar tomonidan turli xil aks ettirilishi ularning oldiga qo'yilgan vazifaga, ustanovkalariga, har birining psixologik holatlariga bog'liq holda sodir bo'ladi. Appertsepsiya shaxs idrokiga faol xarakter baxsh etadi. Inson predmetni idrok etar ekan, unga o'z munosabatini ayon etadi.

d. Idrokning ma'no jihatdan anglanganligi deganda shuni tushunish kerakki, inson tomonidan idrok etilayotgan predmetlar uning uchun ma'lum hayotiy ma'no kasb etadi. Predmetlar inson uchun foydali yoki zararli, istalgan yoki istalmagan bo'ladi. Predmetlarning vazifasini va mohiyatini anglash orqali predmetlardan maqsadli foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

e. Idrokning konstantliligi idrokning davomiyligidir. Predmetlarning fizik xususiyatlarining davomiyligi idrokning davomiyligini belgilab beradi. Predmet va hodisalarning o'xshashligi ham idrokning davomiyligini ta'minlaydigan omildir.

f. Idrokning yaxlitligi shunda ifodalanadiki, predmetning aks ettirilayotgan sifatlari inson ongida alohida-alohida emas, bir butun holda aks etadi. Agar predmetning alohida sifatlari aks etganda ham, idrok uni yaxlit holga keltiradi.

Idrok bilan e'tiqod o'rtasidagi aloqalarga to'xtaladigan bo'lsak, yuqoridagi sanab o'tilgan idrokning barcha sifatlari e'tiqodning shakllanishiga u yoki bu tarzda psixologik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, appersepsiya xususiyatini olaylik. Inson e'tiqodi shakllanishiga uning oldingi hayotiy tajribasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilgarigi tajriba e'tiqodning mazmunini belgilaydi va uni shakllantiradigan yollovchilar ko'pincha bu hodisalarni inobatga olgan holda ta'sir ko'rsatadilar.

## **5. Xotira va uning e'tiqoddagi roli**

Insonning aks ettirgan, qilgan yoki kechirgan narsalarini qabul qilish, saqlash va qaytadan chiqarish qobiliyati xotira deb ataladi.

Psixologiyada xotiraning quyidagi jarayonlari kuzatiladi: eslab qolish, saqlash, anglash, qayta chiqarish jarayonlari.

g. Eslab qolish olingan ma'lumotlarning inson ongida o'rnatilgan qolishidir. Bu o'rnatilgan qolish inson tajribasining yangi ma'lumotlar bilan boyishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

h. Saqlash olingan ma'lumotlarning nisbatan uzoq muddat davomida xotirada ushlab turish qobiliyatidir.

i. Psixikaning ilgari mustahkamlangan mazmunining faollashtirilishi qayta chiqarish qobiliyati deb ataladi.

j. Insonning xotirada saqlanadigan ma'lumotlar mazmunini anglashi qobiliyati anglash deb ataladi.

Xotiraning e'tiqoddagi o'rni juda katta hisoblanadi. Chunki e'tiqod insonning birinchi o'rinda ilohiyotga nisbatan munosabatidir. Ilohiyotga nisbatan munosabat uning to'g'risidagi bilimlarning xotirasi saqlangan holdagina doimiy saqlanib turadi. E'tiqod har kuni almashiladigan ma'no emas, balki inson umri davomida bir e'tiqod bilan yashaydi yoki bir martagina almashtirishi mumkin. E'tiqodning davomiyligini ma'lum bilimlarning mustahkam saqlanishligi ta'minlaydi.

Insonning o'z e'tiqodini (e'tiqod bilimlar ko'rinishida ham mavjud bo'ladi) ma'lum sharoitlarda kimlargadir qaytadan chiqarishiga xotiraning qayta chiqarish qobiliyati yordam beradi.

## **6. Tafakkur jarayoni va bilimlari**

Obyektiv olam predmet va hodisalarining muhim aloqa va munosabatlarini aks ettiradigan psixik bilish jarayoni tafakkur deb ataladi. Tafakkurgacha bo'lgan psixik jarayonlar bevositalik xarakteriga ega bo'lsa, u bilvositalik xarakteriga egadir, ya'ni predmet va hodisalar o'rtasidagi muhim aloqalar bilvosita aniqlanadi. Qolaversa tafakkur insonning tabiat va jamiyatning umumiy qonunlari haqidagi bilimlariga tayanadi. Tafakkurning yana bir sifati shundaki, yuqoridagi aytilgan aloqa va munosabatlar so'z yordamida hayotga tatbiq etiladi. Shuning uchun tafakkur va nutq o'rtasidagi aloqa o'ta muhim hisoblanadi. Tafakkurning inson amaliy faoliyati bilan bevosita aloqadorligi ham uning e'tiqod masalasiga ta'sirini ta'kidlaydi.



Tafakkur bilan e'tiqod o'rtasidagi aloqa juda ahamiyatliligidan bu to'g'risida ko'plab kitoblar yozilgan va tadqiqotlar o'tkazilgan. Tafakkur insonda e'tiqodni shakllantiradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Imom G'azzoliyning "Tafakkur kitobi" ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu asarda Imom G'azzoliy tafakkurining diniy e'tiqodning shakllanishidagi o'rni alohida to'xtaladi.

## 7. Xayol va uning mohiyati

Insonning ilgari tajribasi asosida yangi tavavvurlar yaratilishi psixik bilish jarayoni xayol deb ataladi. Xayolda tasavvurlarni o'zgartirish va yangidan qurish usullari mavjud. Bu usullarga quyidagilar kiradi:

vi. Predmet obrazining bo'laklarga bo'linishi. Bunda predmetning yaxlit obrazi qandaydir element yoki xususiyatlarga bo'linadi.

vii. Obyektlarning o'lchovlarining o'zgartirilishi. Predmet va obyektlarning haqiqiy o'lchamlari oshirilishi yoki kichraytilishi ko'rinishida o'zgartiriladi. Gigant odamlarning yoki gnom obrazlarining paydo bo'lishi shuning natijasi o'laroq dunyoga keladi.

viii. Obyektlar qismlarining bir-biri bilan bog'lanishi. Buning natijasida, masalan, qadimgi misrliklarda sfinksning paydo bo'lishi, qadimgi yunonlarda kentavrning yaratilishi yoki qadimgi ussuriyaliklarda ho'kiz-insonning dunyoga kelishi hodisasi kuzatiladi.

ix. Obrazning fikriy kuchaytirilishi. Obyektlarga insoniy sifatlarning berilishi ko'rinishida bu jarayon sodir bo'ladi. Masalan, hayvonlarga ma'lum insoniy sifatlarning berilishi. Tulkinging ayyorligi, quyonning qo'rqqoligi va h.k.

x. O'zga obyektlarga ko'chirilish. Ma'lum bir sifatlarning boshqa obyektlarga ko'chirilishi natijasida paydo bo'ladigan obrazlar bunga misol bo'la oladi. Masalan, qabilaning boshlig'i tulkidek ayyor, dushmanlar quyondek qo'rqqol va h.k.

Xayolning e'tiqod shakllanishidagi o'rni yuqori. Inson e'tiqodining shakllanishida xayol shunday rol o'ynaydiki, e'tiqod ilohiyotga munosabat sifatida shakllanar ekan, ilohiyot to'g'risida xayolan tasavvur qiladi. Bu tasavvurlar keyinchalik aniq fikrlarni dunyoga keltiradi va e'tiqodini mustahkamlaydi.

## 8. Psixologik xususiyatlar: diqqat va e'tiqod

Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir obyektga aktiv qaratilishiga aytamiz. Biron tashqi sabab bilan bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni ixtiyorsiz diqqat dey-miz. Ixtiyorsiz diqqatning dastlabki fiziologik asosi orientirovka yoki tekshirish reflekslaridan iborat. Diqqatimiz qaratilishi lozim bo'lgan narsani oldin belgilab olib, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqatni ixtiyoriy diqqat deyiladi. Ixtiyorsiz diqqat ham va ixtiyoriy diqqat ham o'zining yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki bo'lishi mumkin.

Manbai bizning ongimizda tashqarida bo'lgan diqqatga tashqi diqqat deb ataladi. Ichki diqqat odam o'z-o'zini tarbiyalashi bilan uzviy bog'liqdir. Ichki diqqat o'z o'rnini tarbiyalashning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari diqqatning ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi va barqarorligidir. Diqqatning ko'chishi deganda biz uning bir narsadan ikkinchi boshqa bir narsaga, faoliyatining bir turidan boshqa turiga o'tishini tushunamiz. Diqqat ko'chishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy tarzda sodir bo'lishi mumkin.

Faqat bitta narsaga qaratilgan diqqatning konsentratsiyalashgan (yig'ilgan) yoki to'plangan diqqat deyiladi. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish protsessining o'zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatining turli usullari bilan bog'liq bo'lsa, bunday diqqatni bo'lingan yoki taqsim qilingan diqqat deyiladi.

Eng kuchsiz diqqat odatda tarqoq diqqat, parishon diqqat yoki to'g'ridan-to'g'ri parishonlik deyiladi. Parishonlik odamning o'z diqqatini biron bir muayyan ishda o'zini tutib tura olmasligidir. Parishonlik – bu eng kuchsiz diqqatdir, miya po'stida qo'zg'algan joyning kuchsiz bo'lishligidir. Diqqatning barqarorligi. Diqqat ma'lum darajada barqaror va beqaror bo'lishi mumkin. Uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qaratilib tura oladigan diqqat barqaror diqqat deyiladi. Agar diqqat biron-bir faoliyat protsessida boshqa narsalarga, keraksiz narsalarga chalg'iversa yoki sustlashib va so'nib qolsa bunday diqqat beqaror diqqat deyiladi.

Diqqat ham psixologik bilish jarayoni hisoblanib, aslida uning vazifasi bilish jarayonlarini yaxshilash yoki yomonlashdan iborat.

Ya'ni diqqat bilish jarayonlarining sifatini ta'minlab beradigan muhim omil hisoblanadi. Diqqatning xususiyatlari bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

xi. Diqqatning tanlanuvchanligi – nisbatan muhim predmet va hodisalarda jamlanishi.

xii. Diqqatning konsentratsiyasi – insonning nomuhimdan voz kechib, muhimga e'tiborning qaratilishi.

xiii. Diqqatning taqsimoti – insonning ongda bir vaqtning o'zida bir qancha turli xil obyektlarga ega bo'lish qobiliyati.

xiv. Diqqatning hajmi – bir xil aniqlikda bir vaqtning o'zida bir qancha predmetlarni jamlash qobiliyati.

xv. Diqqatning intensivligi – ma'lum bir faoliyat turini bajarishga nisbatan katta nerv energiyasini sarflash qobiliyati.

Diqqat va e'tiqod o'rtasidagi aloqalar bo'yicha bir qancha fikrlar bildirilgan bo'lib, ulardan eng muhimini quyidagicha sharh-lash mumkin. E'tiqodni ma'lum bir g'oyada insonning mustabid turishi, ma'lum bir g'oyani mustahkam ushlashi sifatida talqin qilamiz. E'tiqodda diqqatning konsentratsiya xususiyati ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ma'lum g'oyada inson psixikasining jamlanishi uchun diqqatning konsentratsiyasi lozim bo'ladi. Boshqacha aytganda, diqqatning konsentratsiyasi e'tiqod-ning bir maromda turishini ta'minlab beradi.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy iymon va e'tiqod tushunchasi orasidagi farqni ayting.
2. Ularning shakllanishining nechta bosqichlari mavjud?
3. Bilish jarayonlari deganda nima nazarda tutiladi?
4. Sezgi va uning turlari haqida aytib bering.
5. Idrok nima va uning qanday xususiyatlari bor?
6. Xotira nima va uning e'tiqoddagi rolini ayting?
7. Tafakkur jarayoni qanday kechadi?
8. Xayol nima va uning mohiyatini qanday tushuntirish mumkin?
9. Diqqat va e'tiqod o'rtasida qanday aloqa bor?

## XVII BOB. DINIY E'TIQOD VA SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

### Reja:

1. Din psixologiyasida shaxs.
2. Diniy e'tiqod va shaxsning mijozi(temperament).
3. Diniy e'tiqod va fe'l-atvor (xarakter).
4. Diniy e'tiqod va faoliyat.
5. Diniy e'tiqodning shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga ta'siri va shakllanishidagi ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** *din psixologiyasi, shaxs, diniy e'tiqod, temperament, xarakter, faoliyat, xotira, nutq, faoliyat birligi.*

### 1. Din psixologiyasida shaxs

Shaxs psixologiya fanida markaziy tushunchalardan hisoblanadi. Shuning uchun biz shaxs tushunchasini diniy tarixiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz.

“Katta psixologik lug‘at”da shaxsga shunday ta‘rif beriladi: “Shaxs insonning alohida sifati bo‘lib, u ijtimoiy-madaniy muhitda hamkor faoliyat va muloqot jarayonida o‘zlashtiriladi. ...Shaxs-inson qadriyat sifatida kelib, jamiyatning rivojlanishi uning uchun amalga oshiriladi”.<sup>78</sup> Shaxs “ingl. personality; – aktyorning niqobi; rol, mavqe; yuz, shaxs”.<sup>79</sup> Lotin tilida qo‘llaniladigan persona ko‘p ma‘no tashiydigan so‘z bo‘lib, u maska (niqob), teatr roli, insonning individual, shu jumladan, jismoniy sifatlari, uning ijtimoiy mavqei singari ma‘nolarda qo‘llaniladi.

Bu haqda I.S. Kon o‘zining “V poiskax sebya” kitobida shunday deb yozadi: “dispersonar va depersonar fe‘llari o‘rta asrlarda individuallikni yo‘qotish yoki psixik kasallik” (hozirgi zamon psixiatriyasida “depersonalizatsiya”) ma‘nolarini tashimagan, balki sta-

<sup>78</sup> Большой психологический словарь. – СПб. Прайн – ЕВРОЗНАК, 2004. – С. 672.

<sup>79</sup> O‘sha asar, 263-b.

tusning, vijdonning yo'qotilishi, ijtimoiy ma'nodagi "qiyofa", silsiladagi o'rin ma'nolarida keladi. Foma Akvinskiy uni qiyofa mavjudligining shartlari yoki usullarini anglatish uchun foydalanган. "Personaj" so'zi ingliz tilida paydo bo'lgan va XIII asrda fransuzlar tomonidan o'zlashtirilgan, ilk paytlar cherkov lavozimini (parson – pastor, rohib) anglatgan, shundan so'nggina teatr olamiga taalluqli bo'ldi".<sup>80</sup>

Shaxsning mohiyati haqida yozishdan oldin shaxs boshidan kechiradigan tarixiy bosqichlarga nazar tashlaylik. Bu jarayon "biz"dan "men"ga qarab ketadigan jarayon hisoblanadi. "Men"ning paydo bo'lishi jarayoni individualizatsiya, psixika va xulq-atvorning individualizatsiyasi obyektiv filogenetik xarakterga ega. Biologik evolutsiya jarayonida individning ahamiyati orta boradi va turning taraqqiyotiga uning ta'siri sezilarli bo'ladi. Bu jarayonda individual tajribaning to'planishi holati kuzatiladi (bolalik davri, ta'lim, tarbiya va h.) va natijada turning ichida morfologik, fiziologik va psixologik o'zgarishlar ko'paydi. Tirik mavjudotlar tashkil etilishining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning hayotiy darajasi shunchalik murakkab bo'ladi va ular tomonidan o'zlashtirilgan tajriba shunchalik muhim bo'ladi. Natijada, bir turning ichidagi individlar biri ikkinchisidan shunchalik kuchliroq farqlana boradi. Bu farqlar individual tabiiy farqlar deb ataladi.

Individ mehnat va ijtimoiy funksiyalar taqsimlangan muhitda rivojlanadi va natijada ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida individual shaxs farqlari kuzatiladi. Undan keyingi bosqich haqida I.S. Kon shunday deb yozadi: "Individual farqlarning ijtimoiy va shaxsiy qadriyatining, ahamiyatligining anglanishini va bu bilan bog'liq holda individlarning avtomatizatsiyasini personalizatsiya deb ataymiz".<sup>81</sup> Agar yuqorida inson boshidan kechirgan jarayonlar natijasini kuzatadigan bo'lsak, quyidagi tartib paydo bo'ladi: individ, ijtimoiy individ, shaxs. Bu ma'lum ma'noda ijtimoiy taraqqiyotning turli xil bosqichlari hisoblanib, har biriga xos bo'lgan o'zini o'zi anglashning ma'lum tiplari paydo bo'lgan. O'zini o'zi anglash shaxs xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli xil madaniyat tiplariga mos holda shaxs sifatleri ierarxiyasi ham turli

<sup>80</sup> Кон И.С. В поисках себя: Личность и её самосознание. – М.: Политиздат, 1984. – С. 335.

<sup>81</sup> O'sha asar, 39-b.

xil bo'ladi. Biz quyida shaxs o'zini o'zi anglashining shaxs sifatlari ierarxiyasi nuqtayi nazaridan, turli xil diniy-falsafiy e'tiqodlar kesimida ko'rib chiqamiz.

Shu o'rinda Yu.M.Lotmanning ikki xil tipdagi madaniyat mavjudligi to'g'risidagi g'oyasiga to'xtalib o'tamiz. Uning fikriga ko'ra, birinchi madaniyat tipiga asosan predmetli faoliyatga va obyektiv bilishga yo'nalgan madaniyat kirsam, ikkinchi madaniyat tipiga rivojlanishga, introspeksiya va avtokommunikatsiyaga yo'nalgan madaniyat kiradi. "Birinchi madaniyat tipi harakatchan va dinamik bo'lsada, biroq u insonning ruhiy qirralarini nazardan chetda qoldiradi. Ikkinchi madaniyat tipi avtokommunikatsiyaga yo'nalgan bo'lib, katta ruhiy faollik bilan xarakterlansada, biroq nisbatan kamroq dinamiklik xususiyatiga ega".<sup>82</sup> Ma'lumki, shartli holda Sharq va G'arb madaniyati bir-biridan farqlanadi. Bu madaniyatlarining vakillari ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, insonning g'arbone modeli bo'yicha bilish faol predmetli ko'rinishda amalga oshiriladi. Shaxs, birinchi navbatda, o'zining xatti-harakatlari orqali shakllanadi, yuzaga chiqadi va o'zini anglaydi. U shu xatti-harakatlari yordamida moddiy olamni va o'zini o'zgartiradi.

Insonning sharqona modeli bundan keskin farq qiladi. Bunda predmetli faoliyatga unchalik e'tibor qaratilmaydi. Bu model bo'yicha shaxsning mohiyatini tashkil etadigan ijodiy faollik yolg'iz ichki ruhiy makonda amalga oshiriladi va bilish analitik ko'rinishda emas, balki intuitsiya ko'rinishda, lahzalik anglanilish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy rolni o'zini o'zi realizatsiya qilish va o'zlikka "sho'ng'ish" singari holatlar o'ynaydi. Masalan, hind falsafasida "men" tushunchasi markaziy tushuncha hisoblansada, asosiy oliy maqsad "o'zlikdan ozod bo'lish"dir.

Sharq dinlarida ham Sharq falsafasi, insoniy "men"ning shaxs shakllanishidagi o'rni alohida ko'rsatib beriladi. Masalan, buddizm eng qadimgi ta'limotlardan biri hisoblanadi va u mazkur masalaga o'z munosabatini bildirgan. Buddizm empirik individual "men"ning mavjudligini inkor etmaydi. Shuningdek, u obyektiv sifatlardan ham aniqlanmaydi. Buddizm ta'limotigako'ra, "o'zlikdan ozod bo'lish", "mavjud bo'lmaslik" holatiga individ o'zining shaxsiy

<sup>82</sup> Lotman Ю.М. О двух моделях коммуникации в системе культуры. В кн.: Труды по знаковым системам. Тарту, 1973, вып. 6. – С. 243.

egoizmidan, mulkdan va o'z "men"iga qiziqishdan to'liq qutulgandagina erishish mumkin bo'ladi. Bunga erishish uchun mutloqiyat bilan qo'shilish maqomiga erishish zarur. Hech qanday "men"ning mavjud emasligi, balki alohida unsurlarning o'zgaruvchan va doimiy o'ynab turadigan mashg'uloti mavjudligi buddizmning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Konfutsiylik ta'limotida tartib saqlash, jamiyat qoidalariga amal qilish, hukmdorlarga quloq osish singari ko'plab talablarga qat'iy amal qilish buyuriladi. Talablarga qat'iy amal qilish deganda birinchi navbatda jamiyatdagi o'z o'rnini aniq bilish, o'zi egallab turgan mavqega mos sa'y-harakat ko'rsatish tushuniladi. Bunda endi "o'zlikdan voz kechish" buddizmdagidan boshqacharoq ma'no tashiydi, ya'ni "o'zlikdan kechish" mavjud ijtimoiy munosabatlar doirasiga to'g'ri kelmaydigan hamma narsadan voz kechish ma'nosini bildiradi.

Umuman, Xitoy ta'limotlariga xos bo'lgan xususiyat shundaki, jamiyatni (shu jumladan, dinni) ma'lum shaxsning ruhiy imkoniyatlari ham, intellektual boyligi ham, uning har tomonlama rivojlanishi ham qiziqitirmaydi. Balki asosiy talab har qanday shaxsning u qanday individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lmasin, ma'lum ijtimoiy rolga mos tushishida yotadi.

Daosizm ta'limotiga ko'ra, shaxs faoliyati markazida narsalarning, voqea-hodisalarning tabiiy tartibini buzmaslikka intilish turadi. Tashqi, predmetli faoliyatdan voz kechish har qanday kishini (masalan, donishmandni) ichki subyektiv ehtirolardan ozod qiladi va ma'lum garmoniyaga erishtiradi. E'tibor berilsa, bu din g'oyasiga ko'ra, insonning asosiy faolligi ichkariga yo'naltirilgan bo'ladi va birmuncha sof ruhiy-ma'naviy ko'rinishga keladi.

Xristianlik ta'limotiga ko'ra, individ o'zini, avvalambor, ma'lum ijtimoiy guruhga (bu guruh uning "biz"ini tashkil etadi) taalluqli ekanligi orqali anglaydi. Insonda dunyoviy "biz"lari (oila, qo'shnilar, ishxonadagi xodimlar)dan tashqari, universal "biz"lar bor. Bu universal "biz" Yaratganga ruhiy aloqadorlik asosida dunyoga keladi. Xristianlik dinining kuchaygan paytlarida mana shu ikkita "biz" o'rtasidagi munosabatlarning tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, individual "men" bilan cherkovning qonun-qoidalari o'rtasidagi munosabatlarga ham tartib berildi. Biroq ta'kidlash

kerakki, yuqoridagi munosabatlarga tartib berilsada, ko‘plab ziddiyatlar paydo bo‘ldi. Bugungi G‘arb xristianligida bu ziddiyatlar natijasi o‘laroq ijtimoiy hayotning barcha darajalarida konformizm va deindividualizatsiya kuzatilayapti.

## 2. Diniy e‘tiqod va shaxsning mijozi (temperament)

Temperament nazariyasi qadimgi yunon vrachi Gippokratga taalluqli bo‘lib, keyinchalik Galen o‘zining tajribasida amaliyotda qo‘llagan. Temperamentning asosiy to‘rt tipi farqlanadi: jo‘shqinlik va optimizm xususiyatlariga ega sangvinik, g‘amginlik va depressiyaga moyillikka ega bo‘lgan melanxolik, arzimagan narsaga g‘azablanadigan xolerik hamda vazminlik va apatiya bilan karakterlanadigan flegmatik tiplari mavjud.

D.M.Vulf mazkur to‘rtta temperament tiplari bilan diniy e‘tiqod o‘rtasidagi aloqalarga bag‘ishlangan ko‘plab mualliflarning ishlarini tahlil qiladi. U shu narsani aniqladiki, ular o‘rtasidagi aloqalar yuzlab yillar davomida tadqiq qilingan.

O‘n yettinchi asrda yashagan Robert Berton diniy melanxoliyani tadqiq qilgan ekan. U ingliz cherkovining rohibi edi va turli-tuman bid‘atlarga qarshi kurashgan. Uning fikriga ko‘ra, bid‘atlarning sababi diniy melanxoliya, o‘ta kuchli ro‘za, xilvat va meditatsiya deb hisoblaydi. U sog‘lom e‘tiqodni saqlab qolish uchun turli-tuman bid‘atlardan saqlanish lozimligini ta‘kidlaydi. Sog‘lom aql, to‘g‘ri oziqlanish, jismoniy tarbiya, toza havo, mutolaa va chet elga safar – bularning bari “inson organizmida to‘rtta sokning balansi” yoki temperament bilan muvozanat tiklanadi.

Dinga munosabatda temperamentlarning kuchli va kuchsiz tomonlarini, shuningdek Alexander Whyte (1895) va Ole Hallesby (1940) tadqiq qilganlar. Ularning fikriga ko‘ra temperamentlar insonning tug‘ma sifatlari bo‘lganligi sababli e‘tiqodning mazmuniga emas, balki uning kechishiga, jo‘shqinligiga ta‘sir ko‘rsatar ekan. Masalan, melanxolik tipidagilar ibodatlarni to‘lqinlanib, ko‘zda yosh bilan amalga oshirar ekanlar. Flegmatik tipidagi dindorlarda ibodat qilish bir maromda, yig‘i-sig‘ilarsiz, og‘ir va bosiq holda amalga oshiriladi.



William James (1902) ning fikriga ko'ra, chuqur ruhoniylilik nuqtayi nazaridan yondashiladigan bo'lsa, melanxolik tipinisbatan og'riqli, sangvinik tipi nisbatan sog'lom e'tiqodga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, temperament e'tiqodning mazmuniga ta'sir qilmasada, uning shakliga psixologik ta'sir ko'rsatadi va natijada kimningdir e'tiqodi jo'shqin, kimningdir e'tiqodi sokin va h.k. ko'rinish oladi.

### 3. Diniy e'tiqod va fe'l-atvor (xarakter)

Shu o'rinda xarakter aksentuatsiyasi masalasiga to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q. Xarakter aksentuatsiyasi – bu shunday hodisaki, bunda xarakterning qandaydir belgisi aniq ifodalangan bo'ladi va konkret kishining o'ziga xos belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Aksentuatsiya umuman aytganda norma bilan patologiya orasidagi oraliq holat hisoblanadi. Patologiyada aksentuatsiya psixopatiyaga aylanadigan bo'lsa, inson xakteri buzilgan holatga keladi, uning shaxsi deformatsiyaga uchraydi. Biroq shunday bo'lsada intellektual funksiyalar saqlanib qoladi.

Insonlar xarakteridan kelib chiqqan holda quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Demonstrativ tip. Bunday xarakter aksentuatsiyasini o'zida tashiydigan odam doimo odamlarning diqqat markazida bo'lishga intiladi, o'zgalarni o'ziga jalb etadi, uning butun harakati shunga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday anomaliya asosida diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishining shunday tipi dunyoga keladiki, u o'z dinini odamlarga ko'z-ko'z qilishni yoqtiradi, o'z e'tiqodi to'g'risida har taraflama gapirishga intiladi, biroq o'sha e'tiqod talablariga ichki jihatdan amal qilmaydi.

2. Distim (shizoid) tipi. Bu zaif ifodalangan emotsiyalarga ega bo'lgan yopiq (tund) va aksariyat holatlarda ma'yus kayfiyatdagi kishilardir. Mazkur xarakterning asosida dinga chuqur kirib ketgan shaxs shakllanadi. Bu shaxs faqat o'zi haqida o'ylaydi va uning xulq-atvori o'zgalarga qanday ta'sir qilishiga e'tibor ham bermaydi.

3. Qo'zg'aluvchan (epileptoid) tip. Bunday odamlar qarashlarida shafqatsizligi, keskin agressiv chiqishlari va tez reaksiyasi bilan farqlanib turadi. Fahmlasa bo'ladiki, bunday xarakter tipidagi

kishilar o'z dinlarining ashaddiy himoyachilari bo'lishadi. O'zga dinlarga yoki g'oyalarga chidamsiz bo'lishadi.

4. Qotib qolish tipi. Bu tipdagi kishi «adolat» qilishga moyil, qasos rejasi bilan yashaydigan va yomonlikni esdan chiqarmaydigan kishidir. Bunday e'tiqodga ega kishi nisbatan xavfli hisoblanadi va ular atrofdagilar uchun xavf chaqiradigan kishilardir.

#### 4. Diniy e'tiqod va faoliyat

Faoliyat – obyekt bilan subyektning faol o'zaro ta'siri jarayon (jarayonlar)i bo'lib, bu vaqtda subyekt obyektning ehtiyojlarini qondirish va maqsadga erishishga harakat qiladi. Faoliyat ma'lum ehtiyojni qondirish uchun amalga oshiriladi.

Faoliyatning strukturasi quyidagilar kiradi:

1. Ehtiyoj.
2. Motiv.
3. Maqsad.
4. Harakatlar.
5. Operatsiyalar.

Vazifalar aniq ko'zlangan maqsad bilan muammoli vaziyat bo'lib, maqsadga erishishdir. Tor ma'noda maqsadning o'zini ham muammoli vaziyat doirasida berilgan vazifa deyishadi.

Maqsad – subyektning anglangan yoki anglanmagan intilishlarining ideal yoki real predmetidir, jarayon yo'naltirilgan oxirgi natija, jarayonning tugashi, rejalashtirilgan natijaning anglangan obrazidir.

Harakatlar – faoliyatning bir bo'lagi, faoliyat subyektini tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladigan, oldindan rejalashtirilgan, maqsadga yo'nalgan faollikdir. Keng ma'noda harakat har qanday motivlashgan xulq-atvordir. Harakatlarning yo'nalishi subyekt tomonidan anglanilishi shart emas. Harakatning ma'nosi anglanmagan bo'lishi mumkin.

Operatsiya – inson faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, vazifaga mos kelishi shart (maqsadga erishishning obyektiv-predmetli sharoitlari). A.N.Leontev operatsiyani harakatlarni amalga oshirish usuli deya qaraydi.

Diniy og'ishganlik – diniy faoliyat bilan qiziqishning so'nggi darajasi hisoblanib, undan kult yaratiladi, o'z hamfikrlari guruhiga singib ketadi. Bu ekstremistik faoliyatning g'oyaviy asosidir. Diniy og'ishgan e'tiqoddagi kishi o'z faoliyatidan qoniqish olmasdan, idealning mavjudligining o'zidan qoniqish oladi. U o'zining kechinmalarida yo'q bo'lib ketadi, ehtiros va emotsiyalarni his qilishni yoqtiradi.

Diniy og'ishgan e'tiqodda hamfikrdoshlarga nisbatan ehtiyoj bor. U o'ziga o'xshaganlarni qidiradi, ularning orasidan uning bilan bir xil tilda gaplashadiganlar orasida o'zini bemaolol tutadi. Ular o'z qahramonlarini maqtashadi va bir-birini yaxshi tushunishadilar.

Diniy og'ishgan e'tiqodga ega kishining atrofidagilar – umumiy tuyg'ular atrofida uyushgan odamlarning psixologik majmuasidir.

Diniy og'ishgan e'tiqodga ega kishilar ikki guruhga bo'linishadi:

- 1) botil g'oyani e'tiqod qilib olganlar;
- 2) diniy rahnamoning aytganlarini e'tiqod qilib olganlar.

Ikkala holat bilan birga bo'ladigan kishilar ham bor.

Bu ikkita e'tiqodli kishining turida faoliyatlarning strukturasi har xildir.

Diniy diniy og'ishgan shaxsning o'zi hech qanday ahamiyatga ega emas. Diniy og'ishganlik insonni shaxs sifatida umumlashtiradi. Bunday kishilarni manipulyatsiya qilish va boshqarish oson.

Diniy og'ishganlik qanchalik kuchli bo'lsa, odam shunchalik jarayonga kirib boraveradi.

## **5. Diniy e'tiqodning shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga ta'siri va shakllanishidagi ahamiyati**

Din insoniyat tarixining eng muhim omillaridan biri, deyilsa, bunga hech kim qarshilik ko'rsatmaydi. Inson din bo'lmaganda inson bo'lmas edi, degan fikrni olimlar ta'kidlashadi. Darhaqiqat, din inson hayotining realligidir.

Dinning konkret odamlar, jamiyatlar va davlatlar hayotida roli bir xil emas. Ikkita odamni qiyoslash mumkin: biri –qandaydir qat'iy va izolatsiyaga tushgan sektaning qonunlari bo'yicha

yashayotgan kishi, ikkinchisi esa dinga mutlaqo indefferent va dunyoviy hayot kechiradigan kishi. Turli xil jamiyatlar va davlatlar bilan ham xuddi shunday hol kuzatiladi. Qaysi bir jamiyatlar qat'iy diniy talablar (masalan, islom) asosida hayot kechirishsa, boshqa bir jamiyatlar e'tiqod masalasida to'liq erkinlikda yashashadilar.

Dinning yoki diniy e'tiqodning shaxsga, jamiyatga va davlatga ko'rsatadigan ta'sirini hech kim ham inkor etmaydi. Bu ta'sirni quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, diniy e'tiqod dunyoqarash sifatida, ya'ni prinsiplar, qarashlar, ideallar va e'tiqodlar tizimi sifatida insonga dunyoning tuzilishini tushuntirib beradi, bu dunyoda uning o'rni belgilaydi, hayotning ma'nosi nimadan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, diniy e'tiqod insonlarga taskin beradi, ularni umidlantiradi, ruhiy madad beradi, tayanch bo'ladi. Shuning uchunmikan, odamlar nimagadir dinga o'zlarining hayotidagi musibatli kunlarida ko'proq murojaat qilishadilar.

Uchinchidan, inson o'z oldiga qandaydir diniy idealni qo'yar ekan, ichki jihatdan o'zgaradi va o'z g'oyalari diniga moslashtiradi, yaxshilik va adolatni hayotining asosiga aylantiradi, ko'proq o'zini, o'z nafsini isloh qilishga intiladi.

To'rtinchidan, diniy e'tiqod o'zining qadriyatlar, axloqiy ustunovkalar va taqiqlar tizimi orqali insonning xulq-atvorini boshqaradi. U mazkur dinning qoidalari asosida yashayotgan katta jamoalarga mazmunan ta'sir ko'rsatadi. Albatta bu holatni ideallashtirmoq kerak emas. Chunki diniy-axloqiy tizimga qat'iy amal qilganlarning o'zi ham gohida gunoh ishlarni qilib qo'yadi. Bu holatni insoniy borliqning mukammal yaratilmaganidan, insonga ta'sir qiladigan nafsning berib qo'yilganligidan kelib chiqqan holda tushuntirish mumkin.

Beshinchidan, din insonlarning jamlanishiga xizmat qiladi, millatning umumlashishiga yordam beradi, ta'lim-tarbiyaning yuksalishiga olib keladi, davlatning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Albatta, bu yerda gap to'g'ri din haqida ketayapti. Dinning ichida shunday destruktiv diniy oqimlar borki, ular yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham har qanday jamiyat o'zining takomillashuviga, yuksalishiga sabab bo'ladigan dini tanlamog'i lozim. Bunday destruktiv g'oyalarga qarshi ma'rifat

bilan kurashmog'imiz talab etiladi. Odamlarning haq din bilan qurollantirish botilga qarshi ularning kurashishlarini ta'minlab beradi. Diniy ekstremizm ming afsuslar bo'lsinki, bizning davrimizda ham saqlanib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan dinning jamiyatimiz hayotidagi, shaxslarning takomilidagi o'mi hech qachon susaymaydi.

Oltinchidan, din jamiyat ma'naviy hayotining ilhomlantiruvchi va saqlovchi omili sifatida hamisha dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki haq din hisoblangan, to'g'ri yo'ldagi din jamiyatga pokizalikni, halollikni, mashaqqatlarga sabrni, ne'matlarga shukrni, boriga qanoatni, rahbarlarga itoatni, mehnatga shijoatni olib keladi va jamiyat a'zolarini tarbiyalaydi, ularni yuksak maqomlarga ko'taradi.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Din psixologiyasida shaxs qanday talqin qilinadi?
2. Diniy e'tiqod va shaxsning mijozi(temperament) o'rtasidagi aloqani ko'rsatib bering.
3. Diniy e'tiqod va fe'l-atvor (xarakter) orasidagi aloqa qanday ko'rinishda bo'ladi?
4. Diniy e'tiqod va faoliyat o'rtasida aloqa qanday ko'rinishda bo'ladi?
5. Diniy e'tiqodning shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga ta'sirini tushuntirib bering.

## XVIII BOB. IJTIMOIIY MUHIT, DINIY AN'ANALAR VA KOMIL INSONNING SHAKLLANISHI

### Reja:

1. Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi haqida.
2. Jamoa, guruh va guruh turlarini din psixologiyasida o'rganilishi.
3. Diniy va nodiniy an'analarining shaxsga ta'siri.
4. Shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlarining shakllanishini psixologiyada tahlil etilishi.

**Tayanch tushunchalar:** *ijtimoiy muhit, psixologik iqlim, jamoa, guruh, guruh turlari, diniy va nodiniy an'analar, shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlari, diniy va nodiniy aloqalar, etnopsixologiya, sotsial psixologiya.*

### 1. Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi haqida

Ijtimoiy muhit jamiyatning barcha jabhalariga ta'sir qiladigan omil hisoblanadi. Uning mezonlaridan biri psixologik iqlimdir. Ma'lumki, ijtimoiy muhitni makro va mikromuhitlarga ajratish mumkin. Makromuhit deganda jamiyatning nisbatan katta elementlari nazarda tutiladi. Masalan, yoshlar va keksalar, gender farqlar, yirik kompaniyalar, millatlar, xalqlar va h.k. shular jumlasidandir. Mikromuhitga jamiyatning makromuhitining tuzilmalarini tashkil qiladigan jabhalari kiradi. Bunga, masalan, ishlab chiqarish korxonalari, jamoalarni ko'rsatish mumkin.

Makromuhit bilan mikromuhit o'zaro dialektik aloqadaligi ma'lum. Ular o'rtasidagi garmonik o'zaro munosabat jamiyatning barqarorligini ta'minlash omillaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy muhitni belgilaydigan mezonlardan biri psixologik iqlimdir. Psixologik iqlim jamiyat a'zolarining jamiyatga nisbatan turg'un emotsional munosabati hisoblanib, uni kayfiyat sifatida ham talqin qilsa bo'ladi. Jamiyat a'zolarining banday kayfiyati ularning

kechinmalari to'liqlanishi, bir-biriga va atrof-muhitdagi voqea-hodisalarga munosabati ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Jamiyat a'zolarining kayfiyati uch xil ko'rinishda yuzaga chiqishi mumkin: a'zolarining kayfiyati yaxshi, befarq va yomon bo'ladi. Mamlakat jamiyatning ijtimoiy muhitida ijobiy kayfiyat, sog'lom psixologik muhit bo'lishidan manfaatdor. Buning uchun jamiyatning a'zolari tizimdan rozi, olib borilayotgan islohotlardan minnatdor bo'lmog'i lozim.

Jamoada sog'lom psixologik muhit yaratishning muhim omillari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

– odamlarning mehnat va dam olishiga nisbatan shart-sharoitlarni tashkil qilish;

– jamoada nizoli vaziyatlarning darajasini pasaytirish;

– tanqidga adekvat munosabatni shakllantirish;

– jamiyat ichida ijodiy, kreativ muhitni yaratish;

– tolerantlik tamoyillarini saqlash (insonga nisbatan, uning qarashlariga, xususiyatlariga, e'tiqodiga, urf-odatlariga va h.k.lariga nisbatan hurmatona munosabatni shakllantirish);

– boshqariluvchilar bilan boshqaruvchilar o'rtasida bir-biriga nisbatan ishonch kayfiyatini uyg'otishva h.k.

Jamiyatning taraqqiyoti ma'lum ma'noda jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy yoki salbiyligiga, ya'ni psixologik muhitga bog'liq ekan, uni yaxshilashga qaratilgan islohotlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **2. Jamoa, guruh va guruh turlarining din psixologiyasida o'rganilishi**

Jamoa – tarkibi bo'yicha uncha katta bo'lmagan, bevosita shaxsiy o'zaro ta'sir va muomalada bo'lgan hamda umumiy ijtimoiy faoliyat bilan jipslashgan kishilarning yetarli darajada turg'un bo'lgan to'plami. Barcha odamlar u yoki bu kichik guruhlarning a'zolari hisoblanadi: sinfning o'quvchisi, brigadaning a'zosi, talabalar guruhi va h.k. Kichik jamoalar kamida 2-3 kishidan, ko'pi bilan 20-40 kishidan iborat bo'ladi. Kichik jamoalarning optimal miqdori 5-7 kishidan iborat bo'ladi.

Jamoalarga quyidagi belgilar xos:

– odamlarning shaxsiy aloqalar uchun imkon beradigan makoniy va zamoniy uyushmasi;

– jamoa a'zolari xulq-atvori umumiy etolonining, axloqiy va qadriyatlarga taalluqli bo'lgan normalarning qabul qilinganligi, ya'ni referentligi;

– jamoa a'zolarining yaxlitligi, birikkanligi, ya'ni integrativligi;

– jamoaning alohida a'zolarining jamoa ichidagi faolligi, ya'ni intraguruh faolligi;

– jamoa va uning a'zolarining tashqi jamoalar bilan faolligi, ya'ni interjamoal faolligi;

– jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteri, ularning jamoadan roziligi, ya'ni mikromuhit;

– jamoaning o'zini o'zi boshqarishga qobiliyati, ya'ni tashkiliylik;

– jamoaning yo'nalganligi, ya'ni hamkor faoliyat uchun doimiy maqsadning mavjudligi va uning jamoa tomonidan qabul qilinganligi va h.k.

Jamoaning parametrlari:

– jamoaning tarkibi – o'zga guruhlar orasida mazkur jamoaning o'ziga xosligini belgilaydi;

– jamoaning tuzilmasi – rahbarlik va bo'ysunishning, jamoa a'zolari o'rtasida huquq va majburiyatlarning taqsimlanishi, jamoa a'zolari hamkor munosabatlarining tartibi;

– jamoaviy jarayonlar – jamoa faoliyatini tashkil etuvchi jarayonlar;

– jamoaviy normalar – mazkur jamoada barcha a'zolar tomonidan qabul qilingan xulq-atvorning qonun-qoidalari tizimi va h.

Diniy jamoa – diniy uyushmalardan biri bo'lib, uning a'zolari hamkorlikda ibodat qilishlari uchun va e'tiqodlarini tarqatish uchun erkin holda uyushgan bo'lishadi. Bunday guruhning paydo bo'lishiga dastavval diniy e'tiqod bilan yashashga va uni tarqatishga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'ladi. Diniy e'tiqodga amal qilish va tarqatish ijtimoiy faoliyat turlaridan biri hisoblanib, bunda inson ilohiyotga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi va shu munosabatini amalda ko'rsatadi.



Diniy guruhlar jamiyatdan tashqarida alohida mavjud bo'lmaydi. U o'z o'rinida o'zidan nisbatan kattaroq bo'lgan, odatda umumiy marosimlarga va umumiy e'tqodga ega bo'lgan hamda bir qancha diniy guruhlarini birlashtiradigan murakkab tizimning elementi hisoblanadi. Bunday tizimni diniy tashkilot deb atashadi.

Diniy guruhlarining tasnifini quyida keltiramiz:

1) a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi bo'yicha:

a) ochiq tipdagi guruhlar – a'zolarining a'zoliqi qayd qilinmagan, biroq dindorlarning mustahkam yadrosidan tashkil topgan diniy guruh;

b) yopiq tipdagi guruhlar – dindorlarning qat'iy qayd qilingan tarkibiga ega bo'lgan, turg'un shaxslararo kontaktlar mavjud bo'lgan va o'ta uyushgan diniy guruh.

2) e'tiqodining mazmuniga ko'ra:

a) ijobiy idealga tayanadigan konstruktiv diniy guruhlar;

b) to'liq destruktiv (botil) mazmun bilan xarakterlanadigan diniy guruhlar.

3) tashkil bo'lishining shakliga ko'ra:

a) rasmiy guruhlar, ya'ni davlat tomonidan ro'yxatdan o'tgan diniy guruhlar;

b) norasmiy guruhlar, ya'ni ro'yxatdan o'tmagan, lekin bir e'tiqod atrofida uyushgan diniy guruhlar.

Diniy jamoada shaxslararo rasmiy va norasmiy munosabatlar masalasini ko'rib chiqishga o'tamiz.

Jamoa a'zolarining nizom va an'analar bilan reglamentlashtirilgan munosabatlari to'plami guruhning norasmiy tuzilmasini tashkil etadi. Jamoa a'zolari o'rtasida reglamentga rioya etish sharti bo'lmagan holdagi munosabatlari jamoaning norasmiy tuzilmasini beradi. Bu ikki tizimning o'zaro munosabati guruh ichidagi psixologik muhitni belgilab beradi. Boshqacha aytganda, rasmiy doiradagi ishlab chiqilgan normalarning norasmiy doirada ham saqlanishi jamoani mustahkam va uyushgan qiladi.

Rasmiy tuzilmada rasman tayinlab qo'yilgan rahbar bo'ladi. Masalan, bugungi kundagi masjidlarimizda rasman tayinlangan imom xatiblarimiz rahbarlik qilmoqda. Ular bilan jamoasi o'rtasidagi munosabatlar ikki xil bo'ladi. Ikkala tuzilmada ham rahbar rahbarlik qilsa, boshqacha aytganda, norasmiy doirada ham

imomni rahbar sifatida qavmi tan olsa, bunday diniy jamoada sog'lom psixologik muhit hukmron bo'ladi.

Diniy jamoaning shaxsga ta'sirining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Guruhiy diniy ongning shakllanishida diniy guruhdagi liderlarning ijobiy bo'lishligi muhim ahamiyatga ega. Agar jamoa ichidagi liderlarning maqsadi rasmiy rahbar, ya'ni imom xatib maqsadi bilan bir bo'lsa, ular jamoaning ma'naviy-ruhiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadilar. Agar aksincha bo'lsa, jamoada rasmiy liderlar birorta ishni amalga oshirishi qiyin kechadi. Ba'zida jamoa ichidan shunday diniy "faol"lar chiqib qoladiki, ular imom xatibning diniy jamoada olib borayotgan ijobiy ishlariga xalaqit beradi.

Jamoada ibodat qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish, taqlid qilish, hissiy yuqish singari ijtimoiy psixologik mexanizmlar yordamida diniy tuyg'ular kuchaytiriladi, emotsional jihatdan forig'laniladi, dindorlarda shakllangan diniy stereotiplar va ijtimoiy ustanovkalar ularning ongida qaytadan ko'rib chiqiladi, mustahkamlanadi.

### **3. Diniy va nodiniy an'analarining shaxsga ta'siri**

Ijtimoiy muhit – ijtimoiy guruh va individlar mavjudligi, shakllanishi va faoliyatining moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy shart-sharoitlarining to'plamidir. Ijtimoiy makromuhit iqtisodni, ijtimoiy institutlarni, ijtimoiy ongni va madaniyatni o'zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy muhitning ijtimoiy-ma'naviy shartlaridan biri din hisoblanadi. Din inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali shakllaridan biridir. Din ham e'tiqod, ham axloq normalari ko'rinishida inson xulq-atvorini boshqarish qudratiga ega. Jamiyat dinning shu funksiyasidan foydalangan holda o'z a'zolariga ta'sir ko'rsatadi va ularni boshqaradi. Dyurkgeym dinni ijtimoiy hayotning namoyon bo'lishi sifatida talqin etadi. Fransuz olimi shunday xulosaga keladi: «dinning maqsadi – insonni yuksaltirish va uni hozirgi hayotidan oliyroq darajaga ko'tarishdan iboratdir». Ijtimoiy ongning barcha shakllari, Dyurkgeymning fikricha, din tomonidan dunyoga kelgandir.

An'analar – anonim va stixiyali holda paydo bo'ladigan normalar, tasavvurlar, qoidalar va namunalar to'plami. Insonlarning katta qismi ulardan foydalangan holda o'z hayot tarzlarini quradilar. An'analar avlodlardan avlodlarga uzatiladi va ijtimoiy munosabatlarni boshqaradigan omillardan biri hisoblanadi.

Diniy an'analar ham diniy normalar, diniy tasavvurlar va diniy qoidalar to'plami hisoblanib, ular dindor xulq-atvorining mazmunini belgilab beradi. Dindor kishilar o'z hayot tarzlarini mana shu diniy an'analar asosiga qurishadi va ularni iloji boricha keyingi avlod uchun saqlashga harakat qilishadi. An'analar, jumladan diniy an'analar ham vaqt o'tishi bilan ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Bu tabiiyki har qanday taraqqiyotning talabi hisoblanadi. Faqat fundamentalistlargina diniy an'analarning asl holicha saqlanib qolishi tarafdorlari hisoblanishadi.

Dinning markaziy masalalaridan biri yuksak axloqli shaxsni tarbiyalash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan islom ta'limotida axloqan yuksak taraqqiy qilgan insonni tarbiyalash masalasi komil insonni shakllantirish masalasi bilan bog'liq holda kechadi.

#### **4. Shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlari shakllanishining psixologiyada tahlil etilishi**

Shaxs strukturasi murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlari alohida jabhalarni tashkil etadi. Bu strukturani har xil olimlar turlicha talqin qilib kelganlar. Lekin har qanday strukturada ham mana shu uchta jihat o'z ifodasini topgan. Ularning har biri shaxsning shakllanishi va faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ularga alohida to'xtalib o'tamiz.

Shaxs strukturasi milliy xususiyatlar bilan belgilanadi. Milliy xususiyatlar har bir insonda mavjud bo'ladi va ularning to'plami milliy xarakterni yuzaga keltiradi.

Milliy xarakter – bu nisbatan turg'un xususiyatlar bo'lib, u yoki bu milliy (etnik) hamjamiyatning a'zolari uchun xarakterli bo'ladi. Har bir millat a'zolarining dunyoni idrok etish xususiyatlari hamda xatti-harakatlari motivlari (g'oyalari, qiziqishlari, dini) bir-biriga o'xshaydi. Tadqiqotchilar milliy xarakter strukturasi temperament xususiyatlari, his-tuyg'ularning ifodasi, milliy xurofati, tarqalgan urf-odatlari,

an'analari, stereotiplari, qadriyatlari, xulq-atvorning spetsifikasi, ehtiyojlarlar va tablari, rituallarini kiritishadilar.

Milliy xarakter birinchi navbatda ijtimoiy-madaniy normalar tizimidir.

Shaxsning diniy xususiyatlariga diniy ong, diniy psixologiya, diniy mafkura, diniy ibodat, diniy tasalli, diniy targ'ibot, diniy e'tiqod singari ko'plab diniy psixologik holatlar kiradi. Bu masalalar mazkur asar doirasida ko'rib chiqildi. Ularga qo'shimcha qilgan holda shuni aytamizki, shaxsning yagoga va yaxlit tuzilmasida uning diniy komponentlarining o'ri katta. Bu haqda biz yuqorida o'z fikrlarimizni bildirdik.

Shaxsning umummilliy xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar go'yoki milliy xususiyatlarning antipodidek tuyuladi. Chunki bu xususiyatlar shunday xususiyatlarki, ular butun basharga xosdir. Gumanistik dunyoqarash, barchaga muruvvat tuyg'usi, hamdardlik, yordam, barcha xalqlar va elatlarning hamkor bo'lib yashashi, atrof-muhit himoyasi va h.k. Bunga o'xshash umuminsoniy qadriyatlar insondagi muhim xususiyatlardan hisoblanadi.

Mazkur uch toifa xususiyatlar, ya'ni milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlar inson ruhiyatida mujassam bo'ladi. Psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri mana shu uchta xususiyatlar garmoniyasiga erishish. Bu o'rinda ayniqsa milliy va umuminsoniy xususiyatlar bir-birini inkor etishi mumkin. Muhimi insonda bularni garmonik hamjihatlilikda tarqqiy ettirishdir.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimiga qanday ta'rif bera olasiz?
2. Jamoa, guruh va guruh turlari din psixologiyasida qay darajada o'rganilgan?
3. Diniy va nodiniy an'analalar shaxsiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Shaxsning milliy, diniy va umuminsoniy xususiyatlarining shakllanishi psixologiyada qanday tahlil etiladi?
5. Etnopsixologiya va sotsial psixologiyada diniy va nodiniy aloqalar qay darajada o'rganilgan?

## XIX BOB. DINIY FANATIZM VA FANATLAR YUZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

### Reja:

1. Diniy fanatizmning din psixologiyasida o'rganilishi.
2. Fanatni (manqurt) yuzaga keltiruvchi psixofiziologik omillar.
3. Shaxs diqqati dominantlik (ustunlik) xususiyati fanatizm va uning patopsixologiyada o'rganilishi.
4. Fanatlikning oldini olishning psixologik (to'g'ri tarbiya va asosli bilim) asoslari haqida.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy fanatizm, fanat, manqurt, psixofiziologik omillar, dominantlik, patopsixologiya, fanatlik, to'g'ri tarbiya, asosli bilim.*

### 1. Diniy fanatizmning din psixologiyasida o'rganilishi

Fanatizm yoki «mutaassiblik» (arab. «g'uluv ketish», «chuqur ketish») muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonishda, ularga muqaddas holda berilishda, «o'zgalar» va «o'zgacha» qarash hamda g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lishda, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishda, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. O'ngi zaharlangan va fanatga aylangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblab, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan «rahnamolar»ning asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Fanatizmning jirkanch basharasi dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo'poruvchilik va xunrezlik voqealarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham fanatizm g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu jarayonning eng xatarli jihati diniy siyosiy lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, diniy noto'g'ri talqin qilish bilan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o'rinda qayd etish joizki, ko'p manbalarda ishlatilgan «aqidaparastlik» so'zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «fanatizm» so'zi bilan almashtirilgan holda ifoda etilmoqda. Fanat – lug'atda qiyinchilik paydo qiluvchi, istilohda esa o'z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqalarning fikrini inobatga olmaslik hamda inkor qilish va hamisha o'zini haq, deb e'tiqod qiluvchi va o'z fikrini amalda ko'rsatishga harakat qiluvchi kishi. Fanatizm har bir sohada, masalan ilmiy, ijtimoiy, aqidaviy sohalarda doim uchraydigan holat bo'lib, din va jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Shuningdek, fanatizm va g'uluv diniy – aqidaviy va fiqhiy sohalarda namoyon bo'lib, har xil ixtiloflar manbai sifatida islom dinining turli ijtimoiy va siyosiy oqimlarga bo'linib ketishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Diniy fanatizmning asosiy sabablaridan biri diniy ilm – Qur'on, hadis va shariatni bilmaslikdir.

Olimlar tomonidan fanatizmga psixologik ta'rif berilgan bo'lib, ularga quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Fanatizm keng ma'noda kimgadir yoki nimagadir haddan ortiq darajada bog'lanish, shuningdek o'zgalarning e'tiqod va qadriyatlarini mutlaqo inkor etishdir. Fanatizm – nosog'lom holat hisoblanadi va u qandaydir g'oyaga ko'r-ko'rona ishonish hamda uni o'zgalarga majburan o'tkazish natijasidir. Fanatizm murakkab va ziddiyatli ijtimoiy psixologik fenomen bo'lib, u hamisha faylasuflarning, psixologlarning, madaniyat va diniy xodimlarining tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Fanatizm turli-tuman shakl va ko'rinishlarda jamiyat va inson hayotining barcha jabhalarida ko'zga tashlanadi.

Diniy fanatizm turlari masalasida quyidagilarni aytishimiz mumkin. Diniy fanatlarni ikkita toifaga ajratib ko'rsatsa bo'ladi:

birinchisi – passiv yaratuvchi fanatlar va ikkinchisi esa faol ekstremistik (buzg‘unchi) fanatlar. Ularning ikkinchisi ayniqsa xavfli hisoblanadi. Chunki ular boshqalarda o‘zga e‘tiqod vakillariga nisbatan nafrat uyg‘otishga intiladilar va g‘ayridinlarni jismonan mavh qilishga harakat qiladilar. Diniy fanatizm ba‘zi olimlarning fikriga ko‘ra, terroristlar va kamikadzelarni tayyorlash uchun psixologik asos rolini o‘ynaydi.

Diniy fanatizmning asosiy sabablari masalasi o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Sabablarning uch xil turini farqlashimiz mumkin:

1. Siyosiy sabablar: siyosatchilar xalqning orasiga diniy fanatizm urug‘ini sohib, dinning kuchini o‘zlarining hokimiyatlarini mustahkamlash uchun sarflaydilar;

2. Psixologik sabablar: psixologik tadqiqotlarning aniqlashiga ko‘ra, fanatizm nevrotik shaxslarga xos bo‘lgan ruhiy qoniqmaslikning yuzaga chiqishi bo‘lishi mumkin, ya‘ni bunday kishilar bunday holatlarini o‘zlaridan hamda o‘zgalardan yashirishga harakat qilishadilar va fanatizmga o‘zlarini uradilar. Shu yo‘l bilan o‘zlaridagi agressiyani, egoizmi, ruhiy ziddiyatlarni yashirishga urinadilar;

3. Diniy sabablar: diniy asoslarni noto‘g‘ri talqin qilish, “noto‘g‘ri g‘oyalar”ni “o‘t va qilich” yordamida to‘g‘rilab qo‘yish, “g‘ayridinlar”ga qarshi talabchanlikni oshirish va h.lar orqali dinga xizmat qilishga harakat qiladilar.

## **2.Fanatni (manqurt) yuzaga keltiruvchi psixofiziologik omillar**

Dastavval, biz fanatning psixologik xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Buning uchun shaxsning o‘ziga ta‘rif beraylik. Muayyan jamoa a‘zosi, jismoniy, jinsiy, ijtimoiy kamolotga erishgan, biologik va sotsiologik jihatlar bilan belgilangan xislatlar egasi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, bilishga intiluvchi, faoliyat xulq, muomala subyekti shaxs deyiladi.

Fanat kishi ma‘lumotning o‘ziga kerakli bo‘lgan qismini idrok etadi va qabul qiladi, uning ehtiyojlariga mos kelmaydigan qismini esa chetga otib yuboradi. Bu tipning xavfli tomoni shundaki, bunday odam unga nima bo‘lganligini, uning xatosi nimada ekanini va

qayerda xatoga yo‘l qo‘yayotganini o‘zi oxirigacha anglamaydi. Psixologik masala shundaki, nima uchun aynan ma‘lumotning bir qismi o‘zlashtiriladi, bir qismi ega qabul qilinmaydi. Bu fanatning xarakteri bilan bog‘liq masala.

Diniy qarashlar bilan insonning xarakter belgilari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjud. Agar inson xarakteri, uning asosiy qismlari uning hayotining ilk uch yilida shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan xarakter insonning dunyoqarashini shakllantirishi ma‘lum bo‘ladi. Buning aksi bo‘lmaydi.

Diniy fanatizm paydo bo‘lishining psixologik sabablari uning psixofiziologiyasiga yo‘l ochadi. Dindagi fanatizm og‘ir psixologik tobelikning shakli hisoblanadi. Bunday holda odamning o‘zini nazorat qilishi darajasi susayadi va “yuqoridan” (masalan, oqimning ruhoniy sardori tomonidan) belgilangan hamda uning ongiga o‘chmas bo‘lib singdirilgan dogmalarga mos fikrlaydi va harakat qiladi. Bu tobe odam o‘zgacha hayotni hatto tasavvuriga ham sig‘dirmaydi.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlar ko‘proq tobelikka moyil bo‘lar ekan:

- tanqidiy tafakkurga ega bo‘lmagan va odatda hissiyotlar ta‘siriga tushib qoladigan kishilar;
- osongina ta‘sirlanadigan kishilar;
- o‘zgalarning ta‘siriga tez beriladigan kishilar;
- shaxsiy dunyoqarash va qadriyatlar tizimiga ega bo‘lmagan kishilar;
- mazmunsiz hayot kechirayotgan va birorta doimiy mashg‘uloti bo‘lmagan kishilar va h. Bunday kishilarni diniy fanatizm qarmog‘iga tushurish juda oson kechadi. Tayyor g‘oyalar va dunyoqarash dunyo to‘g‘risida, hayotning mohiyati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmagan kishilarning bo‘m-bo‘sh ongiga osongina singadi va ular o‘zlarini ahamiyatli kishi sifatida hamda muhim jamoaning ajralmas qismi sifatida ko‘radi.



### 3. Shaxs diqqati dominantlik (ustunlik) xususiyati fanatizm va uning patopsixologiyada o'rganilishi

Fanatizmning patopsixologik jihatdarini tadqiq etganda fanat ongini o'zgartiradigan sakkizta element to'g'risida Robert Jey Liftonning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi

Uning fikriga ko'ra, diniy guruhlarda inson ongining o'zgarishlariga olib keladigan 8 ta element mavjud:

1) Atrof-muhitning qat'iy nazorat qilinishi — muomala amalga oshiriladigan muhit qattiqqo'llik bilan boshqariladi va chetdan keladigan ma'lumotlarga nisbatan qat'iy nazorat o'rnatiladi.

2) Psixik manipulatsiya amalga oshiriladi — manipulator tomonidan oldindan rejalashtirilgan «kutilmagan vaziyatlar» yaratiladi va unga alohida ma'no yuklatiladi.

3) Aniqlikning talab qilinishi — dunyoni konkret «pok» va «nopokka», «yaxshi» va «yomon»ga bo'linishi, oraliq variantning yo'qligi. «Odam yo kofir bo'ladi yo mo'min bo'ladi» degan g'oya ilgari suriladi. «Mana bular yaxshi, qolganlarning bari yomon» qabilida fikr yuritishadi.

4) Tavba-tazarru kulti — «shaxs chegaralarini» yo'qotish uchun doimiy holda gunohlar intim tan olinadi va tavba qilinadi.

5) «Muqaddas fan» — dogmasi mutlaq, to'liq va abadiy haqiqat deb e'lon qilinadi. Bu mutlaq haqiqatga qarshi bo'lgan har qanday ma'lumot soxta deb tushuntiriladi.

6) Kultning ma'nosini anglatadigan alohida til yaratiladi (shahid, hijrat va h.k.). Bu tanqidiy tafakkurning oldini oladi.

7) Doktrina shaxsdan yuqori — shaxsning individual tajribasidan doktrina ustun turishligi, uning real va haq ekanligi ongiga singdiriladi.

8) Yashashning taqsimlanishi — guruh a'zolarigani yashash huquqiga ega, qolganlar yo'q. «Maqsad har qanday vositani oqlaydi».

Totalitar sektaning psixologik ta'siri ostida insonda deviant xulq-atvor paydo bo'ladi. Bu patologiya ongning 4 ta formal belgilarining o'zgarishida kuzatiladi, ya'ni ularda quyidagi holatlar buziladi:

1) faoliyat hissi — faol mavjudlik holatida o'zini anglash;

- 2) shaxsiy birligini anglash;
- 3) shaxsiy identikligini anglash;
- 4) o'zining «men»ini o'zga «men»idan afzalligini anglash.

Boshqa tadqiqotlarda bir qancha psixik fenomenlar bloklarida buzilishlar kuzaladi. Kult nazorati ostida bo'lgan insonning psixik fenomenlarining quyidagi uning xulq-atvorini anomaliya va deviatsiya tomonga o'zgartiradigan bloklari:

1. Ong va o'zini o'zi anglashdagi o'zgarishlar bloki (o'zini o'zi anglash va shaxs identikligining buzilishi)

2. Jarohatdan keyingi stress kasalliklari doirasida affektiv fenomenlari kasalliklari bloki (psixopatologik emotsional holatlar (kechinmalar): depressiya, panik hujumlar, yopishqoq xotiralar, tushlar va h.k.).

3. Harakat-iroda sohasi inversiyasi bloki (irodaviy faollikning susayishi (apatiya), o'z faoliyatini nazorat qilish qobiliyatining susayishi, tabiiylikni yo'qotish).

4. Patologik tobelik bloki (diniy guruhga nibatan psixologik tobelikning shakllanishi, qaror qabul qilish avtonomlik va mas'uliyatli bo'lish qobiliyatini yo'qotish).

5. Shaxsning regressiv bloki (psixik infantilizmning rivojlanishi bilan kechadigan intellektual, kognitiv, emotsional, axloqiy taraqqiyotning to'xtashi).

6. Perseptiv fenomenlar bloki (illuziyalar, gallutsinatsiyalar, tana sxemasining buzilishi, vaqt idroki).

7. Fikriy anomaliyalar bloki (affektiv logikadan foydalanish, tanqidiylikning yo'qolishi, alahlashga moyillik).

8. Kommunikativ deviatsiyalar bloki (tundlik, begonalarashuv, autizatsiya, ishonchli munosabatlarni o'rnatolmaslik, empatiklikni va ijtimoiy muomala ko'nikmalarini yo'qotish).

Diniy fanatning psixologik xususiyatlaridagi o'zgarishlarning motivlari turli xil bo'lishi mumkin:

1. Individ mustaqil holda hal qila olmaydigan psixologik muammolar. Odatda mazkur motiv psixopatologik simptomlar va sindromlarga, xarakter patologiyasiga yoki ichki shaxsiy nevroitik konfliktga asoslanadi. Uning fanatlar guruhiga kirishi ko'plab hayotiy muammolarni hal etish mas'uliyatidan qochishi bilan belgilanadi.

2. Bir xil, quvonch va emotsional reaksiya chaqirmaydigan reallikdan qochish. Bunda kumir, g'oya, ritual, qandaydir sirga yoki ijtimoiy guruhga aloqadorlik, yangi kechinmalarga moyillik kuzatiladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi hissiyotga bog'liq. Bu yerda hissiyotning roli ikki turli – ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Diniy fanatlik holatida salbiy hissiy ta'sir ostida bo'ladi. Hissiyot fanatda g'oyaga yoki liderga nisbatan o'ta kuchli muhabbat ko'rinishida bo'ladi. Bu muhabbat uning ko'zlarini ko'r qilib qo'yadi. Natijada fanat o'zga g'oyalarga diqqatini qaratmay qo'yadi.

#### **4. Fanatlikning oldini olishning psixologik (to'g'ri tarbiya va asosli bilim) asoslari haqida**

Diniy fanatizm quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

– dindorda ruhiy qoniqish va “kafolatlangan najot” hissinu uyg'otadi, vijdonini tinchlantiradi, ongini toraytiradi;

– dindor e'tiqodini toraytiradi, o'z yaqinlaridan ham g'oyasini ustun qo'yadi, g'oya uchun jonini fido qilish ko'mkmasini shakllantiradi;

– zulm, jazolash bilan qo'rqitish, majburlash va quvg'in qilish yordamida inson erkinligiga rahna soladi;

– diniy urushlar ochish evaziga madaniyatlarni va o'zga kishilar hayotini yo'qqa chiqaradi;

normal dindorlarda yoki e'tiqodi zaiflarda dinga nisbatan antipatiya chaqiradi, ularni ateizmga moyil qiladi, ularning dinga nisbatan hafsalasini pir qiladi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Diniy tarbiyaning psixologik vazifalari:

a) yoshlarda diniy dunyoqarashni shakllantirish;

b) yoshlarga niyat va amal birligini anglatish;

v) diniy qadriyatlar bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi aloqani yoshlarning ongiga singdirish;

g) diniy va umuminsoniy axloqiy me'yorlar yoshlar muomalasiga singdirish;

Diniy tarbiyaning psixologik xususiyatlari:

– diniy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi uyg'otish;

– yoshlarning ongida diniylik va dunyoviylik muvozanatni yuzaga keltirish;

– yoshlarda diniy bag'rikenglik tuyg'usini qaror toptirish;

– davlatimizning dinga ijobiy munosabatini yoshlar ongiga singdirish;

– yoshlarni destruktiv g'oyalar bilan tanishtirish.

Shunday qilib, fanatlikning oldini olishning psixologik asoslari haqida gapirganimizda shuni ta'kidlash kerakki, to'g'ri diniy tarbiya va ma'rifatli ilm fanatizmning ildizini quritadigan muhim omillardan hisoblanadi.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy fanatizm din psixologiyasida qay darajada o'rganilgan?

2. Fanatni yuzaga keltiruvchi psixofiziologik omillarga ta'rif bering.

3. Shaxs diqqatining dominantlik xususiyati fanatizmدا qanday aks etadi?

4. Diqqat patopsixologiyada qay jihatdan o'rganiladi?

5. Fanatlik holati nima va uning qanday qilib oldini olish mumkin?

## XX BOB. DINIY POKLANISH (KATARSIS)NING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MOHIYATI

### Reja:

1. Diniy katarsis tushunchasi.
2. Aristotel asarlarida katarsis tushunchasining ishlatilishi.
3. Jamoaviy ibodatlar va katarsis.
4. Meditatsiya va e'tiqod. Diniy amallar, udumlar va katarsis.

**Tayanch tushunchalar:** *katarsis, diniy katarsis, Aristotel, jamoaviy ibodatlar, e'tiqod, diniy amallar, udumlar.*

### 1. Diniy katarsis tushunchasi

Katarsis (katarzis) — kuchli emotsional kechinma bo'lib, hayotdagi real voqealar tomonidan chaqirilmasdan, balki ularning ramziy aksi, masalan, san'at asarlari yordamida chaqiriladi. Umuman aytganda, ma'lum kechinmalar va voqealarni boshidan kechirish natijasida paydo bo'ladigan ichki poklanish ham katarsis deb ataladi.

Katarsis — emotsiyalarning ozodlikka chiqishi, san'at asarlarini idrok etishda paydo bo'lgan kechinmalar natijasida ichki nizolarning yechimi va axloqiy yuksalish.

Quyida biz diniy poklanish va amal birligining ijtimoiy-psixologik jihatlari qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Din psixologiyasiga oid tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, diniy amallar va ibodatlar bilan dindor kishilarda qalb poklanishi sodir bo'ladi, ya'ni qalbga taskin berish jarayoni amalga oshiriladi.

Jahon psixologiyasi uzoq yillardan beri diniy amallarni bajaruvchi shaxslarning ijtimoiy-psixologik tipologiyasini tuzishga harakat qilib kelinmoqda. Ayniqsa, bu masala bilan G.Ollport yetarli darajada shug'ullangan. U diniy amallarni bajaruvchi insonlarni ikkita asosiy tipga bo'ladi.

G.Ollport birinchi tip vakillari sifatida din faqat insonlarni hayotiy maqsadlarga yetishishini ta'minlovchi bir yo'l sifatida e'tirof etib, bunday insonlar dinga nisbatan tashqi tomondan yondashadigan insonlar, deb ta'kidlaydi. Ular turli xil diniy tadbirlar va yig'ilishlarda ishtirok etadilar, jamiyat tomonidan qabul qilingan yashash shakliga o'zining munosabatini ifoda etadilar. Aynan bu tipdagi insonlarda din qadriyat hisoblanadi. Din salbiy, negativ hodisalarga qarshi turish vositasi sifatida, ya'ni ichki konfort vositasi sifatida ko'zga tashlanadi. G.Ollport bu tipdagi insonlarni ekstrensiv, ya'ni "tashqi" tip deb ataydi.

Ikkinchi tipdagi insonlar dinni mustaqil va asosiy qadriyat sifatida tasavvur qiladilar. Ular o'zlarining turli ijtimoiy doiradagi faoliyatlarini diniy amallar bilan motivlashtiradi va bog'laydilar. Nodiniy ehtiyojlari va qiziqishlarini ular ikkinchi darajaga qo'yadilar va o'zlarining xulq-atvori va xatti-harakatlarini diniy normalar, qarashlarga bo'ysundiradilar. Bunday tipdagi insonlarni G. Ollport intrensiv, ya'ni "ichki" tip deb ataydi.

Insonda diniy amallar va e'tiqodning psixologik shakllanishi bosqichlari bo'yicha J.Flovler kiritgan taklif diqqatga sazovordir.

1 – bosqich: intuitiv – proyektiv, 3 – 7 yoshlarga to'g'ri keladi; e'tiqod imitatsiya, idrok va fantaziya ko'rinishlarida bo'ladi.

2 – bosqich: mifik va to'g'ridan-to'g'ri, 7 – 12 yoshlarga to'g'ri keladi; xarakter xususiyatlarida har bir voqea-hodisani to'g'ridan-to'g'ri idrok qilish, fikriy cheklanganlik, oilaviy mojarolar bilan bog'liq reaksiyalar qo'zg'atish mumkin.

3 – bosqich: sintetik – konvensional, o'smirlik davriga to'g'ri keladi; tashqi avtoritetlardan g'oyaviy tizimlar o'zlashtiriladi.

4 – bosqich: individual – refleksiv: inson o'zi mustaqillikka qadam qo'ygan davriga to'g'ri keladi; bu davrda demifiologizatsiya kuzatiladi. E'tiqodini mustaqil shakllantirishga harakat qilinadi.

5 – bosqich: paradoksal-konsolidatsiyalashgan, o'rta yoshlarga to'g'ri keladi; ratsional ong shakli namoyo+n bo'ladi, ya'ni shaxsiy uyining doimiy egasi.

6 – bosqich: universiallashtirish, bu davrga kelib inson o'z qadriyatlari doirasida yashashni boshlaydi. Diniy amallar tizimi bo'yicha hayotni davom ettiradi.

Katarsisning estetik va diniy katarsis deb atalgan turlari mavjud. Hissiy-emotsional kechinmalar jarayonidagi katarsisning vujudga kelish qonuniyatlari, ma'lum darajada diniy katarsisga ham xos bo'ladi. Agar estetik katarsis mazmunida hissiy kechinmalarning mohiyati mazmuni yotsa, diniy kechinmalar esa diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'ladi.

Diniy kechinmalarning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchi bosqichda – hissiy kechinmalarga nisbatan diqqat-e'tibor, qiziqish ortib boradi. Ayniqsa, bu – e'tiqodli dindorlarda kuchliroq seziladi.

Ikkinchi bosqichda – ibodat qiluvchilar bevosita Allohga murojaat qilib, gunohlarini kechirishni, mag'firat qilishni so'raydilar. Tavba-tazarru qiladilar. Mag'firat qilishni iltijo qiladilar.

Uchinchi bosqich yakuniy bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati, ibodat tinch, osoyishta, ijobiy hissiyotlarni namoyon etish bilan yakunlanadi. Ibodatdan keyin, ruhiy-ma'naviy poklanib, o'zini erkin va yengil his qiladi.

## 2. Aristotel asarlarida katarsis tushunchasining ishlatilishi

Katarsis qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, poklanish degan ma'noni anglatadi. Ilk ilgari surilgan ma'nolari quyidagicha: antik taragediyani ko'rgan tamoshabinda oxiri o'lim bilan tugaydigan bosh qahramonning taqdirini o'zida his qilgan alohida kechinmasi natijasida paydo bo'lgan emotsional yengillashish, ichki tozalanish holati.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel insonning ichki olamining "tuzilmasi" to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi va bunda u san'at yordamida unga ta'sir qilish, o'zgartirish, yangilash mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Bu ta'limot *mimesis* degan nom oldi. *Mimesis* ta'limotining markazida katarsis nazariyasi turadi.

Aristotel emotsional reaksiyaning alohida turi – kechinmani tahlil qiladi. Bu kechinma tamoshabinda yoki tinglovchida san'at asarlarining idroki jarayonida chaqiriladi. Olimning ta'kidlashicha, har qanday asar ham katarsis holatini chaqirmaydi. Insoniy xarakterlar va ehtiroslar olamini aks ettiradigan, o'zining haqiqati va

go'zalligi bilan yuraklarni junbushga keltiradigan asarlargina bu ishning uddasidan chiqishi mumkin.

Uning nazariyasiga muvofiq, musiqa va san'at asarlarining boshqa turlari bilan muloqotdan keyin inson poklanadi, og'riqli kechinmalardan ozod bo'ladi. Bu holat axloqiy mezonlarning yangilanishiga, xususiylikdan umumiylikka ko'tarilishiga olib keladi.

Hamdardlik va kechinmalar yordamida poklanish jarayoni katartik yengillashish deb ataladi. Bu jarayon odatda ehtirosli emotsiyalar, ko'z yoshlar, affekt holatlari bilan birgalikda kechadi. Shundan so'ng inson tinchlanadi, ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi, kayfiyat ko'tariladi.

Katarsisning emotsional, estetik va etik jabhalari mavjud.

Katarsisning emotsional tomoni san'at asari qahramoni bilan darddosh bo'lishi natijasida qo'lga kiritiladigan emotsional jihatdan shokka tushish, affektiv holat sifatida talqin etiladi.

Katarsisning estetik tomoni – bu murakkab tuzilmalarda garmoniya, tartib, go'zallik tuyg'usining paydo bo'lishidir.

Katarsisning etik jihati insonparvar, ijobiy hissiyotlar va kechinmalarni chaqiradi.

Aristotel katarsis so'zini asosan san'atning musiqa janriga mo'ljallab ishlatgan bo'lsa, keyinchalik bu so'z san'atning barcha turlariga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi.

### **3. Jamoaviy ibodatlar va katarsis**

Aristotel san'at asarlarining idrok ikki xil bo'lishligini ta'kidlagan. San'at asari yakka holda idrok etilishi mumkin yoki guruhii holda ham idrok etilishi mumkin. Bu idrok jarayonlaridagi psixologik holatlar har xil bo'ladi. Guruhii idrokda aksariyat holatlarda katarsis ko'proq kuzatiladi. Chunki yoningizdagi sherigingizdagi holat "yuqimli" bo'ladi va u ta'sirliroq bo'ladi.

Ibodatda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Yakka holda qilinadigan ibodatda ko'proq xushu va huzu bilan namoz o'qishingiz mumkin, biroq jamoaviy ibodatlarda yoningizdagi sheriklaringizning ruhiy holati bevosita sizga ham ta'sir etadi va katarsis, ya'ni tuhiy poklanish ko'proq kuzatiladi. Jamoaviy ibodatlarda yoningizdagi sherigingizning holati beixtiyor sizga ham



o'tadi va natijada katartik forig'lanish deb atalgan psixologik holat ko'proq his qilinadi.

#### **4. Meditatsiya va e'tiqod. Diniy amallar, udumlar va katarsis**

Meditatsiya – psixik faoliyat bo'lib, unda inson atrof-muhit bilan aloqaning yo'qolishi ko'rinishida kechadigan alohida holatga chuqur kirib ketadi. Meditatsiyaning har qanday tizimida so'zsiz ma'lum komponentlar ishtirok etadi: konsentratsiya, ichki jamlanish va ong holatining o'zgarishi.

Meditatsiya – botinga jadal kirib boradigan fikrlash, predmetga, g'oyaga aql bilan singish va h.k. Bu holat ma'lum obyektga e'tiborni jamlash va diqqatni chetga tortadigan barcha tashqi (tovush, yorug'lik) va ichki (jismoniy, emotsional va boshqa zo'riqish) omillarni yo'qotish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Meditatsiya – madaniy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda turli shakllar ko'rinishini oladigan psixik mashg'ulot usuli.

Meditatsiyaning tarixi dinlarning tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Ibtidoiy davrlarda meditatsiya xudolarni yodlash uchun qo'llaniladigan, ritmik holda takrorlanib turadigan qo'shiq aytish va ma'lum jummalarni takrorlash ko'rinishida mavjud edi. Ba'zi olimlarning taxminiga ko'ra, meditatsiyaning ko'plab metodlarida asosiy element diqqatni jamlash qobiliyati hisoblanadi va u insoniyatning biologik evolutsiyasining so'nggi bosqichlaridagi taraqqiyotiga yordam bergan. Hind Vedalarida meditatsiya haqidagi ilk ma'lumotlar mavjud. Keyinchalik (taxminan milodgacha bo'lgan davrning VI asridan to V asrigacha) meditatsiyaning shakllari Xitoyda daosizm ta'limotida va Hindistonda buddizmda yaratilgan. G'arbda milodgacha bo'lgan davrning 20-yillarida Filon Aleksandriyskiy diqqat va uning konsentratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan "ruhoni mashqlar"ning shakli to'g'risida yozgan edi. Uchinchi yuz yillikka kelib Plotin tomonidan meditatsiya texnikasi ishlab chiqildi.

Eramizgacha bo'lgan davrning birinchi asridagi yozma manbalarda hind budparastlari meditatsiyani ozodlik yo'lidagi qo'yilgan qadam sifatida talqin etishadi. Bu vaqtga kelib buddizm Xitoyga ham tarqaladi va milodgacha bo'lgan davrning yuzinchi yillarida Sutra Vimalakirti meditatsiya mashqlarini dzen nomi bilan

dinga kiritadi. Buyuk Ipak yo'li yordamida bu mashqlar boshqa sharq mamlakatlariga ham tarqaladi. 653 yilda Yaponiyada birinchi meditatsiya o'tkaziladigan zal tashkil etilgan.

Shunday qilib, meditatsiyaning usullariga quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Meditatsiya usullari haqidagi ma'lumotlar, asosan, Hindiston va Xitoyda saqlanib qolgan. Meditatsiyaning sharqona tipi (Hindistonda barcha ko'rinishdagi yogalar, Xitoydagi daosizm) individual ongning shaxssizlikka, ummonmonand mutlaqqa diniy-ilohiy singib ketishni o'zida mujassamlashtiradi. Buni quyidagi obrazli vaziyatlar bilan ifodalash mumkin: sham alangasi atrofida aylanayotgan va o'zini olovga urib qurbon qilayotgan parvona yoki dengiz suvida erib ketayotgan tuzdan yasalgan qo'g'irchoqlar. Meditatsiyaning yana bir diniy-ilohiy yo'nalishi xristianlik bo'lib, unda meditatsiya ikki shaxsning qo'shilishi (insoniy va ilohiy) sifatida talqin qilinadi.

Meditatsion texnikalar masalasida quyidagi fikrlarni o'rtaga tashlaymiz. Fanda quyidagi meditatsion texnikalar zikr etiladi:

a) bo'shlik ustida meditatsiya qilish— diqqatni fikrjamay qo'yishlikka jamlash;

b) kundalini meditatsiya – yotgan holda chakralarda diqqatni jamlash;

d) trataka – qorong'u xonada sham alangasiga diqqatni jamlash;

e) anapanasati – nafasga nisbatan diqqatni jamlash bilan kechadigan buddizmdagi an'anaviy meditatsiya;

f) SaxadjMarg – yurakning urishiga diqqatni jamlash.

Tasavvuf ta'limotida insonning komil inson darajasiga yetishigacha bo'lgan amallar mukammal ishlab chiqilgan. Bu amallardan biri tasavvufda muroqaba deb ataladi.

Muroqaba to'g'risida Hazrat Bahouddin Naqshband shunday yozgan edi: "Muroqaba "nisyonu ru'yatil maxluqi bi davomin nazari ilal xoliqi" ("Yaratuvchiga doimiy nazar qilish bilan odamlarni unutish") dir. Yoki aytamiz "davomun nazari ilal-xoliqi bi-nisyonu ru'yatil-maxluqi" ("Odamlarni ko'rishni unutish bilan Yaratuvchiga doimiy nazar qilish"), ya'ni bu yo'lda yuruvchi doimo Tangri jamoliga nozir (nazar qiluvchi) bo'lishi kerak. Unutish, yo'qlik va fano raqamini barcha maxluqotlarning peshonasiga chekishi lozim.

Muroqabaning davomiyligi nodir holdir. Biz buning hosilini top-ganmizki, bu nafsga qarshilikdir”.

Hozirgi zamon hind Islom olimi va faylasufi Mir Validdin shunday deb yozadi: “Endi Allohning botinda va zohirda mavjudligi-ni doimiy anglash uchun inson shunday bir mukammal nazarni o’zida takomillashtirishi lozimki, bu nazarni “Muroqabai nazar” deb atashadi. Nazarning bu turi ikki xil bosqichga ega”. Bularning bi-rinchisi, fenomenal narsalarni anglash, bunga “muroqabai xalq” deyiladi. Ikkinchisi, ilohiylikni o’ylash bo’lib, bunga “muroqabai Haq” deyiladi.

Muroqaba va meditatsiyadan farqi masalasi din psixologiya-sida alohida e’tiborda turadi. Islom dinida tasavvuf ahli tomonidan bu masala atroflicha o’rganib chiqilgan. Islomda tasavvuf ahli meditatsiyani «muroqaba» degan ibora bilan almashtirishadi. Bu ma’lum ma’noda, ya’ni lug’aviy ma’nodagina to’g’ridir. Sharq olimlari nuqtayi nazaridan meditatsiya tasavvufiy ma’nodagi muroqabadan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi. Mazmun jihatdan farqi shundaki, muroqabada banda bilan uning Yaratuvchisi o’rtasida munosabat vositasiz (turli-tuman sanamlar va butlar ko’rinishida) yoki vositachilarsiz (turli shaxslar, masalan, xristianlikdagi Iso (alayhissalom) dek to’g’ridan-to’g’ri amalga oshadi. Shakl jihatdan esa farq shundaki, muroqabaning shartlari, amalga oshirish odoblari, holatlari, harakatlari va undan ko’zlangan foydalar G’arb ta’limotida va tasavvufda turlichadir.

Muroqaba ikki yo’nalishda amalga oshiriladi: Allohdan yaratilgan olamga qarab va yaratilgan olamdan Allohga qarab.

Allohdan yaratilgan olamga qarab yo’nalgan muroqaba:

A. Butun borliqqa nisbatan ilohiy muroqaba. Substansiyalar olami hodisalar tomonidan qo’llab-quvvatlanganicha yashaydi. Sub-stansiyaning mavjudligini ta’minlab turuvchi hodisa yo’qolgach, bu substansiyaning o’zi ham yo’qoladi. Ertami-kechmi har qanday hod-isa o’z mavjudligini tugatar ekan, Alloh doimiy holda yer va osmon substansiyalarini kuzatib turadi. Shunday qilib, birorta hodisaning yo’qolishi uning o’rniga mazkur substansiyaning mavjud bo’lib qol-ishi uchun shunga o’xshash yoki uning aksi bo’lgan substansiyani dunyoga keltiradi. Aynan shunda Allohning yaratilgan olamga nis-batan muroqabasi mujassamlashadi. Bu haqda Shayx Ro’zbehon

shunday degan edi: “Muroqaba – Yaratuvchining o‘zi yaratgan olamning Arshi a’losidan tortib, to har bir mayda-chuydasigacha xabardorligidir”.

B. Din tomonidan ma’qullangan ishlarga undovchi ilohiy muroqaba. Bu – Allohga sodiq bo‘lgan zotlarga nisbatan ilohiy muroqabadir. Bunday kishilar shariat qonun-qoidalariga amal qiladilar: ma’qullanganini qiladilar, taqiqlanganidan yuz o‘giradilar.

V. Tanlanganlarga nisbatan ilohiy muroqaba. Bunda Alloh e’tiborini o‘z do‘stlari hisoblangan tanlangan zotlarga qaratadi. Tanlangan zotlarga nisbatan muroqaba faqatgina Allohning o‘zigagina ayon. Uning do‘stlari bunday muroqabadan farog‘at va osoyishtalik topadilar.

Yaratilgan olamdan Allohga qarab yo‘nalgan muroqaba:

A. Shariat muroqabasi. Bu muroqabada inson tomonidan Allohning har daqiqada uni kuzatayotganligini anglash yotadi. Shuning uchun inson doimo ehtiyot bo‘lib yurmog‘i darkor. Chunki u har soniya Allohning nazaridadir.

Abu Homid G‘azzoliy o‘zining “Kimyoi saodat” asarida shunday yozadi: “Fikrlar muroqabasida Allohdan keladigan fikrlarni ushlab qolish va o‘z “Men”ingdan keladiganlaridan esa uzoqlashish kerak. Faoliyat muroqabasida esa o‘z xatti-harakatlarini kuzatish zarur bo‘ladi: xoh u savob ish bo‘lsin, xoh u gunoh ish bo‘lsin. Savob ishni amalga oshirayotganda sadoqat va qalbning ishorati bilan harakat qilmoq lozim bo‘ladi. Gunoh ishlarni qilayotganda esa ulardan uzoqlashish maqsadida o‘zida uyat hissini tuyushi kerak. Savob va gunohga aloqador bo‘lmagan ishlarda mehribon bo‘lmoq va Ilohiy ne‘matlarning Yetkazuvchisini ko‘ra bilmoq joiz bo‘ladi. Chunki U har doim sen bilandir”.

Xoja Abdulloh Ansoriy shariat muroqabasini «xizmat qilish» muroqabasi deb ataydi. Uning fikricha, bu muroqaba uchta elementdan tarkib topadi: a) ilohiy buyruqlarga bo‘ysunish; b) muqaddas yozuvlarni va urf-odatlarini bilish; v) o‘z xudbinligini anglash.

B. E’tiqod muroqabasi. Bu muroqaba Allohga bo‘ysunish muroqabasidir. Uni o‘zida sinaganlar tashqi olamda ham, o‘z «Men»i olamida ham faqat Uning ishtirokini his etadi. U har qanday ishning boshida Allohni ko‘radi.

Bir kuni bir odam Ibn Muborakdan maslahat so‘ragan edi, u “Allohdan kut”, deb javob berdi. Shunda haligi odam bu maslahatning ma‘nosini tushuntirib berishni so‘radi. Ibn Muborak javob berdi: “Sen har doim Allohni ko‘rganingdagidek holatda bo‘lgin”.

Xoja Abdulloh Ansoriy muroqabani bu turini «vaqt muroqabasi» deb ataydi va unga yetishish uchta unsur yordamida bo‘ladi deydi: a) barcha istaklarning yo‘qolishi; b) barcha fikrlardan tozalanish; v) saxovatli bo‘lish.

V. Ilohiy muroqaba. Bu muroqaba Alloh tomonidan tanlangan alohida zotlarga nasib etadi. Bunday kishilar botinida ham, zohirida ham, yolg‘izlikda ham, odamlar orasida ham faqat Allohni ko‘radi.

Xoja Abdulloh Ansoriy muroqabani bu turini “sirlar muroqabasi” deb ataydi va unga yetishish uchta unsur yordamida bo‘ladi, deydi: a) o‘zlikni unutish; b) o‘zlikdan voz kechish; v) Allohga yaqinlik bilan to‘yinish. Bu muroqaba “siddiqlar muroqabasi” deb ataladi. Bu holatda qalb faqat Allohga bog‘langan bo‘ladi va Undan boshqasini sezmaydi. Ba‘zida ular shu darajada bog‘lanadilarki, hatto atrofidagilarning borligini sezmaydilar ham.

Abdulloh ibn Zayddan bir kuni dunyoga emas, Allohga haqiqiy bog‘langan odamni bilasizmi, deb so‘raganlarida, u o‘sha paytda kelib qolgan Ibod G‘ulomdan: “Sen yo‘lda birortani ko‘rdingmi?” deb so‘raydi. Shunda u: “Hech narsani ko‘rmadim”, deb javob beradi. Ibn Zayd uning odamlar bilan to‘la bozor orqali kelayotganligini aytadi.

### **Takrorlash va muhokama uchun savollar:**

1. Diniy katarsis tushunchasiga tavsif bering.
2. Aristotel katarsisga qanday ta‘rif bergan?
3. Jamoaviy ibodatlarning katarsis bilan qanday aloqasi bor?
4. Meditatsiyaning e‘tiqodga ta‘siri qay darajada bo‘ladi?
5. Diniy amallar, udumlarning katarsis bilan qanday aloqasi bor?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ш.М.Мирзиёев Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти. 2017

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т.: “Ma'naviyat”, 2008 - 176 b.

3. Abduraxmonov F., Abduraxmonova Z.E. Din psixologiyasi. - Т., 2011.

4. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. (Tahrir hay'ati: A. Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li) – Т.: “Yozuvchi”, 1993. – 208-b.

5. Аверин В. А. Психология личности: Учебное пособие, 2-е издание. – СПб.: Изд – во Михайлова В. А. , 2001. - 191 с.

6. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева.- 5-е изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2003 – 364 с.

7. Аронсон Э. Психологические законы поведения человека в обществе.- СПб: Прайм-Эвзнак, 2008

8. Большой толковый психологический словарь. Артур Ребер. Том 2: П-Я.- М.: Вехе-Аст, 2003 – С.523.

9. Бромлей Ю.В. Этнос и этнография. – М.: Наука, 1973.

10. Васильев Л.С. История религии востока. – М.: 2000. - С.64.

11. Вундт В. Проблемы психологии народов. - СПб. , 2007 . - 542 с.

12. Вилкоккс Л. Суфизм и психология. – М. -СПб.: “Диля”, 2005. – С. 254.

13. Галустова О.В. Этнопсихология: Конспект лекций. - М.: Приор- Издат, 2005. - 160 с.
14. Геродот. История в девяти книгах. - Л., 2009. - 376 с.
15. Гумилев Н.Л. Этносфера: история людей и история природы. - М. 1993. - 216 с.
16. Гусева Е. С. Трансактный подход к описанию религиозной личности // Изв. Самар. науч. центра РАН. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки. 2015. Т. 17, № 1–4. С. 882–885.
17. Доценко Е. Л. Манипуляция: психологическое определение понятие. // Психол. Журн. 1993. Т. 14. №4, С. 132-138.
18. Дружилов С.А. Психология профессионализма. — Харьков: Гуманитарный Центр, 2011. С. 34. - 296 с.
19. Ильин И. А. Аксиомы религиозного опыта. М., 1993.
20. Karimova V.M. Etnopsixologia. T.2012.
21. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T., 2012 – 196 b.
22. Коралёв С.И. Вопросы психологии. 2006. № 2. С.9 -16.
23. Кон И.С. Ребенок и общество. - М. , 2000. - 452 с.
24. Кон И.С. К вопросу национального характера // В книге “История и психология” – М., 1980. –130 с.
29. Крысько В. Г. Этническая психология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2002. -320с.
30. Кураев Г. А., Пожарскава Е. Н. Этническая психология: Курс лекций: Учебное пособие. Ростов-на-Дону: «ТСБВР», 2000. - 233с.
33. Лебедева Н.М. Введение в этническую и кросс-культурную психологию. М.: 1998.
25. Маматов М.М. “Этнопсихология” Т., 2006.

26. Мир Валиддин. Коранический суфизм / Пер. с англ. – СПб.: Издательство “ДИЛЯ”, 2004. – С. 254.

27. Мацумото, Д. Человек, культура, психология. Удивительные загадки, исследования и открытия. / Дэвид Мацумото. – СПб.: Прайм -ЕВРОЗНАК, 2008. - 668 с.

28. Мещеряков Б., Зинченко В. Большой психологический словарь. / Сост. И общ. Ред. Б. Мещеряков, В. Зинченко. — Прайм-ЭВРОЗНАК, 2004. — 672 с.

29. Петровский А. В. Личность. Деятельность. Коллектив. - М.: Политиздат. 1982. — 255 с.

30. Платонов Ю.П., Почебут Л.Г. Этническая социальная психология. - С.Пб., 2001 - 412 с.

31. Поршнев Б.Ф. Противопоставление как компонент этнического самосознания. - М., 2001. - 274 с.

32. Психологические аспекты буддизма. – Новосибирск, Издательство “Наука”, Сибирское отделение, 1986. – 158 с.

33. Психологическая энциклопедия / под ред. Р. Корсини, А. Ауербаза; науч. ред. пер на рус. яз. А. А. Алексеева, - 2 – е изд. – М.: Питер, 2003. -1096 с.

34. Религиоведение: Учебное пособие и учебный словарь. / Под ред. Проф. И. Н. Яблоков. – М.: Гардарики, 1998.

35. Романин А.Н. Практическая психология философии и религии: учебное пособие, /А.Н.Романин. – М.: КНОРУС, 2006. - 344 с.

30. Rumi'y Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2003. – 199 b.

31. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. // В кн. «Хрестоматия по психологии». - М., 1977 – С. 49

32. Сафранов А. Г. Психология религии. – М.: «Ника - Центр», 2002, 224с.



33. Сафронов А. Г. Медитативные практики в ėре // Ёга: физиология, психосоматика, биоэнергетика / А. Г. Сафронов. — 3-е изд. — Харьков: Ритм Плюс, 2016. — С. 41.

32. Суходольский Г. В. Основы психологической теории деятельности. — 2-е изд. — М.: Изд-во ЛКИ, 2008. — 168 с.

33. Sog'inov N.A., Shoumarov G'.B. O'zbek oilalarida ajralish va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. /O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni.- T.: 1993.- 31s

34. Sog'inov N., Usmonov E.Sh. Yosh o'zbek oilalarida yuzaga keladigan er-xotin nizolarining etnik xususiyatlari / O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari.- Respublika ilmiy-amaliy anjum. ma'ruz. qisqacha bayoni.-T., 1993.- 49-51b.

35. Стефаненко Т. Этнопсихология. — Москва: Акад. проект, 1999 — С. 237

36. Стефаненко Т.Г., Шлягина Е.И., Ениколопов С.Н. Методы этнопсихологического исследования.- М.: издательств МГУ. 1993

37. Стефаненко Т.Г. «Методы исследования этнических стереотипов» М., 2007

38. Трунов Д. Г. Родители, дети и религиозные организации. // Журн. Практ. Психолога. 1996. №4. С. 60 –65.

39. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. — T.: "Istiqlol", 1999. 132-b.

39. Философские вопросы буддизма. Новосибирск, 1984/ С. 88.

40. Фрейджер Р., Фейдимен Д. Большая книга психологии. Теории, упражнения, эксперименты / Роберт Фрейджер, Джеймс Фейдимен/ Пер. с англ. — СПб.: Прайм-ЭВРОЗНАК, 2008. — 704 с.

41. Шмелев А. Г. Психология личностных черт. — М. : 2002. — 176 с.

42. Шадриков В. Д. Введение в психологию: мотивация поведения. – М. : Логос, 2001. – 136 с.

43. Шоумаров Г.Б., Моршина Е.А. Влияние психологических особенностей узбекской семьи на воспитание молодёжи. Проблемы совершенствования нравственного воспитания студентов. Материалы конференции. - Сыктывкар, 1986. –С. 161-169.

43. Якимов В. Антропология разоблачает.// “Азия и Африка сегодня” – 1966 - № 4.

44. Якубов Ю.А. О рассогласованности ролевого поведения супругов как фактор дестабилизации брака // Тезисы докл. к 6-му Всесоюзному Съезду Общества психологов. - М., 1983.- С. 923-924

45. Ясин М. И. Внутренняя религиозная мотивация у вайшнавов 102 Научный отдел Изв. Саратов. ун-та. Нов. сер. Сер. Философия. Психология. Педагогика. 2017. Т. 17, вып. 1 С. 100–103. DOI: 10.18500/1819-7671-2017-17-1-100-103.

46. G‘azzoliy Abu Homid. Kimyoi saodat (Ruh haqiqati). – T.: “Adolat”, 2005. 217-b.

47. G‘oziyev E.G‘. O‘zbek xalqining etnopsixologiyasi va bolalar tarbiyasi. //O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. - Respublika ilmiy-amaliy anjumani, qisqa ma’ruzalar matni. - T., 1993. 8-9 b.

48. Электронная библиотека, <http://www.coob.ru>

49. Материалы по психологии, <http://www.psychology-online.net>

50. Психологическая библиотека «Самопознание и саморазвитие»: <http://psylib.kiev.ua/>

51. Allport G. W. The individual and his religion. N.Y., 1950.162 p.

52. Allport G. W. The Nature of Prejudice. Cambridge, 1959. 137r.

53. Martos T., Kezdy A., Horvath-Szabo K. Religious motivations for everyday goals: their religious context and potential consequences // Motivation and Emotion. 2011. Vol. 35. P. 75–88.

54. Thouless R. An Introduction to the Psychology of Religion, p. 90.

## GLOSSARIY

**Animizm** – ibtidoiy jamoa davrida hukm surgan va tabiiy obyektlarni "ruh" kuchiga ega deb e'tirof etadigan oqim.

**Anketa** – oldindan tayyorlangan savollar asosida javob olish uchun tayyorlangan varaqa.

**Autogen mashq** – o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

**Autsayder** – ijtimoiy psixologiya iborasi bo'lib, psixologik qovushuvchanlik munosabati bilan rad etilgan guruh a'zosi.

**Biografik metod** – kishini uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar orqali o'rganish usuli.

**Bilim** – insonning hayoti davomida o'zlashtiradigan ma'lumotlari va malakaviy tajribalaridir.

**Bilish faoliyati** – insoniyat tomonidan to'plangan ma'naviy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

**Bixeviorizm** – XX asr boshlarida AQSHda maydonga kelgan psixologiyaning mexanik yo'nalishi bo'lib, psixologiyani o'rganish predmeti qilib faqat odamning xulq-atvori olingan. Ular faqat odamning tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan xatti-harakatlari, xulq-atvorini o'rganish mumkin deb hisoblaydilar. Bunda ongning roli inkor qilinadi. Bu yo'nalishlarning asoschilari D.Uotson, E.Torndayk.

**Diffuz guruh** – birgalikdagi faoliyat mazmuni bilan belgilanmaydigan shaxslararo munosabatlarga kiruvchi guruh.

**Etnopsixologiya** – psixologiya fan sohalaridan biri bo'lib, odam psixikasining etnik xususiyatlarini, milliy xarakterni, milliy o'zligini anglash, etnik stereotip singari funksiyalarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi.

**Eksperiment** – psixologiyaning asosiy metodlaridan bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil psixik hodisalarni tajriba yordamida o'rganadi.

**Empatiya** – boshqa kishilarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

**Faollik** – tirik mavjudodlarning umumiy xususiyati bo‘lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Psixik faollik bu o‘zaro ta’sir etishda psixik obraz yarata olish qobiliyatining mavjudligi va shu asosda faollik ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi.

**Freydizm (Psixoanaliz)** – XX asrda maydonga kelgan psixologik yo‘nalish bo‘lib, inson xulqini asosiy harakatlantiruvchi omil ongsiz, instinktiv mayllardir deb hisoblab, ongning yetakchilik rolini kamsitadigan nazariya. Bu nazariyaning asoschisi avstriyalik psixiatr Freyd.

**Funksional psixologiya** – psixika va shaxsga ayrim psixik funksiyalarning yig‘indisidir, deb qarovchi psixologiya fanining yo‘nalishi.

**Funksional sistema** – hayotdagi neyrodinamik yangi tizim bo‘lib, yuksak psixik funksiyalarning va kishi qobiliyatining moddiy asosidan iborat (P.K.Anoxin tomonidan ishlab chiqilgan).

**Geshtalt psixologiya** – hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo‘lib, XX asrning 30-yillarida Germaniyada paydo bo‘lgan. Bular murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligi prinsipidan foydalanadilar ("Geshtaltlar"). Asoschilari: M.Vertxeymer, V.Kyoler, N. Koffka.

**Guruh** – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa. Guruhlar real va shartli bo‘lishi mumkin.

**Introspektiv metod** – kishining o‘z-o‘zini kuzatishiga asoslangan psixologiya metodidir.

**Introspektiv psixologiya** – introspeksiyaning tadqiqotning asosiy metodi deb hisoblovchi psixologik yo‘nalishlar majmuidir.

**Individ** – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

**Individuallik** – shaxsning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlariga egaligi.

**Ichki nutq** – nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan gapiriladigan alohida turi bo‘lib, grammatik tuzilishi va mazmuni atroflicha torligi bilan xarakterlanadi. Ichki nutq tafakkurning asosiy quolidir.

**Jamoa** – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

**Katarsis** – poklanish

**Konstantlik** – turg‘unlik

**Kichik guruh** – a‘zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxsiy munosabatlarda bo‘luvchi kishilar guruhi.

**Konformlik** – individning guruh fikrlariga tashqi tomondangina qo‘shilib, ichki tomondan uning ta‘siriga qo‘shilmay o‘z fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashibgina qolish.

**Korporatsiya** – faoliyat maqsadlari o‘z ichida saqlanib qolgan, "faqat o‘zi uchungina ishlaydigan" guruh.

**Komil inson** – haqidagi ta‘limot insonni har jihatdan insoniy, axloqiy, ilmiy, e‘tiqodiy va boshqa sohalarida eng yuksak kamolotga yetgan xislatlarini ko‘zda tutadi. Komillik – inson hayotda qilgan hamma ishlarining shu ruhiy e‘tiqod bilan sug‘orilishi, haqiqatga intilishi, yorug‘likka yaqinlashish sari hayotning va vijdonidagi dog‘lar, nuqsonlarning, gunohlarning ravshanroq ko‘ra bilish yo‘li.

**Kompetentlik** – shaxsning biror masalani yechishi yuzasidan tajribaning yetarliligi va huquqiy jihatdan asoslanishi, ya‘ni masalani hal qilishga haqqi borligini bildiradi. Buning uchun shaxs tegishli sohada maxsus bilim va malakalarga ega bo‘lishi kerak.

**Kuzatish** – psixologiya metodlaridan bo‘lib, kishining xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan turli hodisalarni hisobga olish va subyektiv psixik hodisalar to‘g‘risida fikr olishdan iborat.

**Laboratoriya eksperimenti** – psixologiya metodlaridan bo‘lib, tekshiruvchiga ta’sir etadigan barcha omillar qat’iy nazorat qilingan holda sun’iy sharoitda olib boriladi.

**Marosimlar** – o‘zida dunyoviy va diniy g‘oya, qarash va tasavvurlarni shakllantiradigan, ishtirokchilarida tegishli kechinmalar keltirib chiqaradigan, jamoa bo‘lib o‘tkaziladigan rasmiy xattixarakatlarga, amallarga aytiladi.

**Motiv** – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi istak, sabab.

**Mehnat** – odamning ma’lum maqsadga, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta ko‘rishga, moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyati.

**Ong** – odamlarning ijtimoiy-tarixiy faoliyati vositasida paydo bo‘lib, obyektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuksak shakli.

**Ongsizlik** – kishi ongiga borib yetmagan psixik jarayonlar majmui.

**Orientatsiya** – shaxsning ijtimoiy-siyosiy va jamiyatning axloq normalariga munosabati tizimi.

**Qiziqish** – shaxs harakatiga sabab bo‘ladigan ongli faoliyat yo‘nalishining shakli.

**Sekularizatsiya** – din ta’siridan xolis bo‘lish.

**Sistemali yondashish (psixologiyada)** – psixikani oddiy elementlar yig‘indisiga kiritib bo‘lmaydigan murakkab birlik deb qarashni talab etuvchi prinsip.

**Sotsiometriya** – J.Moreno tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, o‘zaro munosabatlar tuzilishi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

**Sun'iy aql** – bironta odam yoki bir guruh kishilar amalga oshira oladigan murakkab aqliy funksiyalarni bajaradigan sun'iy yaratilgan qurilma.

**Suhbat** – psixologiya metodlaridan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bilvosita ma'lumot olishdan iborat.

**Status** – shaxsning shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rni. Bunda shaxslararo munosabatlarda kishining guruhda tutgan o'rni uning huquqi, vazifalari va imtiyozli tomonlari bilan belgilab beriladi.

**Ustanovka** – kishining tevarak-atrofdagi odamlarga yoki obyektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorligining anglanmagan holati.

**Vyurtsburt maktabi** – XX asr boshlaridagi nemis psixologlari birlashmasi bo'lib (K.Byuler, O.Kyulpe va boshqalar), ular birinchi bo'lib maxsus eksperimental tadqiqotning predmeti qilib tafakkurni o'rgandilar.

**O'z-o'ziga baho berish** – shaxsning o'zini o'zi baholash jarayoni.

**O'z-o'zini nazorat qilish** – shaxsning o'z holatini tartibga solishi, uni boshqarib borishi.

**Shaxsiy munosabat** – psixologiya qoidalaridan bo'lib, odamga shaxs tariqasida, uning voqelikni aks ettiruvchi va barcha psixik hodisalarni belgilab beruvchi sistema ekanligini tushungan holda yaqindan yondashishi.



## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ETNOPSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI.....	5
II BOB. ETNOPSIXOLOGIYA FANINING SHAKLLANISH TARIXI.....	26
III BOB. ETNOPSIXOLOGIYA MUAMMOLARINI O'RGANISH BO'YICHA YAQIN XORIJ MAMLAKATLARIDA O'TKAZILGAN TADQIQOTLAR.....	38
IV BOB. ETNOS VA MILLAT TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	55
V BOB. ETNOS VA SHAXS.....	74
VI BOB. MILLIY XARAKTER VA ETNIK IDENTIKLIK..	91
VII BOB. MILLIY MENTALITET, ETNIK RAMZLAR VA MADANIYAT.....	110
VIII BOB. ETNIK STEREOTIPLAR VA ULARNING TURLARI.....	119
IX BOB. ETNIK O'ZARO MUNOSABATLARNING XUSUSIYATLARI.....	127
X BOB. ETNIK NIZOLAR VA ETNOSENTRIZM.....	148
XI BOB. DIN PSIXOLOGIYASINING PREDMETI VA METODLARI.....	157
XII BOB. DIN PSIXOLOGIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI.....	171
XIII BOB. DINDOR SHAXSIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR.....	185
XIV BOB. DINNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA MOHIYATI.....	198
XV BOB. INSONNING DINIY JAMOAGA QO'SHILISHI VA UNING PSIXOLOGIK TOMONLARI.....	209
XVI BOB. IYMON VA E'TIQODNING SHAKLLANISHI VA NAMOYON BO'LISHI.....	219
XVII BOB. DINIY E'TIQOD VA SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.....	229
XVIII BOB. IJTIMOY MUHIT, DINIY AN'ANALAR VA KOMIL INSONNING SHAKLLANISHI.....	239

XIX BOB. DINIY FANATIZM VA FANATLAR YUZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	246
XX BOB. DINIY POKLANISH (KATARSIS)NING IJTI- MOIY PSIXOLOGIK MOHIYATI.....	254
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	263
GLOSSARIY.....	269

## СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	3
I ГЛАВА. ПРЕДМЕТ НАУКИ ЭТНОПСИХОЛОГИИ.....	5
II ГЛАВА. ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ЭТНОПСИХОЛОГИИ.....	26
III ГЛАВА. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОВОДИМОЕ В БЛИЖНЕМ ЗАРУБЕЖЬЕ ПО ИЗУЧЕНИЮ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ.....	38
IV ГЛАВА. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ ЭТНОС И НАЦИЯ.....	55
V ГЛАВА. ЭТНОС И ЛИЧНОСТЬ.....	74
VI ГЛАВА. НАЦИОНАЛЬНЫЙ ХАРАКТЕР И ЭТНИЧЕСКОЕ ИДЕНТИЧНОСТЬ.....	91
VII ГЛАВА. НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ, ЭТНИЧЕСКИЕ СИМВОЛЫ И КУЛЬТУРА.....	110
VIII ГЛАВА. ЭТНИЧЕСКИЕ СТЕРЕОТИПЫ И ИХ ВИДЫ..	119
IX ГЛАВА. ОСОБЕННОСТИ ЭТНИЧЕСКИХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ.....	127
X ГЛАВА. ЭТНИЧЕСКИЕ КОНФЛИКТЫ И ЭТНОЦЕНТРИЗМ.....	148
XI ГЛАВА. ПРЕДМЕТ И МЕТОДЫ ПСИХОЛОГИИ РЕЛИГИИ.....	157
XII ГЛАВА. ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ПСИХОЛОГИИ РЕЛИГИИ.....	171
XIII ГЛАВА. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНОЙ ЛИЧНОСТИ.....	185
XIV ГЛАВА. СУЩНОСТЬ И РОЛЬ РЕЛИГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ.....	198
XV ГЛАВА. ВСТУПЛЕНИЕ ЛИЧНОСТИ В РЕЛИГИОЗНОЕ СООБЩЕСТВО И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ.....	209
XVI ГЛАВА. ФОРМИРОВАНИЕ И ПРОЯВЛЕНИЕ ВЕРЫ.....	219
XVII ГЛАВА. РЕЛИГИОЗНЫЕ УБЕЖДЕНИЯ И ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ.....	229

ХVIII ГЛАВА. СОЦИАЛЬНАЯ СРЕДА, РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ И ФОРМИРОВАНИЕ ЗРЕЛОЙ ЛИЧНОСТИ.....	239
ХІХ ГЛАВА. РЕЛИГИОЗНЫЙ ФАНАТИЗМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ФАНАТОВ.....	246
XX ГЛАВА. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РЕЛИГИОЗНОГО КАТАРСИСА.....	254
ЛИТЕРАТУРА.....	263
ГЛОССАРИЙ.....	269

## CONTENT

INTRODUCTION.....	3
CHAPTER I. THE SUBJECT OF THE SCIENCE OF ETHNOPSYCHOLOGY.....	5
CHAPTER II. HISTORY OF ETHNOPSYCHOLOGY DEVELOPMENT.....	26
CHAPTER III. RESEARCH CONDUCTED IN THE MIDDLE ABROAD ON THE STUDY OF ETHNOPSYCHOLOGICAL PROBLEMS.....	38
CHAPTER IV. COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF ETHNOS AND NATION.....	55
CHAPTER V. ETHNOS AND PERSONALITY.....	74
CHAPTER VI. NATIONAL CHARACTER AND ETHNIC IDENTITY.....	91
CHAPTER VII. NATIONAL MENTALITY, ETHNIC SYMBOLS AND CULTURE.....	110
CHAPTER VIII. ETHNIC STEREOTYPES AND THEIR TYPES.....	119
CHAPTER IX. FEATURES OF ETHNIC RELATIONSHIP	127
X CHAPTER. ETHNIC CONFLICTS AND ETHNOCENTRISM.....	148
XI CHAPTER. SUBJECT AND METHODS OF PSYCHOLOGY OF RELIGION.....	157
XII CHAPTER. BASIC CONCEPTS OF THE PSYCHOLOGY OF RELIGION.....	171
XIII CHAPTER. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF A RELIGIOUS PERSONALITY.....	185
XIV CHAPTER. ESSENCE AND ROLE OF RELIGION IN PERSONAL FORMATION.....	198
XV CHAPTER. PERSONAL ENTRY INTO A RELIGIOUS COMMUNITY AND ITS PSYCHOLOGICAL ASPECTS...	209
XVI CHAPTER. FORMATION AND EXPRESSION OF FAITH .....	219
XVII CHAPTER. RELIGIOUS BELIEFS AND INDIVIDUAL CHARACTERISTICS.....	229

XVIII CHAPTER. SOCIAL ENVIRONMENT, RELIGIOUS TRADITIONS AND FORMATION OF A MATURE PERSONALITY.....	239
XIX CHAPTER. RELIGIOUS FANATISM AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE APPEARANCE OF FANATES.....	246
XX CHAPTER. SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF RELIGIOUS CATARRIS.....	254
LITERATURE.....	263
GLOSSARY.....	269

**V.M. KARIMOVA, Z.T.NISHANOVA, X.M.ALIMOV**

## **ETNOPSIXOLOGIYA VA DIN PSIXOLOGIYASI**

**Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2020**

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**E-mail: [tipografiyaent@mail.ru](mailto:tipografiyaent@mail.ru) Tel: 71-247-38-03, 93-381-22-07.**

**Bosishga ruxsat etildi 29.12.2020.**

**Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . «Timez New Roman» garniturası.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog‘i 17,25. Nashriyot bosma tabog‘i 17,5.**

**Tiraji 50. Buyurtma № 63.**

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»**

**bosmaxonarida chop etildi.**

**Toshkent sh., Foziltepa ko‘chasi, 22 b uy.**

ISBN 978-9943-6822-2-1



9 789943 682221